2026
3-SON

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

www.saen.uz
https://t.me/saen_2024
saen_2024@mail.ru



"FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI"

xalqaro ilmiy-metodik jurnali

2026-yil, 3-son
Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Toshkent – 2026

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib:
Muqimov Alisher

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: https://t.me/saen_2024

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694

TAHRIR HAY'ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik

Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Shermatov F.T. Harbiy xizmatchilarning kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash……. 8
Fayziyeva M.X. Konstruktiv psixologik himoya mexanizmi shakllanishining tahlili…… 14
Djumayev M. Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich sinflarda o‘qitishni tashkil etishda milliy o‘quv dasturining ustivor vazifalari…… 21
Aminova D. Talabalarda aybdorlik hissini tahlil qilish xususiyatlari…… 31
Obloqulov J.J. Internet muhitida sotsializatsiyaning buzilishi va destruktiv xulq namoyon bo‘lishi…….. 36
Sharapova D.B. Raqamli jamiyatda oila instituti ijtimoiy-psixologik transformatsiyasining nazariy jihatlari…….. 44
Alimardanova R.N. Ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ona tarbiyasining farzandlar psixologik holatiga ta’siri……. 51
Norbosheva M.A. Maktabgacha yoshda bola shaxsi shakllanishi va ijtimoiylashuvida muloqot omilining ahamiyati……. 58
Jabborov I. Zamonaviy oilada er-xotin munosabatlarida mutanosiblikni ta’minlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari..... 66
Kamolova N.I. Kimyo ta’limida aksiomatik yondashuvning gnoseologik va metodologik asoslari…….. 72
Ashurov N.R. Texnologiya fani darslarida applikatsiya va mozaika bilan ishlash metodikasi……. 78
Nishonov A.O. Informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida..... 86
Umarova Y.B. Oilaviy munosabatlarda gender rollarining etnopsixologik xususiyatlari: qadriyat yo‘nalishlari va ijtimoiy-psixologik moslashuvga ta’siri……. 93
Rustamova L.I. Ta’lim motivatsiyasi va oilaviy qadriyatlar namoyon bo‘lishining gender differensiatsiyasi..... 101
Ишбобоева Г.Р. Психологические аспекты стабильности семьи в удовлетворенности браком…… 107
Kuchmurodova G.X Effective methods and techniques for developing sociolinguistic competence in the classroom……. 113
Yakubova N.R. Sportchilarda moddalar almashinuvi…….. 119
Мамадалиева М.М. Психологические факторы возникновения послеродовой депрессии у женщин с нормально протекающей беременностью и беременностью высокого риска..... 125
Abdulhakimova F.T. Boshlang‘ich sinflarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirishda integrativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari..... 133
Usmanov B.K. Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida sport seleksiyasi mezonlari va ularning samaradorligini baholash……... 140
Ixtiyorov Sh. Suitsidal xulq-atvorni psixologik jihatdan tadqiq etish masalalari……. 147
Choriyev S.B. Ilk o‘spirinlarda aniq fanlarni o‘rganish jarayonida xotiraning ahamiyati bo‘yicha dastlabki empirik tadqiqotlar tahlili..... 153
Косимова Ф. Методы адаптации методики ценностей Ш.Шварца…… 159
Shakarova N.Sh. Talabalarning oliy ta’lim muassasasiga moslashuvi va xavotirlanish darajalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik…….. 165
Yulchiboyeva N.I. Muvaffaqiyatli karyera qilishda motivatsiya va ijtimoiy omillarning ahamiyati……... 171

Toshpo‘latova O‘.B. O‘smirlik davrining psixologik-ijtimoiy xususiyatlari va shaxs shakllanishiga ta’siri…….. 179
Boboraxmatova M.V. Shaxs irodaviy sifatlarining psixodiagnostikasi…….. 186
Sheraliyeva S.F. Boshlang‘ich ta’limda ona tili fanida qo‘llaniladigan interfaol metodlarning ahamiyati……. 192
Xabibullayeva M. Arab tilini chet tili sifatida o‘qitishda integrativ ko‘nikmalar modelini ishlab chiqishning metodik asoslari……... 198

UDK: 355.23:37.01:159.9



Shermatov Fayzullo Toshtillayevich,
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti boshlig‘ining o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, podpolkovnik

HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY AHAMIYATGA EGA BO‘LGAN XUSUSIYATLARNI ANIQLASH

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada harbiy xizmatchilarning kasbiy sifatlari, jangovar ruh hamda harbiy vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada takomillashtirish hamda ularni munosib tarbiyalash, ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, uzluksiz harbiy ta’lim tizimida professional boshqaruv organlaridagi harbiy kadrlarini tayyorlashdagi muammolarini tadqiq etishning tanqidiy tahlili asosida tayyorlandi. Maqolada muallifning ko‘p yillar davomida olib borgan ilmiy va amaliy tajribalariga suyangan holda o‘tkazilgan empirik tadqiqot tahlillari natijasidagi fikrlar atroflicha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: professional kompetensiya, ijtimoiy-psixologik kompetensiya, autopsixologik kompetensiya, kognitiv kompetensiya, lider qobiliyati, baholashning ekspert usullari, o‘rta va quyi bo‘g‘in ofitserlari, kasbiy-professional sifatlar, professional mutaxassislik sifatlar, muloqotmandlik.

ВЫЯВЛЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО ЗНАЧИМЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В данной научной статье проведен критический анализ проблем дальнейшего повышения национальной гордости, боевого духа и воинского патриотизма у будущих офицеров, и их надлежащего воспитания, развития системы образования, подготовки военнослужащих в профессиональных органах управления в системе непрерывного военного образования. В стати, основанной на многолетнем научно-практическом опыте автора, детализируются мнения, полученные в результате анализа эмпирического исследования, и логично излагаются его предложения.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, социального-

психологическая компетентность, самопсихологическая компетентность, когнитивная компетентность возможность адепт, экспертный методы оценки, средний и низкий уровне, профессионально-специальные качества, коммуникабельность.

IDENTIFICATION OF CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL IMPORTANCE OF MILITARY PERSONNEL

Annotation. In this scientific article, a critical analysis of the problems of further improvement of national pride, fighting spirit and military patriotism in future officers and their proper education, development of the education system, training of military personnel in professional management bodies in the system of continuous military education. Prepared based on in the article, based on the author's many years of scientific and practical experience,the opinions as a result of the empiric research analysis are detailed and this proposais are logically presented.

Key words: professional competence, social -psychological competence, self-psychological competence, cognitive competence. leadership skills, expert methods of assessment, middle and lower level officers, professional qualities professional specialty qualities, communication.

Jahon va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, ayrim davlatlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan qarama-qarshilik, o‘zaro ziddiyat va nizolar, xalqaro terrorizm xavf-xatarlari tobora kuchayib borayotgan hozirgi vaqtda ko‘plab rivojlangan davlatlar armiyalarida harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi, jangovar shayligi va kasbiy tayyorgarligini oshirish, harbiy xizmatchilarni zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalar, harbiy-professional bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Harbiy xizmatchilarni o‘quv va jangovar faoliyatda yuzaga keladigan ekstremal vaziyatlarda ularning psixologik barqarorligini ta’minlash hamda ularga ishonib topshirilgan qurol-aslaha va harbiy texnikalardan samarali foydalanish uchun kasbiy tayyorgarligi dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “...har qanday og‘ir va murakkab vaziyatda ona Vatanni, milliy mustaqillikni va mamlakat hududiy yaxlitligini ishonchli himoya qilish, yurtning har bir qarich yerini, o‘z xalqi, ota-onasi va farzandlarini ko‘z qorachig‘idek asrash, kerak bo‘lsa shu yo‘lda o‘z jonini fido qilishga tayyor bo‘lgan harbiy xizmatchini kamol toptirishdir”. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda milliy armiyamiz o‘zagi bo‘lmish harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash, davlatimiz hukumati oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa, harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlikni ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik omillar va kasbiy tayyorgarlikning psixologik kompetentsiyaviy modelini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Mudofaa tizimida kasbiy tayyorgarlik faoliyatini yanada takomillashtirish, kasbiy faoliyat yurituvchi harbiy xizmatchilarning harbiy-kasbiy muhitdagi kasbiy tayyorgarligi modelini ishlab chiqish bo‘yicha, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va harbiy ta’lim muassasalari, jumladan**,** United States Military Academy – USMA (AQSH), Royal Hibernian Military School (Dublin), Military Academy of the Republic of Korea (Koreya), Bundeswehr military University (Gamburg), Hadakwasla National Defence Academy (Hindiston), Qo‘riqlikdagi qo‘shinlarning harbiy o‘quv va ilmiy markazi (Rossiya), Turkiya milliy mudofaa univesiteti (Turkiya), Harbiy texnik akademiya (Polsha), Federal xavfsizlik xizmatining Xabarovsk chegara instituti (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kabilarda olib borilmoqda**.** [2]


Mudofaa tizimidagi harbiy xizmatchilarda kasbiy tayyorgarlik va ularning kasbiy-psixologik portretini ekspert baholash bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, mudofaa tizimida samarali boshqaruv faoliyatini tashkil etish va boshqarishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mudofaa sohasidagi harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik dasturi va uni asoslovchi ijtimoiy-psixologik konsepsiyani ishlab chiqish, harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning yangicha usuli va ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari tizimini yaratish, harbiy burchni anglash va kasbiy mas’uliyatlilik, kasbiy altruizm kabi sifatlarning o‘ziga xosliklarini integratsiyalash asosida mudofaa tizimidagi harbiy xizmatchilarning shaxsiy va kasbiy tayyorgarligini yangicha asoslash hamda uning qay darajada shakllanganligini ilmiy tekshirish kabi masalalar hozirda dunyo miqyosida o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotni amalga oshirishda, M.A.Dmetreevaning “Kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash” so‘rovnomasi, Smekal va Kucherevalarning “Shaxs yo‘nalganligi” so‘rovnomalari hamda ma’lumotlarni qayta ishlashning matematik statistika metodlari, ya’ni Styudentning t-mezoni, K.Pirson r-korrelyatsiya koeffitsienti, faktorli va foizli tahlil usullaridan foydalanilgan.

“Kasbiy tayyorgarlik” atamasi mavjud tizimni ifodalovchi so‘z sifatida qo‘llanilsa, xalqaro tajribada “kasbiy rivojlanish” (professional development) ma’nosida qo‘llaniladi. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlashni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining loyihasida harbiy xizmatchilarni zamonaviy standartlar asosida kuch va vositalar bilan tashkil etish belgilanganligi va bunda harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish tizimini takomillashtirish nazarda tutilganligi ayni muddaodir. **[2]**

Tadqiqotchi L.Yu.Bolikovaning aytishicha esa, kasbiy tayyorgarlik insonda moddiy, ma’naviy, ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy omillardan biridir. Demak, yuqoridagi omillar tizimi hayot davomida uning kognitiv imkoniyatlarini yanada takomillashtirib boradi.

Psixologik mazmunga ko‘ra, kasbiy tayyorgarlik – bu maxsus faoliyat va ish tajribasi natijasida, o‘zlashtirilgan bilimlar, amaliy ko‘nikmalar majmuasiga ega bo‘lgan mehnat faoliyati turlaridan biri bo‘lib, u orqali inson ma’lum bir bilimlar tizimi, munosabatlar shakli hamda soha yo‘nalishiga ega bo‘ladi. Harbiy-kasbiy tayyorgarlik ham o‘ziga xos bo‘lgan faoliyat turlaridan biri bo‘lib, u oliy harbiy ta’lim muassasasida maxsus tayyorgarlik va Qurolli Kuchlardagi tajriba asosida olingan harbiy nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar majmuasiga ega bo‘lgan harbiy xizmatchining xizmat faoliyati turlaridan biridir – degan ta’rifni berishimiz mumkin. O‘tkazilgan tadqiqotda jami 120 nafar harbiy xizmatcnilar ishtirok etdi. Tanlov tasodifiy usulda amalga oshirildi. (1-rasm)



1-rasm. Kasbiy tayyorgarlik so‘rovnomasining o‘zaro ko‘rsatkichlari


Odam-biznes shkalasi bo‘yicha (5 - 4 - 2) miqdor bilan o‘rta darajadagi natijani tashkil qilganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni harbiy xizmatchilarda boshqalar bilan suhbatlashayotganda ularning emotsional holatlarini oldindan ko‘ra olish qobiliyati borligini ko‘rsatgan. Odam-odam shkalasi bo‘yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlarda (4–7–10) darajadagi natijani qayd etganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ofitserlar odamlar bilan muloqatda yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Odam-obraz shkalasida esa (7–5–3) miqdordagi natijani qayd etdi. Demak ofitserlarda oddiy askarlarga qaraganda ancha past ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Odam-tabiat shkalasi o‘rta darajasi quyidagi (3–5–7) natijani qayd etdi. Ya’ni ofitserlarda yuqori natijani qayd etdi. Odam-texnika shkalasi bo‘yicha qayd etilgan natijalarda (6– 6–8) deyarli unchalik katta farq kuzatilmaganligini guvohi bo‘ldik. Odam-belgi shkalasi natijalariga (7–5–4) e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, oddiy askarlar yuqori natija qayd etganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Buning natijasida, komandirlar boshqaruvida kasbiy tayyorgarlik muhim omil ekanligi bois, psixodiagnostik tahlil va ma’lumotlarni qayta ishlashning matematik statistika metodlari asosida “odam-odam”, “odam-texnika”, “odam-belgi”, “odam-tabiat” kasbiy tiplar jangovar-kasbiy tayyorgarlikni tashkil etuvchi asosiy indekator sifatida aniqlanib, “odam-obraz” va “odam-biznes” kasbiy tiplari harbiy jamoani boshqaruvida depersonalizatsiya vujudga kelishi isbotlangan (1-rasm). [3]

Oddiy askar serjant yoki ofitserning mehnati, ya'ni uning harbiy xizmatchilik faoliyati - bu vatanni himoya qilish, tartib-intizomga, Qurolli kuchlar tizimida belgilangan nizom talablariga rioya qilish bilan harakterlanib, u tarbiyaviy va

ta`limiy xususiyatga ega bo‘lib, uning shaxsiy va intellektual va faol rivojlanishiga qaratilgan, shu bilan birga o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifasini bajaradi va o‘z-o‘zini takomillashtiradi. [4]

Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyatga erishish sur’ati uning kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlari va mehnati bilan o‘zaro aloqadordir. Shundan kelib chiqqan holda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, kommunikativlik (13-14-7), nutqiy ravonlik (6-7-7), irodalilik (13-15-7), emotsionallik (13-10-7), intellektuallik (10-14-18), sezgirlik (19-23-26), eslab qolish qobiliyati (12-15-17), kuzatuvchanlik (5-7-8), diqqatni uzoq vaqt jamlash (4-6-8) kabi ko‘rsatkichlarni namoyon qilmoqda. Ushbu natijalar asosida aytishimiz mumkinki kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar so‘rovnomasi natijalari oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlarda deyarli bir xil ko‘rsatkichlarni namoyon qilmoqda. Tahlillar asosida harbiy xizmatchilarda jangovar-kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning psixologik kompetensiyaviy modelini belgilab beruvchi sezgirlik, intellektuallik, irodaviylik, kommunikativlik, ruhiy-asabiy barqarorlik singari psixologik komponentlar kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda yetakchi psixologik xususiyatlar ekanligi dalilangan (2-rasm).



2-rasm. Kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash so‘rovnomasining o‘zaro ko‘rsatkichlari

Harbiy xizmatchilarda o‘tkazilgan kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyatlar va kasbiy tayyorgarlik so‘rovnomalarining natijalarini kuzatadigan bo‘lsak quyidagi natijalarga guvoh bo‘ldik. Ya’ni “diqqatni uzoq vaqt jamlash” va “odam – belgi” ($r=0,672$; $p \leq 0,01$;), “odam – tabiat” ($r=0,645$; $p \leq 0,01$;), “odam – texnika” ($r=0,589$; $p \leq 0,01$;), “odam – obraz” ($r=0,430$; $p \leq 0,05$;), “odam – odam“ ($r=0,558$; $p \leq 0,01$;), “kuzatuvchanlik” va “odam – belgi” ($r=0,486$; $p \leq 0,05$;), “odam – tabiat” ($r=0,446$; $p \leq 0,05$;), “odam – odam“ ($r=0,491$; $p \leq 0,05$;), “odam – biznes” ($r=0,623 \leq 0,01$;), “eslab qolish qobiliyati” va “odam – belgi” ($r=0,534$; $p \leq 0,01$;), “odam –

texnika" (r=0,473; p ≤ 0,05;), "odam – odam" (r=0,420; p ≤ 0,05;), "odam – biznes" (r=0,653 ≤ 0,01;), "sezgirlik" "odam – tabiat" (r=0,598; p ≤ 0,01;), "odam – texnika" (r=0,565; p ≤ 0,01;), "odam – obraz" (r=0,579; p ≤ 0,01;), "odam – biznes" (r=0,632 ≤ 0,01;), "intellektuallik" va "odam – belgi" (r=0,430; p ≤ 0,05;), "odam – tabiat" (r=0,576; p ≤ 0,01;), "odam – obraz" (r=0,460; p ≤ 0,05;), "emotsionallik" va "odam – tabiat" (r=0,641; p ≤ 0,01;), "odam – texnika" (r=0,445; p ≤ 0,05;), "odam – obraz" (r=0,472; p ≤ 0,05;), "odam – biznes" (r=0,640 ≤ 0,01;), "irodalilik" va "odam – belgi" (r=0,468; p ≤ 0,05;), "odam – texnika" (r=0,670; p ≤ 0,01;), "odam – odam" (r=0,465; p ≤ 0,05;), "nutqiy ravonlik" va "odam – tabiat" (r=0,401; p ≤ 0,05;), "odam – obraz" (r=0,541; p ≤ 0,01;), "odam – odam" (r=0,608; p ≤ 0,01;), "kommunikativlik" va "odam – tabiat" (r=0,590; p ≤ 0,01;), "odam – obraz" (r=0,432; p ≤ 0,05;), "odam – biznes" (r=0,407; p ≤ 0,05;) shkalalari o'rtasida kuchli aloqadorlik mavjudligi yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari yuzasidan quyidagi **xulosalarga kelindi:**

harbiy xizmatchilarda kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda oddiy askarlar, serjantlar hamda ofitserlarning kasbiy kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim sifatlar, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, shaxsning yo'nalganligi, kasbiy faoliyatni tanlashda qaror qabul qilish usullari, kasbiy faoliyatga bardoshlilik darajasi hamda shaxs ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik kabi psixologik omillar ta'sir qilishi hamda harbiy xizmatchilarda jangovar-kasbiy tayyorgarlik rivojlanishida asosiy sifatlarni tashkil etishi aniqlandi;

harbiy xizmatchilarda jangovar-kasbiy tayyorgarlikni rivojlanishini belgilab beruvchi omillar sifatida faoliyatga yo'nalganlik, xushyorlik, kasbiy faoliyatda diqqatni uzoq vaqt jamlash, kuzatuvchanlik, intellektuallik, irodalilik, sezgirlik, kasb tanlashda yuqori o'ziga harakatchanlik, qo'zg'aluvchanlik, kommunikativlik hamda ruhiy-asabiy barqarorlik singari psixologik komponentlar kasbiy tayyrgarlik takomillashuvida asosiy prediktlarni tashkil etganligi dalillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-yanvardagi Xavsizlik Kengashidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/5778.

2. Shermatov F.T. Harbiy-kasbiy tayyorgarlik psixologiyasi. Monografiya. – Toshkent: O'R MV AKT va AHI nashryoti, 2024. – 209 b.

3. Shermatov F.T. Bo'lajak ofitserlarda boshqaruv madaniyati shakllanishining psixologik asoslari // Xalqaro ilmiy konferensiya "Harbiy psixologiya nazariyasi va amaliyotining dolzarb muammolari" materiallari to'plami, 2023-yil 18-may. – Toshkent: O'R QK Akademiyasi, 2023. – 374 b. 112-116

4. Shermatov F.T. Kursantlarning o'quv jarayoniga psixologik ta'sir ko'rsatishning psixokorreksion omillari // Respublika ilmiy-uslubiy konferensiya "Lokal urushlarda shaxsiy tarkibni axloqiy-ruhiy holatlarini stabillashtirish muammolari" O'R MV AKT va AHI, 2024 y. – 342 b. 49-53.

5 Shermatov F.T. Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatda yuzaga keladigan stress va uning darajasini aniqlash usullari, xulosa va tavsyalar // Ilmiy jurnal. "Psixologiya". – Buxoro №1, 2023. – B.128-132.

UDK: 159.923:159.944

Fayziyeva Mavluda Xudayarovna,
Qarshi davlat universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

KONSTRUKTIV PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMI SHAKLLANISHINING TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada konstruktiv psixologik himoya mexanizmi shakllanishining dasturiy samaradorlik tahlili xususidagi fikrlar bayon etilgan. Unda eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari: psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni assimilyatsiya qilish, ayniqsa, shaxs va psixologik himoya tizimining ishlash talablarini psixologik himoya tizimining turli yo‘nalishlarda o‘zgarishiga olib kelishi tahlillar orqali ifodalangan.

Kalit so‘zlar: psixologiya, himoya, konstruktivlik, rivojlanish, moslashuv, stress, barqarorlik, ongostilik.

АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ КОНСТРУКТИВНОГО МЕХАНИЗМА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ

Аннотация. В статье представлены взгляды на анализ программной эффективности формирования конструктивного механизма психологической защиты. В нем условия для проведения экспериментального исследования: усвоение знаний о системе психологической защиты, в частности, о характеристиках личности и системе психологической защиты, побуждают студентов менять систему психологической защиты в разных направлениях.

Ключевые слова: психология, защита, конструктивность, развитие, адаптация, стресс, устойчивость, бессознательно.

ANALYSIS OF THE FORMATION OF CONSTRUCTIVE PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS

Abstract. This article presents the views on the analysis of software effectiveness of the formation of a constructive psychological defense mechanism. In it, the conditions for conducting experimental research: the assimilation of knowledge about the system of psychological protection, in particular, the performance of the individual and the system of psychological protection lead students to change the system of psychological protection in different directions.

Keywords: psychology, defense, constructiveness, development, adaptation, stress, stability, unconscious.

Kasbiy faoliyatda psixologik himoyaning namoyon bo‘lish muammosini o‘rganish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy faoliyat jarayonida psixologik

himoya mexanizmlarining mavjudligi maqsadga muvofiq va zarurdir. Ushbu tadqiqotda psixolog kasbiy faoliyatining o‘ziga xos jihatlari hamda unda psixologik himoyaning namoyon bo‘lish xususiyatlari ilmiy-psixologik nuqtai nazardan yoritiladi.

Psixologning kasbiy faoliyati shaxs va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarga xos psixologik qonuniyatlarni o‘rganish, ularni maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirish va rivojlantirish, shuningdek, ularning samaradorligini oshirish orqali insonning tashqi olamdan subyektiv qoniqish hosil qilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, psixolog faoliyati o‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuv jarayonini ta’minlab, kasbiy funksiyalarda o‘z aksini topadi.

Psixolog nafaqat boshqalarning individualligini o‘rganadi, balki o‘zi ham individual xususiyatlarga ega shaxs sifatida turli yosh, ijtimoiy va madaniy qatlam vakillari bilan muntazam muloqotda bo‘ladi. Alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlar bilan samarali ishlash uning asosiy kasbiy vazifalaridan biridir.

Psixolog faoliyatining muhim jihatlaridan biri — turli ijtimoiy guruhlar bilan samarali kasbiy muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun yuqori darajadagi mutaxassislik mahorati, shuningdek, zarur shaxsiy fazilatlar va chuqur kasbiy bilimlarning mavjudligidir. Shu bois psixologni tayyorlash murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u nafaqat kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni, balki umumiy madaniy saviya, shaxsiy xususiyatlar hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

Psixologik himoya mexanizmlarini bilish insonning hayot sifatini yaxshilash va farovon turmush kechirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Himoya mexanizmlarining sabablari va namoyon bo‘lish shakllari haqidagi aniq tasavvurlar, shuningdek, stereotiplar hamda shaxsiy kamchiliklarning manbaini anglash insonning o‘ziga nisbatan e’tiborini kuchaytiradi va uni ijodiy faoliyatga undaydi.

Konstruktiv psixologik himoyani shakllantirish strategiyalari shaxsning dunyo haqidagi tasavvurlar tizimiga xulq-atvorning yangi, adekvat usullarini kiritish, ularni takomillashtirish va zarur hollarda tuzatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, patologik psixologik himoya mexanizmlarini yengib o‘tish ong darajasida muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, tafakkurdagi tipik cheklovlarni bartaraf etadi hamda ijodiy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Bo‘lg‘usi psixologlarda konstruktiv psixologik himoyani shakllantirishga qaratilgan tajriba-eksperiment ishlari “Shaxsni psixologik himoya qilish muammolari” nomli maxsus kurs doirasida amalga oshirildi. Ushbu kurs psixologiya yo‘nalishining 1-, 2- va 3-kurs talabalarini qamrab oldi.

Maxsus kurs mazmuni uchta asosiy blokdan iborat bo‘lib, ular: diagnostik, nazariy va amaliy (tajriba) bloklardir.

Birinchi blok – diagnostika. Konstruktiv psixologik himoyaning samarali shakllanishi ko‘p jihatdan talabaning “Men” konsepsiyasining ijobiyligi va me’yoriy rivojlanganligiga bog‘liq. Shu sababli diagnostika bloki shaxsning yo‘nalganligi, individual xususiyatlari hamda “Men” konsepsiyasini chuqurroq anglash orqali o‘zini-o‘zi takomillashtirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan o‘zini anglash jarayonini o‘z ichiga oladi.

Mazkur blok mazmuniga ko‘ra maxsus kurs davomida ikki bosqichda amalga oshirildi: kirish (boshlang‘ich) va chiqish (yakuniy) nazorat shaklida. Bu esa psixologiya yo‘nalishi talabalarida psixologik himoya tizimining shakllanish dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi:

Plutchik–Kelerman–Konte so‘rovnomasi — psixologik himoya tizimining umumiy kuchlanish darajasi hamda uning alohida mexanizmlarini aniqlash, eng sodda shakllardan yetuk darajalargacha bo‘lgan himoya mexanizmlarini tahlil qilish imkonini beradi;

Koping strategiyalari ko‘rsatkichlari — shaxsning qiyinchilik va muammolarni bartaraf etishdagi konstruktiv harakatlar darajasini baholashga xizmat qiladi;

Shaxsiy differensial metodikasi — o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda psixologik faoliyatni himoya qilish ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan.

Kirish va chiqish psixodiagnostik tekshiruvlaridan so‘ng talabalar o‘zlarining shaxsiy rivojlanish tendensiyalari bilan tanishtirildi. Shuningdek, ularga o‘zini boshqarish uchun konstruktiv psixologik himoya strategiyalarini tanlashga oid amaliy tavsiyalar va yechimlar taqdim etildi.

Ikkinchi — nazariy blokda psixologik himoya muammosiga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Bu jarayonda psixologik himoya shaxs yaxlitligini saqlash hamda uning ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan faol va ongli jarayon sifatida talqin etildi. Talabalar bilan ishlashda ma’ruzalar, seminar mashg‘ulotlari, shaxsga yo‘naltirilgan individual va guruhiy maslahatlar kabi shakllardan foydalanildi.

Konstruktiv psixologik himoyani shakllantirish dasturi psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalari o‘quv faoliyati jarayonida maxsus kursni o‘zlashtirish orqali amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari 1-kurs talabalarining psixologik himoya tizimida muayyan o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi.

Psixologik himoya mexanizmlarining ishlash chastotasini tahlil qilish natijalariga ko‘ra (o‘rta guruh profili), maxsus kurs ta’sirida barcha himoya mexanizmlarining faolligida sezilarli miqdoriy o‘zgarishlar kuzatildi. Eng katta empirik o‘zgarishlar quyidagi mexanizmlarda qayd etildi:

“O‘rnini egallash” — tajribadan oldin 53%, keyin 38% (farq 15%);

“Rad etish” — tajribadan oldin 58%, keyin 44% (farq 14%);

“Loyihalashtirish” — tajribadan oldin 71%, keyin 59% (farq 12%).

Mazkur mexanizmlar sodda (qabul qiluvchi) himoya turlariga mansub bo‘lib, tajriba davomida talabalar qiyinchiliklarni ongli ravishda boshqarishni o‘rganganlari natijasida ularning ishlashidagi keskinlik pasaygani kuzatildi.

Shu bilan birga, yuqori darajadagi psixologik himoya mexanizmlarida nisbatan kamroq, ammo ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi:

“Kompensatsiya” — 63% dan 69% gacha (farq 6%);

“Giperkompensatsiya” — 39% dan 42% gacha (farq 3%);

“Ratsionalizatsiya” — 53% dan 54% gacha (farq 1%).

Ushbu natijalar konstruktiv psixologik himoya mexanizmlarining bosqichma-bosqich shakllanishini hamda talabalar ongida yanada yetuk va moslashuvchan himoya strategiyalari rivojlanayotganini ko‘rsatadi (1-rasm).

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv usullarini shakllantirish bo‘yicha eksperimental izlanish natijalarini statistik qayta ishlash Vilkokson T-mezoni yordamida amalga oshirildi. Bu borada statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar psixologik himoya mexanizmlaridan: repressiya, regressiya, rad etish, kompensatsiya, giperpensatsiyalarda aniqlandi.

Birinchi kurs talabalarining “o‘rnini egallash”ni himoya qilishning ibtidoiy mexanizmi keskinligi sezilarli darajada kamaydi (T-Vmea= 9,5 o‘tish: saytda harakatlanish, qidiruv 6), bu ko‘kalamzorlashtirish tendensiyasining pasayishiga ishora qiladi, ong sohasidan bezovta qiluvchi ma’lumotni olib tashlaydi.

“Orqaga qaytish” ibtidoiy mexanizmining ishlash kuchlanishini kamaytirish T-Vmea=8 da r<0,01) qiyinchiliklarni bartaraf etishda bolalarning xatti-harakatlarini tez-tez ishlatib turishi mumkin.

1-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining 1-kurs talabalarida shakllantirish kuchlanishini o‘zaro taqqoslashda Vilkokson mezonining empirik qiymatlari ifodasi

Psixologlarni himoya qilish mexanizmlari	O‘rnini egallash	Orqaga qaytish	O‘rin almashtirish	Rad etish	Loyihalashtirish	Kompensatsiya	Giperpensatsiya	Ratsionalizatsiya	PHUK
T-Vmea.	9,5*	8*	26	15,5	41,5	18	21	34,5	36,5

Eslatma: 1,11-0,05 darajasida muhim ahamiyatga ega
1,11* - 0,01 muhim ahamiyatga ega
T-Vmea. - Vilkokson mezonining empirik ahamiyati
PHUK-psixologik himoyaning umumiy keskinligi

O‘tish: saytda harakatlanish, qidiruv T-Vmea =41,5) statistik jihatdan sezilarli darajada o‘zgarmadi, ehtimol, bu talabalarning yoshi va ularning o‘qitish profiliga bog‘liq, tasdiqlangan adabiy manbalar va boshqa ilmiy tadqiqotlarda ham shunga yaqin holatlar kuzatilgan.

"Rad etish" mexanizmining ishlash kuchlanishi (T-Vmea=15,5 da r<0,05) kamaydi va pasayishiga olib keldi, qiyinchiliklarga e’tibor bermaslik, qiyinchiliklarni e’tiborsiz qoldirish kuzatildi.

"Kompensatsiya" mexanizmlaridan foydalanish keskinligining oshishi. T-Vmea=18 da r<0,05), "giperkompensatsiya" (T-Vmea=21 da o‘tish: saytda harakatlanish, qidiruv 6) mehnatning kognitiv tahlilini kuchaytirish, ularni yengish uchun mumkin bo‘lgan variantlarni topishga intilish ifodalangan.

Umumiy taranglikda statistik jihatdan psixolgik himoyada ahamiyatli o‘zgarishlar (T-Vmea=36,5) aniqlanmagan. Natijada, himoya mexanizmlari funksiyalarining o‘rtacha intensivligi bir xil, yuqori darajada bo‘lib qoldi.

Ibtidoiy mexanizmlardan foydalanish chastotasini kamaytirish va yuksak kuchlanishning oshishi tadqiqot maqsadini tasdiqlash imkonini beradi. Tadqiqotda amalga oshirilgan ilmiy tarbiyaviy ta’sir talabalar shaxsining psixologik himoya tizimiga konstruktiv ta’siri aniqlandi.

Psixologik tadqiqotimizning diagnostik natijalarini muhokama qilishning navbatdagi bosqichiga o‘tamiz. 2-jadvalda taqdim etilgan psixologik himoya mexanizmlarining talabalar guruhlaridagi sezilarli farqlarini tahlil qilish Styudent mezoni yordamida amalga oshirildi.

2-jadval

1-kurs talabalarini psixologik himoya qilish mexanizmlarining keskinligini taqqoslash Tg-1 va Ng-1 o‘zaro ta’sirdan keyin

Psixologik himoya mexanizmlari	Tg-1kursda psi-xologik himoya mexanizmlarining kuchlanishi (%)	Ng-1kursda psixologik himoya mexanizmlarining kuchlanishi(%)	t< P
O‘rnini egallash	38	50	2,12
Orqaga qaytish	43	54	2,55
O‘rin almashtirish	41	46	2,01
Rad etish	44	60	2,15
Loyihalatirish	56	60	2,02
Kompensatsiya	69	60	2,80*
Giperkompensatsiya	42	33	2,78*
Ratsionalizatsiya	54	51	1,99
PHUK	48	50	1,83

Eslatma: 1,11-0,05 (2.04) darajasida muhim ahamiyatga ega.
1,11* - muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 0,01 (2.75).
t< P. - Styudent mezonining ahamiyatli ko‘rsatkichi.

Ibtidoiy himoya guruhida mexanizmlarning keskinligi statistik jihatdan sezilarli darajada kamayib bordi: "o‘rnini egallash" (farq-12%;), "orqaga qaytish "(farq-11%)," “rad etish" (farq-16%). Psixologik himoyaning yuksak mexanizmlari guruhida "kompensatsiya" (farq-9%), "giperkompensatsiya" (farq-9%) dan foydalanish chastotasining oshishi qayd etildi.

Ta'kidlash joizki, Tg-1 va Ng-1 talabalarida himoya mexanizmlarining umumiy keskinligi (PHUK) ning ko'rsatkichlari statistik jihatdan sezilarli farq qilmaydi, ammo hosil qiluvchi o'zaro ta'sir natijasida har ikki guruh subyektlarining qiyinchiliklarni bartaraf etishdari uchun sifat jihatidan turli mexanizmlar ko'rsatkichlari farqlandi.

Talabalarning koping xulq-atvor xatti-harakatlaridagi o'rta guruh o'zgarishi faqat "muammoni yechish" strategiyasini qo'llashda (tajribagacha-73%, keyin-88%; farq-15%). Talabalarning qiyinchiliklarni yengib o'tish yo'llarini mustaqil izlashga bo'lgan intilishlari kuchayib borgan.

"Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" strategiyasiga amal qilish intensivligi (tajribagacha -60%, keyin-60%), "qochish" mexanizmidan foydalanish (tajribagacha -58%, keyin-58%) o'zgargani yo'q.

3-jadval

Vilkokson mezonining empirik qadriyatlari 1-kurs talabalarining koping xatti-harakatlari strategiyalarini shakllantirishdan oldin va keyin taqqoslanganda

Koping-xatti-harakatlar strategiyalari	Muammoni hal qilish	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Qochish
T- Vmea	46,5	39	33

Eslatma: 1,11-0,05 darajasida muhim ahamiyatga ega.

1,11* - 0,01 muhim ahamiyatga ega.

T- Vmea - Vilkokson mezonining empirik ahamiyati.

Eksperimental ma'lumotlarning statistik tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, koping xulq-atvor strategiyalaridan foydalanishda sezilarli o'zgarishlar aniqlanmadi (5-jadval). Psixologik himoya mexanizmlarini o'zlashtirish jarayonida talabalar faoliyatida keskin vaziyatlar yuzaga kelganda xavotirli axborotni baholash usullarini ma'lum darajada o'zgartirdilar, biroq bu o'zgarishlarni to'liq ravishda xulq-atvorga tatbiq etish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmadi.

O'z-o'zini anglash xususiyatlari hamda psixologik himoya tizimining samaradorlik mezonlari sifatida qaralgan "baholash", "kuch" va "faoliyat" omillari tahlili tajriba natijasida ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi.

Eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida yaratilgan shart-sharoitlar — xususan, psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish — talabalar ongida ushbu tizimning ishlash mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qildi. Natijada psixologik himoya quyidagi yo'nalishlarda o'zgarishga uchradi: sodda (tabiiy) va yuksak himoya mexanizmlari o'rtasidagi nisbat muvozanatlasha boshladi, bu esa psixologik himoyaning boshlang'ich darajasidan yuqoriroq bosqichga o'tishni anglatadi.

Shuningdek, koping resurslari muammolardan qochish yoki ularni chetlab o'tishdan ko'ra, ularni faol hal etishga yo'naltirilgan harakatlarga aylana boshladi.

O‘z-o‘zini baholash, hissiy holatlarni boshqarish va o‘z-o‘zini nazorat qilishning uyg‘un rivojlanishi esa psixologik himoyaning yuqori darajasi — konstruktivlikka o‘tish jarayonini baholash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фрейд А. Эго и механизмы защиты. – М.: Изд-во Эксмо, 2003. –256 с.
2. Мктрчян М.А. Проблема фрустрации и защитные механизмы личности: автореф. дис. … канд. психол. наук. – Ереван, 1975. – 26 с.
3. Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989. 448 с
4. Fayziyeva M. Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari. Monografiya. – Qarshi: “Nasaf”, NMIU. 2021. - 143 bet.

UDK 37.091.3



Djumayev Mamanazar,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi

MATEMATIKAGA IXTISOSLASHTIRILGAN BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNI TASHKIL ETISHDA MILLIY O‘QUV DASTURINING USTIVOR VAZIFALARI

Annotatsiya. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, matematika ta’limini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq ta’limi tizimida matematika fanini o‘qitishni takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktablar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanib, ular o‘quvchilarga milliy o‘quv dasturi va davlat ta’lim standartlari asosida umumiy o‘rta ta’lim berish bilan birga, ayrim fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishni ham ta’minlaydi. Mazkur maqolada ushbu ta’lim muassasalarining vazifalari va ta’lim talablari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: mulohaza, texnologiya, maqsad va vazifalar, o‘quv dasturi, ta’lim standarti, boshlang‘ich ta’lim, matematika, bilim va ko‘nikmalar.

ПРИОРИТЕТНЫЕ ЗАДАЧИ НАЦИОНАЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ В ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКЕ В СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. На основе проведённого анализа приоритетных направлений развития математического образования целесообразно выделить основные направления совершенствования преподавания математики в системе государственного образования. Специализированные школы рассматриваются как важное звено системы непрерывного образования, обеспечивающее учащихся знаниями по общеобразовательным предметам на уровне среднего образования в соответствии с государственными образовательными стандартами и требованиями национальной учебной

программы, а также углублённой подготовкой по отдельным дисциплинам. В статье рассматриваются основные образовательные требования и функции данных учреждений.

Ключевые слова: обратная связь, технология, цели и задачи, учебная программа, образовательные стандарты, начальное образование, математика, знания и навыки.

PRIORITY OBJECTIVES OF THE NATIONAL CURRICULUM FOR ORGANIZING MATHEMATICS INSTRUCTION IN SPECIALIZED PRIMARY SCHOOLS

Abstract. Based on the above analysis of the priority areas for the development of mathematics education, it is important to identify key directions for improving mathematics teaching in the public education system. Specialized schools are considered a crucial component of the continuous education system, providing students with general secondary education in accordance with state educational standards and the national curriculum, as well as offering in-depth instruction in selected subjects. This article discusses the main educational requirements and functions of these institutions.

Keywords: feedback, technology, goals and objectives, curriculum, educational standards, primary education, mathematics, knowledge and skills.

Ta’limda integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish jarayonida milliy o‘quv dasturi vazifalarini bajarishda matematika fanining inson hayotidagi o‘rni hamda uni o‘qitishdagi turli yondashuvlarning dolzarbligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo‘shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish hamda mamlakatimiz yoshlarini matematika go‘zalliklaridan bahramand etish uchun zarur sharoitlar yaratish — barchamiz uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi [1].

Matematika olamni bilishning muhim asosi bo‘lib, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda, shuningdek, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik fikrlashni shakllantiradi, tartib-intizomga o‘rgatadi hamda eng muhimi — mustaqil mulohaza yuritishga undab, tafakkurni kengaytiradi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi va istalgan sohada muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladi.”

Mamlakatimizda matematika 2020-yilda ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Shu asosda matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [2].

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son Qarori, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son Qarori, shuningdek, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomada matematika fani va ta’limini har tomonlama rivojlantirish yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan [1].

Xususan, mazkur hujjatlar asosida ishlab chiqilgan “Matematika ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi” matematika ta’limini kompleks takomillashtirish va uni yangi sifat bosqichiga olib chiqish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashga qaratilgan.

Matematika olamni va borliqni anglashning muhim vositasi bo‘lib, tevarak-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalarning qonuniyatlarini ochib berishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish, fan va texnologiyalar rivojini tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois matematika madaniyati umuminsoniy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o‘qitishdan ko‘zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish;

– jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

– milliy, ma’naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalash.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lishini talab etadi. Bu esa fanlarni mukammal egallashni, jumladan, matematika ta’limiga xalqaro tajriba va standartlarni joriy etishni taqozo etadi.

Bu borada qator xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o‘tkaziladigan PISA — o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasini baholashga qaratilgan xalqaro dastur natijalari e’tiborga molikdir [3].

Shuningdek, Ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS — matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifati xalqaro monitoringi dasturi ham o'quvchilarning turli mamlakatlardagi bilim darajasi va sifatini solishtirish, milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Mazkur tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishda xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash mezonlari va mexanizmlarini mahalliy sharoitdan kelib chiqib joriy etish maqsadga muvofiqdir [5].

STEAM (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiya, Engineering — muhandislik, Art — san'at, Mathematics — matematika) ta'lim texnologiyasi aniq fanlar blokida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'lashga xizmat qiladi. U dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini olib borish, tajribalar o'tkazish, loyihalar yaratish orqali o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish va yangilik yaratishga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan. Ushbu texnologiya doirasida o'quvchilar turli texnik qurilmalar uchun loyihalar ishlab chiqish, ularning maketlarini yaratish, amaliyotda sinab ko'rish, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish kabi faoliyatlarni amalga oshiradilar.

Matematik ta'limda kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlarda samarali harakat qilishiga imkon beradigan malakalarni egallashini nazarda tutadi. Shu bois ushbu yondashuv matematik ta'limning amaliy va tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish hamda kichik o'quv tadqiqotlarini amalga oshirish orqali fanlarga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida o'quv dasturlariga amaliy mashg'ulotlar, tatbiqiy topshiriqlar va loyiha ishlari kiritilgan. Bu esa nafaqat o'zlashtirish sifatini oshiradi, balki fanlararo bog'liqlikni kuchaytiradi va bilimlarni kundalik hayot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Matematika darslarini tashkil etishda nazariyadan ko'ra amaliyotga ko'proq e'tibor qaratish, tayyor bilimlarni berishga asoslangan yondashuvdan qisman voz kechish talab etiladi. Darslarda keys, tadqiqot, loyiha va kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda analogiya kabi ilmiy metodlardan samarali foydalanish muhimdir.

Shuningdek, o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Bu o'rinda loyiha ishlarining o'rni e'tiborga molik. O'quvchilar bir o'quv yilida o'zlari qiziqqan fani yoki ta'lim sohasidan faqat bitta loyiha ishini bajarishlari tavsiya etiladi. Loyiha ishi mavzulari o'qituvchilar tomonidan bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida muammoli vaziyat yoki keys sifatida tanlanadi. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilar alohida-alohida yoki qiziqishlariga qarab 3-4 kishilik guruh bo'lib ishlashlari ham mumkin. Loyiha ishi o'quv yili oxirida o'tkaziladigan himoya bilan tugaydi. Himoyani bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida

konferensiya tarzida o‘tkazilishi mumkin. Loyiha ishi mavzusi ustida o‘quvchilarning individual yoki guruhiy ishi quyidagi o‘quv faoliyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin: o‘z izlanish faoliyatlarini rejalashtirish, vazifalarni o‘zaro taqsimlab olish, oldilariga o‘quv maqsadlarini qo‘yish, kerakli ma’lumotlarni izlab topish, mavzuga doir muammoli vaziyat yechimlarini qidirish, ulardan eng maqbulini tanlash va uni asoslash, zarur hollarda so‘rovlar yoki tajribalar o‘tkazish, loyiha ishi natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash, o‘z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash, loyiha ishi himoyasi uchun taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish. O‘quvchilar loyiha ishi muammosi bo‘yicha izlanishlarini odatda darsdan tashqari mustaqil mashg‘ulotlarda olib borishadi[7].

Matematika ta’limining amaldagi holati va mavjud muammolar o‘quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishi, ya’ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning fan va texnika yo‘nalishi bo‘yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir[9].

O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim maktablari uchun majburiy bo‘lgan Davlat ta’lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta’lim mazmuni bajarish, o‘quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fundamental, nazariy yoki eksperimental fan sifatida yondashish, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta’lim mazmuni va o‘qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Matematika ta’lim tizimining oxirgi yillardagi vaziyati tahlili quyidagi dolzarb muammolar bilan aniqlanadi:

matematika fanining jamiyatdagi o‘rni yetarlicha baholanmaganligi;

fan bo‘yicha DTS talablarining yuqori belgilanganligi va o‘quv dasturi yuklamasining oshib ketganligi;

darsliklarda fan mazmunining «quruqligi», hayotdan ajralib va eskirib borayotganligi;

fanni o‘rganishga o‘quvchilar qiziqishining sustligi;

malakali matematika o‘qituvchilarining kamligi;

matematika fanining o‘quv metodik ta’minoti (o‘qituvchi kitobi, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

o‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, fan bo‘limlari va mavzularining o‘qitish ketma-ketligi hamda murakkablik darajasida vujudga kelgan nomutanosibliklarning mavjudligi;

matematkani o‘qitish metodlarining eskirganligi;

umumta’lim fanlari bo‘yicha fanlararo bog‘lanish va amaliy yondashuvlarga e’tibor qaratilmaganligi;

mavjud oliy ta’lim muassasalarida matematika fani yo‘nalishida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning bilim va ko‘nikmalari sifati bugungi kun talablariga mos kelmayotganligi.

Matematika ta’limining ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda

tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Iqtisodiy talablarni bajarish uchun bunyodkor va ijodkor kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, bu yutuqlardan iste’molchi sifatida foydalanuvchilarga ham sifatli ta’lim berilishi lozim.

Fan texnikaning keskin rivojlanishi, olamning globallashuvi hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi insonlarning dunyoqarashini, muvaffaqiyatga erishish usullarini, inson salohiyati, qobiliyati hamda yaratuvchanlik faoliyati jamiyatning asosiy kapitali bo‘lib xizmat qiladi. Bu holatda jamiyatdagi har bir o‘quvchi shaxsining jamiyatda raqobatbardosh bo‘lib shakllanishi, o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashuvchan, faol, ijtimoiy yetuk salohiyatli, yuqori darajadagi bilim egasi, ruhan va qalban chiniqqan komil insonni shakllantirish davlatimiz oldidagi vazifalardan biridir[8].

Matematika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

O‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma’naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalash;

o‘quvchilarning kuzatuvlar orqali amaliy faoliyatlarini bog‘lagan holda loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratishga bo‘lgan ko‘nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirishdan iborat.

Matematika fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

o‘quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko‘nikmalar egallanishini ta’minlash; inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatish;

o‘quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o‘quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ijodkorlik (kreativlik) ni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish;

hozirda matematika fanini nazariylashtirgan holda o‘qitishga, o‘quvchilarga tayyor o‘quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma’lum darajada voz kechib, o‘quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini namoyon qilish va faollashtirish.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xalq ta’limi tizimida matematika fanini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq:

matematika fani davlat ta’lim standarti talablarining avvalo kelajakdagi

zamonaviy davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, XXI asr ko‘nikmalariga mos ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy-uslubiy tadqiqot tuzilmalari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni, uzluksizlikni va uzviylikni ta’minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida matematika fanlarini o‘qitish sifatini oshirish, hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini tashkil qilish va faoliyatini rivojlantirish;

matematika fani bo‘yicha kadrlarni, xususan qishloq joylardagi maktablarning kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

matematika fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish;

iqtidorli yoshlarni aniqash hamda ularning matematika fani bo‘yicha mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini hamda sovrinli o‘rinlarni egallashini ta’minlash;

matematika fanining mazmunini takomillashtirish, optimallashtirish va uni boshqa umumta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasini kuchaytirish;

o‘quvchilar yutuqlarini baholashning ilg‘or xorijiy tajribalari va bu boradagi xalqaro tadqiqotlar natijalariga tayanib, yangi baholash tizimini yaratish hamda u asosida matematika fanini bilish darajasini baholash bo‘yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish;

ta’lim va tarbiyani uyg‘un olib borish, o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy, axloqiy yetuk shaxs sifatida shakllantirish;

matematika darslarida sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, ta’lim va tarbiya jarayoniga ilg‘or innovatsion zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘quvchilar dunyoqarashini, tafakkuri, mantiqiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

matematika fani yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish[8].

Matematika fanining ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an’analar uyg‘unligida matematika fani bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish;

matematika fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yangi, kelajak faoliyatlarida zarur bo‘ladigan zamonaviy ehtiyojlardan kelib chiqib, bilim, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarini ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasida belgilangan matematika fani o‘quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo‘yicha taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;

tayanch o‘quv rejaga muvofiq matematika fanining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

matematika fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarning (darslik, ish daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, multimediali ilovalar) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga joriy qilish;

matematika fanining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim, shakllantiriladigan ko‘nikma va kompetensiyalardan kelib chiqqan holda yangi baholash tizimini ishlab chiqish.

Matematika fani bo‘yicha yangi o‘quv-metodik majmualarni quyidagi tamoyillar asosida yaratish belgilanadi:

o‘quv-metodik majmualarning ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yaratilganligi;

o‘quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlarning majmualarga singdirilganligi;

matematika fanidan muqobil darsliklar tizimining yo‘lga qo‘yilganligi;

o‘quv-metodik majmualarning zamonaviy didaktik, ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga mos ravishda ishlab chiqilganligi.

Matematika ta’limi jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash;

ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

barcha ta’lim muassasalarini tezkor va barqaror internet tarmog‘iga ulash;

ta’lim muassasalarini raqamli texnologiyalar, elektron, multimediali resurslar va tegishli dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlash;

maktabda o‘tilgan dars va mashg‘ulotlarning oflayn versiyalarini tayyorlash va platformaga qo‘yib borish, onlayn konferensiyalarni o‘tkazish imkoniyatlarini yaratish hamda matematikadan sinfdan va maktabdan tashqari turli masofaviy ta’lim dasturlari va matematika fanini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan ellektiv kurslarini tashkil etish.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko‘rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olish uchun bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli, raqobatbardosh, kompetent kadrlar tayyorlanadi;

konsepsiya umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablar uchun asos bo‘ladi;

konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o‘quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta’sir etadi;

Matematika fanlarini o‘qitish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma a kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar me’yorlari aniqlashtiriladi;

STEAM ta’limini joriy etish orqali o‘quvchilarining fanlar integratsiyasi asosida savodxonlik darajasini oshiradi;

matematika fanlari bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni (darslik, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, elektron darsliklar) yangi avlodini ishlab chiqiladi va ta’lim jarayoniga joriy etladi;

matematika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha innovatsion metodikalar yaratiladi;

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda umumta’lim fanlari bo‘yicha fanlararo bog‘lanish va amaliy yondashuvga e’tibor qaratiladi;

o‘quvchilarni o‘quv loyiha va o‘quv-tadqiqotchilik rivojlantiriladi;

umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi orqali o‘quvchilar kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etiladi;

matematika fani o‘qituvchilarining fan bo‘yichha bilim, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish maqsadida, o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy axborot maydoni yaratiladi hamda malaka oshirish tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilanadi;

maktablar zamonaviy o‘quv sinflari va laboratoriyalari, yangi turdagi o‘quv mebellari, jihozlari va asbob-uskunalari, ko‘rgazmali qurollar, kompyuter texnikasi va boshqa o‘qitishning texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda “Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari bosqichma-bosqich SMART sinflari, STEAM mashg‘ulotlarini o‘tkazishga mo‘ljallangan o‘quv sinflari va ustaxonalari tarmog‘i joriy etiladi[9].

Tayanch kompetensiyalarni matematika fani orqali o‘quvchilarda rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar**.**

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Aniq fanlar bloki yo‘nalishidagi fanlar orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o‘zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko‘nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili, xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish, to‘g‘ri talaffuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o‘rgatish zarur. Xususan, matematika fanining o‘z ilmiy tili, o‘z tushunchalari, belgi va timsollari ham mavjud bo‘lib, bu tilda muloqot qilish – kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish omili sifatida qaralishi lozim bo‘ladi.

Fanlarni o‘qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchilarni darslik va turli o‘quv manbalari bilan ishlash, matematika faniga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya

qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda turli amaliy dasturiy paket va ta’minotlardan, mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar)lardan foydalanish tavsiya etiladi[10].

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilgan fazilatlarga ega bo‘lish, Vatanni sevish, jamiyat va tabiat haqidagi bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlarga xabardor va daxldor bo‘lish, doimo zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashga intilish, hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur. Shu o‘rinda matematika fanini puxta o‘rganish orqali o‘quvchilar tartib-intizomga o‘rqanadilar, har bir muammoga matematik masala sifatida qarab, uni yechishda qat’iyatli bo‘ladilar.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, matematika ularni haqgo‘y, nohaqlikka befarq bo‘lmaslik va vatanga sadoqatli bo‘lish ruhida tarbiyalaydi. Matematika fanini puxta o‘rgatish orqali o‘quvchilarni jamiyatning faol fuqarosi sifatida rivojlantirib borishga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Recpublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni. www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. www.lex.uz.

3. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tabirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.

4. Djumaev M. Mathematical regularity and development of creative thinking of students. Deutsche internationale Zeitschrift für zeitgenössische Wissenschaft /German International Journal of Modern Science. Edition: № 28/2022 (February) – 28th Passed in press in February 2022 №28 2022. 26-28 st.

5. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434.

6. Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 165-173.

7. Dzhumaev Mamanazar Irgashevich va boshqalar. Improving Integral Education – An Opportunity to Prepare Future Primary Teachers for Computer Education. SKOPUS.*Journal of Management World* 2025, 2: st.587-599

UDK 159.942.5:378.18

Aminova Dilnoza,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika va texnologik ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

TALABALARDA AYBDORLIK HISSINI TAHLIL QILISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda aybdorlik hissining namoyon bo'lishiga xos psixologik xususiyatlar o'rganiladi hamda jinsiy tafovutlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, aybdorlik hissining shakllanish omillari va uning talabalarning psixologik holatiga ta'siri yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: aybdorlik hissi, adaptatsiya, axloqiy norma, emotsiya.

ОСОБЕННОСТИ АНАЛИЗА ЧУВСТВА ВИНЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье исследуются психологические особенности проявления чувства вины у студентов, а также проводится анализ гендерных различий в данном контексте. Рассматриваются механизмы формирования чувства вины и его влияние на психологическое состояние студентов.

Ключевые слова: чувство вины, адаптация, моральная норма, эмоция.

CHARACTERISTICS OF ANALYZING THE FEELING OF GUILT AMONG STUDENTS

Abstract. This article explores the psychological characteristics of the manifestation of guilt among students and analyzes gender differences in this context. It also examines the factors contributing to the development of guilt and its impact on students' psychological well-being.

Keywords: guilt, adaptation, moral norm, emotion.

Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlarda aybdorlik hissini korreksiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon olimlari tomonidan aybdorlik kechinmasining inson xulqiga tabiiy regulyativ (boshqaruvchi), adaptatsion (muvofiqlashtiruvchi) ta'sirining optimal darajasini aniqlashga qo'l urilgan. Shaxs xulqidagi aybdorlik hissi tufayli emotsional beqarorlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini maxsus ilmiy tadqiq etish hamda zarur ilmiy xulosalar ishlab chiqish ayni davrning dolzarb muammolaridan bo'lib qolmoqda.

V.V.Stolin aybdorlik va uyat hissini shaxsning ichki ziddiyatlari va o'zini ayblash tendensiyasi bilan bog'lagan.

Zamonaviy psixologiyada aybdorlik hissi shunchaki salbiy emotsiya emas, balki shaxsning o'z-o'zini anglashi, axloqiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi murakkab kognitiv-emotsional konstrukt sifatida talqin etiladi. Mashhur ekzistensial psixoterapevt **I. Yalom** ta'kidlaganidek, aybdorlik — bu inson

o‘zining asl imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarmaganligi (ekzistensial aybdorlik) natijasida yuzaga keladigan va shaxs o‘z salohiyatini to‘laqonli ochishda turtki sifatida foydalanadigan o‘ziga xos taraqqiyot vositasidir [1].

G‘arb psixologiya maktabi vakillari, xususan, psixoanaliz va gumanistik yo‘nalish asoschilari (Z. Freyd, K. Yung, A. Adler, R. Mey, J. Byudjental, M. Klayn) hamda zamonaviy tadqiqotchilar (K.C. Barrett, R.F. Baumeister, C. Covington, J.P. Tangney, D.V. Morano) aybdorlik fenomenini turli rakurslardan o‘rganganlar. Ularning tadqiqotlarida aybdorlikning ikki qarama-qarshi qirrasi ochib berilgan:

- **Destruktiv (barbod etuvchi) jihati:** Nevrotik aybdorlik ko‘rinishida namoyon bo‘lib, shaxsni tushkunlikka tushiruvchi, uning psixologik xavfsizligini buzuvchi va o‘z-o‘zini jazolash mexanizmlarini ishga tushiruvchi omil sifatida.
- **Konstruktiv (ijobiy) jihati:** Shaxs taraqqiyotini rag‘batlantiruvchi, empatiyani kuchaytiruvchi va jamiyatdagi proijtimoiy xulq-atvorni (prosocial behavior) shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik regulyator sifatida.

Aybdorlik fenomenining fenomenologik kechinmalari va uning ijtimoiy tartibga solishdagi bevosita ishtiroki MDH maktabi olimlari (I.A. Belik, O.A. Gavrilitsa, V.V. Ivanova, A.A. Ignatyeva, Ye.P. Ilin, T.Yu. Kirilina, M.N. Kornilov, G.G. Matyushkin, K. Muzdibayev, Yu.M. Orlov) tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Mazkur olimlarning izlanishlariga ko‘ra, aybdorlik o‘ziga xos mustaqil tushuncha bo‘lib, u asosan **ijtimoiy nazorat (social control)** va **axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish** mexanizmi vazifasini o‘taydi. Ular aybdorlikni shaxsning o‘z ijtimoiy muhiti bilan bog‘liqligini ta’minlovchi, me’yordan og‘ish holatlarini ichki tsenzura (vijdon) orqali tahlil qiluvchi ijtimoiy-psixologik indikator sifatida baholaydilar.

Psixologik nuqtayi nazardan, aybdorlik hissi asosan jamiyatda o‘rnatilgan axloqiy tamoyillar, qadriyatlar va ijtimoiy normalarning buzilishi, shuningdek, shaxs o‘zining amalga oshirgan xatti-harakati (yoki harakatsizligi) subyektiv jihatdan noto‘g‘ri yoki kimgadir zarar keltirganini kognitiv darajada anglaganidan so‘ng yuzaga keladi.


Aksariyat olimlar ushbu fenomenning izolyatsiyada emas, balki murakkab og‘riqli kechinmalar klasteri bilan birgalikda namoyon bo‘lishini qayd etishgan. Jumladan, aybdorlik holatiga tushgan shaxsda:

1. **Vijdon azobi va pushaymonlik:** Qilingan ishni ortga qaytarish va xatoni to‘g‘rilashga bo‘lgan kuchli ichki intilish (kognitiv dissonans).
2. **Uyat va noqulaylik:** Aybdorlik (harkatga nisbatan salbiy baho) ko‘pincha uyat (shaxsning o‘ziga nisbatan salbiy bahosi) hissi bilan qo‘shilib ketib, kuchli affektiv zo‘riqishni keltirib chiqaradi.
3. **Afsuslanish:** Boy berilgan imkoniyatlar yoki buzilgan munosabatlar ustidan emotsional qayg‘urish holatlari kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, aybdorlik fenomini psixologiyada ikki tomonlama tabiatga ega bo‘lib, u axloqiy me’yorlarni buzganlik uchun subyektiv "jazo" vazifasini o‘tash bilan birga, insonning ruhiy kamoloti va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiruvchi tayanch mexanizm hisoblanadi.

Olimlar ta'kidlashicha, aybdorlik kechinmasini mas'uliyat va burch tuyg'usi bilan bog'lansada biroq, aybdorlik o'zidan va mavjud tartibdan norozilik hissi bilan ham bog'liq ekanligini, ya'ni hodisaning ontologik tabiatiga ham xos deyishadi.

Ushbu maqolada talabalarda aybdorlik hissini tadqiq etuvchi metodika sifatida Kugler-Djonsning «Aybdorlik hissini o'rganish so'rovnomasi» metodikasidan foydalandik. Tadqiqotimizda Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1-kurs talabalaridan 60 nafar talabalar ishtirok etishdi. Talabalardagi aybdorlik hissini uchta shkala yordamida aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Bular «aybdorlik – holat» sifatida, «aybdorlik – xususiyat» sifatida hamda «aybdorlik – axloqiy norma» sifatida respondentlarda namoyon bo'ldi. Metodika tahliliga ko'ra, agar talaba-yoshlarda «aybdorlik – holat» sifatida kuzatilsa, demak ularda vaqtinchalik (hozirgi) hissiy holat sifatida, ayni damda yoki yaqinda sodir etilgan xatti-harakat uchun ma'lum bir vaqtda boshdan kechirilgan aybdorlik tuyg'usi mavjud bo'ladi. Agar talabalarda «aybdorlik – xususiyat» sifatida kuzatilsa, demak bu ularda aybdorlikning barqaror shaxsiy xususiyat sifatida shakllanganini ko'rsatadi, bunday aybdorlik ulardagi doimiy pushaymonlik, afsuslanish, o'ziga nafrat, xatolarni tuzatish istagi bilan birgalikda kechadi. Uchinchi shkala bo'yicha «aybdorlik – axloqiy norma» sifatida kuzatilsa, bunday shaxslarda axloqiy qadriyatlar, tamoyillar, me'yorlarga rioya qilishga asoslangan aybdorlikni boshdan kechirayotganini ko'rsatadi. Olib borilgan tadqiqot natijasiga ko'ra talabalarning ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi.



1-rasm. Kugler-Djonsning "Aybdorlik hissini o'rganish so'rovnomasi" natijalari

Ushbu tadqiqotimizda jami 60 nafar talabalar ishtirok etgan bo'lsa, ulardan 41% da "aybdorlik holat" sifatida past darajada, 33% da o'rta darajada hamda qolgan 16% da yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Navbatdagi shkala, ya'ni "aybdorlik xususiyat" sifatida 33% respondentlarda past darajani, 48 % da o'rta darajani hamda 19% da yuqori darajani ko'rsatgan bo'lsa, "aybdorlik axloqiy norma" sifatida 26% sinaluvchida past, 55% da o'rta hamda qolgan 19% da yuqori darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Natijalardan ko‘rinadiki, jamiyat a’zolarining deyarli barchasida aybdorlik hissi turli daraja va shakllarda yuzaga kelar ekan. Bu bejizga emas, sababi, aybdorlik hissi jamiyat uchun xos bo‘lgan qadriyatlar an’anasini o‘zlashtirishi natijasida, odamda o‘zidan va tashqi voqelikdan norozilikni his qilishi qobiliyati ta’sirida tarbiyalanadi. Faqat asta-sekin, o‘ziga va atrofdagi voqelikka nisbatan bir xil norozilikdan kelib chiqib, inson an’anaviy qadriyatlar tizimiga nisbatan tanqidiy pozitsiyani rivojlantiradi. Agar bu sodir bo‘lsa, unda odam boshqa odamlarga o‘xshab o‘z munosabatlarini yaxshilashga intiladi. Insonning shaxsini shakllantirishda uning ideallarni yaratish qobiliyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bu esa o‘z navbatida insonning ma’lumoti, hayotiy tajribasi va madaniyatiga bog‘liq, chunki aynan shu sifatlar unga qadriyatlar dunyosida muvaffaqiyatli harakat qilishiga imkon beradi.

1-jadval

Psixologik xususiyatlar o‘rtasidagi gender tafovut (Styudent mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	Qiz bolalar	O‘g`il bolalar	t
Aybdorlik holati	11,90	10,16	2,44**
Aybdorlik xususiyati	23,57	22,68	0,24
Aybdorlik axloqiy norma	23,08	23,55	1,78*

Izoh: * p≤0,10; ** p≤0,05

Talabalar natijalarining jins tafovutlarini Styudent mezonida tahlil qilib quyidagi natijalarni oldik.Aybdorlik hissi yigitlardan ko‘ra qiz bolalarda yuqori ekan, negaki qizlar aybdorlikni emotsional jihatdan juda yaqin oladilar. Yigitlarda esa aybdorlikni emotsional holatga juda big‘liq emas, balki xayotdagi xatolari sabab yuzaga kelganini aql bilan tahlil qila oladilar.

Aybdorlikni axloqiy norma sifatida bilish ya’ni anglash yigitlarda qiz bolalarga nisbatan ustunligini ko‘rib turibmiz. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, jamiyatda erkak kishi faol, jismonan baquvvat, chuqur bilimga ega bo‘lgan shaxs sifatida qaraladi hamda unga o‘z individualligini saqlab qolish va rivojlantirish imtiyozi beriladi. Ularga o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida qat’iyatli, g‘ayratli bo‘lishlariga yo‘l qo‘yiladi va biron-bir noto‘g‘ri xatti-harakatni amalga oshirganda ham ular o‘zlarining bu faoliyatlari uchun tushuntirishlar yoki bahonalar izlab topishga moyil bo‘ladilar, bu esa o‘zlaridagi aybdorlik hissini yumshatishga yordam beradi. Ayol kishi esa empatik, emotsional, sezgir hamda kundalik hayotda ko‘pincha murosaga kelishga moyil bo‘lgan «vijdonli» shaxs sifatida qaraladi, buning natijasida esa ular kuchli aybdorlik tuyg‘usini boshdan kechiradilar. Ayollar ko‘p hollarda ilgari sodir etgan nojo‘ya xatti-harakatlariga fikran qaytadilar, ya’ni o‘sha holatni tez-tez eslaydilar, bu esa o‘z navbatida aybdorlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Ayollar uchun autoagressiya qanchalik darajada xos bo‘lsa, erkaklar uchun eksternallik shu darajada xosdir.

Aybdorlik hissi tarkibiga kiruvchi diskomfort, depressiya, o‘z xatti harakatini tahlil qilish, tuzatish istagi, ichki noqulaylik hissini namoyon bo‘lishiga asoslanib shaxsning o‘z xulq-atvorini anglashini muhimligiga ko‘ra emotsional, kognitiv, motivatsion, psixosomatik komponentlarni rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Talabalar orasida o‘g‘il bolalar va qizlarning aybdorlik hissini boshdan kechirishdagi gender farqlar ularning jamiyatdagi o‘rni haqidagi stereotipik tasavvurlar bilan bog‘liq. Zero, o‘g‘il bolalar va qizlar jamiyatda oldindan saqlanib qolgan jinsiy rolga oid stereotiplarga qanchalik ko‘p amal qilishsa, ular hayoti davomida ushbu xatti-harakat qoidalarini buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatda o‘zlarini aybdor his qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баккер С. Женщина и стереотипы в современном обществе. – НюЙорк: Oxford University Press, 2012 – С. 56-78
2. Бернс Д.Д. Когда я чувствую себя виноватым: психологические механизмы и способы борбы с чувством вины. – Москва: Лабиринт, 1999.
3. Гоффман Э. Представление себя в повседневной жизни. – СанктПетербург: Питер, 1990.
4. Зимбардо Ф. Социалная психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2007.
5. Клейн М. Психоанализ и развитие ребенка. – Москва: Когито-Центр, 2014.
6. Кэшман Т. Женщины и рабочие отношения: психология рабочих конфликтов. – Москва: Наука, 2015.
7. Роджерс К. Терапия, основанная на уважении к человеку. – Москва: Издательство «Реч», 2002.
8. Фрейд З. Психология бессознательного. – Санкт-Петербург: Летний сад, 2007.

UDK: 159.9:004.738.5

Obloqulov Javlon Jaloliddinovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi o‘qituvchisi,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

INTERNET MUHITIDA SOTSIALIZATSIYANING BUZILISHI VA DESTRUKTIV XULQ NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada internet muhitida inson sotsializatsiyasi jarayonining o‘zgarishi, uning salbiy transformatsiyalari hamda destruktiv xulq shakllanishi mexanizmlari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli makonda shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni an’anaviy modellardan farq qilib, virtual kommunikatsiya ustuvor bo‘lgan yangi sotsial muhitni shakllantirmoqda. Maqolada internet muhitidagi sotsializatsiyaning buzilishiga olib keluvchi omillar — axborot ortiqchaligi, anonimlik, ijtimoiy nazoratning susayishi, virtual identichlik krizisi kabi holatlar tahlil etilgan. Shuningdek, onlayn muhitda agressiya, kiberbulling, deviant va addiktiv xulq shakllari kengayishi ilmiy-nazariy asosda ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda kognitiv, sotsial-psixologik va bixevioral yondashuvlardan foydalanilgan holda internet muhitidagi destruktiv xulq namoyon bo‘lish mexanizmlari ochib berilgan. Olingan natijalar internet muhitida sog‘lom sotsializatsiyani ta’minlash, psixologik profilaktika va raqamli gigiena bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Internet sotsializatsiyasi, virtual muhit, destruktiv xulq, kiberbulling, raqamli identichlik, ijtimoiylashuv, internet addiksiya, onlayn agressiya, sotsial-psixologik omillar.

НАРУШЕНИЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ И ПРОЯВЛЕНИЕ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ИНТЕРНЕТ-СРЕДЕ

Аннотация. В статье анализируются трансформации процесса социализации личности в интернет-среде, а также психологические механизмы формирования деструктивного поведения. В условиях цифровой реальности социализация приобретает новые характеристики, отличающиеся от традиционных моделей, формируя виртуальное пространство, в котором доминирует онлайн-коммуникация. Рассматриваются ключевые факторы нарушения социализации в интернет-среде, включая информационную перегрузку, анонимность, ослабление социального контроля и кризис виртуальной идентичности. Особое внимание уделено распространению онлайн-агрессии, кибербуллинга, девиантных и аддиктивных форм поведения. Исследование основано на когнитивном, социально-психологическом и бихевиоральном подходах, что позволило выявить механизмы формирования деструктивного поведения в цифровой среде. Полученные результаты могут быть использованы для разработки профилактических программ,

направленных на формирование здоровой социализации и цифровой психогигиены.

Ключевые слова: интернет-социализация, виртуальная среда, деструктивное поведение, кибербуллинг, цифровая идентичность, социализация, интернет-аддикция, онлайн-агрессия, социально-психологические факторы.

IMPAIRMENT OF SOCIALIZATION AND MANIFESTATION OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN THE INTERNET ENVIRONMENT

Abstract: This article examines the transformation of the socialization process in the digital environment and explores the psychological mechanisms underlying the emergence of destructive behavior online. In the context of digitalization, socialization increasingly diverges from traditional models, forming a virtual space dominated by online communication. The study identifies key factors contributing to the disruption of socialization in the internet environment, including information overload, anonymity, weakened social control, and virtual identity crisis. Particular attention is paid to the spread of online aggression, cyberbullying, deviant, and addictive behavior patterns. The research is based on cognitive, socio-psychological, and behavioral approaches, which allowed for identifying the mechanisms of destructive behavior formation in digital settings. The findings can contribute to the development of preventive strategies aimed at promoting healthy socialization and digital psychological hygiene.

Keywords: internet socialization, virtual environment, destructive behavior, cyberbullying, digital identity, socialization, internet addiction, online aggression, socio-psychological factors.

XXI asrda raqamli texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Internet nafaqat axborot almashish vositasi, balki insonning ijtimoiy hayotini qayta shakllantiruvchi global muhit sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, kommunikatsiya shakllarining virtuallashuvi sotsializatsiya jarayonining mazmuni va mexanizmlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda [5; 21].

An’anaviy psixologiyada sotsializatsiya shaxsning ijtimoiy tajriba, qadriyatlar va xulq normalarini o‘zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayon odatda oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar muhiti va madaniy institutlar orqali amalga oshiriladi. Biroq raqamli muhit sharoitida mazkur institutlar rolining qayta taqsimlanishi kuzatilmoqda. Internet mustaqil sotsiallashtiruvchi makonga aylanib, shaxsning ijtimoiy rivojlanish traektoriyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [3; 73].

Internet muhitida muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari — anonimlik, tezkorlik, vizuallashgan kommunikatsiya va geografik chegaralarning yo‘qligi — sotsializatsiya jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda shaxs ijtimoiy tajribani nafaqat real muhitdan, balki virtual jamoalardan ham o‘zlashtiradi. Bu holat ijtimoiy normalar va qadriyatlar tizimining fragmentatsiyasiga olib kelishi mumkin [2; 84].

Ayniqsa, o‘smirlar va yoshlar internet muhiti ta’siriga nisbatan sezgir hisoblanadi. Chunki bu davrda shaxsiy identichlik shakllanadi, ijtimoiy rollar o‘zlashtiriladi va mustaqil dunyoqarash rivojlanadi. Agar mazkur jarayonning asosiy qismi virtual makonda kechsa, real ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanishi cheklanishi mumkin. Bu esa shaxsning emotsional barqarorligi va ijtimoiy adaptatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [6; 102].

So‘nggi yillarda internet muhiti bilan bog‘liq psixologik xavflar ilmiy muhokamalar markaziga chiqmoqda. Xususan, internet addiksiyasi, kiberbulling, onlayn agressiya va virtual identichlik muammolari zamonaviy psixologiyada dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi [4;18]. Bu holat internet muhitida sotsializatsiyaning nafaqat konstruktiv, balki destruktiv yo‘nalishlari ham mavjud ekanini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, internet muhitida sotsializatsiyaning buzilishi va uning destruktiv xulq shakllanishiga ta’sirini kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqola internet muhitida sotsializatsiya transformatsiyasi va uning psixologik oqibatlarini nazariy tahlil asosida yoritishga qaratilgan.

Internet muhiti va shaxs sotsializatsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy psixologiyada ko‘p qirrali tadqiq etilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur masala turli nazariy maktablar doirasida tahlil qilingan bo‘lib, ularning har biri internet ta’sirini turlicha izohlaydi.

Sotsial o‘rganish nazariyasi nuqtai nazaridan inson xulq-atvori modellash va kuzatish orqali shakllanadi. Internet muhitida modellar ko‘pligi va ularning tez tarqalishi mazkur nazariyani yangi kontekstda ko‘rib chiqishni talab etadi. Onlayn platformalarda agressiv yoki deviant xulq namunalarining ommaviylashuvi yoshlar xulqiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin [1; 56].

Kognitiv psixologiya doirasida internet axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlariga ta’sir qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi. Ayrim tadqiqotlarda internet muhiti diqqatning fragmentatsiyasi va chuqur fikrlash qobiliyati pasayishiga olib kelishi ta’kidlanadi. Bu holat ijtimoiy qarorlar qabul qilish va axloqiy baholash jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2; 91].

Internet addiksiyasi fenomeni alohida tadqiqot ob’ekti sifatida shakllangan. Ilmiy manbalarda internetdan ortiqcha foydalanish psixologik qaramlik shakli sifatida talqin qilinib, u ijtimoiy izolyatsiya, emotsional beqarorlik va shaxsiy rivojlanishdagi disbalanslar bilan bog‘lanadi [4; 15]. Keyingi tadqiqotlar internet addiksiyasi sotsializatsiya jarayonining sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlagan.

Kiberbulling internet muhitida destruktiv xulqning institutsionallashgan shakli sifatida o‘rganilmoqda. U raqamli kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladigan sistemali agressiya sifatida ta’riflanadi. Tadqiqotlar kiberbulling qurbonlarida depressiv holatlar, xavotir darajasi va ijtimoiy chetlanish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishini ko‘rsatadi [5; 63].

Virtual identichlik muammosi ham internet sotsializatsiyasining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Internet insonga bir vaqtning o‘zida bir nechta

ijtimoiy rol va obrazlarni namoyon qilish imkonini beradi. Bu holat ayrim hollarda identichlik noaniqligi va ichki konfliktlarni keltirib chiqaradi [6; 102].

Raqamli sotsializatsiya masalasi postsovet ilmiy maktabida ham o‘rganilmoqda. Ayrim tadqiqotlarda internet muhitida sotsializatsiyaning gorizontal xarakter kasb etishi ta’kidlanadi. Ya’ni, ijtimoiy ta’sir an’anaviy ierarxiyadan ko‘ra tengdoshlar o‘rtasida shakllanadi [7; 44]. Bu esa ijtimoiy normalarning relativlashuviga olib kelishi mumkin.

Mahalliy tadqiqotlarda internetning yoshlar psixologiyasiga ta’siri bosqichma-bosqich o‘rganilmoqda. Ayrim ishlar internet addiksiyasi va ijtimoiy izolyatsiya o‘rtasida statistik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi [8; 27]. Biroq internet muhitida sotsializatsiyaning buzilishi va destruktiv xulq shakllanishi mexanizmlarini integrativ yondashuv asosida tahlil qiluvchi tadqiqotlar hali yetarli emas.

Shu bois mazkur maqola internet muhitida sotsializatsiya transformatsiyasini kompleks psixologik tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, u nazariy manbalarni umumlashtirish va integrativ yondashuvni taklif etishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur tadqiqot internet muhitida sotsializatsiya jarayonining buzilishi va destruktiv xulq namoyon bo‘lish mexanizmlarini kompleks tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda integrativ metodologik yondashuv qo‘llanilib, sotsial-psixologik, kognitiv va bixevioral paradigmalar sintez qilindi. Bu yondashuv internet muhitining ko‘p qirrali psixologik ta’sirini xolistik tarzda o‘rganish imkonini beradi [7; 44].

Tadqiqotning nazariy asosini sotsial o‘rganish nazariyasi, raqamli sotsializatsiya konsepsiyasi va media-psixologik yondashuvlar tashkil qildi. Mazkur nazariy asoslar internet muhitida xulq modellari shakllanishi va ijtimoiy normalar transformatsiyasini tushuntirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot uch bosqichli tahlil modeli asosida amalga oshirildi:

1-bosqich — nazariy tahlil.

Internet sotsializatsiyasi va destruktiv onlayn xulqqa oid ilmiy manbalar kontent-tahlil qilindi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o‘rtasida qiyosiy tahlil amalga oshirildi [2; 91].

2-bosqich — konseptual tahlil.

Internet muhitida sotsializatsiyaning psixologik indikatorlari aniqlandi va destruktiv xulq determinantlari tizimlashtirildi [5; 63].

3-bosqich — modellashtirish.

Internet muhitida destruktiv xulq shakllanishining bosqichli psixologik modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot ob’ekti: internet muhitida kechadigan sotsializatsiya jarayoni. Predmeti: internet ta’sirida destruktiv xulq shakllanishining psixologik mexanizmlari.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

nazariy tahlil

kontent-tahlil

qiyosiy tahlil

konseptual modellashtirish

induktiv-deduktiv tahlil

Kontent-tahlil jarayonida internet muhitida agressiya, kiberbulling va internet addiksiyasiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tahlil qilindi. Bu metod internet muhitidagi psixologik tendensiyalarni umumlashtirish imkonini berdi [4; 15].

Tadqiqot doirasida internet muhitida sotsializatsiya sifatini baholash uchun shartli diagnostik mezonlar ishlab chiqildi.

1-jadval

Internet sotsializatsiyasi indikatorlari

№	Mezon	Psixologik mazmun
1	Ijtimoiy integratsiya	Real va virtual munosabatlar muvozanati
2	Identichlik barqarorligi	Real va virtual “Men” uyg‘unligi
3	Empatiya darajasi	Onlayn muloqotda emotsional rezonans
4	Xulq regulyatsiyasi	Onlayn muhitda o‘zini nazorat qilish
5	Agressiya indeksi	Onlayn agressiv reaksiyalar chastotasi

Ushbu mezonlar internet muhitida sotsializatsiyaning konstruktiv yoki destruktiv yo‘nalishini baholash imkonini beradi.

Tahlil asosida internet muhitida destruktiv xulqning quyidagi indikatorlari ajratildi:

onlayn agressiya, kiberbulling, trolling, Internet addiksiya, sotsial izolyatsiya, virtual identichlik dissonansi.

Mazkur indikatorlar internet muhitida sotsializatsiya buzilishining asosiy markerlari sifatida qaraldi.

Tahlil natijalari internet muhitida sotsializatsiya jarayonining ikkilamchi tabiatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bir tomondan, internet ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy rivojlanishda xavf omillarini yuzaga keltiradi.

1. Sotsializatsiyaning raqamli transformatsiyasi

Analiz shuni ko‘rsatdiki, internet muhitida sotsializatsiya vertikal modeldan gorizontal modelga o‘tmoqda. Ya’ni ijtimoiy ta’sir kattalardan yoshlarga emas, balki tengdoshlar tarmog‘i orqali amalga oshmoqda. Bu holat ijtimoiy nazorat mexanizmlarining susayishiga olib keladi.

Natijada:

normalar relativlashuvi;

avtonom xulq ortishi;

ijtimoiy mas’uliyat pasayishi kuzatiladi.

2. Anonimlik va dezindividuatsiya effekti

Internet muhitida anonimlik shaxsiy mas’uliyatning kamayishiga olib keladi. Psixologik jihatdan bu holat dezindividuatsiya effekti bilan izohlanadi. Anonim muhitda shaxs o‘z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini kamroq hisobga oladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, anonim muhitda:
Agressiya darajasi yuqori
Normalar buzilishi oson
Empatiya past
3. Virtual identichlik dissonansi

Internet muhiti insonga ko‘p qirrali identichlik yaratish imkonini beradi. Biroq real va virtual identichlik o‘rtasidagi tafovut ayrim hollarda ichki konfliktlarga olib keladi [6; 102].

Bu holat quyidagi oqibatlarni keltirib chiqaradi:
Ichki rol konfliktlari
O‘zini qabul qilmaslik
Ijtimoiy noaniqlik
4. Internet addiksiyasi va sotsial izolyatsiya

Tahlillar internet addiksiyasi va ijtimoiy izolyatsiya o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Internet faolligi ortishi real muloqot ulushini kamaytiradi.

Kiberbulling internet muhitida destruktiv xulqning tizimlashgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy xususiyati — anonimlik va doimiylikdir.

2-jadval

Kiberbulling ishtirokchilari psixotiplari

Toifa	Psixologik xususiyat
Agressor	Hukmronlik ehtiyoji, past empatiya
Qurbon	Past o‘zini baholash, xavotir
Guvoh	Passivlik, normallashtirish effekti

Tahlillar asosida internet muhitida destruktiv xulq shakllanishining bosqichli modeli ishlab chiqildi.

Qiyosiy tahlil onlayn agressiyaning asosiy omillarini aniqlash imkonini berdi.

3-jadval

Onlayn agressiya omillari

Omil	**Ta’sir darajasi**
Anonimlik	Yuqori
Sotsial nazorat yo‘qligi	Yuqori
Kontent ta’siri	O‘rta–yuqori
Frustratsiya	O‘rta
Guruh bosimi	O‘rta

Onlayn muloqotda verbal bo‘lmagan signallarning cheklanganligi empatiya darajasini pasaytiradi. Mimika, intonatsiya va jismoniy huzurning yo‘qligi emotsional rezonansni susaytiradi.

Bu holat:
Agressiyani osonlashtiradi;
Qurbonni depersonalizatsiya qiladi;

Hissiy sovuqlikni kuchaytiradi;
Tahlillar quyidagi umumlashtirilgan natijalarni ko‘rsatdi:
Internet mustaqil sotsiallashtiruvchi muhitga aylangan;
Anonimlik destruktiv xulqning asosiy triggeri hisoblanadi;
Internet addiksiyasi sotsial izolyatsiyani kuchaytiradi;
Virtual identichlik krizisi psixologik xavf omillaridan biri;
Onlayn muhitda empatiya darajasi pastroq.

Olib borilgan tahlillar internet muhiti zamonaviy sotsializatsiya jarayonining muhim institutiga aylanganini ko‘rsatdi. Raqamli muhit insonning ijtimoiy munosabatlar tizimini transformatsiya qilib, an’anaviy sotsiallashuv modellariga yangi mazmun kiritmoqda. Internet orqali amalga oshadigan muloqot shakllari ijtimoiy tajriba uzatish mexanizmlarini qayta shakllantirib, sotsializatsiyaning mazmun va shakl jihatdan differensiatsiyalanishiga olib kelmoqda.

Birinchi muhim xulosa shuki, internet muhitida sotsializatsiya vertikal modeldan gorizontal modelga o‘tmoqda. Ya’ni, ijtimoiy normalar va qadriyatlar kattalardan yoshlarga emas, balki tengdoshlar tarmog‘i orqali tarqalmoqda. Bu holat ijtimoiy nazorat mexanizmlarining susayishiga va normalarning relativlashuviga olib keladi.

Ikkinchi muhim natija — anonimlik fenomeni destruktiv xulq shakllanishining asosiy psixologik triggerlaridan biri ekanligidir. Anonim muhitda shaxs ijtimoiy sanksiyalardan kamroq qo‘rqadi, bu esa dezindividuatsiya holatini yuzaga keltiradi. Natijada agressiv va deviant xulq namoyon bo‘lishi osonlashadi.

Uchinchi xulosa internet muhitida virtual identichlik muammosining dolzarbligi bilan bog‘liq. Internet insonga bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy obrazlarni namoyon qilish imkonini beradi. Biroq real va virtual identichlik o‘rtasidagi nomutanosiblik ayrim hollarda ichki konfliktlarga va shaxsiy barqarorlikning susayishiga olib kelishi mumkin.

To‘rtinchi xulosa internet addiksiyasi va sotsial izolyatsiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Internetdan ortiqcha foydalanish real muloqot ulushini kamaytirib, ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanishini cheklaydi. Bu holat uzoq muddatda emotsional sovuqlik va ijtimoiy chetlanishga sabab bo‘lishi mumkin.

Beshinchi muhim natija — kiberbulling internet muhitida destruktiv xulqning institutsionallashgan shakli sifatida namoyon bo‘lishidir. Kiberbullingning anonimlik va ommaviylik xususiyatlari uning psixologik ta’sirini kuchaytiradi. Bunday holatlar nafaqat qurbonlarga, balki guvohlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, agressiyani normallashtirishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot internet muhitida empatiya reduksiyasi fenomeni mavjudligini ko‘rsatdi. Onlayn muloqotda verbal bo‘lmagan signallarning cheklanganligi emotsional rezonansni pasaytiradi. Bu esa agressiv reaksiyalar ehtimolini oshiradi va ijtimoiy munosabatlarning emotsional sifatini pasaytiradi.

Umuman olganda, internet muhitida sotsializatsiya jarayoni ikki qutbli xarakterga ega. Bir tomondan, internet ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytiradi, ikkinchi tomondan, psixologik xavf omillarini yuzaga keltiradi. Shu bois internet

sotsializatsiyasini konstruktiv yo‘nalishda boshqarish zamonaviy psixologiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

mediasavodxonlik va raqamli psixogigiena kurslarini ta’lim dasturlariga kiritish;

onlayn muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan treninglar tashkil etish;

Internet addiksiyasini erta diagnostika qilish metodikalarini ishlab chiqish;

virtual identichlik krizisini korreksiya qilish bo‘yicha dasturlar yaratish;

ota-onalarda raqamli tarbiya madaniyatini shakllantirish;

bolalar bilan internetdan foydalanish bo‘yicha hamkorlik modeliga o‘tish;

kiberbullingga qarshi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish;

Internet platformalarida axloqiy standartlarni kuchaytirish;

Sog‘lom raqamli muhit konsepsiyasini rivojlantirish.

Maqolaning ilmiy ahamiyati internet muhitida sotsializatsiya buzilishining psixologik mexanizmlarini integrativ yondashuv asosida ochib berilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, destruktiv onlayn xulq shakllanishining bosqichli modeli nazariy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot asosan nazariy tahlillarga tayangan. Keyingi tadqiqotlarda empirik ma’lumotlar asosida eksperimental va longityud tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bandura A. Social Learning Theory. — New York: General Learning Press, 1977.

2. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. — New York: Norton, 2010.

3. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. — New York: Norton, 1968.

4. Young K. Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder // CyberPsychology & Behavior, 1998.

5. Облокулов Ж.Ж. Поэтологическая конструкция Адила Якубова: эстетические критерии и основа выражения. // Вестник Российского университета дружбы народов. серия: литературоведение. журналистика// 2025 Том 30 № 4.

6. Облокулов Ж.Ж. Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar. Ilmiy-nazariy jurnal. ISSN 3060-544X// № 12-son, 2025-yil

7. Асмолов А.Г. Психология личности в эпоху цифровой трансформации. — Москва, 2015.

UDK 159.9.075.314.624.067

Sharapova Dildora Baxtiyarovna,
ISFT instituti dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI JAMIYATDA OILA INSTITUTI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TRANSFORMATSIYASINING NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada raqamli jamiyat sharoitida oila institutida yuz berayotgan ijtimoiy-psixologik transformatsiyalar tizimli tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual kommunikatsiyalarning oilaviy munosabatlar, rollar taqsimoti, emotsional yaqinlik hamda tarbiyaviy jarayonlarga ta’siri ochib beriladi. Tadqiqotda raqamli muhitning oilaning an’anaviy funksiyalariga ko‘rsatgan ijobiy va salbiy psixologik ta’sirlari nazariy asosda tahlil qilinib, zamonaviy oilaning rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi. Olingan xulosalar oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va profilaktik amaliyot uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: raqamli jamiyat, oila instituti, ijtimoiy-psixologik transformatsiya, oilaviy munosabatlar, raqamli kommunikatsiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В данной научной статье систематически анализируются социально-психологические трансформации, происходящие в институте семьи в условиях цифрового общества. Раскрывается влияние цифровых технологий, социальных сетей и виртуальных коммуникаций на семейные отношения, распределение ролей, эмоциональную близость и образовательные процессы. В исследовании на теоретической основе анализируются позитивные и негативные психологические эффекты цифровой среды на традиционные функции семьи и определяются тенденции развития современной семьи. Полученные выводы имеют важное научное значение для семейной психологии, социальной психологии и профилактической практики.

Ключевые слова: цифровое общество, институт семьи, социально-психологическая трансформация, семейные отношения, цифровая коммуникация.

THEORETICAL ASPECTS OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL TRANSFORMATION OF THE FAMILY INSTITUTION IN A DIGITAL SOCIETY

Abstract. This scientific article systematically analyzes the socio-psychological transformations taking place in the institution of the family in the conditions of a digital society. The impact of digital technologies, social networks and virtual communications on family relationships, role distribution, emotional intimacy and educational processes is revealed. The study analyzes the positive and negative psychological effects of the digital environment on the traditional functions of the family on a theoretical basis and identifies the development trends of the modern family. The conclusions obtained are of significant scientific importance for family psychology, social psychology and preventive practice.

Keywords: digital society, family institution, socio-psychological transformation, family relationships, digital communication

Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) misli ko‘rilmagan tezlikda jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatning fundamental tuzilmalarida tub evolyutsion va inqirozli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu raqamli tranzaksiya jarayonlari an’anaviy ijtimoiy institutlar faoliyatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatib, ularning mazmuni, shakli, faoliyat mexanizmlari hamda funksiyalarini qayta ko‘rib chiqishni keskin taqozo etmoqda. Jamiyatning eng muhim ijtimoiy-psixologik tayanchi va shaxs ijtimoiylashuvining birlamchi o‘chog‘i hisoblangan **oila instituti** ushbu o‘zgarishlar episentrida qolmoqda.

Raqamli jamiyat sharoitida oila mikromuhitida kommunikatsiya shakllari, emotsional-affektiv aloqalar, avlodlararo munosabatlar (intergenerational relations) va an’anaviy tarbiya mexanizmlarida sezilarli transformatsiyalar kuzatilmoqda. Bir tomondan, smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar oila a’zolari o‘rtasida masofaviy muloqotni osonlashtirib, tezkor axborot almashinuvini ta’minlamoqda. Ammo, ikkinchi tomondan, raqamli vositalarning haddan tashqari faol qo‘llanilishi oilada **emotsional deprivatsiya** (hissiy qashshoqlashuv) holatlarini yuzaga keltirmoqda.

Bu jarayon quyidagi salbiy psixologik fenomenda o‘z ifodasini topadi:

- **"Fabbing" (Phubbing):** Oila a’zolarining jonli muloqot o‘rniga e’tiborini doimiy ravishda gadjetlarga qaratishi.
- **Rolli chalkashuvlar:** Ota-onalarning virtual makondagi faolligi ortishi hisobiga ularning tarbiyaviy va nazorat funksiyalarining susayishi.
- **Psixologik masofaning ortishi:** Bir tom ostida yashasa-da, oila a’zolarining turli xil "virtual olamlar"da yashashi oqibatida o‘zaro empatiya va ishonchning yo‘qolishi.

Raqamli makondagi ishtirokning ortishi va an’anaviy oilaviy nazoratning susayishi o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida jiddiy xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi emotsional bo‘shliq yoshlarning muqobil "yupanch" yoki ijtimoiy tarmoqlardagi soxta "qabul qilinish" hissini izlashiga sabab bo‘ladi.

Bu psixologik zaiflik va oiladagi himoya mexanizmlarining ishdan chiqishi, o‘z navbatida, yoshlarning destruktiv xulq-atvorga moyilligini keskin oshiradi. Xususan, emotsional inqirozni boshdan kechirayotgan yoshlarning turli salbiy ta’sirlarga, shu jumladan, **tabiiy va sintetik narkotik vositalar** iste’moliga jalb

qilinish xavfi ortadi. Shu sababli, oiladagi ijtimoiy-psixologik iqlimni barqarorlashtirish nafaqat oila mustahkamligini saqlash, balki yoshlarga o‘z vaqtida ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatishning va ularni yot g‘oyalar hamda moddalardan asrashning eng muhim profilaktik bosqichi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli jamiyat sharoitida oila institutining ijtimoiy-psixologik transformatsiyasini chuqur ilmiy jihatdan o‘rganish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifasidir. Ushbu transformatsiyaning yashirin mexanizmlari, kognitiv va xulq-atvorga oid oqibatlarini aniqlash hamda oilaviy munosabatlarni uyg‘unlashtirishning zamonaviy psixologik korreksiya modellarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida baholanadi.

Raqamli jamiyat tushunchasi axborot texnologiyalari asosida shakllangan, kommunikatsiya va ijtimoiy aloqalar virtual makon orqali amalga oshiriladigan jamiyat modelini anglatadi. Ushbu jamiyatda shaxslararo munosabatlar tezkorlik, ochiqlik va doimiy axborot almashinuvi bilan tavsiflanadi.

Oila instituti esa ijtimoiy tizimning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, biologik, tarbiyaviy, emotsional va ijtimoiylashtiruvchi funksiyalarni bajaradi. Klassik ijtimoiy-psixologik yondashuvlarda oila shaxs rivojlanishining birlamchi muhitidir. Biroq raqamli jamiyat sharoitida ushbu funksiyalar yangi mazmun kasb etmoqda.

Zamonaviy nazariy tahlillar va empirik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli muhit oilaviy munosabatlar tizimida o‘ziga xos paradoksal, ikki tomonlama ta’sir mexanizmiga ega. Bir tomondan, u global miqyosda muloqot imkoniyatlarini kengaytirib, oila a’zolarining fazoviy masofadan qat’i nazar tezkor axborot almashinuvini ta’minlaydi. Ikkinchi tomondan esa, bevosita (yuzma-yuz) emotsional aloqalarning keskin cheklanishiga olib keladi. Ushbu dixotomiya (ikkiyqlama holat) bugungi kunda oilaning ijtimoiy-psixologik barqarorligiga, uning jipslik va hamjihatlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir etuvchi markaziy destruktiv omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli texnologiyalar va kiber-makon oilaviy muloqotning nafaqat shaklini, balki uning tub mazmunini ham sezilarli darajada o‘zgartirib yubordi. Onlayn messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar va turli virtual platformalar oila a’zolari o‘rtasidagi fizik masofani qisqartirgan bo‘lsa-da, real muloqot sifatiga, empatiya va hamdardlik tuyg‘ulariga jiddiy putur yetkazmoqda.

Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi kundalik munosabatlarda raqamli qurilmalardan ortiqcha foydalanish (jumladan, fabbing fenomeni) psixologik masofaning sun'iy ravishda oshishiga olib keladi. Psixologik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, oilada raqamli muloqotning an’anaviy muloqotdan ustunlik qilishi farzandlarda **emotsional deprivatsiya** (hissiy ochlik va e’tiborsizlik) holatini keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida oilada emotsional sovuqlik, surunkali e’tibor yetishmasligi va kognitiv tushunmovchiliklarni kuchaytiruvchi omildir.

Shuningdek, axborotlashgan jamiyat muhiti oilaviy rollar taqsimotiga ham o‘zining jiddiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Ota-onaning virtual makondagi bandligi sababli an’anaviy nazorat va tarbiyaviy funksiyalar zaiflashmoqda. Farzandlarning nazoratsiz, mustaqil axborot makonida (ko‘pincha destruktiv kontentlar ta’sirida)

shakllanishi ularning ijtimoiylashuv jarayonida o‘ta xavfli psixologik risklarni yuzaga keltiradi.

Oilaviy muhitda psixologik tayanch va iliqlikni topa olmagan, emotsional begonalashuvni boshdan kechirayotgan yoshlarda kuchli xavotir va yolg‘izlik hissi shakllanadi. Aynan mana shu bo‘shliq yoshlarning turli zararli odatlarga va adiktiv (qaram) xulq-atvor shakllariga berilishiga asosiy sabab bo‘ladi. Xususan, bunday psixologik inqiroz holatidagi o‘smirlar va yoshlarning virtual tarmoqlar orqali yot g‘oyalarga ergashishi, **tabiiy va sintetik narkotik vositalarni** iste’mol qilish orqali "mavhum xotirjamlik" izlash xavfi keskin ortadi. Shuning uchun, oilaviy inqiroz fonida zararli odatlarga moyil bo‘lib qolgan yoki qaramlikka chalingan yoshlarga vaqtida kompleks **ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish**, ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuvini ta’minlash bugungi kunning eng muhim amaliy vazifalaridan biri sanaladi.

Raqamli jamiyat sharoitida oila institutining transformatsiyasi quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: kommunikativ o‘zgarishlar, emotsional munosabatlar qayta shakllanishi va tarbiyaviy mexanizmlarning yangilanishi.

Emotsional yaqinlik virtual muloqot bilan qisman kompensatsiya qilinayotgan bo‘lsa-da, real psixologik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan, raqamli muhit oilaviy munosabatlarni to‘liq almashtirmaydi, balki ularni transformatsiyalaydi.

Oilaning ijtimoiy-psixologik barqarorligi raqamli madaniyat, raqamli savodxonlik va psixologik ong darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu omillarni hisobga olmasdan oila institutining rivojlanishini ta’minlash mushkul.

Raqamli jamiyat sharoitida oila institutining ijtimoiy-psixologik transformatsiyasi zamonaviy ijtimoiy va oilaviy psixologiyaning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli muloqot shakllari oilaviy munosabatlar, ayniqsa er-xotin o‘rtasidagi emotsional yaqinlik, kommunikativ o‘zaro ta’sir va nikoh barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [5].

Xorijiy sotsiologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda er-xotin munosabatlarining raqamli transformatsiyasi masalasi jamiyat evolyutsiyasining eng murakkab bosqichi sifatida tahlil qilinadi. Xususan, taniqli britaniyalik sotsiolog **E. Giddens** o‘zining fundamental *"The Transformation of Intimacy"* (Intimlikning transformatsiyasi) asarida zamonaviy jamiyatda nikoh va intim munosabatlarning mazmunan tubdan o‘zgarishini yoritib bergan.

Olimning fikricha, texnologik taraqqiyot va globallashuv fonida er-xotin munosabatlari an’anaviy ijtimoiy, iqtisodiy yoki huquqiy majburiyatlardan uzoqlashib, ko‘proq shaxsiy ehtiyojlarni qondirish va **emotsional qoniqishga** (emotional satisfaction) asoslanib bormoqda. Giddens buni **"sof munosabatlar" (pure relationships)** deb ataydi. Raqamli jamiyatda bu munosabatlar o‘ta nozik va beqaror tus oladi, chunki ijtimoiy tarmoqlar va virtual makon alternativ tanlovlarni osonlashtiradi. Oqibatda, nikohning davomiyligi faqatgina tomonlarning undan olayotgan subyektiv emotsional qoniqish darajasiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ushbu yondashuv axborotlashgan jamiyatda oilaviy munosabatlarning psixologik

transformatsiyasi va beqarorlashuvini tushuntiruvchi tayanch nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [3].

Bu jarayonning axborot texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq jihatlari ispan-amerikalik sotsiolog **M. Castellsning** *"The Rise of the Network Society"* (Tarmoqli jamiyatning yuksalishi) asarida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Castells jamiyatning "tarmoq modeli" (network model) makro darajadan mikro darajaga – oilaviy munosabatlarga qadar kirib borganini isbotlaydi.

Olim ta’kidlashicha, raqamli tarmoqlar sharoitida er-xotinlar bir xonadon doirasida jismonan birga bo‘lsalar-da, ruhiy va kognitiv jihatdan turli xil virtual olamlarda ("tarmoqli individualizm") yashaydilar. Bu holat er-xotin o‘rtasidagi real, yuzma-yuz muloqotning keskin qisqarishiga va virtual muloqotning (yoki virtual makondagi bandlikning) ustunlik qilishiga olib keladi. Natijada nikohda **emotsional begonalashuv (emotional alienation)**, o‘zaro empatiyaning susayishi va surunkali tushunmovchilik kabi psixologik xavflar kuchayadi [2].

Er-xotin munosabatlaridagi ushbu raqamli begonalashuv va emotsional bo‘shliq faqatgina ota-onalar o‘rtasidagi ziddiyat bo‘lib qolmay, balki butun oila tizimining disfunksiyasini yuzaga keltiradi. Oila tayanchining zaiflashishi va ota-onalar o‘rtasidagi iliqlikning yo‘qolishi farzandlar, ayniqsa, o‘smirlar va yoshlar psixologiyasida kuchli vakuum yaratadi.

O‘z uyida xavfsizlik va emotsional qabul qilinish hissini topa olmagan yoshlar ushbu bo‘shliqni tashqi, ko‘pincha destruktiv muhitlardan qidira boshlaydilar. Aynan shu ijtimoiy-psixologik fon yoshlarning turli xil adiktiv (qaram) xulq-atvorlarga moyilligini oshirib, ularning **tabiiy va sintetik narkotik vositalarni** iste'mol qilishiga olib keluvchi asosiy triggerlardan biriga aylanadi. Shuning uchun, er-xotin munosabatlaridagi transformatsiyalarni ilmiy o‘rganish muammoli vaziyatga tushib qolgan va narkotik vositalar ta’siriga tushgan yoshlarga kompleks **ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish** tizimini va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Z.Bauman “Liquid Love” asarida zamonaviy nikoh munosabatlarini beqaror, tez o‘zgaruvchan va mas’uliyati pasaygan ijtimoiy munosabatlar sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar sharoitida er-xotin munosabatlarida uzoq muddatli majburiyatlarning zaiflashuvi kuzatilmoqda, bu esa oilaning psixologik mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Amerikalik psixolog J.Gottman tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar er-xotin o‘rtasidagi muloqot sifati nikoh barqarorligining asosiy psixologik omili ekanligini ko‘rsatadi. So‘nggi tadqiqotlarida u raqamli qurilmalarga haddan tashqari bog‘liqlik er-xotin o‘rtasidagi emotsional bog‘liqliklikni kamaytirishi va ziddiyatlar sonini oshirishini asoslab beradi [4].

Sh.Turkle “Alone Together” asarida texnologiyalar insonlarni birlashtirayotgandek tuyulsa-da, oilaviy munosabatlarda, xususan er-xotin o‘rtasida emotsional yolg‘izlikni kuchaytirishini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli muloqot real empatiya va chuqur psixologik aloqalarni siqib chiqarmoqda [6].

Rossiya va MDH olimlari tadqiqotlarida oila va raqamli muhit masalasida G.M.Andreeva ijtimoiy psixologiya doirasida oilani shaxslararo munosabatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqadi. Uning ishlari raqamli kommunikatsiya sharoitida er-xotin o‘rtasidagi ijtimoiy idrok va emotsional munosabatlarning o‘zgarishini tahlil qilishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [8].

E.V.Zmanovskaya oilaviy moslashuv va ziddiyatlar muammolarini o‘rganar ekan, zamonaviy axborot muhitini nikohdagi stress omillaridan biri sifatida ko‘rsatadi. U raqamli muhit er-xotin munosabatlarida psixologik barqarorlikni pasaytiruvchi omil bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi [10].

O‘zbekistonlik olimlarning ishlarida oila institutining ijtimoiy barqarorlikdagi o‘rni, er-xotin munosabatlarining axloqiy va psixologik asoslari keng yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida raqamli texnologiyalarning er-xotin munosabatlariga ta’siri tizimli va empirik asosda yetarli darajada o‘rganilmagan.

Nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy ilmiy adabiyotlarda raqamli jamiyat va er-xotin munosabatlari muammosi keng nazariy va empirik asosda o‘rganilgan bo‘lsa-da, mahalliy tadqiqotlarda ushbu masala hali yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, raqamli muhit sharoitida er-xotin munosabatlarining emotsional, kommunikativ va psixologik transformatsiyasi alohida ilmiy muammo sifatida dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ijtimoiy va oilaviy psixologiya nazariyalariga tayangan holda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni tizimli va qiyosiy tahlil qilish;
- nazariy umumlashtirish va mantiqiy tahlil;
- ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida interpretatsiya.

Metodologik yondashuv oila institutining raqamli jamiyat sharoitidagi transformatsiyasini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Nazariy ma’lumotlar tahlili asosida raqamli jamiyat oila institutining ijtimoiy-psixologik tuzilmasiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli kommunikatsiyalar oilaviy muloqotni kengaytirgan bo‘lsa-da, emotsional yaqinlik va psixologik barqarorlikka nisbatan yangi xavflarni yuzaga keltirmoqda. Oila institutining transformatsiyasi ijtimoiy-psixologik muvozanatni saqlash, raqamli madaniyatni rivojlantirish va psixologik profilaktika choralarini kuchaytirishni talab etadi.

Olingan nazariy ma’lumotlar asosida quyidagilarni taklif va tavsiyalarni berish o‘rinli:

- Oila institutini raqamli muhit sharoitida o‘rganishga qaratilgan kompleks psixologik tadqiqotlarni kengaytirish;
- Er-xotin va ota-onalar uchun raqamli madaniyat va oilaviy psixologiya bo‘yicha maxsus treninglar joriy etish;
- Ta’lim tizimida oila va raqamli muhit mavzusini integratsiyalash.
- Psixologlar tomonidan raqamli muhitda sog‘lom oilaviy muloqotni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- Jamiyatda oila institutining raqamli transformatsiyasini inobatga olgan strategiyalarni amalga oshirish;

- Oilaviy munosabatlarda raqamli texnologiyalardan muvozanatli foydalanishni targ‘ib qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bauman Z. Liquid Love. – Cambridge: Polity Press, 2003.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
3. Giddens A. The Transformation of Intimacy. – Stanford: Stanford University Press, 1992.
4. Gottman J. The Seven Principles for Making Marriage Work. – New York: Crown, 2015.
5. Livingstone S. Children and the Internet. – Cambridge: Polity Press, 2009.
6. Turkle S. Alone Together. – New York: Basic Books, 2011.
7. Twenge J.M. iGen. New York: Atria Books.
8. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2014.
9. Гидденс Э. Социология. – М.: Юрайт.
10. Змановская Е.В. Психология семейных отношений. – СПб.: Питер, 2016.

UDK 37.018.1:159.923.2

Alimardanova Ra'no Narbayevna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, p.f.f.d (PhD)

MA'NAVIY QADRIYATLARGA YO'NALTIRILGAN ONA TARBIYASINING FARZANDLAR PSIXOLOGIK HOLATIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolamda ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilgan ona tarbiyasining farzandlar psixologik holatiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi va bu tadqiqot oilaviy tarbiya jarayonida uzatiladigan axloqiy me'yorlar, qadriyat orientatsiyasi va emotsional munosabatlarning bolaning ichki barqarorligi hamda ijtimoiy moslashuviga qanday ta'sir ko'rsatishini yoritishga qaratilgan. Maqolam oila psixologiyasi doirasida ma'naviy tarbiyaning nazariy asoslarini aniqlashtirish hamda kelgusidagi empirik tadqiqotlar uchun ilmiy poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy qadriyatlar, ona tarbiyasi, psixologik holat, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, axloqiy identitet, ichki nazorat.

ВЛИЯНИЕ МАТЕРИНСКОГО ВОСПИТАНИЯ, ОРИЕНТИРОВАННОГО НА ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ, НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется влияние материнского воспитания, ориентированного на духовные ценности, на психологическое состояние детей. Исследование направлено на раскрытие того, каким образом нравственные нормы, ценностные ориентации и эмоциональные отношения, передаваемые в процессе семейного воспитания, воздействуют на внутреннюю устойчивость и социальную адаптацию ребенка. В рамках семейной психологии уточняются теоретические основы духовного воспитания и его роль в формировании психологической устойчивости и нравственной идентичности личности. Результаты создают научную основу для последующих эмпирических исследований.

Ключевые слова: духовные ценности, материнское воспитание, психологическое состояние, эмоциональная устойчивость, социальная адаптация, нравственная идентичность, внутренний локус контроля.

THE IMPACT OF MOTHER'S UPBRINGING ORIENTED TOWARD SPIRITUAL VALUES ON THE PSYCHOLOGICAL STATE OF CHILDREN

Abstract. This article theoretically analyzes the impact of spiritually value-oriented maternal upbringing on children's psychological well-being. The study focuses on clarifying how moral norms, value orientations, and emotional interactions transmitted within the family influence a child's internal stability and

social adaptation. Within the framework of family psychology, the paper aims to specify the theoretical foundations of spiritual upbringing and its role in shaping psychological resilience and moral identity. The findings contribute to the conceptual development of spiritually grounded parenting models and provide a scientific basis for future empirical research in the field.

Keywords: spiritual values, maternal upbringing, psychological state, emotional stability, social adaptation, moral identity, internal locus of control.

Zamonaviy jamiyat sharoitida oila nafaqat ijtimoiy institut, balki shaxsning ichki dunyosi shakllanadigan birlamchi psixologik makon sifatida namoyon bo‘lmoqda, ayniqsa, onaning tarbiyaviy pozitsiyasi farzandning ruhiy holati, o‘zini anglash darajasi va ijtimoiy moslashuv qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan tarbiya deganda faqat diniy yoki an’anaviy ko‘rsatmalar emas, balki axloqiy me’yorlar, insoniy hurmat, halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat kabi universal qadriyatlarni ongli ravishda singdirish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon onaning shaxsiy namunasida, muloqot ohangida va kundalik munosabatida namoyon bo‘ladi va bu psixologik nuqtai nazardan qaraganda, ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya farzandning ichki barqarorligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar ota-onaning axloqiy yetakchilik pozitsiyasi bolalarda yuqori darajadagi empatiya va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi [1].

Agar ona o‘z harakatlarida izchil va qadriyatlarga sodiq bo‘lsa, bola bu me’yorlarni ichki nazorat tizimiga aylantiradi va natijada tashqi nazoratga ehtiyoj kamayadi, ichki mas’uliyat kuchayadi. Bundan tashqari, ma’naviy yo‘naltirilgan tarbiya bolaning emotsional holatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zini qadrlangan va tushunilgan his qilgan bola xavotirga kamroq moyil bo‘ladi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi ota-ona modeli psixologik farovonlik bilan ijobiy bog‘liqlik ko‘rsatadi [2].

Ona tomonidan berilgan mehr va qadriyatlarga asoslangan tushuntirishlar bolaning ichki xavfsizlik hissini mustahkamlaydi va bu esa stressli vaziyatlarda barqaror reaktsiya ko‘rsatish imkonini beradi. Ma’naviy qadriyatlarga tayangan tarbiya intellektual jarayonlarga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi, axloqiy mulohaza yuritish va sabab-oqibat aloqalarini tushuntirish orqali bola abstrakt fikrlashga o‘rganadi. Axloqiy tafakkur va kognitiv rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik rivojlanish psixologiyasi doirasida keng yoritilgan [3]. Qadriyatlarga asoslangan muloqot bolani tanqidiy fikrlashga undaydi, bu esa uning akademik faoliyatida ijobiy aks etadi. Shu bilan birgalikda, oilaviy qadriyatlar tizimi bolaning ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘zini ma’lum guruh va qadriyatlar bilan bog‘lash orqali ichki yaxlitlikka erishadi [4].

Ona tomonidan ongli ravishda uzatilgan ma’naviy me’yorlar farzandning shaxsiy identitetini barqarorlashtiradi va ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi, ushbu maqolaning maqsadi ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ona tarbiyasining farzandlar psixologik holatiga ta’sirini nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tarbiya jarayonida qadriyatlarning uzatilish mexanizmlari, ularning emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida umumlashtiriladi va ushbu yondashuv oila psixologiyasi doirasida ma’naviy tarbiyaning ilmiy asoslarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqola nazariy yo‘nalishda olib borilgan bo‘lib, ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ona tarbiyasining farzandlar psixologik holatiga ta’sir mexanizmlarini konseptual jihatdan tahlil qilishni maqsad qiladi va tadqiqotim empirik ma’lumot yig‘ishga emas, balki mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish, tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni aniqlash va integrativ model ishlab chiqishga qaratildi. Shu boisdan ham metodologik asos sifatida konseptual-tahliliy yondashuv tanlandi va bu yondashuv turli nazariy maktablarning qarashlarini birlashtirish orqali muammoni chuqurroq va kengroq kontekstda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Avvalo, metodologik tayanch sifatida qadriyatlar nazariyasi qabul qilindi va qadriyatlar shaxsning xulq-atvorini boshqaruvchi ichki mezonlar sifatida talqin etiladi. Shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning uzatilishi oilada, ayniqsa ona bilan muloqot jarayonida shakllanadi, zamonaviy tadqiqotlar ota-onaning qadriyat orientatsiyasi bolalarning ijtimoiy xulq-atvori bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi [5].

Ushbu nazariy asos ma’naviy tarbiya jarayonini oddiy ko‘rsatma berish emas, balki ichki e’tiqodning shakllanishi sifatida tushuntirish imkonini beradi. Ikkinchi metodologik tayanch sifatida axloqiy rivojlanish nazariyalari qo‘llanildi va axloqiy mulohaza yuritish va mas’uliyat hissining rivojlanishi bosqichma-bosqich kechadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onaning izchil va qadriyatlarga asoslangan muloqoti bolalarda yuqori darajadagi axloqiy refleksiyani shakllantiradi [6].

Bu jarayon faqat nazariy tushuntirish bilan emas, balki real hayotiy vaziyatlarda namuna ko‘rsatish orqali amalga oshadi, shu sababli ham, metodologik jihatdan ona shaxsining namuna bo‘lish mexanizmi alohida tahlil qilindi. Bundan tashqari, metodologik asosda emotsional ijtimoiylashuv modeli ham inobatga olindi chunki, motsional ijtimoiylashuv deganda ota-onaning bolaga hissiyotlarni tushuntirishi, ularni nomlashi va mos reaksiya ko‘rsatishi tushuniladi. Ushbu modelga ko‘ra, ota-onaning hissiy yondashuvi bolaning ichki psixologik barqarorligini shakllantiradi [7].

Ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya aynan shu jarayonda namoyon bo‘ladi, chunki qadriyatlar hissiy tajriba orqali mustahkamlanadi. Shuningdek, metodologik tahlilda ijtimoiy o‘rganish mexanizmi muhim o‘rin egalladi sababi, bola kattalarning xulq-atvorini kuzatish orqali ichkilashtiradi. Agar ona o‘z harakatlarida halollik, hurmat va mas’uliyatni namoyon etsa, bola bu xatti-harakatlarni normativ mezon sifatida qabul qiladi va tadqiqotlar namuna orqali o‘rganish axloqiy xulq-atvor shakllanishida muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi [8].
Metodologik jihatdan yana bir muhim yo‘nalish – psixologik farovonlik konsepsiyasidir. Ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolaning ichki mazmunlilik hissini kuchaytirishi mumkin va hayot mazmunini anglash va ijobiy identifikatsiya psixologik sog‘lik bilan bog‘liq ekani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan [9].

Shu sababli ham maqolamda qadriyatlarga yo‘naltirilgan tarbiya bolaning umumiy ruhiy farovonligi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. Umumiy olganda, tanlangan metodologik asoslar ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ona tarbiyasini ko‘p qirrali psixologik jarayon sifatida talqin qilish imkonini berdi. Qadriyatlar uzatilishi, emotsional ijtimoiylashuv, axloqiy refleksiya va psixologik farovonlik o‘zaro bog‘langan mexanizmlar sifatida tahlil qilindi. Ushbu nazariy integratsiya keyingi bo‘limda tarbiyaning psixologik natijalarini tizimli ravishda ko‘rsatish uchun ilmiy asos yaratadi.

Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ona tarbiyasi farzandlarning psixologik holatiga ko‘p qatlamli mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir bir vaqtning o‘zida emotsional barqarorlik, o‘zini anglash, ijtimoiy moslashuv va ichki nazorat tizimining shakllanishida namoyon bo‘ladi va ona tomonidan ongli ravishda uzatilgan qadriyatlar bolaning shaxsiy identitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Identitet barqarorligi mavjud bo‘lgan shaxs tashqi bosim va ijtimoiy noaniqlik sharoitida o‘zini yo‘qotmaydi, psixologik tadqiqotlar qadriyatlar va shaxsiy yaxlitlik o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi [10].

Birinchi nazariy natija sifatida ichki nazorat mexanizmining shakllanishi ajratildi. Ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bolalarda xulq-atvor tashqi jazodan emas, balki ichki mas’uliyat hissidan kelib chiqadi va axloqiy identifikatsiya darajasi yuqori bo‘lgan bolalar ijtimoiy qoidalarga ongli ravishda rioya qiladi [11].

Bu jarayon onaning izchil pozitsiyasi va muloqot jarayonida beriladigan tushuntirishlar orqali shakllanadi. Ikkinchi muhim natija – emotsional xavfsizlik va ijtimoiy kompetensiya o‘rtasidagi bog‘liqlikdir chunki, qadriyatlarga asoslangan muloqot bola uchun tushunarli va barqaror axloqiy mezon yaratadi. Bunday muhitda bola o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etishga moyil bo‘ladi va tadqiqotlar ota-onaning qo‘llab-quvvatlovchi yondashuvi bolalarda yuqori darajadagi empatiya va past agressiv xatti-harakat bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi [12].

Uchinchi natija intellektual jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, ma’naviy muhokama va axloqiy dialog bolani mantiqiy fikrlashga undaydi. Sabab-oqibat aloqalarini tushuntirish orqali abstrakt tafakkur rivojlanadi va ota-ona bilan olib borilgan refleksiv suhbatlar bolalarda yuqori darajadagi analitik fikrlash bilan bog‘liq ekani ilmiy manbalarda qayd etilgan [13].

Demak, ma’naviy tarbiya intellektual rivojlanishning ham bilvosita omili hisoblanadi. To‘rtinchi natija sifatida ijtimoiy moslashuv jarayonining mustahkamlanishi qayd etildi va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya bolalarda jamiyat qoidalarini ichkilashtirishni osonlashtiradi. Ijtimoiy moslashuv va psixologik farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy izlanishlarda tasdiqlangan [14].

Bu holat o‘z navbatida o‘smirlik davrida deviant xatti-harakatlarning kamayishiga olib keladi va umuman olganda, nazariy natijalar ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ona tarbiyasi farzandning psixologik barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va intellektual faolligini bir vaqtning o‘zida qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatdi.

Nazariy tahlil natijalari ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilgan ona tarbiyasi farzand psixologik holatiga bevosita emas, balki murakkab vositachi mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bu jarayonni bir yo'nalishli ta'sir sifatida talqin qilish yetarli emas aksincha, u o'zaro bog'langan emotsional, kognitiv va ijtimoiy omillar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Ona tomonidan qadriyatlarga asoslangan muloqot bola ongida normativ mezonlar yaratadi va shu mezonlar keyinchalik ichki nazorat tizimiga aylanadi. Muhokama jarayonida birinchi e'tibor qaratiladigan jihat – qadriyatlarning ichkilashuvi masalasidir. Ichkilashuv mexanizmi ota-ona tomonidan takroriy, izchil va tushuntirishga asoslangan yondashuv orqali shakllanadi, ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, ota-onaning qadriyatlarni izchil namoyon etishi bolalarda yuqori darajadagi axloqiy identitet bilan bog'liq [15].

Bu holat farzandning o'zini boshqarish qobiliyatini kuchaytiradi. Ichki mas'uliyat hissi mavjud bo'lgan shaxs tashqi bosim yoki jazodan ko'ra ichki e'tiqodiga tayanadi. Ikkinchi jihat – emotsional xavfsizlik. Ma'naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya muhiti odatda mehr va hurmat bilan uyg'unlashgan bo'ladi va ota-onaning iliq va qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolalarda past xavotir darajasi va yuqori psixologik farovonlik bilan bog'liq ekanligi ko'rsatilgan [16].

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, qadriyatlarga asoslangan tarbiya hissiy regulyatsiyani mustahkamlaydi ammo, hissiy boshqaruv esa stressli vaziyatlarda barqaror reaktsiya ko'rsatish imkonini beradi. Shuningdek, ma'naviy dialogning intellektual rivojlanishga ta'siri ham alohida muhokama qilindi va axloqiy masalalar yuzasidan olib borilgan suhbatlar bolani sabab-oqibat aloqalarini izlashga undaydi. Bunday muloqot reflektiv tafakkurni rivojlantiradi va shu bilan birgalikda, tadqiqotlar ota-onaning muhokamaga asoslangan tarbiya uslubi bolalarda yuqori darajadagi ijro funksiyalari bilan bog'liqligini ko'rsatadi [17]. Bu esa akademik muvaffaqiyat va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlaydi. Muhokama davomida ijtimoiy identifikatsiya jarayoni ham e'tiborga olindi. Qadriyatlarga yo'naltirilgan tarbiya bola uchun ma'lum axloqiy orientirlar yaratadi. Bu orientirlar orqali u o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida anglaydi. Ijtimoiy identitetning mustahkamligi psixologik barqarorlik bilan uzviy bog'liq ekani ilmiy manbalarda tasdiqlangan [18].

Biroq muhokama faqat ijobiy natijalar bilan cheklanmaydi. Agar ma'naviy qadriyatlar qat'iy va moslashuvchanliksiz singdirilsa, bu holat bolada ichki ziddiyat va psixologik bosimni yuzaga keltirishi mumkin. Zamonaviy psixologiya ota-ona avtoritar pozitsiyasining salbiy oqibatlarini qayd etadi [19]. Demak, qadriyatlarga yo'naltirilgan tarbiya izchillik bilan birga empatik yondashuvni ham talab qiladi. Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'naviy qadriyatlarga asoslangan ona tarbiyasi farzandning ruhiy holatini mustahkamlovchi muhim omildir. U ichki nazoratni, emotsional barqarorlikni va ijtimoiy moslashuvni bir vaqtning o'zida qo'llab-quvvatlaydi. Biroq bu jarayon muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya uslubi moslashuvchan, tushuntirishga asoslangan va hurmat bilan uyg'un bo'lishi zarur.

Mazkur maqola doirasida olib borilgan nazariy tahlillar ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilgan ona tarbiyasi farzandlar psixologik holatining shakllanishida

markaziy o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Tarbiya jarayonida uzatilgan qadriyatlar bolaning ichki dunyosida normativ mezon sifatida mustahkamlanadi va keyinchalik uning xulq-atvori, hissiy reaksiyalari hamda ijtimoiy pozitsiyasini boshqaruvchi omilga aylanadi. Ona tomonidan namoyon etilgan izchillik va hurmatga asoslangan munosabat bolada ichki xavfsizlik hissini kuchaytiradi. Aynan shu xavfsizlik hissi psixologik barqarorlikning poydevorini tashkil etadi. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy qadriyatlarga tayangan tarbiya faqat axloqiy ko‘rsatmalar berish bilan cheklanmaydi. U kundalik muloqot, namuna ko‘rsatish va tushuntirish orqali amalga oshadi. Qadriyatlarning ichkilashuvi natijasida bola tashqi nazoratga emas, balki o‘z e’tiqodiga tayanib harakat qilishni o‘rganadi. Bu esa o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Ichki mas’uliyat shakllangan shaxs stressli vaziyatlarda ham muvozanatni saqlay oladi. Shuningdek, ma’naviy yo‘naltirilgan tarbiya intellektual jarayonlarga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy masalalarni muhokama qilish, sabab-oqibat aloqalarini tushuntirish va hayotiy vaziyatlarga baho berish jarayoni bolaning tafakkurini chuqurlashtiradi. Bunday muhitda ulg‘aygan farzand tanqidiy fikrlashga moyil bo‘ladi, ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildiradi. Shu jihatdan qaralganda, ma’naviy qadriyatlar nafaqat ruhiy, balki kognitiv rivojlanish omili sifatida ham namoyon bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, ma’naviy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ona tarbiyasi farzandning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy identitetining shakllanishida muhim psixologik resurs hisoblanadi. Biroq bu jarayon muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya uslubi moslashuvchan, empatik va dialogga ochiq bo‘lishi zarur. Qadriyatlarni zo‘ravonlik yoki qat’iy nazorat orqali emas, balki ongli va hurmatli yondashuv orqali singdirish eng samarali yo‘l hisoblanadi. Mazkur nazariy xulosalar kelgusida empirik tadqiqotlar olib borish va oilaviy tarbiya strategiyalarini takomillashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hardy S.A., Carlo G. Moral identity and moral behavior: A review and meta-analysis. Developmental Psychology. 2011;47(5):1266–1278. DOI: https://doi.org/10.1037/a0022781

2. Diener E., Oishi S., Lucas R.E. Subjective well-being: Advances and open questions. Annual Review of Psychology. 2018;69:283–315. DOI: https://doi.org/10.1146/annurev-psych-122216-011646

3. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation. American Psychologist. 2000;55(1):68–78. DOI: https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68

4. Pinquart M. Associations of parenting styles with mental health outcomes. Journal of Child and Family Studies. 2017;26:1–13. DOI: https://doi.org/10.1007/s10826-016-0610-y

5. Hughes C., Devine R.T. Parental influences on executive function. Child Development Perspectives. 2017;11(1):5–10. DOI: https://doi.org/10.1111/cdep.12204

6. Schwartz S.J., Zamboanga B.L., Weisskirch R.S. Identity development and well-being. Journal of Adolescence. 2008;31(5):629–648. DOI: https://doi.org/10.1016/j.adolescence.2007.08.006

7. Aquino K., Reed A. The self-importance of moral identity. Journal of Personality and Social Psychology. 2002;83(6):1423–1440. DOI: https://doi.org/10.1037/0022-3514.83.6.1423

8. Eisenberg N., Spinrad T.L. Emotion-related regulation and socialization. Annual Review of Psychology. 2004;55:271–299. DOI: https://doi.org/10.1146/annurev.psych.55.090902.141456

9. Grusec J.E., Goodnow J.J. Impact of parental discipline methods on value internalization. Developmental Psychology. 1994;30(1):4–19. DOI: https://doi.org/10.1037/0012-1649.30.1.4

10. Alimardanova R.N. Oila psixologiyasi. Darslik. 272 b. 2024 Toshkent. Condor-print nashriyoti.

11. Nishonova Z.T. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasi. Toshkent: Fan; 2019.

12. Qodirov B.R. Oila psixologiyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi; 2018.

13. Оила психологияси Тошкент Condor print нашриёти 2024. Р. Алимарданова 272 бет

14. Sodiqov A.S. Rivojlanish psixologiyasi. Samarqand; 2022.

15. Abdullayeva M.A. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar psixologiyasi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2022;3:44–52.

16. To‘xtayeva N.R. Oilaviy tarbiya va shaxs rivojlanishi. Oila va jamiyat. 2023;1:31–39.

17. Alimardanova R.N. O‘zbekistonda onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning etnik xususiyatlari. Inter education & global study 3 (6), 541-550. 2025.

UDK 159.922.7:316.614.034

Norbosheva Maqsuda Achilovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

MAKTABGACHA YOSHDA BOLA SHAXSI SHAKLLANISHI VA IJTIMOIYLASHUVIDA MULOQOT OMILINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yosh davrida bolaning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiylashuv jarayonida muloqot omilining o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolaning kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqoti uning intellektual, emotsional-irodaviy va ijtimoiy rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritib berilgan. Shuningdek, muloqot jarayonida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi, ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishi va xulq-atvor me'yorlarining qaror topish mexanizmlari ochib beriladi. Maqolada o'yin faoliyati, hamkorlik va nutqiy muloqotning bolaning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida muloqotga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, shaxs shakllanishi, ijtimoiylashuv, muloqot, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy muhit, o'yin faoliyati, nutqiy rivojlanish.

ЗНАЧЕНИЕ ФАКТОРА ОБЩЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ И СОЦИАЛИЗАЦИИ РЕБЁНКА В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируется роль фактора общения в процессе формирования личности и социализации ребёнка в дошкольном возрасте. В исследовании освещается влияние общения ребёнка со взрослыми и сверстниками на его интеллектуальное, эмоционально-волевое и социальное развитие. Также раскрываются механизмы формирования межличностных отношений, усвоения социального опыта и установления норм поведения в процессе общения. В статье особо подчеркивается значение игровой деятельности, сотрудничества и речевого общения в социальной адаптации и личностном развитии ребёнка. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для совершенствования коммуникативно-ориентированных педагогических подходов в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольный возраст, формирование личности, социализация, общение, межличностные отношения, социальная среда, игровая деятельность, речевое развитие.

THE IMPORTANCE OF THE COMMUNICATION FACTOR IN PERSONALITY FORMATION AND SOCIALIZATION OF CHILDREN IN PRESCHOOL AGE

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of the communication factor in the process of personality formation and socialization of children during the preschool period. The study highlights how a child's communication with adults and peers influences their intellectual, emotional-volitional, and social development. Furthermore, the mechanisms of forming interpersonal relationships, assimilating social experience, and establishing behavioral norms during the communication process are revealed. The article emphasizes the particular importance of play activities, cooperation, and verbal communication in the social adaptation and personal development of the child. The research findings hold significant scientific and practical importance for improving communication-oriented pedagogical approaches within the preschool education system.

Keywords: preschool age, personality formation, socialization, communication, interpersonal relationships, social environment, play activities, language development.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda maktabgacha yosh davridan bolalarning intellektual, kommunikativ, hissiy jihatdan rivojlantirish masalalarida muloqot usullarini tanlash, xulq-atvori shakllanishida shaxslararo munosabatlar ta'sirini aniqlash, uning tengdoshlari guruhida referent o'rnini qaror toptirish va barqarorlashtirishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, inson shaxsiga bolalik davridan oliy qadriyat sifatida yondashish, uning muloqotini ijtimoiy-hissiy jihatdan shakllantirish orqali uning uchun bevosita ahamiyatli bo'lgan kattalar va tengdoshlari bilan ijobiy muloqot ko'nikmalarini o'rnatishda zarur bo'lgan ijtimoiy muhitning rivojlantiruvchi va ingibision (tormozlovchi) ta'sirini aniqlash asosida ota-onalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, psixolog-mutaxassislar faoliyatiga zarur bo'ladigan psixologik yo'riqnomalarni yaratish masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga yo'naltirilgan strategik vazifalar belgilanib, zarur me'yoriy asoslari yaratilmoqda: «Bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emosional ko'nikmalarni rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish» muhim vazifalar sifatida belgilanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs rivojlanishida u yoki bu faoliyat turlari (o'yin, o'qish, mehnat va boshqalar)ning turli yoshdagi faoliyatlar mazmuni (maqsadga yo'naltirilganlik, harakatning ongli, rejali bo'lishi, ularning samaradorligi va h.) shuningdek, aloqa, muomala hamda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ijtimoiy-

axloqiy me'yorlarga bo'ysunish, ijtimoiy burchni anglash, unga nisbatan mas'ullik kabi xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsning shakllanishida shaxsiy xislat va sifatlarning rivojlanib, taraqqiy etib borishi muhim o'rin tutadi. Shaxs sifatlarini to'g'ri aniqlash uchun turli munosabatlar jarayonida uni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Psixologiya va pedagogika fanlari ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayoniga ta'siri roliga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy voqea va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ta'kidlagan holda, ular ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi, deya ta'kidlaydilar. Mikromuhit o'zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Ayni chog'da u nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, bog'cha, maktab, do'stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa yo'q bo'lishi yoki "mudroq"ligicha qolib ketishi ham mumkin. Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi.

Hozirda milliy ta'lim-tarbiya tizimida yoshlarning muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Azaldan ma'lumki, Sharqda farzandlar muomalasini tarbiyalash jarayonida ibrat omili orqali ta'sir qilishga alohida zarurat sifatida qarashgan. Bu zarurat har bir shaxsni tarbiyalashda uning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini, inobatga olishni taqozo etadi. Bobokalonlarimiz yosh avlod tarbiyasi borasida ulkan dorulfunun yaratib qoldirganlar. Ular ta'lim-tarbiyadagi milliy xususiyatlarga alohida e'tibor berishgan.

Oila muhiti - mikro muhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois, mustaqillikka erishilgandan so'ng o'tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Mavjud ijtimoiy muhit insonning o'sib borayotgan ongiga ta'sir etadi. Ushbu ta'sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Biz jamiyat, tarbiya, ta'lim, muomala, o'zaro ta'sirlanish omillari ta'sirida shaxsga aylanamiz. Shaxs bo'lmoq - bu hamma vaqt o'z ustida ishlash, o'z xulq - atvori ustida ishlash deganidir. Ontogenezning ilk bosqichida shaxs shakllanishi quyidagicha bo'ladi:

Shaxsning asosiy stereotipi shakllanishi. Uch yoshga kelib, bolada o'zi va borliq haqida tasavvur shakllanadi. 3-5 yoshda esa bolada — "Men" olmoshi ishlatiladi. 7 yoshga kelib, tanasi haqida, o'ng va chap tomonlar (tananing) haqida tasavvurlar shakllanadi; 7-11 yoshdan boshlab bola o'z faoliyatini miyada rejalashtira oladi.

Shuni alohida ta'kidlaymizki, bola shaxsining rivojlanishi va ijtimoiylashuvi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatda bo'ladi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, tafakkur qilish darajasi yuksaladi, xarakter sifatlari takomillashib, kamol topadi.

Bola shaxsining uyg'un shakllanishi hamda ijtimoiylashuvi uchun o'yinning

ahamiyati beqiyosdir. Bola o‘yin yordamida ba’zi maqsadlarni belgilashni o‘rganadi va ularga erishishga intiladi. O‘yin bolada ixtiyoriy aqliy jarayonlarni rivojlantiradi (xotira, diqqat va boshqalar). O‘yinda emotsional dalda berish bola uchun qo‘shimcha rag‘batga aylanadi. O‘yin davomida mantiqiy nutq, muloqot, nozik qo‘l harakatlarini, shuningdek, obrazli va mavhum fikrlashni rivojlantirish osonlashadi. O‘yin – bu bolaning o‘zini namoyish qilishi, takomillashtirish usulidir.

1-jadval

Maktabgacha yosh davridagi bolalar ijtimoiylashuvining xususiyatlari

Davrlar	Bola shaxsining xususiyatlari
3-4 yosh	bola emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqdir
4-5 yosh	axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish
6-7 yosh	shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish xususida Masaru Ibuka “Uch yoshdan keyin kech bo‘ladi” asarida bola shaxsini erta rivojlantirish masalasiga o‘ziga xos yondashadi. Biz har doim bolalar haqida hamma narsani bilamiz deymiz, lekin aslida biz ularning real imkoniyatlari haqida deyarli hech narsa bilmaymiz, ko‘pincha biz o‘z diqqatimizni 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga nimani o‘qitishga ajratamiz. Lekin tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bu yoshga kelib miya to‘qimalarining rivojlanishi 70-80% yakunlanadi, eng asosiysi – yangi tajribaning “o‘z vaqtida” kiritilishidir, lekin bu “o‘z vaqtida”ni faqatgina bolaga har kuni g‘amxo‘rlik qiladigan kishi, eng ko‘p ona, bo‘lishi mumkin-deydi [2; 8-9-b.].

Masaru Ibuka pedagog bo‘lmagan, ammo u mehribon ota edi. Uning to‘ng‘ich o‘g‘li autizmga chalingan — ya’ni muloqot sohasida ruhiy chetlanishlari bo‘lgan bola edi. O‘z farzandining rivojlanishiga yordam berish uchun Masaru Ibuka yapon skripkachisi Sinichi Sudzukining tajribasini o‘rgandi. U kichik yoshdagi bolalarga skripka chalishni o‘rgatgan va hatto o‘zining “Suzuki metodi”ni yaratgan edi. Ibukaning mazkur qo‘llanmasida oilada va ta’lim muassasalarida ota-ona, tarbiyachi, psixologlar bola bilan o‘rnatadigan ijtimoiy aloqa va muloqot jarayonida bolaning potensial imkoniyatlariga katta e’tibor berishlari lozimligi quyidagicha ta’kidlanadi:

- bolaning miyasi chegarasiz axborotlarni joylay oladi;
- bola faqat o‘ziga qiziqarli bo‘lgan axborotlarnigina eslab qoladi;
- bolalikda tushunmagan narsalarni katta bo‘lganida hayotga tatbiq eta olmaydi;
- bugungi bola kechagiga nisbatan umuman boshqacha;
- “bir qoshiq qora moy, bir xum asalni ham buzishi mumkin”, bu bolalarga ham tegishli;
- rag‘batlardan ajralgan xona – bola uchun zarar;
- ilk bolalikning taassurotlari bolaning keyingi fikrlash va harakatining obrazini belgilaydi;

- bolaga bee'tibor bo'lish uni taltaytirishdan ham yomonroq;
- bolaning qo'rquvi kattalar tasavvur ham qila olmaydigan narsalarda yashirinadi;
- yangi tug'ilgan bola ota-onaning janjalini sezadi, ota-onaning asabiyligi yuqumli;
- ota bolasi bilan tez-tez muloqot qilishi kerak;
- oilada bolalar qancha ko'p bo'lsa, ular shuncha yaxshi o'zaro muloqotda bo'lishadi;
- buvi va buvaning bo'lishi bola rivojlanishi uchun yaxshi muhit yaratadi;
- bolalarning o'zaro muloqotini rag'batlantirish kerak;
- tortishuvlar bolaning muloqot qilish xususiyatini oshiradi;
- boladagi yovuzlik va hasad – bu uning kuchsizligini ifodalaydi;
- boshqa odamlarning oldida bolangizning ustidan kulmang;
- bolani urushgandan ko'ra maqtagan afzal.

Shuningdek, Masaru Ibuka barcha sharq davlatlari kabi, yaponiya-kunchiqar mamlakatida ham bolalarga ma'lum yoshgacha deyarli hamma narsaga ruxsat berilishi, ya'ni 5 yoshgacha bola — "podsho" degan qarash mavjudligi, ma'lum bir paytda esa bu holat keskin tugashi, 5 yoshdan keyin — "xizmatkor" day munosabatda bo'lish va kichik yaponlarga qat'iy cheklovlar qo'yilishi: ular kattalar belgilagan qoidalarga so'zsiz bo'ysunishlari, kattalarning obro'-e'tiborini shubhasiz qabul qilishlari kerak bo'lishini jiddiy ko'rib chiqib, bu yondashuvni tubdan noto'g'ri deb hisoblaydi. Bola hayotining dastlabki yillarda aralashmaslik, keyinroq esa bolaga keskin bosim o'tkazish uning shaxsiyati shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatlarini so'ndirishi mumkin. Go'dakning hayotining dastlabki yillarida unga mehr ko'rsatish bilan birga qat'iylik ham namoyon etish, ulg'ayib borgani sari esa asta-sekin "jilovni bo'shatib", o'g'il yoki qizning irodasini hurmat qilish lozim. [3; 5-6-b.].

Shu o'rinda yapon muhandisining ba'zi fikrlari bilan bizni o'zbek xalq maqollarimizni solishtirib o'tamiz:

- "Bir qoshiq qora moy, bir xum asalni ham buzishi mumkin", *bizda* "Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi" yoki "Birniki mingga, mingniki olamga";
- bolaning qo'rquvi kattalar tasavvur ham qila olmaydigan narsalarda yashirinadi, *bizda* "Ona qilsa zo'rlikni, bola tortar xo'rlikni";
- oilada bolalar qancha ko'p bo'lsa, ular shuncha yaxshi o'zaro muloqotda bo'lishadi, *bizda* "Yolg'iz bola yig'loq bo'lar, yolg'iz tuya - baqiroq".

Muloqot o'zaro ta'sir qiluvchi shaxslar o'rtasida ma'lumot almashishga qaratilgan faoliyatning ma'lum bir turi sifatida ifodalanishi mumkin. Bu subyektlar psixikasini rivojlantirish va oqilona, madaniy xulq-atvorni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Rivojlangan shaxslar bilan psixologik nuqtai nazardan muloqot qilish orqali keng o'quv imkoniyatlari tufayli bola yuqori bilim qobiliyatlarini egallaydi. Shuning uchun, bola to'g'ridan-to'g'ri shakllangan shaxslar bilan faol muloqot qilish orqali shaxsga aylanadi. Bolaning kattalar bilan kommunikativ o'zaro aloqasi ulardagi hissiyotlarning shakllanishiga olib keladi, ular ma'lum bir jamiyatda odatda qabul

qilingan stereotiplarga mos keladi. Bola shaxsini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, og‘zaki ta’sir o‘tkazish natijasida rivojlangan uning hissiy sohasidagi yangi shakllanishlari nafaqat kommunikativ faoliyat chegaralarida qolmaydi, balki shaxs xususiyatlarini umuman boyitadi. Ontogenezdagi aloqa, bu birinchi navbatda, ikkinchi shaxs tomonidan tushunishni nazarda tutgan holda, atrof-muhitga ko‘rsatilgan munosabatining asosiy, ustun shaklidir. Dastlab, qulay sharoitlarda ona ikkinchi aloqa qiluvchi tomon sifatida ishlaydi. Bolalar o‘sib ulg‘aygan sayin, ushbu shakl o‘zaro tushunishni taxmin qiladigan shakl bilan almashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, muloqotning bu xilma-xilligi bilan bola endi nafaqat o‘z istaklarini shakllantiradi, balki atrof-muhit istaklarini ham hisobga oladi, bu bola istaklarini amalga oshishiga bog‘liqdir.

M.I.Lisina psixologiya fanida birinchilardan bo‘lib muloqotni o‘rganishga maxsus kommunikativ faoliyat sifatida yondoshdi va birinchilardan bo‘lib izchil rivojlantirib bordi hamda ushbu faoliyatning konseptual diagrammasini ishlab chiqdi, ilk bor bolalardagi muloqot genezisining tizimli va chuqur tahlilini o‘tkazdi, muloqotning sifat bosqichlari (shakllari), harakatlantiruvchi kuchlari, bolaning umumiy hayoti bilan aloqasi, bolalarning umumiy rivojlanishiga ta’siri va bu ta’sir usullarini yoritdi. Muloqotga kommunikativ faoliyat sifatida yondashib, hayotning dastlabki yetti yilida bolalar muloqotining o‘ziga xos xususiyatlarini ikki yo‘nalishda aniqlashga imkon berdi:

-atrofdagi odamlar-kattalar va tengdoshlari bilan, shuningdek, ularning har birining ruhiy holatida va bolaning shaxsini shakllantirishdagi alohida rolini ko‘rib chiqdi. M.I.Lisina bolaning atrofidagi odamlar bilan muloqotining uning aqliy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganib, aqliy rivojlanishning umumiy nazariyasini yaratishga katta hissa qo‘shdi, uning muhim mexanizmlarini ochib berdi, muloqotni uni belgilovchi omil sifatida taqdim etdi. Maktabgacha yosh davrida muloqotning kommunikativ faoliyat sifatida shakllari, integral xususiyatlari va mezonlari mavjud bo‘lib, quyidagicha tavsiflanadi: [2]

2-jadval

Maktabgacha yosh davrida muloqotning rivojlanishi

	Muloqot rivojlanishi yosh bosqichlari va mazmuni
1	maktabgacha yoshdagi davrda muloqot shakli paydo bo‘lgan vaqt
2	bolaning kengroq hayotiy faoliyati tizimida egallagan joyi
3	bola tomonidan ma’lum bir shaklda qondiriladigan ehtiyojning asosiy aloqa mazmuni
4	bolani rivojlanishning ma’lum bir bosqichida turtki beradigan yetakchi motivlar atrofidagi odamlar bilan aloqa qilishi
5	asosiy muloqot vositasi, uning yordamida ma’lum bir shakldagi muloqot bolaning odamlar bilan aloqasi orqali amalga oshiriladi.

Bola shaxsini shakllantirish bu ta’lim, ijtimoiylashuv va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni va natijasidir. Shaxsiy shakllanishda asosiy rol, albatta, oilaga tegishli. Darhaqiqat, chaqaloq oilada to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqlid qilish uchun xatti-harakatlarning dastlabki o‘zgarishlarini ko‘radi, atrof-muhitning birinchi reaksiyasi

bilan tanishadi. Ijtimoiy va shaxsiy tajribaning yetishmasligi tufayli chaqaloq o‘z xatti-harakatlarini va boshqa shaxslarning shaxsiy xususiyatlarini baholay olmaydi.

Bugungi kunda psixologlar va o‘qituvchilarning aksariyati xulq-atvorning barcha fazilatlari, ular salbiy yoki ijobiy bo‘lishidan qat’i nazar, bola tomonidan ega bo‘lishini ma’qullaydi. Erta bolalik davrida bolada shaxsiy fazilatlarning uchta asosiy guruhi, ya’ni motivasion, uslubiy va instrumental fazilatlarning o‘rnatilishi amalga oshiriladi. Bunda ularning paydo bo‘lish ketma-ketligi rivojlanishning asosiy davrlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

2.3.-jadval

Maktabgacha yosh davrida bolalarda faol ijtimoiy muloqotning asosiy o‘zgarishlari

Yosh davrlari	Muloqotning yangi o‘zgarishlari
3 yosh	O‘z-o‘zini anglash yuzaga keladi. Dastlabki axloqiy qoidalarni egallaydi. Bola va kattalar o‘rtasidagi predmetli faoliyatli va vaziyatli-ishbilarmonlik muloqot rivojlanishda davom etadi. Bola o‘zini kattalardan farq qiladigan alohida shaxs sifatida biladi. U Men obrazini shakllantiradi. Inqiroz ko‘pincha bir qator salbiy ko‘rinishlarga hamroh bo‘ladi: negativizm, qaysarlik, kattalar bilan muloqotning buzilishi bo‘lishi mumkin.
4 yosh	Bu yoshda bolalarni o‘zaro muloqotida raqobatli, musobaqali munosabat paydo bo‘ladi. Muloqot vositalari orasida nutq ustunlik qila boshlaydi, ammo ularning nutqi vaziyatli bo‘lib qolaveradi. Agar bu yoshda kattalar bilan muloqot sohasida allaqachon vaziyatdan tashqari muloqotlar paydo bo‘lsa, unda tengdoshlar bilan muloqot asosan vaziyatli bo‘lib qoladi.
5 yosh	4-5 yoshdagi bolada hamkorlikda o‘yin faoliyatida, odatda, tengdoshning tan olinishi va hurmat qilinishi ehtiyoji vujudga keladi. Bola boshqalarning e’tiborini jalb qilish uchun bor kuchi bilan intiladi, tashqi ko‘rinishida va yuz ifodalarida o‘ziga nisbatan munosabat alomatlarini sezadi, sheriklarning e’tiborsizligi yoki tanbehlariga javoban norozilik namoyish etadi.

6 yosh	Tengdoshlarning faoliyati va tajribalarida bolaning do‘stligi va hissiy ishtiroki sezilarli darajada oshadi. Ko‘pincha, katta maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z tengdoshlarining harakatlarini diqqat bilan kuzatadilar va ular bilan hissiy jihatdan bog‘liq-likda bo‘ladilar. Ushbu yoshda bolalar nafaqat o‘zlari haqida gapirishadi, balki tengdoshlariga savollar bilan murojaat qilishadi: ular nima qilishni xohlashi, nimani yoqtirishi, qayerda bo‘lganligi, nimalarni ko‘rgani bilan qiziqishadi. Olti yoshga kelib, ko‘plab bolalar tengdoshlariga yordam berish istagi paydo bo‘ladi.
7 yosh	7 yoshli bolalar tengdoshlariga nisbatan do‘stona munosabatlarni va bir-biriga yordam berish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Endi maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqot shakllari savollar, javoblar, do‘stiga g‘amxo‘rlik bilan bezatiladi. Bolalar uchun bir-birlarining kayfiyati va istaklari muhimdir.

Maktabgacha yoshda muloqotning paydo bo‘lishi va shakllanishi, uning asosiy o‘zgarishlarini o‘z kuzatishlarimiz asosida o‘rganib, yuqoridagi jadvalda aks ettirdik. Ilk bolalik davrida bolalar kattalarga qaram bo‘ladilar, chunki ularning mustaqil harakat qilishlari qiyin. Xatti-harakat xulq me’yorlarini bolalar kattalardan o‘rganadilar. Bu davrda bola xulqining motivi anglanilmagan bo‘ladi. Bolaning ichki dunyosi shakllanishi kattalarga bog‘liq. Chunki bola kattalar kutgan muloqotni darhol bera olmaydi. Bola predmetlarga bo‘lgan qiziqishini avvalo kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo‘llash orqali oladi. Kattalar agar bola bilan kam muloqotda bo‘lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj bolada kattalarning muloqoti orqali o‘sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.
2. Lisina M. I. Формирование личности ребёнка в общении. – SPb.: Piter, 2009. –320
3. Масару Ибука. После трёх уже поздно. – М.: Педагогика. 1991-120 с.
4. Nishanova Z.T. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. –T., 2011. – 248 b.
5. Norbosheva M.A. Maktabgacha yoshdagi bolaning muloqot subyekti sifatida ijtimoiy-psixologik rivojlanish xususiyatlari. diss.psixologiya f.f.d. (PhD). T-2022.

UDK173.1:301.085:15(045)

Jabborov Ismoil,
Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

ZAMONAVIY OILADA ER-XOTIN MUNOSABATLARIDA MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada er-xotin munosabatlaridagi mutanosiblikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik komponentlari mazmuni haqida so'z yuritilgan. Xususan, er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy-psixologik komponentlarini asosiy xossasi va funksiyalari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, er-xotin, qadriyat, komponent, munosabat, sintonik munosabat, rol, barqarorlik, shaxslararo munosabat.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОВМЕСТИМОСТИ В ОТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ МУЖЕМ И ЖЕНОЙ В СОВРЕМЕННОЙ СЕМЬЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается содержание социально-психологических компонентов поддержания баланса в супружеских отношениях. В частности, показаны основные свойства и функции социально-психологических компонентов координации супружеских отношений.

Ключевые слова: Семья, пара, значение, компонент, отношения, синтаксические отношения, роль, устойчивость, межличностные отношения.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROVIDING COMPATIBILITY IN HUSBAND-WIFE RELATIONSHIPS IN A MODERN FAMILY

Abstract. This article discusses the content of the socio-psychological components of maintaining balance in a couple's relationship. In particular, the main properties and functions of the socio-psychological components of the coordination of marital relations are shown.

Key words: Family, couple, value, component, relationship, syntactic relationship, role, stability, interpersonal relationship.

Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o'zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda.

Oila hayoti va er-xotin munosabatlarida yuzaga kelayotgan muammolar iqtisodiy, ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-psixologik, miliy-hududiy va jismoniy-emotsional omillar ta'siri bilan bevosita bog'liq bo'lib, oilada er-xotin munosabatlari o'zaro muvofiqligining yemirilib borishiga, oilada o'zaro ziddiyatlar

kuchayib, ajralishlar, noto‘liq oilalar, nikohsiz tug‘ilganlar sonining ortib borishida namoyon bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra, oila-nikoh institutining so‘ngi yillarda nisbatan zaiflashib borayotganligiga ta’sir etayotgan ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik an’analarni kompleks o‘rganish, ularning hali yaxshi o‘rganilmagan jihatlarini ilmiy tadqiq etish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida har bir millat yoki xalqlarda oila-nikoh an’analari va qadriyatlariga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur vazifani bajarishga yo‘naltirilgan zamonaviy tadqiqotlarda oila-nikoh an’analarini saqlash va qadrlash, ularni oilani mustahkamlovchi omil sifatida qo‘llash bilan bog‘liq muammolar tadqiq etilmoqda. Shunga qaramasdan, oila-nikoh an’analarining ijtimoiy, hududiy, etno-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va ularga xos psixologik qonuniyatlar mushtarakligi tavsifini ishlab chiqish masalalari hozirda ham dolzarbligacha qolmoqda.

O‘zbek oilalari hayotida oila-nikoh munosabatlarining zaiflashuvi va uning buzilishlari yildan yilga qaraganda ancha kam bo‘lsa-da, afsuski, ajralishning asoratlari oila a’zolari va qarindosh-urug‘lar o‘rtasida nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda oilaning muqaddasligi haqida to‘xtalib, “Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqsadlari, hayotiy manfaatlari avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo‘ladi, ro‘yobga chiqadi. Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o‘zining ijobiy natijasini bermoqda. Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy – ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur” deb alohida ta’kidlab o‘tdilar[1].

“O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qaraladi. Davlat organlarining, fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi tizimining aniq ishlashi, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlarini so‘zsiz amalga oshirish, shuningdek, oila institutini mustahkamlash sohasidagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va samarali hal qilish ushbu maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi”[2].

Hozirgi kunda dunyo miqyosida oilani rivojlantirish, yangi oilaviy munosabatlarni shakllantirish, oila instituti va oila siyosatining zamonaviy modeli, postindustrial jamiyatda oila instituti inqirozlari, oila kichik guruh sifatida, yosh oilalar va ularning muammolarini hal etish yo‘llari, familistika va genderologiyaning ijtimoiy-madaniy muammolari, oilada psixologik xizmatning joriy etish, oila psixodiagnostikasi, oiladagi gender rollar, oila va maktab o‘zaro hamkorligi psixologiyasi, ijtimoiy xavflar sharoitida oila, farzandlikka olgan oilalarda ota-ona va farzand munosabatlarining psixologik-pedagogik tashkil etish

va har xil etnik tizimlarda oilani shakllantirishning psixologik asoslari doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oila insoniy munosabatlarning o‘ziga xos "tajriba" laboratoriyasi bo‘lib, unda har xil tajriba o‘tkazishlar to‘xtamaydi. Bizning fikrimizcha, bu sohada alg‘ov-dalg‘ovlikdan tartibga o‘tish faqat qandaydir bitta to‘laqonli muayyan bo‘lgan trayektoriya bo‘yicha amalga oshuvi mumkin. Hozirgi davrda uni stixiyali izlash davom etmoqdaki, bunda tobora ko‘proq kishilar ishtirok etmoqdalar. Bu shaxslar o‘z hayotlarida va boshqalarning hayotlarida tajribalaridan foydalanadilar. Yer yuzidagi yuz minglab, millionlab an’anaviy oilalar qayta va qayta qalbning o‘tkir og‘riqlarini his qilmoqdalar va o‘zlarining buhronli vaziyatidan qandaydir chiqish yo‘llarini topishga intilmoqdalar. Ularning aksariyati oxirgi vaziyatlarda qolib, yo oilaviy buhronni vaqtincha to‘xtatib qo‘yadilar, uni asabiy, psixosomatik yoki psixotik buzilishlar, yoxud ajralish orqali oilani boshqa bir sherik bilan qayta tiklashga intiladilar va guyo yangi turmush buhroni tomon harakat qiladilar. Bir nohiyaviy oila uchun evolyutsion rivojlanishning har ikkala shakli ham go‘yoki samarasiz va faqat tashqaridan qaragandagina buhronni bartaraf qilgandek tuyuladi.

Afsuski, bu ijtimoiy jarayon davom etmoqda uning psixologik holatlari tadqiqotga muhtoj. Har qanday holatda ham oila jamiyat taraqqiyotida yetakchi o‘rin tutuvchi institut hisoblanadi. Oila jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga o‘tkazuvchi beqiyos go‘shadir. Shuning uchun oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirish o‘ziga xoslikka egaligi uchun jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi tinchlik, hamjihatlik, a’zolarining ma’naviy jihatdan kamoloti ijtimoiy-psixologik muhitni ta’minlashda hamda uning barqarorligini qaror toptirishda muhim o‘rin tutadi. Insonlar orzu qiladigan oila o‘zining qaysidir jihatlari bilan real turmushdagi oilalarga ibrat-namuna bo‘lishi nazarda tutiladi. Bu esa ushbu mazmundagi oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning milliy psixologik istiqbollarini (andozasini) ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur masalani tahliliga er-xotinning oilaviy munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi ijtimoiy-psixologik komponentlarni tuzilmasisini keltirib o‘tishimiz mumkin.

O‘zbek oilasida er-xotin munosabatlaridagi mutanosiblikni ta’minlash bugungi kun muammosi emas. Oilaviy munosabatlar uzoq yillik tarixiy, etnologik va etnopsixologik an’analarning uzviy davomi sifatida ajdodlardan avlodlarga o‘zatiladigan va davrga hamohang shakllanadigan jihatlarga ega. Aslida oilaviy munosabatlar umuminsoniy tamoyillari va etnopsixologik xususiyatlariga ko‘ra bardavom va o‘zgarib borishga xayrixoh jihatlarni namoyon qilishi tabiiy. Shuning uchun ham oilada er-xotin muvofiqligini ta’minlashning davrga muvofiq psixologik mexanizmlarini shakllantirish va ularga xolisona tayanish muhim degan xulosaga keldik. Tadqiqotimizda qo‘lga kiritilgan ilmiy tahlillarga asosan oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

Birinchi komponent uzoq yillik tajribalarda saqlanib kelayotgan “er-xotin” munosabat tizimining yoki bo‘lmasa-risoladagi er va risoladagi xotin modellariga amal qilish muhim hisoblanadi. Shu sababli ham oiladagi er-xotin munosabatlarini

muvofiqlashtirishda quyida ijtimoiy mexanizmlarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

Qadriyatlar darajasi. Bu esa quyidagi psixologik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishda qadriyatlar tizimining o‘rni yuqori hisoblanadi. Mazkur komponent er-xotin munosabatida zarur bo‘lgan jabhalarni birlashtiradi. Faqat ushbu jabhalarning ahamiyatini belgilash sharoitida quyidagi psixologik omillar o‘rnini hisobga olish muhimdir. O‘zbek etnosida er-xotin munosabatlarining ikki namunaviy timsoli doimo yetakchilik qilib kelgan, ya’ni “risoladagi er” va “risoladagi xotin”. Bu ikki timsol oilaning asosiy ustuni sifatida oilaviy munosabatlar tizimini tartibga solib turish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababli ham er-xotinning “maishiy xo‘jalik”, “ota-ona tarbiyachilik”, “ijtimoiy faollik”, “emotsional psixoterapevtik”, “tashqi jozibadorlik” qadriyatini meyorlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Oilaning o‘zaro munosabatlari tizimi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar eng muhim va eng murakkab munosabatlar tizimi sanaladi. Shu boisdan ham tadqiqotimiz jarayonida olingan natijalarga tayangan holda “er-xotin munosabatlarining muvofiqligini ta’milashning ijtimoiy-psixologik komponentlari” tarkibiga oiladagi shaxslararo munosabat muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek oilasida oilaviy munosabatlar tizimi shunchalik kengki, uni er-xotin, ota-ona bilan farzandlar, yaqin qarindoshlar, uzoq qarindoshlar, do‘stlar va qo‘shnilar bilan munosabati tizimi tarzida ifodalash lozim bo‘ladi. Oilaning o‘zaro munosabatlar tizimi er-xotin munosabatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar toifasiga kiradi. Ushbu munosabatda er-xotin atrofidagi munosabat subyektlari bilan o‘zaro sintonik muloqot muhitini yarata olishi muhimdir. Shu boisdan ham oilaning shaxslararo munosabati er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ikkinchi komponenti sifatida kiritishga sabab bo‘ldi.

Oiladagi individual turmush tartibi. Bu er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning uchinchi komponenti sifatida qabul qilindi. Bu er-xotinning oiladagi o‘ziga xos individual uslubiga ega bo‘lishini ifodalaydi. Mazkur komponent tufayli er ham, xotin ham oilada o‘ziga xos individual turmush tartibini o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. Individual turmush tartibi er bilan xotinning o‘ziga xosligini ifodalaydi. Qadriyatlar tizimidagi “risoladagi er” va “risoladagi ayol” timsollari er bilan xotinlarning oilaviy individual turmush tartiblariga egaligini belgilaydi. O‘z timsoliga ega bo‘lgan er va ayol oilada o‘zining meyorlashtirilgan turmush tartibiga ega bo‘ladi. Er-xotinlar bir birlarini boshqalar bilan solishtirganda o‘ziga xos ijobiy timsolga egaligini baholay olishlari kerak bo‘ladi. Bu go‘yoki “ideal oila a’zolari” timsolining gavdalantirishlarini belgilaydi.

Sog‘lom turmush tarzi. Er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy-psixologik komponentlarini belgilovchi to‘rtichni komponent “sog‘lom turmush tarzi” yoki “sog‘lom turmush tarzi profilaktikasi” deb nomlanadi. Komponent mazmunan boshqa komponentlarda mujassamlashgan xususiyatlarning namoyon bo‘lishini nazorat qiladi. Oila qanchalik ijtimoiy meyorlarga mos bo‘lmasinki, vaqti vaqti bilan nizolarga duch kelishi mumkin bo‘ladi. Bu esa er bilan xotindan o‘zlarining oilaviy munosabatlarida o‘z xatti-harakatlari va xislatlarini

muvofiqlashtirishlari hamda shaxs sifatida faoliyat yuritishlarini tartibga soladi. Bu yerda oilada er-xotin munosabatlarida nizolar, ya'ni er-xotinning achchiqlanishi, arazlash, nafrat, tanqid va befarqliklar kuzatilganda, ba'zan oilada erning alkogol ichimliklarga moyilligini paydo bo'lishi tufayli oilaviy munosabatlarda buzilishlar kelib chiqadi. Aynan sog'lom turmush tarzi profilaktikasi komponenti er-xotin munosabatlarini meyorlashtiradi va er-xotinlarning xulq-atvori, xatti-harakatlarida nazoratni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy-psixologik komponentlarini mazmuniy ifodalanish jadvalini keltirib o'tamiz.

1-jadval

Er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy-psixologik komponentlarini asosiy xossasi va funksiyalari

Komponentlar	Asosiy xossasi	Funksiyasi
Qadriyatlar	Maishiy-xo'jalik, ota-ona tarbiyachilik funksiyasi, ijtimoiy faollik, emotsional-psixoterapevtik, tashqi jozibadorlik qadriyatlarida gavdalanadi	Er-xotin munosabatlarining muvofiqligini, munosabatlarining meyorda kechishini, oiladagi rollarning maqsadga mos shakllanishi, ota-ona va farzand munosabatlarini ta'minlash.
Oiladagi shaxslararo munosabat	"Er-xotin munosabati", "ota-ona-farzand munosabati", "er-xotin va yaqin qarindoshlar munosabati", "er-xotin bilan uzoq qarindoshlar", "er-xotin bilan do'st-birodarlar munosabati"larida namoyon bo'ladi	Oilaning qomu-qarindoshlar va do'st-o'rtoqlar bilan o'zaro hamjihatlikda yashashini, boshqa oilalar o'rtasida o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlash
Oiladagi individual turmush tartibi	Er-xotinning oilaviy munosabatlardagi shaxsi xatti-harakati, xulq-atvori va munosabatlari sharoitida ijtimoiy-meyorlarga mos hayot uslubini o'zlashtirish.	Oiladagi er-xotinning oiladagi mavqei, uning oilaviy munosabatlarida o'zining shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi
Sog'lom turmush tarzi profilaktikasi	Oiladagi er-xotin munosabatlaridagi nizolar, er-xotinlarning xatti-harakaatidagi ziddiyatli holatlar doimiy ravishda tuzatish va ularning oldini olish	Er va xotin shaxs fazilati va xulq-atvorining oilaning tinch-totuv hamda farovon hayot kechirishi uchun nazorat va ularni profilaktikalashni ta'minlaydi.

Taqdim qilingan komponentlar oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik muammolar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar diqqat markazida bo‘lishi kerak. Ular oiladagi munosabatlar borasida psixologik maslahatlar va psixologik treninglar tashkil etishda taqdim qilingan ijtimoiy-psixologik komponentlarga tayanishlari amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, oilaning asosini tashkil etuvchi er va xotinga xos sifat va fazilatlarning shakllangan bo‘lishi, ular oilaviy burch va vazifalarini sadoqat bilan ado etishlari, bir-biriga mehribon va kechirimliligi eng muhim qadriyat sifatida e’zozlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. 2017-yil 15-iyun.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018 yil 27 iyun,// https://lex.uz/docs/3797625

3. Шнейдер Л.Б. Психология семейных отношений. – М.: Академический проект, 2013.

4. Olson D.H., DeFrain J. Marriage and the Family: Diversity and Strengths. – New York: McGraw-Hill, 2011.

5. Gottman J.M. The Seven Principles for Making Marriage Work. – New York: Harmony Books, 2015.

6. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. – Т.: Адолат, 2020.

UDK 54:165:37.02

Kamolova Nargiza Ibragimovna,
ISFT instituti "Psixologiya va pedagogika" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

KIMYO TA'LIMIDA AKSIOMATIK YONDASHUVNING GNOSEOLOGIK VA METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy kimyo ta'limi jarayonida ilmiy tafakkurni shakllantirish muammosi aksiomatik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Ilmiy tafakkur bilimlarni mexanik yodlash bilan emas, balki nazariy asoslarni tushunish, ularni mantiqiy izchillikda umumlashtirish, dalillash va isbotlash qobiliyatlari orqali namoyon bo'lishi asoslab berilgan. Aksiomatik yondashuvning gnoseologik vazifalari – bilimning manbai, tuzilishi, ishonchliligi va rivojlanish mexanizmlarini ochib berish bilan bog'liq jihatlari yoritilib, metodologik vazifalari, ta'lim mazmunini tizimlashtirish, dars jarayonini izchil tashkil etish, deduktiv hamda induktiv fikrlashni uyg'unlashtirish imkoniyatlari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: ilmiy tafakkur, aksiomatik yondashuv, gnoseologiya, metodologiya, kimyo ta'limi, deduktiv fikrlash, ilmiy izchillik, nazariy bilimlar, stexiometriya, kimyoviy qonunlar, ilmiy dalillash.

ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АКСИОМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ХИМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье с позиций аксиоматического подхода анализируется проблема формирования научного мышления в процессе современного химического образования. Обосновано, что научное мышление проявляется не в механическом заучивании знаний, а в умении понимать теоретические основы, логически и последовательно их обобщать, аргументировать и доказывать. Освещаются гносеологические функции аксиоматического подхода, связанные с раскрытием источников знания, его структуры, достоверности и механизмов развития, а также методологические функции, направленные на систематизацию содержания обучения, последовательную организацию учебного процесса и интеграцию дедуктивного и индуктивного мышления, что научно-педагогически обосновано.

Ключевые слова: научное мышление, аксиоматический подход, гносеология, методология, химическое образование, дедуктивное мышление, научная последовательность, теоретические знания, стехиометрия, химические законы, научная аргументация.

GNOSEOLOGICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE AXIOMATIC APPROACH IN CHEMISTRY EDUCATION

Abstract. This article analyzes the problem of forming scientific thinking in the modern chemistry education process from the perspective of the axiomatic approach. It substantiates that scientific thinking is manifested not through the mechanical memorization of knowledge, but through understanding theoretical foundations, logically systematizing them, and developing the abilities of reasoning, argumentation, and proof. The gnoseological functions of the axiomatic approach-related to revealing the sources of knowledge, its structure, reliability, and mechanisms of development-are examined, while its methodological functions are scientifically and pedagogically justified, including the systematization of educational content, the consistent organization of the teaching process, and the integration of deductive and inductive thinking.

Keywords: scientific thinking, axiomatic approach, gnoseology, methodology, chemistry education, deductive thinking, scientific consistency, theoretical knowledge, stoichiometry, chemical laws, scientific reasoning.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida shaxsning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki ularni tahlil qilishi, qayta qurishi va yangi bilimlar hosil qila olishi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar, xususan, kimyo ta’limida ilmiy tafakkurni shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki kimyo fani empirik kuzatishlar bilan nazariy umumlashmalar, eksperiment bilan mantiqiy xulosa chiqarish, model va real jarayonlar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni anglashni talab qiladi. Bunday sharoitda bilimlarni tasodifiy faktlar majmuasi sifatida emas, balki qat’iy mantiqiy tizim sifatida o‘rgatish zarurati yuzaga keladi.


Ilmiy tafakkur o‘quvchining faqat “nima?” degan savolga emas, balki “nega?”,“qanday sharoitda?”, “qaysi asosda?” kabi savollarga javob bera olish qobiliyatini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, aksiomatik yondashuv ta’lim jarayonida ilmiy tafakkurni shakllantirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Aksiomatik yondashuv bilimlarni asosiy, shubhasiz qabul qilinadigan tamoyillardan boshlab, ulardan deduktiv yo‘l bilan yangi xulosalar chiqarishga asoslanadi. Ushbu yondashuvning gnoseologik va metodologik vazifalarini kimyo ta’limi misolida tahlil qilish ilmiy-pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Gnoseologiya bilish nazariyasi sifatida inson tafakkurining voqelikni qanday aks ettirishi, bilimning qanday shakllanishi va rivojlanishini o‘rganadi. Kimyo ta’limida aksiomatik yondashuvning gnoseologik mohiyati shundan iboratki, bilimlar tayyor va mutlaq haqiqat sifatida emas, balki muayyan nazariy doira ichida asoslangan, mantiqan izchil va tekshiriladigan tizim sifatida o‘rgatiladi. Masalan, modda massasining saqlanish qonuni kimyo fanida boshlang‘ich tamoyil, ya’ni aksioma vazifasini bajaradi. Ushbu qonun reaksiyalar tenglamalarini tuzish, stexiometrik hisob-kitoblar va eksperimental natijalarni tahlil qilish uchun gnoseologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Aksiomatik yondashuv bilimning ishonchliligini ta'minlaydi, chunki u bilimlarning kelib chiqish manbasini, ularning mantiqiy asosini ochib beradi. O'quvchi muayyan qoida yoki qonunning qayerdan kelib chiqqanini tushunganida, u bilimni mexanik yodlamaydi, balki ongli ravishda qabul qiladi. Bu esa ilmiy tafakkurning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kimyo ta'limida bilimlarni tizimlashtirish muammosi ko'pincha dolzarb bo'lib qolmoqda. Mavzular alohida-alohida o'rgatilganda, o'quvchilar ular o'rtasidagi ichki bog'lanishlarni anglab yetmaydi. Aksiomatik yondashuv gnoseologik nuqtai nazardan bilimlarni konseptual tizim sifatida qurishni talab qiladi. Stexiometriya qonunlari – tarkibning doimiyligi, karrali nisbatlar, modda massasining saqlanishi va ekvivalentlar qonuni – kimyo ta'limining aksiomatik asosini tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan modda formulalari, reaksiyalar tenglamalari va miqdoriy hisoblashlar deduktiv tarzda chiqariladi. Natijada o'quvchilarda ilmiy bilimlarning yaxlit tizimi shakllanadi. Ilmiy tafakkurning muhim jihatlaridan biri dalillash va isbotlash qobiliyatidir. Aksiomatik yondashuv o'quvchilarga har qanday nazariy xulosa ma'lum boshlang'ich tamoyillarga yoki eksperimental dalillarga tayanishi lozimligini anglatadi. Gaz qonunlarini o'rganishda formulalarni yodlash emas, balki ularning molekulyar-kinetik asoslarini tushuntirish muhimdir. Bunday yondashuv o'quvchilar tafakkurini empirik darajadan nazariy darajaga ko'taradi. Aksiomatik yondashuv bilimning aniqligi bilan birga uning chegaralarini ham ko'rsatib beradi. Kimyo fanida barcha hodisalarni qat'iy aksiomatik tizimga kiritish mumkin emas, chunki ko'plab jarayonlar statistik, ehtimollik va modelga asoslangan xususiyatga ega. Shu sababli o'quvchilarga aksiomalar mutlaq va o'zgarmas haqiqat emas, balki ma'lum nazariy kontekst doirasida amal qiluvchi poydevor ekanini tushuntirish muhimdir. Bu yondashuv ilmiy tafakkurda tanqidiylik va moslashuvchanlikni shakllantiradi. Aksiomatik yondashuvning metodologik vazifalari esa ta'lim jarayonini tashkil etish, mazmunni tanlash va o'qitish usullarini belgilash bilan bog'liqdir. Metodologik jihatdan aksiomatik yondashuv kimyo ta'limida nazariy poydevorni mustahkamlash va darslarni mantiqiy izchillikda qurishga xizmat qiladi. Masalan, kimyoviy bog'lanish nazariyasini o'rgatishda avval kovalent bog'lanishning asosiy tamoyillari kiritilib, so'ng ion, vodorod va metall bog'lanishlariga o'tiladi. Bu ketma-ketlik o'quvchilarda sabab-oqibat munosabatlarini tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi. Zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar keng qo'llanilmoqda. Aksiomatik yondashuv ushbu metodlarni nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi. Muammoli yoki kontekstli topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar tajriba natijalarini bevosita aksiomatik tamoyillarga tayangan holda tahlil qiladi. Masalan, kristallanish jarayonini o'rganishda kristall panjaraning aksiomatik xossalariga tayangan holda xulosa chiqarish ilmiy tafakkurni chuqurlashtiradi. Metodologik vazifalardan yana biri, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish kompetensiyasini shakllantirishdir. Aksiomatik yondashuv yordamida o'quvchilar ekologik, texnologik va ijtimoiy muammolarni kimyoviy qonunlar asosida tahlil qilishni o'rganadi. Bu esa nazariy bilimlarning real hayotdagi ahamiyatini anglashga olib keladi. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda ham aksiomatik yondashuv muhim metodologik rol o'ynaydi. Eksperimentdan oldin

nazariy prognoz berish, natijalarni aksiomatik tamoyillar bilan solishtirish va xatoliklarni tahlil qilish o‘quvchilarda ilmiy metodika va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Baholash tizimida esa aksiomani aniqlash, undan xulosa chiqarish va eksperimental natijalarni tahlil qilish mezonlari asosiy o‘rin tutadi. Ilmiy tafakkurni shakllantirishda aksiomatik yondashuvning gnoseologik va metodologik vazifalari o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Gnoseologik jihatdan u bilimning ishonchliligi, tizimliligi va dalilliligini ta’minlasa, metodologik jihatdan ta’lim jarayonini izchil, mantiqiy va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Kimyo ta’limida aksiomatik yondashuvdan ongli va metodik asosda foydalanish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, deduktiv tahlil va ilmiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois ushbu yondashuvni zamonaviy pedagogik tizimning ajralmas qismi sifatida qarash va uni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Ilmiy tafakkurni shakllantirish jarayonida aksiomatik yondashuvning yana bir muhim, biroq ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan jihati uning metakognitiv imkoniyatlari bilan bog‘liqdir. Metakognitsiya o‘quvchining o‘z fikrlash jarayonini anglash, nazorat qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Aksiomatik asosda tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchi nafaqat “nimani bilaman?”, balki “nega shunday bilaman?” va “qaysi asosga tayandim?” degan savollarga ham javob izlay boshlaydi. Bu holat ilmiy tafakkurning refleksiv darajaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi. Kimyo darslarida o‘quvchilardan ma’lum bir qonun yoki qoidaga tayangan holda xulosa chiqarish talab etilganda, ular o‘z fikrlash strategiyasini ongli ravishda boshqarishga majbur bo‘ladi. Masalan, murakkab stexiometrik masalalarni yechishda o‘quvchi qaysi aksiomatik tamoyilni asos qilib olayotganini aniqlaydi, ortiqcha yoki noto‘g‘ri taxminlarni rad etadi. Ilmiy tafakkur nafaqat mantiqiy, balki o‘zini-o‘zi boshqaruvchi tizim sifatida shakllanadi.

An’anaviy o‘qitish tizimida xato ko‘pincha salbiy holat sifatida qabul qilinadi. Aksiomatik yondashuv esa xatoni ilmiy bilish jarayonining tabiiy bosqichi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Agar o‘quvchi ma’lum aksiomaga tayangan holda noto‘g‘ri xulosa chiqargan bo‘lsa, muammo xulosa chiqarish mexanizmida yoki aksiomaning qo‘llanish chegaralarini noto‘g‘ri tushunishda ekanligi aniqlanadi. Bu yondashuv xatoni jazolash obyekti emas, balki tahlil va qayta fikrlash manbai sifatida ko‘rishga yordam beradi. Kimyo ta’limida bu holat, ayniqsa, murakkab jarayonlarni modellashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, reaksiyaning borish mexanizmini noto‘g‘ri talqin qilgan o‘quvchi tajriba natijasini aksiomatik tamoyillar bilan solishtirgan holda o‘z xulosasini qayta ko‘rib chiqadi. Shu orqali ilmiy xatolarni tan olish va ularni konstruktiv tahlil qilish madaniyati shakllanadi.



Aksiomatik yondashuv kimyo ta'limini boshqa fanlar bilan integratsiyalashda ham metodologik asos vazifasini bajaradi. Fizika, matematika va biologiya fanlarida qo'llaniladigan aksiomatik tamoyillar bilan kimyoviy bilimlar o'rtasidagi umumiylikni ochib berish o'quvchilarda fanlararo ilmiy tafakkurni shakllantiradi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni fizikada aksiomatik tamoyil sifatida qaraladi, kimyoda esa u termokimyoviy jarayonlarni tushuntirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday integratsiya o'quvchilarda ilmiy bilimlarning parchalanmagan, yagona tizim ekanligi haqidagi tasavvurni mustahkamlaydi.

Kimyo alohida fan sifatida emas, balki umumiy ilmiy dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida idrok etiladi. Ilmiy tafakkur faqat mantiqiy operatsiyalar bilan emas, balki ilmiy til bilan ham uzviy bog‘liqdir. Aksiomatik yondashuv o‘quvchilardan terminologik aniqlikni, tushunchalar o‘rtasidagi qat’iy chegaralarni saqlashni talab qiladi. Bu esa ilmiy nutqning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kimyo fanida bir-biriga yaqin, ammo mazmunan farqli tushunchalarni aniq farqlash ilmiy tafakkurning yetuklik darajasini belgilaydi. Aksiomatik asosda olib borilgan darslarda o‘quvchi har bir atamani muayyan nazariy kontekstda qo‘llaydi. Bu holat ilmiy tilning mantiqiy tozaligini ta’minlaydi va ilmiy fikrni aniq ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirib, o‘quvchilar yozma va og‘zaki ilmiy nutqda izchillikni saqlay oladi. Shuni ta’kidlash lozimki, aksiomatik yondashuv mutlaq ustun metod sifatida emas, balki didaktik vosita sifatida qaralishi lozim. Kimyo fanining tajribaviy va empirik tabiatini inobatga olgan holda, aksiomatik formalizmni haddan tashqari kuchaytirish o‘quvchilarda abstraktlikning ortib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu bois o‘qituvchi aksiomatik tamoyillarni har doim real tajribalar, vizual modellar va hayotiy misollar bilan uyg‘unlashtirishi zarur. Aksiomatik yondashuvning samaradorligi uning moslashuvchan qo‘llanishiga bog‘liq. U qachon boshlang‘ich tushuncha, qachon umumlashtiruvchi nazariy vosita sifatida ishlatilishini aniq belgilash metodologik mahoratni talab etadi. Aks holda, aksioma o‘quvchi ongida dogmatik tushunchaga aylanish xavfi yuzaga keladi.

Aksiomatik yondashuv ilmiy tafakkurni shakllantirish jarayonida nafaqat bilishning mantiqiy tuzilishini, balki o‘quvchining fikrlash madaniyatini ham rivojlantiradi. U metakognitiv refleksiyani kuchaytiradi, ilmiy xatolarga konstruktiv munosabatni shakllantiradi, fanlararo integratsiyani ta’minlaydi va ilmiy tilni rivojlantiradi. Kimyo ta’limida ushbu yondashuvni ongli, muvozanatli va metodik jihatdan puxta qo‘llash o‘quvchilarda barqaror ilmiy tafakkur va chuqur nazariy dunyoqarashni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barbara A.S. Chemical demonstrations: Theory and practice. – American Chemical Society: 2011. – 280.
2. Asamovich K. M., Muxlisa M. THE USE OF DIAGONAL SIMILARITY LAWS IN THE COMPARATIVE STUDY OF THE PROPERTIES OF CHEMICAL ELEMENTS //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 1-5.
3. Yuldashevich, I. A., Asamovich, K. M., & Ergashovich, S. I. (2023). Eksperimental tajribalar yordamida o‘quvchilarda tadqiqotchilik, amaliy va tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, *1*(5), 59-67.
4. Christopher K.O. Bringing chemistry to life: Inquiry-based practices. – Pearson: 2015. – 232.
5. David Read, Alexandra Yeung. Supporting chemistry education with digital resources. – Royal Society of chemistry: 2020. – 194.

UDK 372.862

Ashurov Nazar Raxmatullayevich,
International school of finance technology and science instituti
"Psixologiya va pedagogika" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA APPLIKATSIYA VA MOZAIKA BILAN ISHLASH METODIKASI

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich ta'lim texnalogiya fani darslarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan applikatsiya va mozaika mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy, metodik va amaliy jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Ijodiy salohiyatni, fazoviy tasavvurni va nozik motorikani rivojlantirishga qaratilgan ushbu mashg'ulotlarni samarali olib borish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash asoslab berilgan. Darslarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos rejalashtirish, interfaol usullar hamda AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) dan foydalanishga doir aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Taklif etilgan metodika o'quv jarayoni samaradorligini oshirish va o'quvchilarda estetik didini hamda ijodiy qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: applikatsiya, mozaika, visual, metodika, ijodiy qobiliyat, rangshunoslik, kompozitsiya, kognitiv, haykallar, dekorativ, nozik motorika, integratsiya, fazoviy tasavvur.

МЕТОДИКА РАБОТЫ С АППЛИКАЦИЕЙ И МОЗАИКОЙ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация. В статье представлен всесторонний анализ теоретических, методологических и практических аспектов организации уроков прикладного и мозаичного искусства, являющихся важной составляющей уроков технологии в начальной школе. Обосновывается целесообразность использования современных педагогических технологий и комплексного подхода для эффективной реализации этих уроков, направленных на развитие творческого потенциала, пространственного воображения и мелкой моторики.

Разработаны конкретные методические рекомендации по планированию уроков, подходящих для учащихся начальной школы, с использованием интерактивных методов и ИКТ (информационно-коммуникационных технологий). Предложенная методика призвана повысить эффективность образовательного процесса и сформировать у учащихся эстетический вкус и творческие способности.

Ключевые слова: Применение, мозаика, визуальное восприятие, методология, творческие способности, наука о цвете, композиция, когнитивные способности, скульптура, декоративное оформление, мелкая моторика, интеграция, пространственное воображение.

METHODOLOGY OF WORKING WITH APPLIQUÉ AND MOSAIC IN TECHNOLOGY CLASSES

Abstract. The article presents a comprehensive analysis of the theoretical, methodological and practical aspects of organizing lessons in applied and mosaic art, which are an important component of technology lessons in primary school. The feasibility of using modern pedagogical technologies and an integrated approach for the effective implementation of these lessons, aimed at developing creativity, spatial imagination, and fine motor skills, is substantiated.

Specific methodological recommendations for planning have been developed. lessons suitable for elementary school students, using interactive methods and ICT (information and communication technology). The proposed methodology is designed to improve the effectiveness of the educational process and develop students' aesthetic taste and creativity.

Key words: Application, mosaic, visual perception, methodology, creativity, color science, composition, cognitive abilities, sculpture, decorative design, fine motor skills, integration, spatial imagination.

Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo‘lgan
kasblar bo‘yicha dunyoda raqobatdosh bo‘lsin,
kerak bo‘lsa, boshqalardan bir pog‘ona ustun tursin.
Sh.M.Mirziyoyev

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, texnalogiya fani darslarining xarakteri va mazmuniga, o‘quvchinи hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo‘yadi. Shunga ko‘ra har bir o‘quvchinи hayotga tarbiyalashda aniq o‘zgarishlar qilishi lozim. Har bir o‘quvchida zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun maktabning boshlang‘ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha muassasalarda, keyinroq maktabdan yuqori sinflardagi ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, keyinchalik kasb-hunar maktablarida o‘z bilimlarini davom ettirishlari lozim. Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralarini kengaytirish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va texnalogiya fanida har tomonlama uyg‘unlashtira olishga o‘rgatishdan iboratdir.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida o‘quvchi-yoshlarning nafaqat bilim olishi, balki ularning shaxs sifatida ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonuni va milliy dasturida ham shaxsning har tomonlama kamol topishi, uning estetik va badiiy didining shakllanishi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu jarayonda texnalogiya fani darslarida, xususan, applikatsiya va mozaika bilan ishlash amaliy mashg‘ulotlari muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilarni texnalogiya darslarida mehnatga tarbiyalash va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang‘ich sinflarda butun ta’lim va tarbiya tizimida hamda barcha o‘quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o‘rinda texnalogiya darslari

yetakchi rol o‘ynaydi. Boshlang‘ich sinflarda texnalogiya ta’limining ilk tushunchalari, malaka va ko‘nikmalari texnalogiya darslarida shakllantiriladi.

Boshlang‘ich maktabdagi texnalogiya ta’limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy, ruhiy tayyorlash va amaliy tayyorlash, o‘quvchilarni boshlang‘ich politexnik bilimlar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Applikatsiya (lotincha *applicatio*— yopishtirish, qo‘shish) — turli materiallarni (qog‘oz, mato, teri, quritilgan gullar) asosga (odatda qog‘oz yoki kartonga) yopishtirish orqali tasvir hosil qilish san’atidi.[3]

Applikatsiya turlari:

- ***Obyektli (predmetli) applikatsiya*:** Ayrim buyum yoki jonli narsaning tasvirini yaratish (meva, hayvon, uy).
- ***Syujetli applikatsiya*:** Bir nechta obyektlarni birlashtirib, voqea yoki ertakni ifodalovchi kompozitsiya yaratish.
- ***Dekorativ (bezak) applikatsiya*:** Geometrik shakllar yoki o‘simlik elementlaridan foydalanib, naqshlar, bezaklar hosil qilish.
- ***Hajmli (obyomli) applikatsiya*:** Materialning ayrim qismlarini asosi ustida ko‘tarib, fazoviy tasvir yaratish.

***Pedagogik qiymati*:** Applikatsiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarda ranglarning uyg‘unligini his qilish (rangshunoslik asoslari), qismlarni butunlikka birlashtirish (kompozitsiya), aniq kesish va yopishtirish (nozik motorika) kabi qobiliyatlarni shakllantiradi.

Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yakutlar applikatsiya ishida po‘stloqdan foydalanishgan, bo‘yalgan po‘stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o‘tovlarini bezashgan. Xantimansi, evenk va boshqa shimoliy xalqlar applikatsiyada teri, sukno, mo‘yna ishlatishgan. Komi, qozoq, kalmik, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro‘zg`or predmetlarini bezashda foydalanishgan. Applikatsiyadan faqat bezash maqsadlarida ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yinlar uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar va hakozalarni bezashda ishlatiladi.

Mozaika — mayda bo‘laklarni (tosh, shisha, keramika, plastmassa yoki qog‘oz parchalarini) ma’lum bir tartibda terish orqali tasvir yoki naqsh yaratishdir.[4]

Zamonaviy davrda mozaika san’ati an’anaviy san’at turi sifatida qabul qilingan bo‘lsada, u zamonaviy hunarmand- rassomlar tomonidan qo‘llaniladigan ifoda shakliga ham aylandi. Mozaika devorlarga, rasmlarga, haykallarga va boshqa sirtlarga qo‘llanilishi mumkin va vizual ta’sirni yaratish uchun turli xil ranglar, naqshlar va to‘qimalardan foydalanish mumkin. Mozaika hunarmand- rassomning ijodini ifodalash, shuningdek, vizual ifoda qilish imkoniyatini beradi. Parchalarni yig‘ish hunarmand-rassomdan kompozitsiya, ranglar uyg‘unligi va teksturadan foydalanish kabi elementlarni hisobga olishni talab qiladi.

Mozaikada ishlatiladigan materiallarning turli sirtlari yorug‘lik va soyalarning aks etishini o‘zgartiradi, bu esa ishni chuqurlik va hayotiylikka olib keladi. Zamonaviy hunarmand- rassomlar an'anaviy mozaika texnikasini zamonaviy tushuncha va mavzular bilan uyg‘unlashtirib, innovatsion asarlar yaratishlari mumkin. Mozaikani boshqa vositalar bilan birlashtirgan aralash media asarlari ham

paydo bo‘lishi mumkin. Mozaika vaqt sinovidan o‘tgan amaliy va tasviriy san'at turi bo‘lsada, u bugungi kunda ham zamonaviy va ijodiy ifoda shakli sifatida qo‘llaniladi. Mozaika yordamida hunarmand- rassomlar turli uslublar va estetikani o‘rganishlari va o‘zlarining noyob asarlarini yaratishlari mumkin. Zamonaviy amaliy va tasviriy tasvirlash san’atidagi mozaika uslubi — mozaika san’atining zamonaviy talqini. Mozaika kichik rangli qismlarni birlashtirib, naqsh yoki rasm yaratishni anglatadi. Vaqt o‘tishi bilan mozaika san'ati ham rivojlanib, turli uslub va uslublarda qo‘llanila boshlandi.

Metodlar: applikatsiya va mozaika darslarini tashkil etishning nazariy asoslarini tahlil qilish, zamonaviy metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish bo‘yicha aniq tavsiyalar berishdan iborat.

Muhokama: Mozaika uslubi, tasvirlar va paneller, tosh ustida joylashtirilgan mozaika paneller va butunlarda qo‘llaniladi. Bu uslubda joylashgan tasvirlar, ranglarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki tez tez kech qilib berish orqali yaratiladi. Tasviriy elementlar, joylashgan asos yoki paneldagi boshqa mozaika segmentlari bilan integratsiya qilinadi. Mozaika uslubi, zamonaviy tasviriy san'atda asosiyroq tadbirlardan biri bo‘lib, shuningdek, turli texnikalar, usullar va materiallar bilan kombinatsiyalashgan holda mozaikaning hammasi aylanadi. Ushbu uslub orqali, insonlar eng muhim tasvirlarni va hayotning o‘ziga xosliklarini ifodalaydigan foydalanish imkoniga ega bo‘ldilar.

Natijalar: applikatsiya va mozaika ishlari orqali bolalar materialning shakli, rangi, tuzilishi (faktura) bilan bevosita muloqotga kirishadi, bu esa ularning sensor bilishini va nozik motorikasini rivojlantiradi. Biroq, mavjud ta’lim amaliyotida ushbu darslarni tashkil etishda an’anaviy usullar hukmronlik qilmoqda. Zamonaviy pedagogik talablar esa o‘quvchilarning faolligini oshiradigan, ularning mustaqil ijodiy izlanishlarini rag‘batlantiradigan innovatsion metodlarni qo‘llashni taqozo etadi:

- applikatsiya va mozaika turlarining psixologik-pedagogik ahamiyatini o‘rganish;
- darslarni rejalashtirish va olib borishning samarali metodik asoslarini ishlab chiqish;
- o‘quvchilarda kompozitsion fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini ochib berish;
-interfaol va AKT asosidagi metodlarni dars jarayoniga integratsiyalash usullarini asoslash.

Mozaika – mayda, rangli elementlar (parchalar, kesmalar, donachalar) yordamida kompozitsiya yaratish texnikasi. Mozaikaning ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan eng keng tarqalgan turi – bu rangli qog‘oz yoki tabiiy materiallardan (don, urug‘, qum, mayda toshlar) yasalgan mozaikadir.

Mozaika darslarining rivojlantiruvchi ta’siri:

№	Rivojlanish yo‘nalishi	Jarayon
1	***Kognitiv (bilish) jarayon***	Tasvirni mayda qismlarga ajratish va ularni to‘g‘ri tartibda yig‘ish (analiz va sintez).

2	***Mantiqiy fikrlash***	Shakllar va ranglarni ketma-ket joylashtirishda mantiqiy bog‘lanishni o‘rnatish
3	***Nozik motorika***	Kichik elementlarni barmoq uchida ushlash va aniq joylashtirish
4	***Diqqat va qat’iyat***	Murakkab kompozitsiyani uzoq vaqt davomida diqqatni jamlab bajarish

Mozaika darslari o‘quvchilarda nafaqat ijodiy qobiliyatni, balki injenerlik (konstruktiv) fikrlashni ham rivojlantirishga yordam beradi.

Applikatsiya va mozaikani yagona dars jarayonida integratsiyalash orqali aralash texnikali asarlar yaratish imkoniyati kengayadi. Masalan, katta hajmli obyekt applikatsiya usulida, uning fon qismi esa mozaika texnikasida bajarilishi mumkin. Bu o‘quvchilarga turli xil materiallar bilan ishlash tajribasini boyitishga va tasviriy ifoda vositalari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Applikatsiya va mozaika darslarini tashkil etishda, avvalo, o‘quvchilarning yosh davri xususiyatlari va psixologik rivojlanish darajasini inobatga olish lozim.

- **MTT (3-6 yosh):** Asosiy e’tibor sodda shakllarni (doira, kvadrat) to‘g‘ri yopishtirish va rangli qog‘ozni yirtish orqali applikatsiya qilishga qaratiladi. Mozaika sodda geometrik shakllar yordamida bajariladi.
- **Boshlang‘ich sinflar (7-10 yosh):** Qaychi bilan ishlash texnikasi mukammallashtiriladi. Syujetli va ko‘p qismli applikatsiyalar, tabiiy va sun’iy materiallardan mozaika yaratish o‘rgatiladi. Kompozitsiyaning asosiy qoidalari kiritiladi.
- **Yuqori sinflar (11-16 yosh):** Ijodiy yondashuv kuchaytiriladi. Abstrakt kompozitsiyalar, dekorativ panno va kollaj texnikasi bilan ishlash, murakkab materiallardan foydalanish (mato, teri, metall folga) o‘rgatiladi.

Darsni rejalashtirishning strukturaviy yondashuvi

Samarali dars quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi lozim:

№	Bosqich	Maqsad	Metodik tavsiya
1	***Motivatsiya va tashkiliy***	O‘quvchilarning diqqatini jamlash, dars mavzusiga qiziqtirish	Qiziqarli topishmoq, mavzuga oid hikoya yoki tasviriy san’at namunasini ko‘rsatish.
2	***Tushuntirish va ko‘rgazmalilik***	Yangi texnika va kompozitsiya qoidalarini yetkazish	Bosqichma-bosqich ishlash usulini namoyish etish, tayyor ishlarni tahlil qilish. Rang doirasini ko‘rsatish.
3	***Amaliy ish***	O‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini ta’minlash.	Individual yordam ko‘rsatish, ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish, xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini nazorat qili
4	***Tahlil va baholash***	Ish natijalarini umumlashtirish, baholash va xatolarni tuzatish	Eng yaxshi ishlarni namoyish qilish (*"Vernisaj"*), o‘quvchilarning o‘z ishlarini o‘zlari baholashiga yordam berish (o‘z-o‘zini tahlil).

Kompozitsiya va rangshunoslikka o‘rgatish

Applikatsiya va mozaika badiiy kompozitsiyaning asosiy tamoyillarini o‘rgatish uchun ideal vositadir.

- **Kompozitsiya:** O‘quvchilarga ishning markazi (dominant), qismlarning muvozanati (simmetriya va assimetriya) hamda ritm tushunchalari amaliy ish jarayonida tushuntirilishi kerak. Masalan, mozaikada elementlarning joylashish ritmini o‘zgartirish orqali dinamik tasvir yaratish.
- **Rangshunoslik:** Turli rangdagi qog‘ozlar yoki materiallardan foydalangan holda asosiy (qizil, sariq, ko‘k) va qo‘shimcha (yashil, binafsha, to‘q sariq) ranglar uyg‘unligini amaliy jihatdan o‘zlashtirish. Issiq va sovuq ranglar orqali fazoviy chuqurlikni yaratish sirlari o‘rgatiladi.

Interfaol metodlar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularning ijodiy muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantiradi.

№	Metod	Qo‘llash maqsadi	Applikatsiya,mozaika darsida tatbiqi
1	***Loyihaviy yondashuv***	Mustaqil ijodiy izlanish va jamoaviy ishlash.	Katta hajmdagi devoriy pannoni (mozaika yoki kollaj) butun sinf bilan reja asosida bo‘lib bajarish
2	***"Keys-stadi" (Vaziyatli tahlil)***	Noan’anaviy yechimlarni topish	O‘quvchilarga berilgan materiallar (masalan, faqat bitta rangdagi qog‘ozlar) bilan qanday ijodiy tasvir yaratish bo‘yicha vazifa berish
3	***"Akvarium" (Rolli o‘yin)***	Texnikani o‘zaro o‘rgatish.	Bir guruh o‘quvchilar boshqalarga mozaikaning biror turini (masalan, yirtma applikatsiya) qanday bajarishni ko‘rsatib beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish

Zamonaviy dars AKT vositalarisiz samarali kechmaydi.

1. **Vizual namoyishlar:** Yuqori sifatli proyektor orqali jahon san’ati durdonalari (qadimgi va zamonaviy mozaika, applikatsiya namunalari) namoyish etiladi. Bu o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytiradi.
2. **Dizayn eskizlari:** Grafikli tahrirlovchi dasturlar (masalan, oddiy *Paint* yoki maxsus dizayn ilovalari) yordamida mozaika uchun kompozitsiya eskizlari tayyorlanadi. Bu, ayniqsa, murakkab geometrik mozaikalarni loyihalashda foydalidir.
3. **Video-qo‘llanmalar:** Murakkab texnikalarni (masalan, hajmli applikatsiya, matodan applikatsiya) o‘rgatish uchun qisqa videodarslar namoyish etish.

Integratsiyalashgan dars namunasi

Applikatsiya darsini boshqa fanlar bilan bog‘lash uning ahamiyatini oshiradi:

№	Fan	Integratsiya yo‘nalishi	Amaliy mashg‘ulot

1	***Matematika***	Geometriya (shakl, simmetriya, proporsiya).	Turli o‘lchamdagi geometrik shakllardan (*tessellatsiya*) mozaika yaratish.
2	***Tabiatshunoslik***	Tabiat elementlari (o‘simlik, hayvonlar).	Tabiiy materiallardan (barg, urug‘, somon) foydalanib, ekologik applikatsiya va kollaj yaratish.
3	***Adabiyot***	Syujet (ertak, hikoya, she’r).	O‘qilgan ertakdagi voqealar asosida syujetli applikatsiya kompozitsiyasini yaratish

Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etishning taklif etilgan metodikasi o‘quvchilarda nafaqat tasviriy-amaliy ko‘nikmalarni, balki keng qamrovli ijodiy fikrlashni, qat’iyatlilikni, diqqatni jamlashni va estetik didni rivojlantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Asosiy xulosalar:

1. Applikatsiya va mozaika texnikalari o‘quvchilarning psixomotor va kognitiv rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ular ayniqsa nozik motorika, fazoviy tasavvur va rang sezgirligini rivojlantirish uchun muhimdir.

2. Darslarni rejalashtirishda yosh davriga moslik, soddadan murakkabga tamoyili hamda kompozitsiya va rangshunoslik asoslarini amaliyot bilan bog‘lash ustuvor ahamiyatga ega.

3. Interfaol metodlar (loyihaviy ish, "keys-stadi") va AKT vositalaridan foydalanish darslarning qiziqarli va samarali o‘tishini ta’minlaydi, o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

4. Applikatsiya va mozaikani boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali o‘quvchilarning fanlararo aloqadorlik haqidagi tushunchalari kengayadi va ijodiy izlanish doirasi chuqurlashadi.

5. Applikatsiya va mozaika mashg‘ulotlari uchun maxsus ishlab chiqilgan, 1-4-sinfga moslashtirilgan, integratsiyalashgan metodik tizimning taklif etilishi hamda loyihaviy yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning ijodiy muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlarining ochib berilish.

Amaliy tavsiyalar:

- O‘qituvchilarga dars jarayonida faqatgina qog‘oz va yelimdan emas, balki urug‘lardan, mato parchalari, maydalangan qobiqlar kabi noan’anaviy materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.
- Maktablarda maxsus ko‘rgazmali burchaklarni tashkil etish hamda o‘quvchilar ishlarining muntazam ko‘rgazmalarini o‘tkazish lozim.
- Pedagoglarning malakasini oshirishda ushbu innovatsion metodlarni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Ushbu metodik yondashuv ta’lim muassasalarida texnalogi va tasviriy san’at darslarining sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (Yangi tahriri).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasi.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent-2020-y. 107-bet.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent-2020-y. 608-bet
5. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**.** – Toshkent: TDPU, 2003.
6. Tilavova M. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. - 312 b..
7. Sanaqulov X.R “Texnologuya va uni o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. — T.: TDPU.2023-yil.
8. Sanakulov X.R., Abdieva D.A. “Texnalogiya” 2 va 3-sinf darsligi. Toshkent-2022 yil.
9. Xodjayev B. X. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasviriy san’at ta’limini tashkil etish metodikasi**.** – Toshkent, 2018.
10. Yo‘ldoshev J. G., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari**.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.

UDK: 37.013.42:004

Nishonov Akmal Obidovich,
Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi “Amaliy fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti

INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim pedagogik muammolaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi pedagoglardan yangi kasbiy kompetensiyalarni talab etadi. Tadqiqotda informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari hamda pedagogik shart-sharoitlari o‘rganildi. Shuningdek, YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “ICT Competency Framework for Teachers” modeli asosida o‘qituvchilarning AKT kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: raqamli kompetensiya, informatika o‘qituvchisi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), raqamli ta’lim muhiti, pedagogik innovatsiya, kasbiy rivojlanish, YUNESKO, DigCompEdu, TETCs.

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье рассматривается развитие цифровых компетенций учителей информатики как важная педагогическая проблема современной системы образования. Широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс требует от педагогов новых профессиональных компетенций. В исследовании проанализированы теоретические основы формирования и развития цифровых компетенций учителей информатики, а также педагогические условия их развития. Особое внимание уделено структуре ИКТ-компетентности учителей на основе рекомендаций ЮНЕСКО «ICT Competency Framework for Teachers». Результаты исследования показывают, что развитие цифровых компетенций педагогов является важным фактором повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: цифровая компетенция, учитель информатики, ИКТ, цифровая образовательная среда, педагогические инновации, ЮНЕСКО, DigCompEdu, TETCs.

DEVELOPMENT OF DIGITAL COMPETENCIES OF COMPUTER SCIENCE TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. The article analyzes the development of digital competencies of computer science teachers as an important pedagogical problem in the modern education system. The rapid integration of information and communication technologies into the educational process requires teachers to acquire new professional competencies. The study examines the theoretical foundations and pedagogical conditions for the development of digital competencies among computer science teachers. Particular attention is paid to the structure of ICT competencies based on the UNESCO "ICT Competency Framework for Teachers". The results of the study indicate that the development of teachers' digital competencies plays a significant role in improving the effectiveness of the educational process.

Keywords: digital competence, computer science teacher, ICT, digital learning environment, pedagogical innovation, UNESCO, DigCompEdu, TETCs**.**

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni inson faoliyatining deyarli barcha jabhalarini qamrab olib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayon ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, o'qitish jarayonini tashkil etish shakllari, metodlari va vositalarining yangilanishini taqozo etmoqda.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga ham yangi talablarni qo'ymoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ulardan o'quv jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish kompetensiyalariga ham ega bo'lishi zarur. Shu jihatdan qaraganda, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma'lumki, informatika fani o'qituvchilari ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashda yetakchi rol o'ynaydi. Chunki ular nafaqat informatika fanini o'qitadi, balki o'quvchilarda raqamli savodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirishga ham mas'uldir. Shu bois informatika o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika fanining eng muhim va dolzarb yo nalishlaridan biri bo'lib, nafaqat texnologik, balki metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlarni ham talab etadi.

Raqamli pedagogik kompetensiya – bu o'qituvchining nafaqat texnik bilim va ko'nikmalarni egallashi, balki ularni pedagogik maqsadlarda maqsadli, samarali va ijodkorlik bilan qo'llay bilish qobiliyatidir. Bu kompetensiya o'qituvchidan axborot resurslarini tahlil qilish, raqamli vositalar orqali o'quv faoliyatini tashkil etish, masofaviy ta'lim tizimlaridan foydalanish hamda o'quvchilarning raqamli xulq-atvorini boshqarish malakalarini talab etadi[1].

Adabiyotlar tahlili

O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar, tadqiqotchilar va ilmiy izlanuvchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, C.Redecker tomonidan ishlab chiqilgan **DigCompEdu** (European Framework for the Digital Competence of Educators) modeli o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini baholash va rivojlantirishning muhim konseptual asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu model o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oltita asosiy yo‘nalish asosida tavsiflaydi: kasbiy faoliyat, raqamli resurslardan foydalanish, ta’lim jarayonini tashkil etish, baholash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash. DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda tizimli yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi[2]. Shuningdek, o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi **T.S.Foulger, K.J.Graziano, D.Schmidt-Crawford va D.Slykhuis** tomonidan ham tadqiq etilgan. Ular tomonidan ishlab chiqilgan **Teacher Educator Technology Competencies (TETCs)** modeli pedagoglarning ta’lim jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur model o‘qituvchilarning texnologik savodxonligini oshirish, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish hamda innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratadi[3;4;5].

Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar **Torrey Trust** tomonidan ham olib borilgan. U o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘z pedagogik faoliyatini takomillashtirish, ta’lim jarayonini interaktiv tashkil etish hamda o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirish imkonini beradi[6].

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari keng yoritilgan. Masalan, **N.A.Muslimov** o‘z ilmiy tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, zamonaviy pedagog nafaqat pedagogik bilimlarga ega bo‘lishi, balki innovatsion va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llay olishi ham zarur[7].

Shuningdek, **O‘.Tolipov va M.Usmonboyeva** tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim metodlarining nazariy asoslari yoritilgan. Ularning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[8]. Bundan tashqari, **A.Abduqodirov** ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini joriy etish va elektron ta’lim muhitini rivojlantirish masalalarini o‘rgangan. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, raqamli ta’lim muhiti pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi[9].

Xalqaro miqyosda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muhim metodologik hujjatlardan biri YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “ICT Competency Framework for Teachers” hisoblanadi. Ushbu model o‘qituvchilarning AKT kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan[12].

Mazkur modelga ko‘ra o‘qituvchilarning AKT kompetensiyasi quyidagi uch bosqichda rivojlanadi:

1. Texnologik savodxonlik – o‘qituvchilarning asosiy raqamli texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini egallashi;

2. Bilimlarni chuqurlashtirish – AKT vositalari yordamida o‘quvchilarning analitik fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

3. Bilim yaratish – innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida yangi bilimlarni yaratish va raqamli ta’lim muhitini shakllantirish.

Shuningdek, YUNESKO modeli o‘qituvchilarning AKT kompetensiyasini quyidagi oltita tarkibiy komponent orqali ifodalaydi:

- ta’lim siyosati va strategiyasi;
- o‘quv dasturi va baholash;
- pedagogika;
- AKT vositalaridan foydalanish;
- ta’lim jarayonini tashkil etish;
- o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi yanada chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu muammoni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalarni o‘rganish orqali o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda pedagogik yondashuvlari aniqlashtirildi. Pedagogik kuzatuv metodi yordamida informatika o‘qituvchilarining ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi tahlil qilindi, taqqoslash va umumlashtirish metodlari orqali esa turli ilmiy qarashlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlar aniqlab olindi. Shuningdek, informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar asosida o‘rganildi. Jumladan, **YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan “ICT Competency Framework for Teachers” modeli** o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishning metodologik asoslaridan biri sifatida tahlil qilindi. Ushbu modelga ko‘ra, o‘qituvchilarning AKT kompetensiyasi texnologik savodxonlik, bilimlarni chuqurlashtirish hamda bilim yaratish bosqichlari orqali rivojlanadi[10].

Bundan tashqari, tadqiqotda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini baholash va rivojlantirishga qaratilgan **DigCompEdu** modeli ham metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Mazkur model o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oltita asosiy yo‘nalish asosida tavsiflaydi: kasbiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish, raqamli ta’lim resurslarini yaratish va qo‘llash, ta’lim jarayonini tashkil etishda raqamli vositalardan foydalanish, ta’lim natijalarini baholash jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish (Joint Research Centre, 2023).

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va tahlil

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bir qator ijobiy pedagogik va ta’limiy natijalarga olib keladi. Masalan:

- *Ta’lim jarayonining interaktivligi oshadi* – o‘qituvchilar raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali darslarni interaktiv va qiziqarli shaklda tashkil eta oladi.
- *O‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasi kuchayadi* – raqamli resurslar va innovatsion metodlardan foydalangan holda tashkil etilgan dars jarayoni o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.
- *O‘quv jarayonini individuallashtirish imkoniyati kengayadi* – raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish imkoniyatini yaratadi.
- *Pedagoglarning kasbiy faoliyati samaradorligi oshadi* – raqamli kompetensiyalarga ega o‘qituvchilar o‘zining pedagogik faoliyatini strategik va metodologik jihatdan optimallashtira oladi.

Shuningdek, YUNESKO va DigCompEdu modellariga asoslangan yondashuvlar o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish uchun mustahkam metodologik poydevor sifatida xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini oshirish nafaqat o‘quv jarayonining sifatini yaxshilaydi, balki o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini va butun ta’lim tizimining samaradorligini ta’minlashga yordam beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- *Informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni pedagogik muammo sifatida tizimli tahlil qilindi.* Tadqiqot mazmuni o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning muhim ahamiyatini ilmiy asosda yoritadi.
- *YUNESKO va DigCompEdu modellariga asoslangan AKT kompetensiya tizimi asosida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining tarkibiy tuzilmasi aniqlab berildi.* Bu yondashuv o‘qituvchilarning texnologik savodxonligi, bilimlarni

chuqurlashtirish va innovatsion bilim yaratish bosqichlarini tizimli tarzda baholash va rivojlantirish imkonini beradi.

• *Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi.* Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi metodologik va tashkiliy shart-sharoitlarni aniqlashga yordam beradi, shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanishning amaliy yo‘nalishlarini belgilaydi.

Shunday qilib, tadqiqot nafaqat informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qiladi, balki pedagogik amaliyotda ularni shakllantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha metodologik asoslarni ham taklif etadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalari informatika o‘qituvchilarining malaka oshirish tizimini takomillashtirish, raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish hamda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarni taqdim etish mumkin:

1. Informatika o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining muhim pedagogik muammolaridan biridir.

2. YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan AKT kompetensiya modeli o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib hisoblanadi.

3. Raqamli kompetensiyalarga ega pedagoglar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bilan birga o‘quvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallash darajasini hamda bilim olish motivatsiyasini ham oshiradi.

4. O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusvaliyev D. Informatika o‘qituvchisining raqamli pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llari // Ijodkor o‘qituvchi. – 2025. – №52. – B. 54-59.

2. Redecker C. et al. European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu. – 2017.

3. Foulger, T.S., Graziano, K.J., Schmidt-Crawford, D. & Slykhuis, D.A. (2017). Teacher Educator Technology Competencies. Journal of Technology and Teacher Education, 25(4), 413-448. Waynesville, NC USA: Society for Information Technology & Teacher Education. Retrieved January 21, 2018 from https://www.learntechlib.org/p/181966/.

4. Graziano, K., Foulger, T. S., Schmidt-Crawford, D., & Slykhuis, D. (2017, March). Technology integration and teacher preparation: The development of teacher educator technology competencies. Research paper presentation at the Society for Information Technology and Teacher Education Annual 2017 Conference, Austin, TX. Available at: https://www.academicexperts.org/conf/site/2017/papers/50207/

5. Graziano, K., Foulger, T. S., Schmidt-Crawford, D., Slykhuis, D. (2017). Technology Integration and Teacher Preparation: The Development of Teacher Educator Technology Competencies. In SITE Research Highlights Book 2017.

6. Foulger, T. S., Graziano, K. J., Slykhuis, D., Schmidt-Crawford, D. & Trust, T. (2016). Invited Commentary: The Time is Now! Creating Technology Competencies for Teacher Educators. Journal of Technology and Teacher Education, 24(3), 249-256. Chesapeake, VA: Society for Information Technology & Teacher Education. Available http://www.learntechlib.org/p/174099.

7. Muslimov N.A, Umarova F.A. Improving the Effectiveness of Education through the Use of Modern Information and Communication Technologies in the Training of Designers // La Edusci . – 2020. №5. – B. 6–10. https://doi.org/10.37899/journallaedusci.v1i5.253.

8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2005. – 206 b.

9. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.

10. Nishonov A., G‘ofurova O. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishda raqamli o‘quv resurslari va klasterli yondashuvning didaktik imkoniyatlari. Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar: respublika ilmiy-amaliy 1-sonli online konferensiyasi materiallari to‘plami. - 2026.-208-211-b. https://reandpub.uz/maqola/6686.

11. Самылкина Н.Н. Структура и содержание цифровых компетенций, формируемых в предпрофессиональном обучении. Информатика в школе. 2020; (4): 11-19. https://doi.org/10.32517/2221-1993-2020-19-4-11-19.

12. Структура ИКТ-компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. Версия 3. – Москва: Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании, 2019. ISBN 978-5-9500869-3-9.

13. Nishonov A. Informatika fani o‘qituvchilarining malakasini oshirishda klasterli yondashuvning o‘rni va ahamiyati // Research and Implementation. – 2025. №2. – B. 110–113. https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/1329.

14. Fotina O.V. Masofadan o‘qitishda pedagogning raqamli kompetensiyalari. // Inter education & global study. – 2025. №5. – B.185–198.

UDK: 37.026.3

Umarova Yulduz Baxtiyorovna,
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi,
ISFT instituti katta o'qituvchisi

OILAVIY MUNOSABATLARDA GENDER ROLLARINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: QADRIYAT YO'NALISHLARI VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek oilalarida gender munosabatlariga etnopsixologik omillarning ta'siri hamda turli etnos vakillarining ko'pmillatli jamiyatdagi moslashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning empirik bazasini er-xotin juftliklari va yetti etnik guruh vakillari ishtirokida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar tashkil etadi. Olingan natijalar gender tengligining oilaviy munosabatlarda uyg'unlikni ta'minlashi, shaxsiy o'zini baholash darajasi va nikohdan qoniqishni oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, ijobiy etnik identifikatsiya va tolerantlik ko'pmillatli muhitda muvaffaqiyatli integratsiyani ta'minlovchi muhim omillar ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaviy va madaniyatlararo munosabatlar doirasida psixologik farovonlikning asosiy omillari sifatida o'zaro hurmat, hamkorlik hamda an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanat namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, etnopsixologiya, oilaviy munosabatlar, etnik identifikatsiya, tolerantlik, qadriyatlar, integratsiya.

ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ: ВЛИЯНИЕ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ

Аннотация. В статье анализируется влияние этнопсихологических факторов на гендерные отношения в узбекских семьях, а также процессы адаптации представителей различных этносов в условиях многонационального общества. Эмпирическую базу исследования составляют научные изыскания, проведённые с участием супружеских пар и представителей семи этнических групп. Полученные результаты свидетельствуют о том, что гендерное равенство способствует гармонизации семейных отношений, повышению уровня самооценки и удовлетворённости браком. Установлено, что позитивная этническая идентичность и толерантность являются важными факторами, обеспечивающими успешную интеграцию в многонациональной среде. Сделан вывод о том, что в рамках семейных и межкультурных отношений ключевыми детерминантами психологического благополучия выступают взаимное уважение,

сотрудничество, а также баланс между традиционными и современными ценностями.

Ключевые слова: гендерное равенство, этнопсихология, семейные отношения, этническая идентичность, толерантность, ценности, интеграция.

ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENDER ROLES IN FAMILY RELATIONS:THE IMPACT OF VALUE ORIENTATIONS AND SOCIO-PSYCHOLOGICAL ADAPTATION

Abstract. This article analyzes the influence of ethnopsychological factors on gender relations in Uzbek families, as well as the adaptation processes of representatives of various ethnic groups within a multicultural society. The empirical basis of the study consists of scientific research conducted with the participation of married couples and representatives of seven ethnic groups. The results indicate that gender equality contributes to harmony in family relations, enhances self-esteem, and increases marital satisfaction. In addition, positive ethnic identification and tolerance were identified as key factors ensuring successful integration in a multicultural environment. The findings demonstrate that mutual respect, cooperation, and a balance between traditional and modern values serve as the main determinants of psychological well-being in both family and intercultural relations.

Keywords: gender equality, ethnopsychology, family relations, ethnic identification, tolerance, values, integration.

Globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida oila hamda gender munosabatlari masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbek jamiyati boy madaniy an’analarni asrab qolgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati ta’sirida oilada erkak va ayol rollariga oid qarashlarning transformatsiyasini boshdan kechirmoqda. Ijtimoiy so‘rovlar natijalariga ko‘ra, aholining bir qismida tarixan shakllangan urf-odatlar, diniy me’yorlar va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq erkaklar va ayollar xulq-atvoriga oid an’anaviy stereotiplar hanuz saqlanib qolgan. Shu bilan birga, oilaviy munosabatlarda asta-sekin tenglik va hamkorlikka asoslangan yondashuv kuchayib bormoqda: ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy faolligi oshmoqda, oilada sheriklik tamoyillarining ahamiyati tobora chuqurroq anglanmoqda [Karimova D.M. Oilada gender tengligi: stereotiplar va faktlar // Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti. – 2020.].Etnopsixologik yondashuv oilaviy munosabatlar va shaxs psixologiyasiga milliy-madaniy omillar qanday ta’sir ko‘rsatishini chuqurroq anglash imkonini beradi. O‘zbekistonda oilaviy me’yorlarning shakllanishida yetakchi milliy madaniyat va din muhim o‘rin tutadi. O‘zbek etnosining ustunligi hamda islomiy qadriyatlarning mahalliy an’analar bilan uyg‘unlashuvi gender rollariga oid o‘ziga xos tasavvurlarni shakllantirgan. Kollektivizmga asoslangan qadriyatlar — kattalarga hurmat, oilaning ustuvorligi, erkak va ayol vazifalarining an’anaviy taqsimlanishi — aholining salmoqli qismi hayot tarzida mustahkam o‘rnashgan. Bu holat ayrim vaziyatlarda gender tengligi tushunchasining noto‘g‘ri

talqin qilinishiga, uni begona g‘oyalar bilan aralashtirib yuborishga olib keladi (masalan, tenglikni feminizmning soddalashtirilgan talqini bilan tenglashtirish).Shu bilan birga, milliy xususiyatlar, jumladan, mahalla instituti, ijobiy ijtimoiy-psixologik resurs sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. O‘zaro yordam, birdamlik va hurmatga asoslangan jamoaviy qadriyatlar oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirish va uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Demak, o‘zbek madaniy konteksti gender munosabatlari rivojlanadigan o‘ziga xos maydonni yaratadi: bir tomondan, an’anaviy asoslar kuchli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, zamon talablari bilan muvozanat izlanmoqda.Oilaviy munosabatlar bilan bir qatorda, madaniy qadriyatlar turli etnos vakillarining ko‘pmillatli jamiyat sharoitidagi ijtimoiy-psixologik moslashuviga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat bo‘lib, unda o‘zbeklar bilan bir qatorda ruslar, qozoqlar, tojiklar, koreyslar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar va boshqa etnik guruhlar istiqomat qiladi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida turli millat vakillaridan iborat polimadaniy muhit shakllanadi. Bunday muhitda shaxslar o‘z etnomadaniy qadriyatlari asosida muloqotga kirishar ekan, bir vaqtning o‘zida umumiy ijtimoiy-madaniy makonga moslashish zarurati bilan ham yuzlashadilar.

Bu jarayonda shaxsning etnik identifikatsiyasi, boshqa madaniy guruhlarga bo‘lgan munosabati, tolerantlik darajasi va qadriyat yo‘nalishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy etnik identifikatsiya va ochiq, bag‘rikeng munosabatlar psixologik farovonlik, ijtimoiy barqarorlik va shaxslararo hamkorlikni ta’minlaydi. Aksincha, yopiq qarashlar va salbiy stereotiplar psixologik zo‘riqish hamda munosabatlardagi ziddiyatlarni kuchaytiradi.

Tadqiqotning dolzarbligi etnopsixologik omillarning oiladagi emotsional-rolli munosabatlarga hamda ko‘pmillatli ijtimoiy muhitdagi shaxslararo moslashuvga ta’sirini chuqurroq anglash zarurati bilan belgilanadi. Ushbu ikki soha — oila psixologiyasi va madaniyatlararo munosabatlar — tashqi tomondan farqli bo‘lsa ham, ularni o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan uyg‘unlik tamoyili birlashtiradi. Tadqiqotning maqsadi oilaviy munosabatlarda gender rollarining etnopsixologik xususiyatlari hamda qadriyat yo‘nalishlarining psixologik farovonlikka ta’sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari gender tengligiga asoslangan er-xotin munosabatlarining emotsional-psixologik jihatlarini aniqlash, turli etnik guruhlarda qadriyat yo‘nalishlari farqlarini ochib berish va olingan empirik natijalarni etnopsixologik nuqtayi nazardan talqin qilishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot vazifalari:gender tengligi tamoyillariga amal qilinadigan o‘zbek oilalarida er-xotinlar o‘rtasidagi emotsional-psixologik munosabatlarning xususiyatlarini qadriyat ustuvorliklari va sheriklarning o‘zini idrok etish jihatlarini hisobga olgan holda tavsiflash; turli etnik guruhlarga mansub oilalarda qadriyat yo‘nalishlari, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy-psixologik ustanovkalardagi farqlarni aniqlash; olingan empirik ma’lumotlarni etnopsixologik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilish orqali oilaviy munosabatlardagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni aniqlash; tadqiqot natijalarini etnik qadriyatlar, gender ustanovkalari va mazkur madaniy sharoitda shakllangan xulq-atvor strategiyalari nuqtayi nazaridan talqin etish. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi

oilaviy-gender munosabatlari hamda ko‘pmillatli ijtimoiy muhitdagi shaxslararo moslashuv masalalarini yagona etnopsixologik tahlil doirasida integratsiyalashda namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv oilaviy farovonlik va shaxslararo uyg‘unlikнинг psixologik asoslarini chuqurroq ochib berish imkonini yaratadi.

Oilaviy munosabatlardan tashqari, madaniy qadriyatlar turli etnos vakillarining madaniyatlararo o‘zaro ta’sir sharoitidagi psixologik moslashuv jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston ko‘pmillatli mamlakat bo‘lib, unda titul millat – o‘zbeklar bilan bir qatorda ruslar, qozoqlar, tojiklar, koreyslar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar va boshqa etnik guruhlar yashaydi. Ayniqsa, talabalik muhitida, xususan yirik oliy ta’lim muassasalarida, turli millat vakillaridan iborat polimadaniy hamjamiyat shakllanadi. Bunday muhitda yoshlar birgalikda ta’lim olib, muloqot jarayonida har biri o‘z etnomadaniyatiga xos qadriyat yo‘nalishlarini namoyon etadi hamda bir vaqtning o‘zida ustuvor madaniy muhit talablariga moslashish zarurati bilan yuzlashadi.Mazkur jarayon shaxs tomonidan turli madaniy strategiyalar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, ayrim hollarda shaxs o‘z milliy-madaniy qadriyatlarini saqlagan holda ijtimoiy muhit bilan faol o‘zaro munosabatga kirishadi; boshqa vaziyatlarda esa o‘z madaniy merosidan voz kechib, ustuvor madaniyat me’yorlarini to‘liq qabul qiladi. Shuningdek, ayrim shaxslar faqat o‘z etnomadaniy doirasida qolishni afzal ko‘rsa, boshqalarida esa na o‘z, na yangi madaniy muhit bilan barqaror bog‘lanish shakllanadi. Bunday yo‘nalishlarning tanlanishi etnopsixologik omillarga, xususan etnik identifikatsiyaning kuchi, boshqa madaniyatlarga munosabat, qadriyat yo‘nalishlari hamda jamiyatda hukm suruvchi bag‘rikenglik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, o‘z milliy madaniyatini saqlagan holda ijtimoiy muhit bilan ochiq va faol hamkorlik qiluvchi yo‘nalish eng maqbul psixologik natijalarni ta’minlaydi. Aksincha, ijtimoiy izolyatsiya yoki qadriyatlar ziddiyati bilan kechuvchi holatlar yuqori darajadagi stress va ichki nizolar bilan bog‘liq bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy etnik identifikatsiya va madaniyatlararo tolerantlik shaxsning psixologik farovonligi hamda ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Shu bois, ko‘pmillatli muhitda shaxsning qadriyat-motivatsion va xulq-atvor strategiyalari etnopsixologik xususiyatlarning namoyon bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. [Inglehart R., Norris P. Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 240 p.] Tadqiqot metodologiyasi Mazkur tadqiqot maqsadiga erishish uchun o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ikkita empirik tadqiqot o‘tkazildi. Birinchi tadqiqot oilaviy munosabatlarda gender tengligiga asoslangan sheriklik modelini qo‘llovchi oilalarni o‘rganishga qaratildi. Ikkinchi tadqiqot esa turli etnik guruhlarga mansub oilalar va yoshlar orasida qadriyat yo‘nalishlari hamda ko‘pmillatli ijtimoiy muhitdagi psixologik moslashuv xususiyatlarini tahlil qilishga yo‘naltirildi. Har ikkala tadqiqotda miqdoriy psixodiagnostik metodlar va qiyosiy-analitik yondashuv uyg‘un holda qo‘llanildi. Olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, guruhlararo farqlarni aniqlash uchun St’yudent t-mezoni, Mann–Uitni U-mezoni hamda ko‘p guruhli taqqoslashlar uchun Kruskal–Uollis H-

mezoni qo‘llanildi. Shuningdek, psixologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash maqsadida Pirson va Spirmen korrelyatsion tahlillari amalga oshirildi.

1-tadqiqot: Gender rollari va oilaviy emotsional munosabatlar. Ushbu tadqiqotda 80 ta er-xotin juftligi (jami 160 nafar respondent) ishtirok etdi. Ishtirokchilar Toshkent shahri va unga tutash hududlarda istiqomat qiluvchi oilalar orasidan tanlab olindi. Tanlash mezoni sifatida oilada gender tengligi va sheriklik tamoyillariga asoslangan qarashlarning mavjudligi belgilandi. Bunda er-xotin o‘rtasida huquq va majburiyatlarning nisbatan teng taqsimlanishi, o‘zaro hurmat, qo‘llab-quvvatlash va birgalikda qaror qabul qilish amaliyoti inobatga olindi. Respondentlarni tanlab olishdan avval maxsus so‘rovnoma o‘tkazilib, unda oiladagi qarorlar qabul qilinishi, ayolning bandligiga munosabat, uy yumushlarining taqsimlanishi, farzand tarbiyasidagi mas’uliyat kabi asosiy ko‘rsatkichlar baholandi. Faqatgina ikkala turmush o‘rtog‘i ham egalitar qarashlarni namoyon etgan oilalar tadqiqotga kiritildi. Ishtirokchilarning yoshi 25 dan 50 yoshgacha bo‘lib, erkaklarning o‘rtacha yoshi 38 yosh, ayollarniki esa 35 yoshni tashkil etdi. Nikoh davomiyligi 3 yildan 22 yilgacha, farzandlar soni 0 dan 4 nafargacha bo‘ldi. Tadqiqot dizaynining aniqligini ta’minlash maqsadida asosan shahar sharoitida yashovchi, o‘rta va oliy ma’lumotga ega oilalar tanlandi. 1-tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar: Tadqiqotda er-xotinlar o‘rtasidagi emotsional-shaxsiy munosabatlarni baholashga qaratilgan quyidagi psixodiagnostik metodikalar qo‘llanildi:1. Muhabbat va yaqinlik so‘rovnomasi (R. Sternberg metodikasining moslashtirilgan varianti). Ushbu metodika er-xotinlar o‘rtasidagi munosabatlarning uch asosiy komponentini — intimlik (emotsional yaqinlik va do‘stona munosabat), ehtiros (romantik tortilish) va majburiyat (uzoq muddatli sadoqat) — miqdoriy baholashga imkon beradi. Tahlilda umumiy muhabbat indeksi bilan bir qatorda intim-do‘stona yaqinlik ko‘rsatkichlari alohida ko‘rib chiqildi.2. Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish metodikasi (T. Liri) Mazkur metodika er-xotinlarning oilaviy o‘zaro ta’sir jarayonida namoyon bo‘ladigan xulq-atvor tendensiyalarini aniqlashga xizmat qiladi. Metodika sakkizta asosiy tipni qamrab oladi: hukmronlik, bo‘ysunish, do‘stona munosabat, agressivlik va ularning oraliq shakllari. Har bir respondent o‘z oilaviy xulq-atvorini baholadi, бу эса er-xotinlar o‘rtasidagi o‘zaro moslik yoki nomutanosiblik darajasini aniqlash imkonini berdi. 3. O‘zini baholashni aniqlash metodikasi (Rozenberg testining oilaviy maslahatlashuv uchun moslashtirilgan varianti). Ushbu metodika orqali respondentlarning o‘ziga bo‘lgan umumiy munosabati, o‘z imkoniyatlariga ishonchi, oila ichidagi o‘rni va ahamiyatini his etish darajasi baholandi. Ayniqsa, o‘zini baholashning oilaviy rol bilan bog‘liq jihatlariga — turmush o‘rtog‘i sifatidagi qoniqish, o‘z hissasining qadrlanishi — alohida e’tibor qaratildi. Gender tengligiga asoslangan oilalarda er-xotinlarning o‘zini baholash ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori va muvozanatli bo‘lishi kutilgan. dqiqotda shaxs va oilalarning qadriyat yo‘nalishlari, shaxslararo munosabatlari hamda etnik identifikatsiya xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bir qator psixodiagnostik metodikalar qo‘llanildi. Qadriyat tizimini o‘rganish maqsadida Sh. Shvartsning *Portrait Values Questionnaire* metodikasi ishlatildi. Ushbu so‘rovnoma hokimiyat, yutuqlar, gedonizm, stimulatsiya, o‘zini yo‘naltirish, universalizm, mehribonlik,

an'analar, konformlik va xavfsizlik kabi asosiy qadriyatlarning nisbiy ustuvorligini aniqlash imkonini beradi. Natijalar individual va etnik guruhlar kesimida tahlil qilinib, qadriyat yo'nalishlaridagi farqlar aniqlashtirildi.Shaxslararo xulq-atvorni baholash uchun T. Liri metodikasining moslashtirilgan varianti qo'llanildi. Ushbu metodika yordamida respondentlarning muloqot uslubi, yetakchilikka moyilligi, hamkorlik darajasi va ziddiyatga munosabati aniqlanib, etnomadaniy farqlar qiyosiy tahlil qilindi.Etnik o'zlikni anglash xususiyatlarini aniqlashda G.U. Soldatovaning "Etnik identifikatsiya turlari" metodikasi qo'llanildi. Metodika shaxsda ijobiy etnik identifikatsiya, befarqlik yoki salbiy yo'nalishlarning namoyon bo'lish darajasini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqotlar anonim tarzda, ishtirokchilarning ongli roziligi asosida o'tkazildi. Ma'lumotlar MS Excel va SPSS dasturlarida qayta ишланди. Metodikalar ishonchliligi Kronbax alfa ko'rsatkichlari orqali tekshirilib, yuqori darajadagi ishonchlil 50 ta gender tengligiga asoslangan oilada o'tkazilgan tahlillar oilalardagi emotsional iqlim umumiy jihatdan ijobiy ekanini ko'rsatdi. R. Sternbergning integral "muhabbat" shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich ayollarda 8,6/10, erkaklarda 8,5/10 ni tashkil etdi. Jinslar kesimida sezilarli farq aniqlanmadi ($p>0,05$), ya'ni er-xotinlar bir-biriga nisbatan muhabbat va simpatiyani deyarli teng darajada namoyon etadi. Respondentlarning katta qismi emotsional yaqinlikdan qoniqishini bildirgan: 84% "emotsional yaqinlikdan juda mamnun", 88% esa "hamkorimning qo'llab-quvvatlashi va tushunishini his qilaman" degan. Bu subyektiv baholar muhabbat ballari bilan ijobiy bog'liq ($r=0,67$; $p<0,01$). O'zini baholash ko'rsatkichlari ham "o'rtachadan yuqori" darajada bo'lib, jinslar kesimida farq kuzatilmadi: Rozenberg shkalasida erkaklarda 31±4 (maks. 40), ayollarda 30±5. Ayollarning 82% "turmush o'rtog'im mening fikrimni hurmat qiladi va yutuqlarimni qadrlaydi" degan fikrga qo'shilgan; erkaklarning 85% "oilamda meni qadrlashadi" deb qayd etgan. Ayollarda o'zini baholash darajasi nikohdan qoniqish bilan ijobiy bog'liqligi aniqlandi ($r=0,48$; $p<0,05$), bu oilaviy farovonlikda shaxsiy o'zini qadrlash omilining ahamiyatini ko'rsatadi.

T. Liri metodikasi bo'yicha o'zaro ta'sir uslubi ko'proq sheriklikka asoslangan do'stona-hamkorlik xarakterida: "hamkorlik", "mehribonlik", "murosaga tayyorlik" shkalalari o'rtacha 7–8 sten atrofida; "avtoritarlik" esa past (taxminan 3 sten). Bu natijalar oilalarda dominatsiya yoki passiv qaramlikdan ko'ra muvozanatli hamkorlik ustun ekanini bildiradi. Nikohdan umumiy qoniqish ham yuqori: V.V. Stolin so'rovnomasi bo'yicha 92% respondentlar nikoh sifatidan mamnun. Nikohdan qoniqish muhabbat ($r=0,55$) va do'stona-hamkorlik uslubi ($r=0,47$) bilan bog'liq bo'lib, emotsional yaqinlik va sheriklik oilaviy farovonlikning asosiy determinantlari ekanini tasdiqlaydi. 210 ta turli etnik guruhlarga mansub oilalar bo'yicha qiyosiy tahlil qadriyat yo'nalishlari, ijtimoiy muhitga moslashuvdagi strategik yo'nalishlar hamda shaxslararo tendensiyalarda sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Umumiy taqsimotda "integratsiya" yo'nalishi ko'proq uchradi (taxminan 45%), keyin "assimilyatsiya" (25%), "separatsiya" (20%) va "marginallashuv" (10% dan kam). Etnik guruhlar o'rtasida farqlar statistik jihatdan ahamiyatli (Kruskal–Uollis mezoni bo'yicha $p<0,01$).

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, titul guruh sifatida o‘zbeklarda integratsiya ko‘rsatkichlari yuqoriroq, assimilyatsiya esa pastroq; ruslarda integratsiya nisbatan yuqori bo‘lib, ikki madaniyatli moslashuv tendensiyasi kuchli; qozoq va qoraqalpoqlarda assimilyatsiya yo‘nalishi ko‘proq ifodalanadi; tojiklarda integratsiya pastroq bo‘lib, separatsiyaga moyillik nisbatan yuqori; koreyslarda integratsiya barqaror, separatsiya deyarli uchramaydi; qirg‘izlarda esa integratsiya va assimilyatsiya o‘rtacha darajada namoyon bo‘lib, ijtimoiy faollik motivlari bilan izohlanadigan tendensiyalar kuzatildi.

Qadriyatlar tahlili (Sh. Shvarts metodikasi) guruhlar kesimida farqlarni tasdiqladi (ko‘rsatkichlarning aksariyatida $p<0,01$): an’anaparastlik (an’analar, konformlik, xavfsizlik) kuchli bo‘lgan guruhlarda separatsiyaga moyillik ortadi; yangilik va rivojlanish qadriyatlari (stimulatsiya, yutuqlar, o‘zini yo‘naltirish) kuchli bo‘lgan guruhlarda esa integratsiya yoki assimilyatsiya yo‘nalishlari ko‘proq uchraydi. Shaxslararo muloqot ko‘rsatkichlarida etnoslar kesimida farqlar kutilganchalik keskin bo‘lmasa-da, umumiy darajada ochiq va do‘stona muloqot integratsiya bilan ijobiy bog‘liq ($r=0,41$; $p<0,01$), agressiv-ishonchsiz uslub esa separatsiya bilan bog‘liq ($r=0,35$; $p<0,05$). Soldatova metodikasi bo‘yicha ijobiy etnik identifikatsiya ko‘pchilikda ustun (taxminan 60%) bo‘lib, giperiidentiklik separatsiya ($r=0,52$; $p<0,01$), etnonigilizm esa assimilyatsiya ($r=0,47$; $p<0,01$) bilan bog‘liq ekani aniqlangan.

Umuman, natijalar etnopsixologik omillar (qadriyat yo‘nalishlari, etnik identifikatsiya va shaxslararo uslublar) oilaviy farovonlik hamda ko‘pmillatli muhitda moslashuv jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini qayd etildi.

Mazkur tadqiqot etnopsixologik omillarning oilaviy gender munosabatlari hamda ko‘pmillatli muhitda shaxslarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga ta’sirini tahlil qilishga qaratildi. O‘tkazilgan empirik tadqiqotlar natijalari bir qator muhim xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, o‘zbek oilalarida gender tengligi qulay emotsional-psixologik muhitni ta’minlashi aniqlandi. Huquq va majburiyatlar teng taqsimlangan oilalarda o‘zaro muhabbat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash va nikohdan qoniqish darajasi yuqori bo‘ladi. Bunday oilalarda er-xotinlarning o‘zini baholashi ijobiy bo‘lib, muloqot uslubi ko‘proq hamkorlik va sheriklikka asoslanadi. Bu holat gender sherikligi tamoyillari milliy qadriyatlarga zid emasligini, aksincha, o‘zbek oilasiga xos hurmat va jipslikni mustahkamlashini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, qadriyat yo‘nalishlari va etnomadaniy ustanovkalar turli etnik guruhlarda ijtimoiy muhitga moslashuv yo‘nalishlarini belgilovchi muhim omil ekanligi tasdiqlandi. An’anaviy qadriyatlarga kuchli yo‘naltirilgan guruhlar ko‘proq yopiq strategiyalarni, yangilik va rivojlanishga ochiq guruhlar esa integratsiyaga moyillikni namoyon etdi. Eng qulay moslashuv ijobiy va moslashuvchan etnik identifikatsiya hamda tolerant munosabatlar sharoitida shakllanishi aniqlandi. Uchinchidan, oilaviy gender munosabatlari va madaniyatlararo moslashuv jarayonlari o‘rtasida umumiy psixologik mexanizmlar mavjudligi ko‘rsatildi. Har ikkala jarayon ham tenglik, o‘zaro hurmat, hamkorlik va boshqacha bo‘lganini qabul qilish kabi qadriyatlarga tayangan holda muvaffaqiyatli kechadi. Qat’iy stereotiplar va eksklyuziv qarashlar esa oilaviy nomutanosiblik yoki

ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, etnopsixologik omillar oilaviy farovonlik va ko‘pmillatli jamiyatda barqaror munosabatlarni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Hurmat, tenglik va hamkorlik qadriyatlarini ta’lim, tarbiya va ijtimoiy siyosat darajasida qo‘llab-quvvatlash O‘zbekistonda mustahkam oilalar va sog‘lom ijtimoiy muhitni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова Д.М. Гендерное равноправие в семье: стереотипы и факты // Институт прогнозирования и макроэкономических исследований. – 2020. – Режим доступа: imrs.uz (дата обращения: 28.12.2020).
2. Inglehart R., Norris P. Rising Tide: Gender Equality and Cultural Change Around the World. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 240 p.
3. Сеитов А.П., Уразалиева Г.Б. Этно-демографические особенности института семьи в Узбекистане // Постсоветские исследования. – 2023. – Т.3, №6. – С. 332-340.
4. Triandis H.C. Individualism and Collectivism. – Boulder, CO: Westview Press, 1995. – 259 p.
5. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология: Учебник для вузов. – 3-е изд. – Москва: Аспект Пресс, 2009. – 368 с.
6. Berry J.W. Immigration, acculturation, and adaptation // Applied Psychology. – 1997. – Vol. 46, No.1. – P. 5-34.
7. Солдатова Г.У. Толерантность и интолерантность – две грани межэтнического взаимодействия // Век толерантности. – 2001. – Вып. 1–2. – С. 19-37.
8. Leary T. The Interpersonal Diagnosis of Personality. – New York: Ronald Press, 1957. – 340 p.
9. Schwartz S.H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values // Comparative Sociology. – 2012. – Vol. 5, No. 2. – P. 137-182.
10. Дружинин В.Н. Психология семьи. – Екатеринбург: Деловая книга, 2000. – 235 с.
11. Kağıtçıbaşı Ç. Family, Self, and Human Development Across Cultures: Theory and Applications. – 2nd ed. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2007. – 498 p.
12. Асмолов А.Г., Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А. О смыслах понятия «толерантность» // Век толерантности. – МГУ, 2001. – С. 8-18.
13. Sternberg R.J. A Triangular Theory of Love // Psychological Review. – 1986. – Vol. 93, No.2. – P. 119-135.

UDK: 37.015.3:305

Rustamova Lola Inom qizi,
International school of finance technology and science instituti
"Psixologiya va pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi

TA'LIM MOTIVATSIYASI VA OILAVIY QADRIYATLAR NAMOYON BO'LISHINING GENDER DIFFERENSIATSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim motivatsiyasi va oilaviy qadriyatlarning gender differensiatsiyasi nuqtai nazaridan tahlili keltiriladi. O'g'il va qiz bolalarda motivatsion ehtiyojlarning shakllanishi, oilaviy sotsializatsiyaning o'rni, madaniy stereotiplar ta'siri va pedagogik korreksiya yo'llari ilmiy nazariyalar asosida yoritilgan. Gender rollarining ta'lim jarayoniga ta'siri, shuningdek, tenglikni ta'minlash bo'yicha metodik takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim motivatsiyasi, gender differensiatsiya, oilaviy qadriyatlar, sotsializatsiya, stereotiplar, pedagogik yondashuv, gender tenglik.

ГЕНДЕРНАЯ ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ ПРОЯВЛЕНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ И СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация. В данной статье представлен анализ образовательной мотивации и проявления семейных ценностей с позиции гендерной дифференциации. Раскрывается формирование мотивационных потребностей у мальчиков и девочек, роль семейной социализации, влияние культурных стереотипов и педагогические пути коррекции. Также предложены методические рекомендации по обеспечению гендерного равенства в образовательном процессе.

Ключевые слова: образовательная мотивация, гендерная дифференциация, семейные ценности, социализация, стереотипы, педагогический подход, гендерное равенство.

GENDER DIFFERENTIATION IN THE MANIFESTATION OF EDUCATIONAL MOTIVATION AND FAMILY VALUES

Abctract. This article analyzes educational motivation and the manifestation of family values through the lens of gender differentiation. It examines the development of motivational needs in boys and girls, the role of family socialization, the impact of cultural stereotypes, and pedagogical correction strategies. The study also offers methodological recommendations for ensuring gender equality in the educational process.

Keywords: educational motivation, gender differentiation, family values, socialization, stereotypes, pedagogical approach, gender equality.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchi shaxsining motivatsiyasini shakllantirish va uni doimiy qo‘llab-quvvatlashdir. Bunda oilaning ta’siri hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, oilaviy qadriyatlar gender tamoyillari asosida farqlanganda, o‘quvchining ta’limga bo‘lgan qiziqishi, intilishi va maqsad qo‘yish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda jahon ijtimoiy-psixologik va pedagogik paradigmasida ta’lim motivatsiyasi hamda oilaviy qadriyatlar muammosi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirish va barqaror taraqqiyotini ta’minlashda markaziy o‘rinni egallamoqda. Ilmiy manbalarda ta’lim motivatsiyasiga shaxsning kognitiv ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, uni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, intellektual to‘siqlarni yengib o‘tishga va kasbiy identifikatsiyaga undovchi murakkab psixofiziologik va ijtimoiy konstrukt sifatida qaraladi. U shunchaki o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqish emas, balki shaxsni maqsadli harakatga keltiruvchi dinamik impuls vazifasini o‘taydi.

Motivatsiya tabiatini tushunishda **R. Ryan va E. Deci** tomonidan ishlab chiqilgan **“O‘z-o‘zini belgilash nazariyasi”** fundamental metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, motivatsiya kontinuum shaklida namoyon bo‘lib, u shaxsning avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari qanchalik qondirilishiga qarab ikki asosiy qutbga ajraladi:

- **Ichki motivatsiya (Intrinsic motivation):** Shaxsning o‘rganish jarayonining o‘zidan zavqlanishi, o‘z ustida ishlash va qiziqishlari asosida harakat qilishi.
- **Tashqi motivatsiya (Extrinsic motivation):** Tashqi mukofotlar, ijtimoiy obro‘ yoki jazolanishdan qochish istagi kabi instrumental maqsadlarga yo‘naltirilgan faollik.

Mazkur nazariy yondashuvlar ta’lim oluvchining o‘quv jarayonidagi ishtirokini shunchaki mexanik harakat emas, balki shaxsiy qiymat va maqsadli yo‘naltirilganlik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

O‘z navbatida, motivatsion sferaning shakllanishida **oilaviy qadriyatlar** determinanti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oila – shaxs ijtimoiylashuvining tayanch instituti va birlamchi mikrosotsium bo‘lib, u orqali shaxsning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va ta’limga bo‘lgan munosabatining poydevori yaratiladi. Oilaviy qadriyatlar tizimi o‘z ichiga oila a’zolari o‘rtasidagi emotsional-psixologik aloqalar, tarbiya uslublari (avtoritar, demokratik, liberal) va jamiyatdagi ijtimoiy me’yorlarning oila muhitida qanday talqin etilishini qamrab oladi.

Ushbu jarayonda oila farzandning ta’limiy traektoriyasini belgilab beruvchi asosiy poydevor hisoblanadi. Ota-onaning ta’limga bo‘lgan shaxsiy munosabati va intellektual faolligi bola uchun kognitiv andoza bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy empirik tadqiqotlar natijalari shuni tasdiqlaydiki, sog‘lom **oilaviy iqlim**, konstruktiv muloqot va ota-onalarning ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki o‘quvchilarda ichki motivatsiyani barqarorlashtiruvchi asosiy katalizator hisoblanadi. Ota-onaning psixologik qo‘llab-quvvatlashi va oilada bilimning yuksak qadriyat darajasiga ko‘tarilishi ta’lim oluvchida o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy affektiv munosabatni shakllantiradi.

Qolaversa, bunday qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit yoshlarning psixologik bardoshliligini oshirib, turli ijtimoiy-psixologik og‘ishlarning va salbiy xulq-atvor shakllarining oldini olishda eng kuchli himoya omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ta’lim motivatsiyasi va oilaviy qadriyatlar o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikni o‘rganish uzluksiz ta’lim jarayonini optimallashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Gender differensiatsiyasi konsepsiyasi shaxsning jinsi asosida ijtimoiy rollar, stereotiplar va qadriyatlarning shakllanishini tushuntiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jinslarga oid stereotiplar va oilada yuzaga keladigan gender rollari ta’lim motivatsiyasi va natijalariga salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘g‘il va qiz bolalar uchun oiladagi tayyorlov, ota-ona kutishlari va qo‘llab-quvvatlash darajasi farq qilishi mumkin.

Ta’lim motivatsiyasi, oilaviy qadriyatlar va gender tadqiqotlarining asosiy nazariy va empirik natijalari sistematik ravishda tahlil qilindi.

So‘rovnomalar – o‘rta maktab va universitet talabalari hamda ularning ota-onalaridan yig‘ilgan so‘rovnoma ma’lumotlari asosida oilaviy qadriyatlar, motivatsiya darajasi va gender stereotiplariga oid malakalar tahlil qilindi.

Korrelyatsion tahlil – oilaviy qadriyatlar va ta’lim motivatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, jinsiy farqlar statistik usullar bilan baholandi.

Metodlar tanlovi shundan iboratki, bu yondashuvlar orqali motivatsiya va qadriyatlar jarayonlarining turlicha omillarini aniqlash va gender rolining ularga ta’sirini sistematik baholash mumkin.

Qizlar orasida ichki motivatsiya (o‘qishga qiziqish, o‘zini rivojlantirish istagi) yuqori darajada bo‘lib, bu ularning umumiy ta’lim jarayonida uzluksiz qatnashishiga olib keladi.

O‘g‘il bolalar orasida esa tashqi motivatsiya (ballar, mukofotlar) kuchliroq ekanligi kuzatildi. Bu esa oila va maktab muhitida qo‘llaniladigan baholash tizimi, gender stereotiplari bilan izohlanadi.

Bu natijalar ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarda kuzatiladigan umumiy tendensiyalarga mos keladi: gender stereotiplari ta’lim motivatsiyasining shakllanishiga ta’sir qiladi.Shuningdek, gender bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlarda motivatsiyaning turli tendensiyalari aniqlangan; erkaklar ko‘proq o‘z qobiliyatlarini isbotlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ayollar esa o‘z ustida ishlash va ijtimoiy integratsiyaga urg‘u berishi kuzatilgan.

Gender differensiatsiyasi – jamiyatda erkak va ayollarga nisbatan shakllangan an’anaviy rollar, kutishlar va stereotiplarning takrorlanib borish jarayoni bo‘lib, bu jarayon ta’lim motivatsiyasida ham namoyon bo‘ladi.

Motivatsiya – shaxsni faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar majmui. Leontyev, Vigotskiy, Maslou, Atkinson singari tadqiqotchilar motivatsiyani insonning ehtiyoj, qiziqish, maqsad, rag‘bat va qadriyatlari orqali izohlashgan.

Ta’lim motivatsiyasi quyidagi omillardan shakllanadi:ichki ehtiyoj (qiziqish, o‘rganishga intilish), tashqi rag‘bat (baholash, mukofot, maqom), ijtimoiy kutishlar (oila, jamiyat) o‘zini namoyon qilish ehtiyoji

Pedagogik ma'noda gender – o'g'il va qiz bolalarning murakkab ta'limiy sotsiomadaniy birligi bo'lib, ularning xattiharakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o'quv faoliyatidagi o'zaro teng va farqli jihatlarini o'z ichiga oladi. Shu bois keyingi vaqtlarda gender muammosi, uni o'rganish metodlari pedagoglar e'tiborini ko'proq jalb etmoqda[3].

Shu omillar gender jihatdan farq qiladi va o'g'il hamda qiz bolalarda turlicha darajada kuchli namoyon bo'ladi.

O'g'il bolalarda motivatsiya xususiyatlari	**Qiz bolalarda motivatsiya xususiyatlari**
Raqobatga moyillik kuchli;	Mas'uliyat va tartib asosida ichki motivatsiya kuchli;
Tashqi rag'bat (mukofot, e'tirof) ta'siri yuqori;	O'qituvchi va ota-onaning maqtoviga yuqori darajada javob beradi;
Mustaqillik va yetakchilikka intilish;	Ijtimoiy munosabatlar motivatsiya manbai bo'ladi;
Tanqidga sezgir emas, ko'proq qat'iylik bilan rag'batlantiriladi.	Sadoqat, diqqat, to'liqlikka intilish kuchli.

Bu farqlar biologik emas, asosan oiladagi tarbiya modeli bilan bog'liq. Oila – bolada rollarni, qadriyatlarni va ijtimoiy kutishlarni shakllantiruvchi birlamchi tizim. An'anaviy o'zbek oilalarida qizlar: tartiblilik, muloyimlik, sabr, mehr kabi qadriyatlarga yo'naltiriladi; uy-ro'zg'or ishlarini bajarishga o'rgatiladi, mas'uliyatli bo'lishga undaladi.

O'g'il bolalarga nisbatan kutishlar jasorat, mardlik, tashqi faoliyatga tayyorlik oilaning kelajak tayanchi sifatida ko'riladi. Mustaqil qaror qabul qilishga rag'batlantiriladi. Stereotiplarning o'quv motivatsiyasiga ta'siri deganda quyidagi tushunchalarni ko'rib chiqishimiz mumkin- "Qiz bola matematika o'qimaydi", "O'g'il bola uy ishiga aralashmaydi" kabi stereotiplar o'quvchining qobiliyatini cheklaydi.

Gender motivatsion farqlarning psixologik va pedagogik mexanizmlari

Psixologik mexanizmlar:	**Pedagogik mexanizmlar:**
Identifikatsiya (ota-onaga o'xshashlikka intilish)	Rag'batlantirish tizimi
Ichki e'tiqodlar va o'z-o'zini baholash	Baholash uslubi
Emotsional muhit	O'qituvchi tomonidan genderga xos stereotiplardan foydalanish
Tarbiya uslubi (avtoritar, demokratik, liberal)	Darsdagi rollar taqsimoti (faollik, yetakchilik)

Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchilarning intellektual va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda o'qituvchilar tomonidan **gender stereotiplari**

asosida baholashdan voz kechish ustuvor vazifa hisoblanadi. An'anaviy pedagogikada qizlardan ko'proq tartiblilik va itoatkorlik, o'g'il bolalardan esa mantiqiy fikrlash yoki yetakchilik kutish kabi yashirin stereotiplar mavjud. Bu kabi qarashlarni bartaraf etish uchun ta'lim muhitida har ikki jins vakillariga o'z qobiliyatlarini namoyon etish uchun **teng start imkoniyatlarini yaratish** zarur.

Jamoaviy topshiriqlar va loyiha ishlarida qizlar va o'g'il bolalar ishtirokining proporsionalligini ta'minlash, shuningdek, rolli o'yinlar va motivatsion treninglar orqali ularda o'zaro hurmat hamda empatik munosabatlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda qat'iy me'yorlarga emas, balki o'quvchining individual ehtiyojlariga asoslangan **shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** texnologiyalarini kengaytirish talab etiladi.

Gender sotsializatsiyasining birlamchi o'chog'i bo'lgan oila muhiti maktabdagi ta'lim samaradorligini belgilab beradi. Ota-onalar farzandlarining kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini **jinsiga qarab cheklamasliklari** (masalan, "texnika – o'g'il bolalar uchun", "san'at – qizlar uchun" kabi qarashlardan xoli bo'lish), oilada rag'bat va e'tiborni adolatli taqsimlashlari o'ta muhimdir. Qiz va o'g'il bolaga bir xil darajada ishonch bildirish, ularning mustaqil qaror qabul qilishini qo'llab-quvvatlash bolada tayanch psixologik xavfsizlik va o'ziga baho ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida gender farqlarning tabiiy rivojlanmay qolishi yoki susayishining asosiy sabablaridan biri – maktab muhitining o'ziga xos "itoatkorlik protokoli"ga qurilganligidir. O'qituvchilarning har ikkala jinsga mansub o'quvchilardan birday yumshoq, tinch, bo'ysunuvchan bo'lishni shart qilib qo'yishi, ulardan tartibni buzmay, ortiqcha harakat qilmay, passiv tinglovchi holatida yurishni talab qilishi o'g'il bolalarning psixofiziologik tabiatiga zid keladi.

O'g'il bolalar tabiatan ko'proq kinetik faollikka, tavakkalchilikka va makonni faol idrok etishga moyil bo'ladilar. Ta'lim jarayonida ularning bu xususiyatlari "qoidabuzarlik" sifatida baholanib, ularga nisbatan qo'llaniladigan keskin jazo choralari – **pasaytirilgan baho qo'yish, xulqini konspekt daftariga yozish, ota-onasini maktabga chaqirish** kabilar – bolaning maktabga bo'lgan motivatsiyasini so'ndiradi. Eng yomoni, bu doimiy psixologik bosim o'g'il bolalardagi jinsga xos **identifikatsion belgilarning (maskulinnikning ijobiy ko'rinishlari) asta-sekin yo'qolib borishiga**, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy passivlikka olib keladi.

Ushbu ziddiyatni hal etishda o'quvchilarni jinsiga ko'ra ajratib o'qitish (segregatsiya) zaruriyati yo'q, chunki bu ularning kelajakda aralash jamiyatga ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Asosiy yechim – **gender-inklyuziv ta'lim** muhitini yaratishdir. Har bir bolaning shaxsini shakllantirishda uning gender xususiyatlarini (axborotni qabul qilish tezligi, emotsional reaksiyalari, faollik darajasi) inobatga olish zarur. Kutilgan pedagogik natijalarga erishish uchun o'g'il va qiz bolalarning bir sinfda, o'zaro sog'lom raqobat va hamkorlik muhitida ta'lim olishini ta'minlagan holda, ularning har biriga differensial va individual yondashuvni yo'lga qo'yish zamonaviy didaktikaning bosh mezoniga aylanishi lozim.

O‘quv jarayonida o‘quvchining gender farqlari va o‘ziga xosligini ta’minlash uchun, avvalo, har bir bolaning individualligini e’tiborga olish va hurmat qilish zarur. Shundagina har bir jinsga mansub o‘quvchining mantiqiy fikrlashi, o‘zligi, intellektual taraqqiyotini ta’minlash mumkin. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni oliy o‘quv yurtlaridayoq o‘quvchilardagi gender farqlar va o‘ziga xosliklarni hisobga olishga o‘rgatib borish lozim[3].

Xulosa qilib aytganda, gender differensiatsiyasi ta’lim motivatsiyasining shakllanishida muhim omil sanaladi. Oilaviy qadriyatlar, tarbiya modeli va stereotiplarning kuchi o‘quvchining ta’lim jarayonidagi ishtirokiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Shuning uchun oila, maktab va jamiyat hamkorligida gender tenglikni ta’minlash, motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar bugungi pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Gender farqlari ta’lim motivatsiyasida aniq ifodalanadi, bunda qizlar ichki motivatsiyaga, o‘g‘il bolalar esa tashqi natijalarga e’tibor qaratadi. Bu farqlar oilaviy qadriyatlar, stereotiplar va ijtimoiy kutishlar bilan izohlanadi.

Oilaviy qadriyatlar ta’lim motivatsiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi, ayniqsa, ota-ona qo‘llab-quvvatlashi, mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish va ta’limning qadriyat sifatida qabul qilinishi motivatsiya darajasini oshiradi. Gender differensiatsiyasi ta’lim jarayonini tashkil etishda inobatga olinmasa, bu qizlar va o‘g‘il bolalar ta’lim tajribasini turlicha ta’sir etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бочавер А.А., Жилинская А.В., Хломов К.Д. Перспективы современных подростков в контексте жизненной траектории. // Электронный журнал «Современная зарубежная психология», 2016. Том 5. № 2. С. 31-38.

2. Самсоненко Л.С. Изучение жизненных планов у современных старшеклассников. // Ж.: Балканско научно обозрение, 2019. Т. 3. № 3(5).

3. N. Egamberdiyeva, B. Xonturayev, Sh. Abdiraimova. Ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash masalalari. Monografiya. “Mahalla va oila” nashriyoti: Toshkent – 2023.

4. Abdusamatov X.U, Umarova Y.B. Shaxsning gender xususiyatlarini o‘rganishda psixodiagnostik metodikalar: o‘quv qo‘llanma. Toshkent, Bookmany print 2025.-126b.

UDK: 159.923.2

Ишбобоева Гулбарчин Рустам кызы,
преподаватель кафедры "Психологии и педагогики" института
International School of Finance Technology and Science

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СТАБИЛЬНОСТИ СЕМЬИ В УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ БРАКОМ

Аннотация. Семья является необходимым элементом социальной структуры человеческого общества и выполняет важнейшую функцию в воспроизводстве населения. Известно, что брачно-семейные отношения играют важную роль в становлении семьи как основы общества. В процессе совместной жизни супруги стремятся создать такие отношения друг с другом, которые удовлетворяют личные и совместные потребности. Счастливый брак признан общечеловеческой ценностью, основой стабильности и благополучия семьи. В связи с кризисом современной семьи вопросы определения психологических основ формирования брака и семьи, их понимания и изучения привлекают внимание исследователей.

Ключевые слова: семья, брак, удовлетворенность браком, ценностные ориентации, семейные отношения, микрогруппу, успешность брака.

NIKOHDAN QONIQISHDA OILA BARQARORLIGINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Oila insoniyat jamiyati ijtimoiy tuzilishining zarur elementi bo‘lib, aholini takror ishlab chiqarish bo‘yicha o‘ta muhim vazifani bajaradi. Ma’lumki, oilaning jamiyat asosi sifatida vujudga kelishida nikoh va oila munosabatlari katta rol o‘ynaydi. Birgalikda yashash jarayonida er-xotinlar bir-birlari bilan shaxsiy va qo‘shma ehtiyojlarni qondiradigan munosabatlarni yaratishga intilishadi. Baxtli nikoh oilaning bardavomligi va farovonligining asosi, umuminsoniy qadriyat sifatida tan olingan. Zamonaviy oila inqirozi tufayli nikoh va oilani shakllantirish, ularni tushunish va o‘rganishning psixologik asoslarini aniqlash masalalari tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda.

Kalit so‘zlar: oila, nikoh, nikohdan qoniqish, qiymat yo‘nalishlari, oilaviy munosabatlar, mikroguruh, nikoh muvaffaqiyati.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FAMILY STABILITY IN MARRIAGE SATISFACTION

Abstract. The family is a necessary element of the social structure of human society, performing a very important function in the reproduction of the population. As is known, marriage and family relations play a major role in the emergence of the family as the basis of society. In the process of living together, spouses strive to

create relationships with each other that satisfy personal and joint needs. A happy marriage is recognized as the basis of the stability and well-being of the family, a universal human value. Due to the crisis of the modern family, the issues of determining the psychological foundations of the formation of marriage and family, their understanding and study are attracting the attention of researchers.

Keywords: family, marriage, marital satisfaction, value orientations, family relationships, microgroup, marital success.

Брак представляет собой санкционируемую и регулируемую обществом форму отношений, устанавливающую права и обязанности супругов по отношению друг к другу и к детям. В качестве основной цели его заключения выступает организация совместной деятельности мужчины и женщины для наиболее полного удовлетворения материальных, духовных, сексуальных и других потребностей супругов. Брачно-семейные отношения - один из показателей стабильности общества, способствуют формированию личности подрастающего поколения, именно поэтому общество заинтересовано в их устойчивости, что проявляется в государственной поддержке семьи. Однако их эффективное функционирование в первую очередь связано с супружеским благополучием, которое можно охарактеризовать как удовлетворенность супругов своими брачными отношениями.

Рассматривая семью как микрогруппу, эстонские социологи Э.Тийт и В. Уколова предположили, что ее устойчивость определяется наличием конкретных целей существования и функционирования. Эти цели они разделили так:

– цели, связанные с воспитанием детей;

– цели, основывающиеся на дальнейшем развитии супругов как личностей;

– цели, определяемые необходимостью создания своего домашнего очага с приданием ему своеобразия и уюта [7].

Опрос, осуществленный социологом С.И.Голодом в 1998 году, показал, что для мужчин в число наиболее важных факторов стабильности брачных отношений последовательно вошли: любовь к детям и обязанности по их воспитанию, дружеская расположенность и взаимная любовь супругов, общность супружеских взглядов и интересов, а также супружеский долг. Женщины также отдали предпочтение детям, дружбе и духовной общности. Однако четвертое место в списке факторов у них наряду с долгом разделили сексуальная гармония, понимание и поощрение индивидуальных стремлений каждого из супругов. Исследования, проведенные С.И.Голодом в 2003 году, усложнили картину. И у мужчин, и у женщин дети сохранили первенство как фактор стабильности. Далее у мужчин шли: сексуальная гармония, дружеская расположенность и взаимная общность; у женщин – духовная общность, дружеская расположенность, сексуальная гармония [5].

В.А.Сысенко впервые разделяет понятия «устойчивость брака» и «успешность брака». Устойчивость брака он рассматривает как «устойчивость

системы взаимодействия между супругами, эффективность и результативность их совместной деятельности, направленной на достижение как взаимных, так индивидуальных целей супругов».

Существенно расширяет данное понятие В.В.Бойко (1988). Устойчивость брака, по его мнению, имеет объективную и субъективную стороны. Объективная сторона прочности брака зависит от вероятности его распада, которая может быть выражена соотношением количества браков и разводов, зарегистрированных в данном регионе за определенный промежуток времени. Субъективная сторона характеристики брака включает в себя удовлетворенность супружескими отношениями, установку супругов на сохранение семьи. Показателями субъективной стороны устойчивости брака, по мнению В.В.Бойко (1988), может служить оценка его прочности, которую дают супруги.

Исследования У.Харли выявили пять основных потребностей мужчин и женщин в браке. Основные потребности мужчины в браке: 1) половое удовлетворение, 2) спутник по отдыху, 3) привлекательная жена, 4) ведение домашнего хозяйства, 5) восхищение.

Отечественными учеными была предложена теоретическая модель стабильности семьи. Согласно ей все факторы устойчивости (и соответственно, нестабильности) семьи разделяют по следующим полюсам: внешние – внутренние; объективные – субъективные. Внешние объективные факторы устойчивости семьи – стабильность социальной системы, в которую интегрирована семья и материальные условия ее жизнедеятельности. Внешние субъективные факторы стабильности семьи – факторы социального контроля: культурные, правовые, религиозные нормы; национальные, культурные, религиозные традиции; ожидания и требования социально-психологически значимого окружения [1].

Реальные изменения семейных структур в XX–XXI вв. позволяют говорить о переходе к эпохе спонтанного уменьшения детности семьи, разводимости, падения брачности. В качестве интегральной характеристики восприятия своего брака в супружеских отношениях используется такая характеристика, как удовлетворенность браком, которая прямо, непосредственно влияет на устойчивость супружества, а неудовлетворенность ведет к разводу.

В ряде отечественных исследований С.И.Голода, Л.Я.Гозмана, Ю.Е.Алешиной и др. была показана параболическая зависимость удовлетворенности браком от стажа. Через 12–18 лет брака удовлетворенность оказывается наименьшей в результате развития у супругов потребности в автономии, сменяющей первоначальную потребность их в адаптации и в значимости духовных взаимоотношений. Как отмечает Т.А.Гурко, «различия в восприятии брака в значительной мере определяются стадией жизненного цикла…» и «существенных различий в удовлетворенности мужей и жен браком практически не обнаружено…, хотя с годами неудовлетворенность браком российских женщин увеличивается». По мнению А.В.Шавлова,

удовлетворенность браком, по сути своей, является характеристикой межличностного восприятия супругами друг друга, движущей силой семейно-брачных отношений [4].

По утверждению английского психолога М.Аргайла, общая супружеская удовлетворенность зависит от сбалансированности двух составляющих – частоты интимной жизни и частоты ссор. Супружеские взаимоотношения в целом увеличивают счастье, принося радость, предоставляя помощь, смягчают стрессовые последствия, способствуют росту самооценки [2].

Факторами устойчивости брака считают:

– разумный выбор супруга, основанный на единстве целей, потребностей и взглядов на будущее (удачный выбор);

– психологическая готовность к браку, правильная ориентация супругов, их совместимость, знание особенностей друг друга и нахождение приемлемых способов использования различий на благо семьи (готовность к браку);

– сформированность представлений о любви и браке во взаимоотношениях родительской семьи, их открытое обсуждение, осознание, что создание семьи – главная задача взрослой жизни (сформированные представления о браке, семье);

– решение вопросов о детях в соответствии с пожеланиями супругов, создание благоприятных условий для успешной социализации детей, достижения их психологической и физической зрелости (дети по желанию);

– демонстрация любви, заботы и внимания как постоянных чувств, стремление к нежности, ласке, подлинной эмоциональной чистоте, дружбе, взаимному признанию в позитивных чувствах (любовь и забота);

– наличие доверия, честности, откровенности в отношениях членов семьи (подлинное доверие);

– высокая степень взаимопонимания, умение смотреть на события, обстоятельства с позиции другого, учет потребностей, взглядов, мнений членов семьи и их глубокое изучение (высокое взаимопонимание);

– устойчивые проявления отзывчивости, доброжелательности, эмпатия, то есть сопереживание с другими членами семьи, действенное сочувствие, эмоциональный отклик на неблагополучие, умение разделить радость (эмпатия и отзывчивость);

– гармоничная сексуальная жизнь, удовлетворенность внешними физическими данными супругов, достижение физиологической и психологической близости (гармоничный секс);

– соединение бессознательных и сознательных потребностей членов семьи, признание компромиссов в их удовлетворении и заинтересованность в совместной жизни (удовлетворение потребностей в целом);

– гибкость, уважительное, высокоэмпатичное общение в семье с тенденцией минимальной конфликтности, его высокая культура, поисковый характер творческого решения проблем (комфортное естественное общение);

– психологическая зрелость супругов, высокий уровень адаптации к партнеру, самостоятельности и возможностей роста для каждого как фактор,

обеспечивающий эмоциональный комфорт, психическое здоровье (семья как мастерская роста);

– совместное заинтересованное проведение досуга, семейного отдыха в соответствии с потребностями каждого, с учетом образовательного уровня, постоянных увлечений; информирование друг друга в случае раздельного осуществления досуга (интересный семейный досуг);

– обеспечение отношений взаимной ответственности в соединении с любовью, требовательности к себе в браке со стороны супругов, значимости моральных качеств, реализм в восприятии семейных проблем (взаимная ответственность и реализм);

– равномерное взаимоуважительное распределение обязанностей в ведении домашнего хозяйства, достижение паритетности в семейных делах и служебной деятельности, карьере в соответствии с полоролевой дифференциацией супругов (паритетность обязанностей в семье);

– наличие психологического убежища – снятие напряжения, создание эмоционально-психологического комфорта, выражение любых чувств (психологический комфорт);

– баланс в сочетании доминирования и эмоциональной привязанности во взаимоотношениях членов семьи, удачное распределение лидерства и подчинения в соответствии с семейной структурой (баланс власти и эмоциональной привязанности);

– доступное, компромиссное, ровное взаимодействие с прародителями, иными родственниками, соседями, сослуживцами и другим социально-психологическим окружением семьи (здоровое взаимодействие с семейным окружением);

– уверенность в прочности семейного союза, благополучие и свобода действий членов семьи, стремление к ее будущему (уверенность и свобода членов семьи).

Результаты исследования показывают, что стабильность брака и семьи является одним из важнейших показателей устойчивости общества и напрямую связана с характером супружеских отношений и уровнем удовлетворенности браком. Семья как микросоциальная группа обладает определёнными целями, наличие и реализация которых обеспечивают её устойчивость. Общие цели, направленные на воспитание детей, личностное развитие супругов и формирование благоприятной семейной среды, способствуют долговременной стабильности семьи.

Анализ научных источников подтверждает существование объективных и субъективных факторов устойчивости брака. Объективные факторы связаны с социально-экономическими условиями и механизмами социального контроля в обществе, тогда как субъективные факторы проявляются в степени удовлетворенности супругов брачными отношениями, их эмоциональном благополучии и внутренней установке на сохранение семьи. Именно удовлетворенность браком выступает одним из ведущих психологических показателей устойчивости супружеских отношений.

Исследования показывают, что уровень удовлетворенности браком изменяется в зависимости от продолжительности семейной жизни, при этом важную роль играют потребности супругов, степень их взаимной адаптации, эмоциональной близости и стремление к личной автономии. К основным факторам, положительно влияющим на стабильность брака, относятся взаимная любовь и забота, доверие, эмпатия, сексуальная гармония, ответственность, культура общения, сбалансированное удовлетворение потребностей, а также психологическая зрелость супругов. Таким образом, устойчивость семьи и удовлетворенность браком формируются в результате гармоничного взаимодействия личностных, эмоциональных и социально-психологических факторов. Учет данных факторов имеет важное теоретическое и практическое значение для укрепления семейных отношений, профилактики разводов и формирования здоровой семейной среды.

Список литературы:

1. Егорова О.В. Феномен удовлетворенности браком: основные направления исследований [Электронный ресурс] // Научные материалы международного форума и школы молодых ученых ИП РАН. 2006. URL: http://www.ipras.ru/cntnt/rus/dop_dokume/mezhdunaro/nauchnye_m/razdel_3_a.html.
2. Куфтяк Е.В. Совладающее поведение супружеской пары: динамика и структура // Психологический журнал. 2010. Т. 31. №3. С. 17-24.
3. Мельчакова М.А. Особенности взаимосвязи уровня удовлетворенности браком с уровнем эмпатических способностей в зависимости от стажа супружеской жизни // Университетские исследования. Материалы XIV Международной конференции молодых ученых «Человек в мире. Мир в человеке: актуальные проблемы философии, социологии, политологии и психологии». – Пермь, 2011.
4. Авдонькина Т. В. Мотивы создания семьи и прогнозирование супружеских отношений // Регионология. 2018. № 1. С. 143–144.
5. Волкова А.Н. Социально-психологические факторы супружеской совместимости. Вопросы психологии. №2, 2019. С.36-44
6. Волкова А.Н., Трапезникова Т.М. Методические приемы диагностики супружеских отношений. // Вопросы психологии. №5, 2005. С.54-57.
7. Гурко Т.А. Влияние добрачного поведения на стабильность молодой семьи. // Социологические исследования. №7, 2009. С.88-93.

UDK: 81'272:37.02

Kuchmurodova G.X.,
Senior teacher of University of Innovation Technologies

EFFECTIVE METHODS AND TECHNIQUES FOR DEVELOPING SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN THE CLASSROOM

Abstract. Enhancing Sociolinguistic Competence in the Modern Language Classroom. This article examines the shift from purely grammatical instruction to a broader model of communicative proficiency. The author identifies core sociolinguistic elements, such as politeness markers, social registers, and non-verbal cues, as essential for navigating diverse cultural contexts. By introducing practical pedagogical tools—including "The Status Shift" role-plays and "Register Flipping" exercises—the paper demonstrates how learners can adapt their speech to different social hierarchies. Ultimately, the teacher is framed as a vital cultural mediator who prepares students for successful intercultural communication in a globalized society.

Key words: Sociolinguistic Competence, Communicative Language Teaching (CLT), Pragmatic Failure, Register and Style, Authentic Materials, Intercultural Communication, Speech Acts, Politeness Theory, Classroom Methodology, Code-Switching.

SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METOD VA TEXNIKALARI

Annotatsiya. Zamonaviy til o‘qitishda sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish. Ushbu maqola an’anaviy grammatik yondashuvdan voz kechib, nutqiy vaziyat va madaniy me’yorlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalarini o‘rganadi. Muallif sotsiolingvistik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida xushmuomalalik markerlari, ijtimoiy registrlar va noverbal muloqot vositalarini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, maqolada “Statusli muloqot” va “Nutqiy registrni o‘zgartirish” kabi amaliy usullar tahlil qilingan. Yakuniy xulosada o‘qituvchining madaniy mediator sifatidagi roli global dunyoda samarali muloqot o‘rnatishning asosi ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistik kompetensiya, kommunikativ til o‘qitish (CLT), pragmatik xatolik, nutq registri va uslubi, autentik materiallar, madaniyatlararo kommunikatsiya, nutq aktlari, xushmuomalalik nazariyasi, sinf metodikasi, kod-almashinuvi.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНИКИ РАЗВИТИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В АУДИТОРИИ

Аннотация. Развитие социолингвистической компетенции в современном обучении языкам. В статье анализируется переход от

традиционного акцента на грамматическую правильность к развитию социолингвистической гибкости. Автор выделяет ключевые компоненты компетенции: социокультурные правила, маркеры вежливости и невербальные средства общения. Особое внимание уделяется практическим методам, таким как ролевые игры «Смена статуса» и критический дискурс-анализ аутентичных медиа. В заключении обосновывается роль преподавателя как посредника культур, помогающего учащимся стать эффективными участниками международного общения в условиях глобализации.

Ключевые слова: социолингвистическая компетенция, коммуникативное обучение языку (CLT), прагматическая ошибка, регистр и стиль речи, аутентичные материалы, межкультурная коммуникация, речевые акты, теория вежливости, методика обучения, переключение кодов.

For decades, the benchmark of a successful language learner was measured by the accuracy of their verb conjugations and the breadth of their lexicon. If a student could navigate the labyrinth of irregular past tenses and recite a list of synonyms for "happy," they were considered "proficient." However, the reality of global communication has exposed a significant flaw in this purely structural approach: linguistic accuracy does not guarantee communicative success. To truly master a language is to understand its pulse—the unspoken rules, the cultural undertones, and the social hierarchies that dictate how words are used in real-time interactions. This is where **sociolinguistic competence** becomes the bridge between a textbook learner and a fluent communicator.

Sociolinguistic competence is the ability to interpret and produce language that is appropriate to the social context.It is the invisible filter that tells a speaker that while$Sentence A$and$Sentence B$are grammatically identical, only one is socially acceptable in a given moment. Consider the simple act of requesting a glass of water. A student might learn the imperative: *"Give me water."* Grammatically, it is flawless. However, if uttered to a stranger in a formal setting, it becomes a sociolinguistic failure.

Moving beyond grammar and vocabulary , we equip learners with the tools to navigate the nuances of human connection. We move from teaching "the code" to teaching "the conduct," ensuring that when our students speak, they are not just heard, but understood in the way they intended.

Modern linguistics has long since moved away from the idea that language proficiency is limited to knowledge of structure.$S + V + O$Sociolinguistic competence is the ability to select linguistic forms appropriate to the context, the purpose of communication, and the social roles of the participants. Without it, a student risks becoming a "fluent-speaking boor" or a "grammatically correct robot."

Core Components of Sociolinguistic Competence. To master a language, one must move beyond the literal meaning of words and understand the "social chemistry" of interaction. According to the framework established by Canale and Swain (1980), sociolinguistic competence is the ability to produce and understand utterances which are appropriate to the context in which they are uttered.

Here are the core components that educators must address to build this competence in the classroom.

Socio-Cultural Rules of Use. This is the "heart" of sociolinguistic competence. It involves knowing which topics are appropriate to discuss, how to handle taboos, and how to perform specific speech acts (eg, apologizing, complaining, or praising) according to the cultural norms of the target language.

Example**:** In some cultures, a compliment on a piece of clothing is met with a simple "Thank you." In others, the "socially correct" response is to downplay the item's value ("Oh, this old thing? It was on sale.").

Register and Style (Formality)

Register refers to the level of formality a speaker adopts based on the situation.Students must learn to slide along a spectrum of formality:

- **Frozen/Formal:** Used in speeches, academic writing, or legal contexts.
- **Consultative:** Standard professional communication (eg, doctor-patient).
- **Casual/Intimate:** Used with friends, family, and peers.

Social Markers and Status

Language changes depending on the relative status of the speakers. This involves understanding:

- **Power Dynamics:** How to speak to a boss versus a subordinate.
- **Social Distance:** How to speak to a stranger versus a lifelong friend.
- **Politeness Markers:** The use of honorifics (Mr., Dr., Professor) or "hedging" language to soften a request (eg, *"I was wondering if you might…"*).

Dialect and Variation

Competence includes an awareness of how language varies geographically and socially.While a student may learn "Standard English," they must be aware that:

- **Regional Dialects:** (eg, Southern American English vs. Cockney) have different pronunciations and idioms.
- **Social Dialects:** Different social groups (based on age, profession, or ethnicity) use distinct vocabulary or "slang."

Non-Verbal Communication

While often overlooked in traditional grammar books, sociolinguistic competence is heavily tied to paralinguistic features:

- **Proxemics:** How much physical space should be between speakers?
- **Kinesics:** What do specific gestures or eye contact mean in this culture?
- **Silence:** Is silence a sign of respect, or a sign of an awkward breakdown in communication.

The development of sociolinguistic competence in language education represents a multidimensional and interconnected process in which various components function as an integrated system rather than as isolated elements. A change in one communicative variable, such as the shift from an informal setting to a formal institutional environment, inevitably leads to transformations in language register, lexical choice, and communicative behavior. In this regard, the ability to recognize and appropriately use different communication registers—from formal academic discourse to informal conversational speech—constitutes a fundamental

aspect of communicative proficiency. Furthermore, understanding dialectal and regional variations, such as the differences between British English, American English, and other English varieties, enhances learners' adaptive communicative capacity. Equally important is the awareness of social markers, including the interlocutor's age, social status, and gender, which significantly influence linguistic choices and pragmatic strategies, particularly in the use of politeness norms and direct or indirect speech acts.

The effective formation of sociolinguistic competence requires the integration of both inductive and deductive instructional approaches. The inductive, or discovery-based, method encourages learners to analyze authentic communicative materials, such as videos, emails, or conversations, in order to identify the underlying pragmatic and sociocultural factors influencing language use. This approach promotes analytical thinking and pragmatic awareness by engaging learners in the process of meaning construction. In contrast, the deductive approach involves explicit instruction of sociocultural norms, politeness conventions, and cultural expectations. Such direct explanation is particularly important at the initial stages of language learning, as it helps prevent sociocultural misunderstandings and facilitates learners' adaptation to the target language environment.

Among the practical techniques used in the classroom, role-playing activities occupy a central position in developing sociolinguistic flexibility. However, their effectiveness can be significantly enhanced by incorporating additional sociocultural variables. For instance, asking learners to perform the same communicative task with interlocutors of different social status enables them to understand the necessity of adjusting their linguistic behavior according to the communicative context. Similarly, assigning hidden communicative intentions or emotional states encourages learners to consciously select appropriate linguistic and pragmatic strategies. Such activities contribute not only to linguistic development but also to the formation of pragmatic and sociolinguistic competence.

Discourse-based instructional techniques also play a crucial role in this process. The use of film and television excerpts allows learners to observe authentic language use in socially and culturally meaningful contexts. Analyzing communicative situations, including non-verbal cues such as facial expressions and gestures, helps learners understand the relationship between language, social roles, and communicative intent. Additionally, intralingual translation exercises, in which learners transform informal expressions into formal equivalents, enhance their stylistic awareness and ability to adapt language according to situational demands.

The acquisition of sociolinguistic competence is closely linked to the understanding of cultural elements embedded in language. Idiomatic expressions, proverbs, and conventional conversational formulas reflect the cultural values and communicative norms of the speech community. By studying these elements within their sociocultural context, learners develop a deeper understanding of the functional and pragmatic dimensions of language. This, in turn, contributes to the development of communicative competence as a whole.

In this process, the teacher assumes the role of a cultural mediator who facilitates learners' understanding of both linguistic and sociocultural aspects of communication. The use of authentic materials, including social media content, podcasts, and other digital resources, enhances the authenticity of the learning experience and increases learners' engagement. Moreover, creating a supportive classroom environment in which learners feel comfortable making and correcting sociolinguistic mistakes is essential for the development of communicative confidence and competence.

The assessment of sociolinguistic competence presents a particular challenge due to its context-dependent and subjective nature. Therefore, alternative assessment methods, such as situational judgment tests and learner portfolios, are considered effective tools for evaluating learners' ability to use language appropriately in different communicative contexts. These methods provide valuable insights into learners' pragmatic awareness and their readiness for real-life communication.

Overall, the integration of sociolinguistic competence into language teaching significantly enhances learners' communicative effectiveness, pragmatic awareness, and intercultural communication skills. It enables learners to use language not only correctly but also appropriately, thereby ensuring successful and meaningful interaction in diverse social contexts.

Method	**Pros**	**Cons**
Role-play	High involvement	It takes time to prepare
Film Analysis	Visibility, context	Passivity (if there are no tasks)
Contrastive Analysis	Deep understanding of nuances	Difficulty for beginner levels

Developing sociolinguistic competence transforms language learning from rote memorization into the art of navigating human relationships. A student who masters these techniques doesn't just "speak the language"—they "live it," understanding the subtle nuances of every spoken (or unspoken) word. The development of sociolinguistic competence represents the final frontier in transforming a language learner into a true communicator. As explored throughout this article, the ability to navigate the "social architecture" of a language is what prevents the phenomenon of the "Fluent Fool" —a speaker who possesses the grammatical hardware but lacks the cultural software to function effectively in real-world scenarios.

By moving beyond grammar and vocabulary , educators shift the classroom focus from the binary of "correct vs. incorrect" to the nuanced spectrum of "appropriate vs. inappropriate." The integration of Top-Down observation (decoding social cues in authentic media) and Bottom-Up linguistic tools (mastering the specific formulas of politeness and register) provides students with a balanced strategy for social survival. The pedagogical techniques discussed—ranging from Strategic Role-Playing with status shifts to Critical Discourse Analysis —do more than just teach "manners." They grant students agency . When a learner understands the sociolinguistic weight of a "hedge," a silence, or a formal address, they are no

longer guessing; they are making informed choices about how they wish to be perceived in a globalized society.

The role of the teacher in the 21st-century classroom must continue to evolve from a source of linguistic rules to a cultural mediator . By prioritizing sociolinguistic competence, we prepare our students for the unpredictability of human interaction. We move from teaching them how to speak a language to teaching them how to belong within it.

Ultimately, the most successful language learners are not those who never make a mistake, but those who can read in a room, adjust their register, and build bridges across cultural divides with confidence and empathy.

References:

1. Bachman, L. F. *Fundamental Considerations in Language Testing.* Oxford University Press. (Provides the theoretical framework for communicative language ability). 1990.

2. Kuchmurodova G.X. Формирование специфического словарного запаса учащихся при обучении иностранным языкам: на примере английского и русского языков. 2021.

3. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. *Investigating Cross-Cultural Pragmatics: An Overview.* Ablex Publishing Corporation. (The definitive work on speech acts across cultures). 1989.

4. Canale, M., & Swain, M. "Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing." *Applied Linguistics* , 1(1), 1–47. (The origin of the sociolinguistic competence model). 1980.

5. Celce-Murcia, M. "Rethinking the Role of Communicative Competence in Language Teaching." *Intercultural Language Use and Language Learning.* Springer. 2007.

6. Crystal, D. *English as a Global Language.* Cambridge University Press. (Essential for understanding regional dialects and global variations). 2003.

7. Hymes, D. H. "On Communicative Competence." In Pride, J. B., & Holmes, J. (Eds.), *Sociolinguistics.* Penguin. (The fundamental text that moved linguistics beyond Chomsky's grammatical focus). 1972.

8. Rose, K. R., & Kasper, G. *Pragmatics in Language Teaching.* Cambridge University Press. (A practical guide for classroom techniques). 2001.

Thomas, J. "Cross-Cultural Pragmatic Failure." *Applied Linguistics* , 4(2), 91–112. (Introduces the concept of the "Fluent Fool"). 1983.

UDK 796.01:612.015

Yakubova Nargiza Rustamovna,
Renessans ta'lim universiteti "Sport faoliyati" kafedrasi o'qituvchisi

SPORTCHILARDA MODDALAR ALMASHINUVI

Annotatsiya. Mazkur maqolada sportchilarda moddalar almashinuvi jarayonining fiziologik asoslari, energetik tizimlar, oqsil, yog' va uglevod almashinuvi xususiyatlari hamda jismoniy yuklama ta'sirida organizmda yuz beradigan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mashg'ulot va musobaqa jarayonida to'g'ri ovqatlanish, tiklanish va metabolizmni boshqarishning ahamiyati yoritiladi. Ilmiy manbalarga asoslangan holda sportchilarda yuqori natijaga erishish uchun optimal metabolik muvozanatni saqlash zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: moddalar almashinuvi, metabolizm, sport fiziologiyasi, energiya almashinuvi, uglevod, oqsil, yog', ATP, anaerob, aerob jarayonlar.

ОБМЕН ВЕЩЕСТВ У СПОРТСМЕНОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются физиологические основы обмена веществ у спортсменов, энергетические системы организма, особенности обмена белков, жиров и углеводов при физических нагрузках. Освещается значение рационального питания, восстановления и контроля метаболизма в тренировочном и соревновательном процессе. На основе научных данных обосновывается необходимость поддержания оптимального метаболического баланса для достижения высоких спортивных результатов.

Ключевые слова: обмен веществ, метаболизм, спортивная физиология, энергетический обмен, углеводы, белки, жиры, АТФ, анаэробные и аэробные процессы.

METABOLISM IN ATHLETES

Abstract. This article discusses the physiological basis of metabolism in athletes, the body's energy systems, and the characteristics of protein, fat, and carbohydrate metabolism during physical activity. It highlights the importance of proper nutrition, recovery, and metabolic control in training and competition processes. Based on scientific evidence, the necessity of maintaining optimal metabolic balance for achieving high athletic performance is substantiated.

Key words: metabolism, sports physiology, energy exchange, carbohydrates, proteins, fats, ATP, anaerobic and aerobic processes.

Moddalar almashinuvi (metabolizm) — bu tirik organizmda sodir bo'ladigan barcha kimyoviy reaksiyalar yig'indisi bo'lib, u energiya hosil bo'lishi, o'sish, tiklanish va hayot faoliyatini ta'minlaydi. Sportchilarda moddalar

almashinuvi oddiy odamga nisbatan ancha faol bo‘ladi, chunki ularning organizmi yuqori jismoniy yuklamalarga moslashgan bo‘ladi.

Jismoniy mashqlar vaqtida energiya sarfi keskin oshadi, mushaklarda biokimyoviy jarayonlar tezlashadi, yurak-qon tomir va nafas tizimlari faoliyati kuchayadi. Shu sababli sportchilar organizmida metabolizmning o‘ziga xos xususiyatlari shakllanadi. Ushbu maqolada sportchilarda moddalar almashinuvi mexanizmlari, energiya tizimlari, gormonal boshqaruv, tiklanish jarayonlari va ovqatlanish bilan bog‘liq jihatlar batafsil yoritiladi.

Energiya almashinuvi va uning asosiy tizimlari. Organizmda energiya manbai sifatida asosan ATF (adenozin trifosfat) xizmat qiladi. Mushak faoliyati vaqtida ATF parchalanib energiya ajratadi. Sportchilarda energiya quyidagi uchta asosiy tizim orqali hosil bo‘ladi:

Moddalar almashinuvining umumiy fiziologik asoslari

Moddalar almashinuvi ikki asosiy jarayondan iborat:

- **Anabolizm** — murakkab moddalarning sintezi (o‘sish, mushak to‘qimasi hosil bo‘lishi).
- **Katabolizm** — moddalarning parchalanishi va energiya ajralishi.

Sportchilarda bu ikki jarayon o‘zaro muvozanatda bo‘lishi kerak. Mashg‘ulot paytida asosan katabolizm kuchayadi (energiya sarfi ortadi), tiklanish davrida esa anabolik jarayonlar ustunlik qiladi.


Sport turiga qarab metabolik ustunlik


Sport turi	Asosiy energiya manbai	Metabolik xususiyat
Sprint (100–200 m)	Fosfagen + anaerob	Tezkor energiya
O‘rta masofa	Anaerob + aerob	Aralash tizim
Marafon	Aerob	Yog‘ va glikogen parchalanishi
Og‘ir atletika	Fosfagen	Oqsil sintezi kuchli
Futbol, basketbol	Aralash	Barcha tizimlar ishlaydi

Metabolizmning intensivligi quyidagilarga bog‘liq:

- Yosh
- Jins
- Mushak massasi
- Mashg‘ulot turi
- Ovqatlanish rejimi
- Gormonal fon

Energiya almashinuvi va ATF tizimi





Sportchilarda energiya manbai — **ATF (adenozin trifosfat)** hisoblanadi. ATF parchalanganda energiya ajraladi va mushak qisqarishi sodir bo‘ladi.

Energiya ta’minotining 3 asosiy tizimi mavjud:

1) Fosfagen (ATR-KF) tizimi

- Juda tez energiya beradi
- 5–10 soniya davom etadi
- Sprint, og‘ir atletika uchun muhim

2) Anaerob glikolitik tizim


- Kislorodsiz sharoitda ishlaydi
- 30 soniya – 2 daqiqa davom etadi
- Sut kislotasi hosil bo‘ladi
- O‘rta masofa yugurishlarda faol

3) Aerob tizim

- Kislorod ishtirokida
- Uzoq davom etuvchi mashqlarda
- Marafon, velosport, suzishda asosiy tizim

Sport turi metabolizm yo‘nalishini belgilaydi. Masalan, sprinterlarda anaerob jarayonlar ustun, marafonchilarda esa aerob jarayonlar rivojlangan bo‘ladi.

Oqsillar almashinuvi




Oqsillar sportchilar uchun asosiy qurilish materiali hisoblanadi. Ular:


- Mushak tolalarini tiklaydi
- Fermentlar va gormonlar sintezida ishtirok etadi
- Immun tizimini qo‘llab-quvvatlaydi

Kuch mashqlaridan so‘ng mushaklarda mikroshikastlanish yuz beradi. Tiklanish jarayonida oqsil sintezi kuchayadi va mushak massasi ortadi (gipertrofiya).

Sportchilarda oqsilga bo‘lgan ehtiyoj oddiy odamga qaraganda yuqoriroq (1,4–2,0 g/kg tana vazniga).

Uglevodlar almashinuvi





Uglevodlar — tez energiya manbai.

Mashg‘ulot vaqtida:

- Mushak glikogeni parchalanadi
- Qon glyukozasi kamayadi
- Charchoq paydo bo‘ladi

Glikogen zahirasi qancha katta bo‘lsa, sportchining chidamliligi shuncha yuqori bo‘ladi. Shu sababli musobaqa oldidan “karboloading” usuli qo‘llaniladi (uglevodlarni ko‘paytirish).

Sportchilarda moddalar almashinuvi (umumiy jadval)

№	Modda turi / Jarayon	Fiziologik xususiyati	Mashg‘ulot vaqtida	Tiklanish davrida	Sport natijasiga ta’siri
1	**Energiya almashinuvi (ATP)**	ATP parchalanishi orqali energiya hosil bo‘ladi	ATP tez sarflanadi	ATP zaxirasi tiklanadi	Mushak qisqarishi ta’minlanadi
2	**Fosfagen tizimi**	Tezkor energiya manbai (5–10 soniya)	Sprint va kuch mashqlarida faol	Kreatinfosfat tiklanadi	Tezkorlik va portlovchi kuch oshadi
3	**Anaerob glikoliz**	Kislorodsiz energiya hosil bo‘ladi	Sut kislotasi to‘planadi	Laktat parchalanadi	O‘rta masofaga chidamlilik
4	**Aerob tizim**	Kislorod ishtirokida energiya	Uzoq mashqlarda asosiy manba	Mitoxondriya faoliyati ortadi	Umumiy chidamlilik oshadi
5	**Oqsillar almashinuvi**	Mushak to‘qimasi qurilishi	Mikroshikastlanish yuz beradi	Oqsil sintezi kuchayadi	Mushak massasi ortadi

6	**Uglevodlar almashinuvi**	Glikogen asosiy energiya manbai	Glikogen kamayadi	Glikogen zahirasi to‘planadi	Ish qobiliyati saqlanadi
7	**Yog‘lar almashinuvi**	Uzoq muddatli energiya manbai	Beta-oksidlanish kuchayadi	Yog‘ zahiralari tiklanadi	Uzoq masofada energiya tejaladi
8	**Vitamin va minerallar**	Fermentlar faoliyati uchun zarur	Elektrolitlar yo‘qotiladi	Muvozanat tiklanadi	Mushak qisqarishi barqaror bo‘ladi
9	**Suv almashinuvi**	Metabolik jarayonlar uchun asos	Ter ajralishi ortadi	Suyuqlik to‘ldiriladi	Suvsizlanish oldi olinadi
10	**Gormonal boshqaruv**	Adrenalin, insulin, testosteron ishtirok etadi	Katabolizm kuchayadi	Anabolizm ustunlik qiladi	

Sportchilar organizmidagi metabolik jarayonlar jismoniy ish qobiliyati darajasini belgilab beruvchi yuqori darajada tashkil topgan va ko‘p bosqichli fiziologik tizimni o‘zida namoyon etadi. Uzoq muddatli aerob yuklamalar sharoitida lipidlar davomiy energiya ta’minotining eng muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi. Mushak va jigar glikogeni zaxiralarining tugashi mitoxondriyalarda lipoliz va yog‘ kislotalarining β-oksidlanish jarayoni kuchayishini initsiyatsiya qiladi. Chidamlilikni talab etuvchi sport turlari vakillarida mitoxondriyalar zichligi va hajmining ortishida namoyon bo‘luvchi yaqqol hujayraviy adaptatsiya kuzatiladi, bu esa masofa davomida uglevodlarni tejash va energetik almashinuvni optimallashtirishga yordam beradi. Energiya ta’minoti bilan bir qatorda, suv-tuz gomeostazi va mikronutriyentlar muvozanatini saqlash funksional barqarorlikning eng muhim omili hisoblanadi. Intensiv mushak faoliyati ko‘p miqdorda ter ajralishi va asosiy elektrolitlar yo‘qotilishi bilan kechadi. Tana umumiy massasining hatto ikki foizini tashkil etuvchi degidratatsiya qonning quyuqlashishini, yurak-qon tomir tizimining gemodinamik zo‘riqishini va ish qobiliyatining keskin pasayishini keltirib chiqaradi. Ushbu biokimyoviy kontekstda vitaminlar ajralmas koferment funksiyasini bajaradi: B guruhi vitaminlari makronutriyentlarning hujayra ichki metabolizmini va adenozintrifosfat sintezini katalizlaydi, C va E vitaminlari esa yuklama natijasida yuzaga kelgan oksidlanish stressi oqibatlarini neytrallovchi va erkin radikallarni yo‘q qiluvchi kuchli antioksidantlar rolini o‘ynaydi.

Mashg‘ulot ta’sirlariga moslashish neyroendokrin regulyatsiya orqali qat’iy determinatsiyalanadi. Jismoniy faollik davrida katabolik gormonlar kaskadi faollashadi, xususan, gemodinamika va glikogenolizni tezlashtiruvchi adrenalin, shuningdek, to‘qima oqsillari va yog‘larini parchalash hisobiga qondagi glyukoza darajasini saqlab turishni ta’minlovchi kortizol ajralib chiqadi. Mashg‘ulotdan keyingi davrda anabolik gormonlar ustuvor ahamiyat kasb etadi: glyukoza va aminokislotalarning miotsitlarga tashilishiga yordam beruvchi insulin, shuningdek, oqsil sintezi, mushak tolalari gipertrofiyasi va shikastlangan tuzilmalarning regeneratsiyasini rag‘batlantiruvchi testosteron hamda somatotropin shular

jumlasidandir. Mashg‘ulot jarayonining o‘zi stressli ta’sir hisoblanadi, chinakam funksional o‘sish esa faqatgina tiklanish fazasida yuz beradi. Adekvat nutritiv qo‘llab-quvvatlash va to‘laqonli dam olish sharoitida glikogen resintezi amalga oshadi, buning natijasida organizm o‘tkazilgan stressga moslashadi va energetik zaxiralarning dastlabki darajasidan oshib ketadi — ushbu fiziologik fenomen superkompensatsiya deb ataladi. Metabolik moslashuv xususiyatlari sport ixtisoslashuviga qarab qat’iy differensiatsiyalanadi: kuch talab etuvchi yo‘nalishlarda anaerob-alaktat mexanizm va yaqqol oqsil anabolizmi ustunlik qilsa, chidamlilikni rivojlantiruvchi siklik sport turlarida lipidlarning faol ishtirokidagi aerob metabolizm dominantlik qiladi, vaziyatli va o‘yin turlarida esa energiya ta’minotining kompleks tizimlari ishlaydi. Shunday qilib, metabolik jarayonlarni ilmiy asoslangan holda boshqarish, endokrin reaksiyalarni monitoring qilish va superkompensatsiya fazasini adekvat ta’minlash sportchining genetik salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish uchun fundamental shartlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov A. Odam fiziologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
2. Xo‘jayev Sh. Sport fiziologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, 2020.
3. Nuriddinov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
4. Sodiqov B. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2019.
5. Umarov A. Sport tibbiyoti va gigiyenasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. Павлов И.П. Лекции о работе больших полушарий головного мозга. – Москва: Медицина, 1951.
7. Дубровский В.И. Спортивная физиология. – Москва: Владос, 2005.
8. Агаджанян Н.А. Физиология человека. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2012.
9. Смирнов В.М. Физиология физического воспитания и спорта. – Москва: Академия, 2010.
10. Волков Н.И. Биохимия спорта. – Москва: Советский спорт, 2000.
11. Guyton A.C., Hall J.E. Textbook of Medical Physiology. – Philadelphia: Elsevier, 2016.
12. McArdle W.D., Katch F.I., Katch V.L. Exercise Physiology: Nutrition, Energy, and Human Performance. – Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2015.
13. Brooks G.A., Fahey T.D., Baldwin K.M. Exercise Physiology: Human Bioenergetics and Its Applications. – New York: McGraw-Hill, 2005.
14. Powers S.K., Howley E.T. Exercise Physiology: Theory and Application to Fitness and Performance. – New York: McGraw-Hill, 2018.

UDK: 316.6

Мамадалиева Муштарийбону Миргазам кизи,
преподователь института International school of finance technology and science

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОСЛЕРОДОВОЙ ДЕПРЕССИИ У ЖЕНЩИН С НОРМАЛЬНО ПРОТЕКАЮЩЕЙ БЕРЕМЕННОСТЬЮ И БЕРЕМЕННОСТЬЮ ВЫСОКОГО РИСКА

Аннотация. При проведении исследований, представленных в данной статье, было принято предположение, что психическое состояние матери во время беременности связано с её психическим состоянием после родов. Целью представленных исследований было определить, различается ли частота возникновения послеродовой депрессии при беременности высокого риска и связанном с ней стрессе по сравнению с нормально протекающей беременностью, а также существует ли связь между уровнем переживаемого стресса и депрессии во время беременности и возникновением послеродовой депрессии у женщин с нормальной беременностью и беременностью высокого риска. В исследовании приняли участие женщины с нормально протекающей беременностью, составившие контрольную группу (35 человек), а также женщины с беременностью высокого риска, составившие исследуемую группу (35 человек). Для поиска ответов на поставленные исследовательские вопросы были использованы следующие методы: демографическая анкета, Шкала воспринимаемого стресса, Шкала депрессии Бека и Эдинбургская шкала послеродовой депрессии. Женщины с беременностью высокого риска испытывают значительно более высокий уровень стресса и связанных с ним негативных эмоций и хуже справляются с ними по сравнению с женщинами с нормально протекающей беременностью.

В группе женщин с беременностью высокого риска также было отмечено более выраженное проявление симптомов депрессии в период беременности.

В обеих группах обследованных женщин более высокий уровень стресса и выраженности депрессии во время беременности был связан с более выраженными симптомами послеродовой депрессии. Период беременности, особенно осложнённый риском для здоровья матери и, соответственно, связанный с повышенным стрессом, неопределённостью и подавленным настроением, является дополнительным фактором риска развитие ПРД. В связи с этим представляется необходимым принятие практических мер и разработка терапевтических программ, направленных на оказание психологической поддержки страдающим женщинам.

Ключевые слова: послеродовая депрессия, психологические факторы, копинг-стратегии, социальная поддержка, материнство.

NORMAL KECHAYOTGAN VA YUQORI XAVFLI HOMILADOR AYOLLARDA TUG‘RUQDAN KEYINGI DEPRESSIYA YUZAGA KELISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Tadqiqotlarda mazkur maqolada keltirilgan holatga ko‘ra, homiladorlik davrida ona ruhiy holati tug‘ruqdan keyingi ruhiy holati bilan bog‘liq, degan taxmin qabul qilingan. Taqdim etilgan tadqiqotlarning maqsadi — yuqori xavfli homiladorlik va u bilan bog‘liq stress holatida tug‘ruqdan keyingi depressiyaning uchrash chastotasi oddiy kechayotgan homiladorlikka nisbatan farq qiladimi-yo‘qmi, shuningdek, homiladorlik davridagi stress va depressiya darajasi oddiy va yuqori xavfli homiladorlikda tug‘ruqdan keyingi depressiyaning yuzaga kelishi bilan bog‘liqmi-yo‘qligini aniqlashdan iborat bo‘lgan.

Tadqiqotda oddiy kechayotgan homiladorlikka ega bo‘lgan ayollar nazorat guruhini (35 nafar), yuqori xavfli homiladorlikka ega bo‘lgan ayollar esa tadqiqot guruhini (35 nafar) tashkil etgan. Qo‘yilgan tadqiqot savollariga javob topish uchun quyidagi usullar qo‘llanilgan: demografik anketa, Qabul qilinadigan stress shkalasi, Bek depressiya shkalasi va Edinburg tug‘ruqdan keyingi depressiya shkalasi.

Yuqori xavfli homiladorlikka ega bo‘lgan ayollar oddiy kechayotgan homiladorlikka ega bo‘lgan ayollarga nisbatan ancha yuqori stress darajasini va u bilan bog‘liq salbiy his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi hamda ularni yengishda qiynaladi. Shuningdek, ushbu guruhda homiladorlik davrida depressiya belgilari yanada yaqqolroq namoyon bo‘lgan.

Har ikki guruhda ham homiladorlik davrida yuqori stress va depressiya darajasi tug‘ruqdan keyingi depressiya belgilari kuchliroq namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq ekani aniqlangan. Homiladorlik davri, ayniqsa ona sog‘lig‘i uchun xavf bilan kechadigan, stress, noaniqlik va tushkun kayfiyat bilan bog‘liq holatlar tug‘ruqdan keyingi depressiya rivojlanishi uchun qo‘shimcha xavf omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan, aziyat chekayotgan ayollarga psixologik yordam ko‘rsatishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni qabul qilish va terapevtik dasturlarni ishlab chiqish zarur deb hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: tug‘ruqdan keyingi depressiya, psixologik omillar, yengib o‘tish (koping) strategiyalari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, onalik.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF POSTPARTUM DEPRESSION IN WOMEN WITH NORMAL AND HIGH-RISK PREGNANCIES

Abstract. The study presented in the following article was based on the assumption a state of mind of a moth er-to-be directly influences her state of mind after giving birth. The aim of the study was to determine whether a case of a high-risk pregnancy, and the related stress, can be sig nificant causative factors in postpartum depression, in case of pregnancies with a normal course, as well as whether incidences of postpartum depression among women with normal and high-risk pregnancies are correlated with the level of stress and depression experienced during pregnancy. Materials and Methods: 70 women were examined in the study:

35 women with normal pregnancies represent ed the control group and 35 women with high-risk pregnancies represented the study group. The following meth ods were used to find answers to the posed research questions: a demographic survey, Perceived Stress Scale, the Beck Depression Scale and the Edinburgh Postnatal Depression Scale. Results: Women with high-risk pregnancies demonstrated a significantly much higher level of stress and related negative emotions; also they handled the stress and emotions worse than women with normal pregnancies. Also, higher intensity of depression symptoms during pregnancy were observed in the study group of women with high-risk pregnancies. In both groups, higher intensity of symptoms of post-childbirth depression was correlated with higher level of stress and more severe depression during pregnancy. Conclusions: Pregnancy – especially high-risk pregnancy, which is associated with health difficulties and complica tions, and consequently, higher stress level, feelings of uncertainty and depression – is an additional risk factor of postpartum depression. There exists a necessity to create therapeutic programs aimed at psychological support for suffering women.

Keywords: postpartum depression, psychological factors, coping strategies, social support, motherhood.

Развитие человека происходит от зачатия до смерти. В течение своей жизни он проходит последовательные этапы, на которых приобретает и закрепляет новые способности. Однако не каждый период жизни способствует оптимальной адаптации к окружающей среде. Существуют периоды равновесия, в которых отсутствуют факторы, способные неблагоприятно влиять на функционирование человека, а также периоды неравновесия, когда адаптация нарушается внутренними или внешними факторами. В такие моменты возникают напряжение, колебания, неуверенность и другие нарушения поведения [1]. Одной из жизненных ситуаций женщины, в которой функционирование и выполнение задач становятся более трудными, чем обычно, является беременность. Чаще всего это состояние связано с большой радостью и ожиданием появления ребёнка на свет. Однако для организма это период значительного напряжения, связанный с возникновением множества изменений биологического и психологического характера, которые приводят к иному восприятию себя в отношениях с окружающим миром. Появляется тревога за здоровье ребёнка, могут нарушаться отношения с близкими, возникать трудности, связанные с профессиональной деятельностью, изменения в восприятии собственной личности, проблемы со здоровьем, а также многие другие ситуации, вызывающие у женщины состояние напряжения, а также грусть и депрессию. Особенно часто это наблюдается в случаях беременности высокого риска, которая определяется как любая беременность, при которой присутствуют факторы (связанные с матерью, например заболевания матери, или с плодом — угроза выкидыша, преждевременных родов), потенциально неблагоприятно влияющие на исход беременности [2]. Иными словами, существует опасность неблагополучного исхода исхода беременности**.** В этом случае женщина подвержена

переживанию длительного психологического стресса, интенсивность которого может превышать её адаптационные возможности. Возможно, именно этот стресс в значительной степени влияет на самочувствие женщины во время беременности и перед родами, становясь впоследствии важным предиктором послеродовых депрессивных расстройств [3]. После родов женщины могут испытывать множество эмоций различной окраски и интенсивности — от эйфории до депрессии. Одним из наиболее серьёзных эмоциональных расстройств, затрагивающих женщину после рождения ребёнка, является послеродовая депрессия (postpartum depression, PPD). Она возникает в течение первых трёх месяцев после родов примерно у 10–20 % женщин, которые впервые принимают на себя роль матери. Послеродовая депрессия характеризуется, в частности, раздражительностью, сниженным настроением, подавленностью, утомляемостью, ослаблением интересов (в том числе снижением сексуального влечения), тревогой за ребёнка, негативной оценкой собственных компетенций в роли матери и связанным с этим чувством вины, а также снижением концентрации внимания. Продолжительность послеродовой депрессии по-разному определяется исследователями данной проблемы. Чаще всего принимается, что она длится от трёх недель до 12 месяцев после родов [4].

Учёные, занимающиеся установлением этиологии послеродовой депрессии, сходятся во мнении, что она носит сложный и многофакторный характер [5]. Несмотря на это, европейские и американские исследования последних двух десятилетий обращают внимание на четыре наиболее часто встречающиеся группы факторов риска послеродовых депрессивных расстройств. К ним относятся: демографические переменные, гинеколого-акушерские факторы, биологические факторы, а также факторы психологического и социального характера [4]. К демографическим переменным относятся: возраст, пол, уровень образования и социально-экономический статус.

Среди гинеколого-акушерских факторов, тесно связанных с ситуацией родов, выделяются следующие: осложнения в период беременности и послеродового периода, а также способ кормления ребёнка [4, 6]. Ещё одну группу факторов, участвующих в этиологии депрессивных расстройств настроения, составляют биологические условия. Гормональные изменения, то есть колебания уровней эстрогенов, прогестерона, кортизола и пролактина, влияют на изменения настроения, связанные с беременностью и родами, что послужило основанием для гипотезы о наличии между ними причинно-следственной связи [7]. Последнюю и наиболее многочисленную группу факторов риска образуют психологические и социальные факторы. К ним относятся: самочувствие во время беременности, жизненные изменения после рождения ребёнка, социальная поддержка, личностные особенности, качество супружеских отношений, а также личная и семейная психиатрическая ситуация. Важно, чтобы беременная женщина и её семья осознавали тот факт, что настроение и эмоциональное состояние женщины по нейрогормональным

путям передаются нерождённому ребёнку, влияя на его развитие. В связи с этим возникает вопрос: связано ли психическое состояние матери во время беременности с её психическим состоянием после родов. Это сложная и особенно важная проблема с точки зрения психологии семьи, психологии развития человека и клинической психологии. Поэтому целесообразным представляется проведение исследований, направленных на попытку её объяснения.

Целью представленных исследований было установление того, различаются ли показатели возникновения послеродовой депрессии в ситуации беременности высокого риска и связанного с ней стресса по сравнению с нормально протекающей беременностью, а также существует ли связь между уровнем переживаемого стресса и депрессии во время беременности и возникновением послеродовой депрессии у женщин с нормальной беременностью и беременностью высокого риска.

В исследовании приняли участие женщины — слушательницы школ подготовки к родам в Лодзи. Контрольную группу (N = 35) составили женщины с нормально протекающей беременностью, а исследуемую группу (N = 35) — женщины с беременностью высокого риска. Критерием включения в исследуемую группу являлась беременность высокого риска в виде угрозы выкидыша, преждевременных родов или заболеваний матери. Отбор выборки носил непрорабилистический характер. Женщины из обеих исследуемых групп существенно не различались по следующим переменным: возраст (контрольная группа: M = 28,63; SD = 2,51; исследуемая группа: M = 29,77; SD = 2,32), уровень образования (в обеих группах преобладали женщины со средним образованием и обучающиеся по программам бакалавриата), а также семейное положение (в обеих группах значительно преобладали замужние женщины). Анализ в контрольной группе не учитывал деление по характеристикам беременности высокого риска ввиду небольшой численности подгрупп. Участие в исследовании было анонимным. Участницы обеих исследуемых групп получил для заполнения три опросника типа self-report (самоотчёта). Два из них, вместе с демографической анкетой, женщины заполняли в третьем триместре беременности (Шкала воспринимаемого стресса (SOS), Шкала депрессии Бека (BDI)), третий опросник — в период от 4 до 12 недель после рождения ребёнка (Эдинбургская шкала послеродовой депрессии (EPDS)). Ниже приведена краткая характеристика методов, использованных в исследовании. Демографическая анкета служила для сбора данных, касающихся возраста обследуемых женщин, семейного положения и уровня образования, а также, дополнительно в случае женщин из исследуемой группы, — характеристик беременности высокого риска.

Шкала воспринимаемого стресса (SOS) в адаптации З. Ючынского [8] представляет собой инструмент, включающий 10 утверждений. Шкала измеряет общее ощущение стресса в данной жизненной ситуации, а также трудности в совладании с ним и интенсивность негативных эмоций. Она была использована для определения уровня стресса у женщин в ситуации

беременности высокого риска и при беременности с неосложнённым течением. Шкала депрессии Бека (BDI) — это опросник, содержащий 21 утверждение, относящееся к симптомам, характерным для депрессии, таким как печаль, пессимизм, утрата чувства удовлетворения или суицидальные тенденции. Она применялась с целью оценки выраженности депрессивных симптомов в период беременности. Эдинбургская шкала послеродовой депрессии (EPDS) [9] состоит из 10 утверждений, описывающих самочувствие за последние 7 дней. Она была использована для определения показателя послеродовой депрессии у обследуемых женщин. Данные, полученные с помощью перечисленных выше методов, были подвергнуты статистическому анализу с использованием компьютерной программы SPSS PC+. При представлении собранного эмпирического материала качественного характера применялись методы числовых и процентных распределений. При сравнении результатов контрольной и исследуемой групп по изучаемым психологическим переменным (стресс, депрессия) использовался t-критерий Стьюдента. Для анализа связи между переживаемым стрессом и депрессией в период беременности и возникновением послеродовой депрессии в исследуемых группах женщин применялся коэффициент корреляции Пирсона (r).

В проведённом исследовании собственных данных были подтверждены выдвинутые гипотезы, а полученные результаты совпадают с имеющимися в литературе данными. Беременность является чрезвычайно стрессовым событием в жизни женщины. Этот стресс значительно влияет на самочувствие во время беременности и перед родами, выступая важным предиктором послеродовых депрессивных расстройств [3]. Glasser и соавторы [10] среди факторов, наиболее предрасполагающих к развитию послеродовой депрессии (PPD), выделяют наличие симптомов депрессии во время беременности. Ранее проведённые исследования также показывают, что уровень стресса у женщин с нормально протекающей беременностью ниже, чем у женщин с беременностью высокого риска [11]. Кроме того, эмоциональные реакции, характерные для женщин с нормально протекающей беременностью, имеют тенденцию усиливаться в условиях беременности высокого риска. Наблюдения также свидетельствуют о том, что осложнённая беременность связана с более высоким уровнем депрессивных симптомов [12].

Выводы:

1. Состояние беременности с осложнениями усиливает переживаемый стресс и связанные с ним негативные эмоции, а также затрудняет справляться с этой психологически сложной ситуацией.

2. Более выраженные симптомы послеродовой депрессии у женщин с беременностью высокого риска указывают на то, что осложнённая беременность является дополнительным фактором риска развития послеродовой депрессии.

3. Более высокий уровень стресса и депрессии во время беременности, связанный с проявлением более выраженных симптомов послеродовой

депрессии, свидетельствует о том, что как стресс в период беременности, так и эмоциональные расстройства в виде депрессивных симптомов являются важным фактором риска в этиологии послеродовой депрессии.

4. Специфика нарушений настроения в этот особый для женщины период беременности требует проведения практических терапевтических вмешательств, направленных на поддержку женщин, страдающих послеродовой депрессией (PPD). Возможность участия в группах поддержки позволяет обмениваться опытом, приобретать навыки переоценки ситуации, использовать ресурсы социальной поддержки, учиться контролю эмоций и выстраиванию межличностных отношений. Контакт с другими людьми, сталкивающимися с похожими проблемами, часто является дополнительным фактором, повышающим качество жизни.

5. Учитывая пилотный характер проведённого исследования, представляется важным продолжить поиски факторов, предрасполагающих к развитию послеродовой депрессии, особенно с учётом разнообразной характеристики беременностей высокого риска.

6. Предлагаемые практические рекомендации для терапевтических вмешательств в данной области касаются участия женщин, страдающих PPD, в группах поддержки. Это позволяет обмениваться опытом, развивать навыки переоценки ситуации, использовать ресурсы социальной поддержки, учиться контролю над эмоциями и приобретать умения выстраивать межличностные отношения. Контакт с другими людьми, сталкивающимися с похожими проблемами, часто является дополнительным фактором, способствующим повышению качества жизни.

В проведённом исследовании собственных данных были подтверждены выдвинутые гипотезы, а полученные результаты соответствуют имеющимся в литературе данным. Беременность является чрезвычайно стрессовым событием в жизни женщины. Этот стресс существенно влияет на самочувствие во время беременности и перед родами, выступая важным предиктором послеродовых депрессивных расстройств [3]. Glasser и соавторы [10] среди факторов, наиболее предрасполагающих к развитию послеродовой депрессии (PPD), выделяют наличие симптомов депрессии в период беременности.

Список литературы:

1. Баженова О.В. Диагностика психического развития детей первого года жизни. М., 1986.

2. Баз Л.Л. Изменение эмоционального восприятия у женщин, страдающих послеродовой депрессией // XIII съезд психиатров России (10—13 октября 2000 г., Москва): Материалы съезда. М., 2000. С. 47.

3. Баз Л.Л. Послеродовая депрессия. Эмпирические исследования психологических феноменов / "Хрестоматия по перинатальной психологии. Психология беременности, родов и послеродового периода" составитель - А.Н. Васина, М.: Издательство УРАО, 2005, с. 235-245

4. Баз Л.Л. Психическое развитие детей первого года жизни от матерей, страдающих послеродовой депрессией // Проблемы младенчества: нейро-психолого-педагогическая оценка развития и ранняя коррекция отклонений: Научно-практич. конф. (15—16 марта 1999 г., Москва). М., 1999. С. 23—26.

5. Баз Л.Л., Скобло Г.В. Искажение материнского поведения при послеродовых депрессиях: влияние раннего и актуального жизненного опыта женщины // Социальное и душевное здоровье ребенка и семьи: защита, помощь, возвращение в жизнь: Материалы Всерос. научно-практич. конф. (22—25 сентября 1998 г., Москва). М., 1998. С. 82—83.

6. Баз Л.Л., Скобло Г.В. Особенности общения младенцев от матерей с послеродовыми депрессиями со взрослым // Психология сегодня: Тезисы I Всерос. конф. по психологии (31 января—2 февраля 1996 г., Москва). М., 1996. Т. 2. Вып. 3. С. 133.

7. Баз Л.Л., Скобло Г.В. Психотерапия материнско-детских отношений при послеродовых депрессиях у женщин // Современные направления психотерапии и их клиническое применение: Материалы Первой всерос. учебно-практич. конф. по психотерапии. М., 1996. С. 104.

8. Баз Л.Л., Скобло Г.В., Васильковская Н.К. Послеродовые материнские депрессии и психотерапия // Семейная психология и семейная терапия. 2000. № 3. С. 68—72.

UDK 373.3.033:37.012

Abdulhakimova Fotima Turdiqul qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ATROF-MUHITGA MAS’ULIYATLI MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari integrativ yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ekologik mas’uliyat tushunchasining pedagogik mazmuni ochib berilib, fanlararo integratsiya asosida ekologik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari asoslanadi. Maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni qo‘llashning konseptual modeli ishlab chiqilib, uning pedagogik imkoniyatlari, tamoyillari va metodik jihatlari ilmiy jihatdan izohlanadi. Tadqiqot natijasida integrativ ta’lim ekologik bilimlarning tizimliligini ta’minlashi, qadriyatlar shakllanishini mustahkamlashi va o‘quvchilarda barqaror ekologik xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, ekologik mas’uliyat, boshlang‘ich ta’lim, fanlararo integratsiya, ekologik kompetensiya, qadriyatlar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ОТВЕТСТВЕННОГО ОТНОШЕНИЯ К ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В этой статье теоретически исследуются педагогические возможности интегративного подхода в развитии ответственного отношения к окружающей среде в начальных классах. Интегративный подход обеспечивает междисциплинарные связи, способствуя формированию экологического сознания учащихся. Через анализ литературы рассматриваются международный и национальный опыт, а также теоретические основы внедрения интегративных методов в системе образования Узбекистана. Теоретические результаты показывают, что интегративный подход повышает знания учащихся об окружающей среде и усиливает их чувство ответственности. В обсуждении анализируются преимущества и ограничения интегративного подхода, даются рекомендации. Статья полезна для теоретиков образования и педагогов.

Ключевые слова: интегративный подход, экологическое образование, начальные классы, ответственность за окружающую среду, педагогические возможности, междисциплинарная интеграция, устойчивое развитие.

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF THE INTEGRATIVE APPROACH IN DEVELOPING A RESPONSIBLE ATTITUDE TOWARDS THE ENVIRONMENT IN PRIMARY CLASSES

Abstract. This article theoretically explores the pedagogical possibilities of the integrative approach in developing a responsible attitude towards the environment in primary classes. The integrative approach provides interdisciplinary connections, contributing to the formation of students' ecological consciousness. Through literature analysis, international and national experiences are reviewed, as well as the theoretical foundations for implementing integrative methods in the Uzbekistan education system. Theoretical results indicate that the integrative approach increases students' knowledge about the environment and strengthens their sense of responsibility. The discussion analyzes the advantages and limitations of the integrative approach, providing recommendations. The article is useful for education theorists and practitioners.

Keywords: integrative approach, environmental education, primary classes, environmental responsibility, pedagogical possibilities, interdisciplinary integration, sustainable development.

XXI asrda ekologik muammolar global xarakter kasb etib, barqaror rivojlanish masalasi insoniyat oldidagi ustuvor vazifaga aylandi. [3. 18-b.]. Tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, iqlim o‘zgarishi va ekologik muvozanatning buzilishi yosh avlodda ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. [4. 25-b.]. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning axloqiy, ijtimoiy va qadriy orientatsiyalari shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. [5. 41-b.]. Shu sababli aynan ushbu bosqichda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni rivojlantirish pedagogik jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. An’anaviy ta’limda ekologik tarbiya ko‘pincha alohida mavzu yoki fan doirasida beriladi. Bu esa bilimlarning parchalanishiga olib keladi. Integrativ yondashuv esa fanlararo bog‘liqlikni ta’minlab, o‘quvchida yaxlit dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. [6. 56-b.].

Boshlang‘ich ta’limda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylangan. Ekologik muammolarning global tus olishi ta’lim tizimida ekologik ongni rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirdi. Xalqaro miqyosda barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida ekologik ta’lim shaxsning ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Pedagogik tadqiqotlarda ekologik tarbiya shaxsning tabiatga ongli, ehtiyotkor va mas’uliyatli munosabatini shakllantirish jarayoni sifatida izohlanadi. Tadqiqotchilar ekologik madaniyatni faqat bilimlar majmui emas, balki qadriyatlar tizimi va amaliy xulq-atvor bilan bog‘liq kompleks tushuncha sifatida ko‘rsatadi. [8. 72-b.]. Shu jihatdan ekologik mas’uliyat shaxsning bilimiy, emotsional va faoliyat komponentlari birligida namoyon bo‘ladigan sifatdir. Rivojlanish psixologiyasi sohasidagi ilmiy ishlarda boshlang‘ich yosh davrida axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat hissi

faol shakllanishi ta'kidlanadi. [5. 64-b.]. Ushbu davrda bola atrof-muhitga nisbatan o'z munosabatini ko'proq emotsional tajriba asosida shakllantiradi. Shu sababli ekologik tarbiya faqat axborot berish bilan cheklanmasdan, hissiy va amaliy faoliyat orqali mustahkamlanishi zarurligi qayd etiladi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda integrativ yondashuv alohida e'tibor markazida turadi. Integratsiya tushunchasi fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, bilimlarni yagona tizimga birlashtirish va o'quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan metodologik tamoyil sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar ta'lim jarayonida fanlarning ajralgan holda o'qitilishi bilimlarning parchalanishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Integrativ yondashuv esa o'quvchida hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ekologik ta'lim kontekstida integratsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar murakkab va ko'p omilli xususiyatga ega bo'lib, ularni bir fan doirasida tushuntirish yetarli emas. Masalan, tabiatni muhofaza qilish masalasi biologik, ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Shu bois fanlararo yondashuv ekologik ongni shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. [9. 44-b.]. Kompetensiyaviy ta'lim modeli ham integrativ yondashuv bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida ekologik kompetensiya shaxsning ekologik bilimlarga ega bo'lishi bilan birga, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Bu esa nazariy bilimdan amaliy xulq-atvorga o'tishni talab qiladi. Tadqiqotchilar ekologik mas'uliyatni shakllantirishda faoliyatga yo'naltirilgan metodlarning ustuvorligini ta'kidlaydi.

Milliy pedagogik tadqiqotlarda ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Ayrim ishlarda ekologik tarbiya tabiiy fanlar doirasida o'rganilgan bo'lsa, boshqalarida tarbiya fanlari bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Biroq ko'plab tadqiqotlarda integrativ yondashuvning konseptual modeli yetarlicha ishlab chiqilmaganligi kuzatiladi. Shuningdek, ilmiy manbalarda ekologik mas'uliyatni rivojlantirishda loyiha metodi, muammoli ta'lim, interfaol usullar va refleksiv faoliyatning samaradorligi qayd etiladi. [11. 53-b.]. Bularning barchasi integrativ yondashuvning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim va integrativ yondashuv o'rtasida mustahkam nazariy bog'liqlik mavjud. Biroq aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishning tizimli integrativ modeli yetarlicha ilmiy asoslanmagan. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, integrativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish jarayoni ko'p qirrali pedagogik hodisa bo'lib, u shaxs rivojining bilimiy, emotsional va faoliyat jihatlarini o'z ichiga oladi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun avvalo uning nazariy asoslarini aniqlab olish zarur. Atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat shaxsning tabiatga ongli, ehtiyotkor va javobgar tarzda yondashishida namoyon bo'ladi. Bu sifat tasodifan shakllanmaydi, balki maqsadli pedagogik ta'sir natijasida rivojlanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni

ko‘rsatadiki, ekologik mas’uliyat uch asosiy tarkibiy komponentdan iborat: bilimiy, emotsional-qadriy va faoliyat komponentlari. [6. 78-b.].

Bilimiy komponent o‘quvchilarning ekologik tushunchalar, tabiat qonuniyatlari va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq bilimlarni anglash darajasini ifodalaydi. Boshlang‘ich sinf bosqichida bu komponent tabiat hodisalari o‘rtasidagi oddiy sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunishdan boshlanadi. Masalan, daraxtlarning kesilishi havoning ifloslanishiga ta’sir qilishi yoki suvni tejash zarurligi kabi tushunchalar o‘quvchining ongida mustahkamlanadi. Biroq faqat bilim berish bilan ekologik mas’uliyat to‘liq shakllanmaydi.

Emotsional-qadriy komponent o‘quvchining tabiatga nisbatan hissiy munosabati va ichki qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq. Boshlang‘ich yosh davrida bolalarda hissiy sezgirlik yuqori bo‘ladi. Shu sababli ular tabiat hodisalariga nisbatan befarq emas, balki ta’sirchan munosabat bildiradi. Agar pedagogik jarayon to‘g‘ri tashkil etilsa, bu hissiy munosabat ijobiy ekologik qadriyatlarga aylanadi. Masalan, jonivorlarga mehr bilan qarash, tabiatni asrashga intilish, tozalikni qadrlash kabi sifatlar emotsional komponent asosida shakllanadi.

Faoliyat komponenti esa ekologik mas’uliyatning amaliy ko‘rinishidir. Bu o‘quvchining ekologik qoidalarni real hayotda qo‘llay olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Masalan, chiqindilarni joyiga tashlash, suvni tejash, maktab hududini obodonlashtirishda ishtirok etish kabi xatti-harakatlar faoliyat komponentiga kiradi. Aynan ushbu komponent ekologik tarbiyaning yakuniy natijasi sifatida qaraladi, chunki u shaxsning real xulq-atvorida aks etadi.

Mazkur uch komponent bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bilimsiz emotsional munosabat barqaror bo‘lmaydi, emotsional asos bo‘lmasa, bilim amaliy faoliyatga aylanmaydi, faoliyat bo‘lmasa esa ekologik mas’uliyat tashqi talab darajasida qolib ketadi. Shuning uchun pedagogik jarayonda bu komponentlar bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqilishi zarur. Integrativ yondashuv aynan shu tizimlilikni ta’minlash imkonini beradi. Integratsiya ta’lim jarayonida fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish, bilimlarni yagona maqsad atrofida birlashtirish va o‘quvchida yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan metodologik tamoyildir. Ekologik tarbiya kontekstida integrativ yondashuv turli fanlarda beriladigan bilimlarni ekologik mazmun bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Mazmuniy integratsiya o‘quv fanlarining tarkibiga ekologik mazmundagi g‘oyalarni kiritish orqali amalga oshiriladi. Masalan, o‘qish darslarida tabiat haqidagi matnlarni o‘rganish, matematika darslarida ekologik mazmundagi masalalarni yechish, tasviriy san’atda tabiat manzaralarini aks ettirish orqali ekologik tushunchalar mustahkamlanadi. Bu jarayon o‘quvchida bilimlarning parchalanishining oldini olib, ularni yagona tizimda idrok etishga yordam beradi. Metodik integratsiya esa o‘qitish usullarini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha faoliyatini tashkil etish, guruhli ishlash, refleksiya kabi metodlar o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydi. Bu esa ekologik bilimlarning ongli o‘zlashtirilishiga va ularning amaliy faoliyatga ko‘chishiga xizmat qiladi. Qadriyatlar integratsiyasi esa ekologik tarbiyani milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lashni nazarda tutadi. Tabiatni asrash g‘oyasi xalq og‘zaki ijodida, milliy

an'analarda va tarixiy merosda muhim o'rin tutadi. Ushbu qadriyatlarni ta'lim mazmuniga integratsiya qilish ekologik mas'uliyatni yanada barqaror shakllantiradi.

Shunday qilib, nazariy-konseptual asos ekologik mas'uliyatni uch komponentli tizim sifatida ko'rib chiqadi va integrativ yondashuvni ushbu tizimni birlashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin etadi. Mazkur konseptual yondashuv boshlang'ich ta'lim jarayonida ekologik kompetensiyani shakllantirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi..

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish jarayoni tasodifiy yoki epizodik faoliyat orqali emas, balki oldindan o'ylangan, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilgan pedagogik model asosida amalga oshirilishi lozim. Shu maqsadda integrativ yondashuvga tayangan to'rt bosqichli model taklif etiladi. Mazkur model o'quvchining ekologik ongini shakllantirishdan tortib, uning real xulq-atvorida namoyon bo'lishigacha bo'lgan jarayonni qamrab oladi.

Modelning birinchi bosqichi o'quvchilarda ekologik muammolarga nisbatan qiziqish va ichki ehtiyojni shakllantirishga qaratilgan. Boshlang'ich yoshdagi bolalar ko'proq hissiy ta'sir orqali o'rganadi. Shuning uchun dars jarayonida avvalo tabiatga oid real hayotiy vaziyatlar, muammoli savollar va kuzatishlar orqali o'quvchining e'tibori jalb qilinadi.

Masalan, "Nega daraxtlar kesilsa, havo yomonlashadi?", "Agar suv tugasa nima bo'ladi?" kabi savollar orqali bola o'ylashga undaladi. Tabiat haqidagi qisqa videolar, rasmlar yoki real kuzatishlar ham motivatsiyani oshiradi. Bu bosqichning asosiy vazifasi – o'quvchini befarqlikdan chiqarish va unda ekologik muammoga nisbatan hissiy munosabatni uyg'otishdir. Agar o'quvchi muammoni his qilmasa, keyingi bosqichlarda beriladigan bilim va ko'nikmalar samarali bo'lmaydi. Shu sababli motivatsion bosqich ekologik tarbiyaning poydevori hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilarga ekologik mazmundagi bilimlar fanlararo integratsiya asosida beriladi. Bu yerda asosiy maqsad – ekologik tushunchalarni alohida fan doirasida emas, balki turli fanlar bilan bog'liq holda o'rgatishdir. Masalan, o'qish darsida tabiat haqidagi matn o'rganiladi, matematika darsida suv yoki energiya sarfi bilan bog'liq masalalar yechiladi, tabiiy fanlarda esa o'simlik va hayvonot dunyosining ahamiyati tushuntiriladi. Bunday yondashuv o'quvchida bilimlarning yagona tizim sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Kognitiv bosqichda bolalar sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunishni o'rganadi. Masalan, chiqindilarni ko'chaga tashlash tabiatga zarar yetkazishini, daraxt ekish esa havoni tozalashga yordam berishini anglay boshlaydi. Bu bilimlar oddiy va hayotiy misollar orqali tushuntirilishi kerak.

Uchinchi bosqich modelning eng muhim qismi hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda nazariy bilimlar amaliy harakatga aylanadi. O'quvchilar ekologik faoliyatga bevosita jalb qilinadi. Masalan: maktab hududini tozalash aksiyasi, daraxt ekish tadbiri, chiqindilarni ajratish mashg'uloti, "Suvni tejaymiz" loyihasi. Bunday faoliyat o'quvchilarda shaxsiy javobgarlik hissini shakllantiradi. Bola tabiatni asrash faqat kattalarning vazifasi emasligini, balki uning o'zi ham bu jarayonning ishtirokchisi ekanligini tushunadi.

Amaliy bosqich bolalarda odat shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, suvni behuda oqizmaslik yoki qog‘ozni tejash kabi oddiy harakatlar asta-sekin barqaror xulq-atvorga aylanadi.

Modelning yakuniy bosqichi refleksiya bosqichidir. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘z harakatlarini tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Refleksiya oddiy savollar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Bugun biz nima o‘rgandik?

Tabiatni asrash uchun nimalar qildik?

Yana nimalar qilishimiz mumkin?

Refleksiya o‘quvchining ichki ongida mas’uliyatni mustahkamlaydi. Bola o‘z harakatini baholashni o‘rganadi va kelajakda yanada ongliroq qaror qabul qilishga intiladi. Bu bosqich ekologik tarbiyaning barqarorligini ta’minlaydi. Agar refleksiya bo‘lmasa, faoliyat vaqtinchalik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Refleksiya esa xulq-atvorni ongli ravishda mustahkamlaydi.

Taklif etilayotgan integrativ model boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etilishi mumkin. U quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ekologik bilimlarni fanlararo bog‘liq holda o‘zlashtirish;
- hissiy munosabat va qadriyatlarni shakllantirish;
- amaliy faoliyat orqali barqaror odatlarni rivojlantirish;
- o‘quvchilarda shaxsiy mas’uliyat hissini kuchaytirish.

Modelning afzalligi shundaki, u murakkab nazariy sxemalarga emas, balki oddiy va amaliy bosqichlarga asoslanadi. Bu esa uni boshlang‘ich sinf sharoitida qo‘llashni osonlashtiradi. Shu tariqa, integrativ model ekologik tarbiyani izchil va bosqichma-bosqich tashkil etishga xizmat qiladi hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni barqaror shakllantirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinflarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishda integrativ yondashuv samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni ekologik bilimlarning tizimli va yaxlit o‘zlashtirilishini ta’minlaydi hamda o‘quvchilarda sabab-oqibat munosabatlarini anglash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Integratsiya orqali ekologik mazmun turli fanlarda uyg‘un holda berilishi natijasida bilimlarning parchalanishi oldi olinadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda tabiatga nisbatan ijobiy hissiy munosabat va barqaror qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Nazariy bilimning amaliy faoliyat bilan bog‘lanishi ekologik mas’uliyatning real xulq-atvorda namoyon bo‘lishiga imkon yaratadi. Amaliy mashg‘ulotlar va loyiha faoliyati o‘quvchilarda shaxsiy javobgarlik hissini kuchaytiradi. Refleksiv tahlil esa ekologik xatti-harakatlarning ongli ravishda mustahkamlanishiga yordam beradi. Integrativ model ekologik kompetensiyaning bilimiy, emotsional va faoliyat komponentlarini yagona tizimga birlashtiradi. Mazkur yondashuv boshlang‘ich ta’lim jarayonida barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish uchun metodik asos yaratadi. Shunday qilib, integrativ ta’lim ekologik mas’uliyatni rivojlantirishning samarali va istiqbolli yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (2017).
3. United Nations. (2020). The Sustainable Development Goals Report. New York: UN Publishing.
4. UNESCO. (2021). Education for Sustainable Development Roadmap. Paris: UNESCO.
5. Rubinshteyn, S. L. (2012). Osnovy obshchey psixologii. SPb.: Piter.
6. Shadrikov, V. D. (2016). Psikhologiya deyatel’nosti i sposobnostey cheloveka. M.: Logos.
7. OECD. (2022). Education for Sustainable Development: Trends and Practices. Paris: OECD Publishing.
8. Davletshin, M. G. (2018). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi.
9. Anderson, J. R. (2014). Cognitive Psychology and Its Implications. New York: Worth Publishers.
10. Rieckmann, M. (2020). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO.
11. Biasutti, M., & Frate, S. (2022). Interdisciplinary teaching models in primary schools. Teaching and Teacher Education, 115, 103731.
12. Karakashev, A., & Ismoilova, M. (2020). Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent: Universitet.

UDK 796.015.8:796.012.1

Usmanov Boburjon Komiljon o‘g‘li,
Namangan davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

KO‘P YILLIK TAYYORGARLIK TIZIMIDA SPORT SELEKSIYASI MEZONLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola ko‘p yillik tayyorgarlik tizimi doirasida qo‘llaniladigan sport seleksiyasi mezonlarining ko‘p qirrali tuzilishini o‘rganadi hamda ularning samaradorligini empirik, nazariy va metodologik nuqtai nazardan tanqidiy baholaydi. Uzoq muddatli sportchi rivojlanishi (Long-Term Athlete Development – LTAD) modellariga asoslangan holda, muhokama fiziologik, psixologik, antropometrik, texnik va taktik o‘lchovlarni birlashtirib, ularning bosqichma-bosqich tayyorgarlik jarayonlari bilan uyg‘unligini ta’kidlaydi. Uzun muddatli tadqiqotlar, prognoz modellari va samaradorlik ko‘rsatkichlarini sintez qilish orqali, ushbu mezonlar qanday qilib iste’dod aniqlashni osonlashtirishi, chiqib ketish xavfini kamaytirishi va elita natijalarini optimallashtirishini ko‘rsatiladi. Ayniqsa, konstruktsiya, prognoz va ekologik haqiqiylik baholari, shuningdek, sub’ektiv xatolar va madaniy farqlar kabi muammolarga alohida e’tibor qaratiladi. Maqola mustahkam baholash protokollari, ilg‘or analitika va fanlararo yondashuvlarni joriy etish zarurligini ta’kidlab, yuqori samarali sport tizimlarida seleksiya paradigmalarni takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan moslashuvlarni taklif etadi. Murabbiylar, sport tashkilotlari rahbarlari va siyosatchilar uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: sport seleksiyasi mezonlari, ko‘p yillik tayyorgarlik tizimi, uzoq muddatli sportchi rivojlanishi, iste’dod aniqlash, samaradorlik baholash, fiziologik ko‘rsatkichlar, psixologik baholash, prognoz haqiqiyligi, samaradorlik optimallashtirish, sportchi yetilishi, fanlararo sport fanlari, empirik tasdiqlash, seleksiya xatolari, yuqori samarali tayyorgarlik.

КРИТЕРИИ СПОРТИВНОГО ОТБОРА В СИСТЕМЕ МНОГОЛЕТНЕЙ ПОДГОТОВКИ И ОЦЕНКА ИХ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Аннотация. Настоящая научная статья посвящена многогранному изучению критериев отбора в спорте, применяемых в рамках системы многолетней подготовки, а также критической оценке их эффективности с эмпирической, теоретической и методологической точек зрения. Опираясь на модели долгосрочного развития спортсмена (Long-Term Athlete Development – LTAD), в работе интегрируются физиологические, психологические, антропометрические, технические и тактические показатели, подчёркивается их согласованность с поэтапными процессами подготовки. Путём синтеза лонгитюдных исследований, прогностических моделей и показателей эффективности демонстрируется, каким образом данные критерии

способствуют идентификации талантов, снижению риска отсева и оптимизации результатов на элитном уровне. Особое внимание уделяется оценке конструктной, прогностической и экологической валидности, а также проблемам субъективных ошибок, культурных различий и другим ограничениям. В статье подчёркивается необходимость внедрения надёжных протоколов оценки, передовой аналитики и междисциплинарных подходов, предлагаются основанные на доказательствах адаптации для совершенствования парадигм отбора в системах высокопроизводительного спорта. Приводятся практические рекомендации для тренеров, руководителей спортивных организаций и лиц, принимающих политические решения.

Ключевые слова: критерии спортивного отбора, система многолетней подготовки, долгосрочное развитие спортсмена, идентификация талантов, оценка эффективности, физиологические показатели, психологическая оценка, прогностическая валидность, оптимизация производительности, созревание спортсмена, междисциплинарные спортивные науки, эмпирическая верификация, ошибки отбора, высокопроизводительная подготовка.

CRITERIA FOR SPORTS SELECTION IN THE MULTI-YEAR TRAINING SYSTEM AND EVALUATION OF THEIR EFFECTIVENESS

Abstract. This scholarly article investigates the multifaceted structure of sports selection criteria applied within the multi-year training system and critically evaluates their effectiveness from empirical, theoretical, and methodological perspectives. Grounded in Long-Term Athlete Development (LTAD) models, the discussion integrates physiological, psychological, anthropometric, technical, and tactical measures, emphasizing their alignment with phased training processes. Through synthesis of longitudinal studies, predictive modeling, and performance metrics, the paper demonstrates how these criteria facilitate talent identification, reduce dropout risk, and optimize elite-level outcomes. Particular emphasis is placed on assessments of construct, predictive, and ecological validity, as well as challenges such as subjective biases, cultural variations, and related limitations. The article underscores the imperative for robust evaluation protocols, advanced analytics, and interdisciplinary approaches, proposing evidence-based adaptations to refine selection paradigms in high-performance sports systems. Practical recommendations are provided for coaches, sports organization administrators, and policymakers.

Keywords: sports selection criteria, multi-year training system, long-term athlete development, talent identification, effectiveness evaluation, physiological indicators, psychological assessment, predictive validity, performance optimization, athlete maturation, interdisciplinary sports science, empirical validation, selection biases, high-performance training.

Zamonaviy yuqori samarali sportda (high-performance sports) raqobatning misli ko‘rilmagan darajada keskinlashuvi iste’dodlarni aniqlash (talent

identification) va ularni uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonida to‘g‘ri yo‘naltirish masalasini milliy sport tizimi samaradorligining bosh mezoniga aylantirdi. Bugungi kunda xalqaro maydondagi muvaffaqiyat faqatgina mashg‘ulotlarning intensivligi bilan emas, balki yosh sportchilarning genetik moyilligi, intellektual salohiyati va jismoniy qobiliyatlarini o‘z vaqtida, ilmiy asosda aniqlay olish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu sababli, maqsadli va tizimli seleksiya mexanizmlarini joriy etish sport zaxiralarini tayyorlashning strategik ahamiyatga ega bo‘lgan fundamental bosqichi hisoblanadi.

Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimi doirasida qo‘llaniladigan seleksiya (saralash) jarayoni shunchaki bir martalik jismoniy testlar majmuasi emas, balki uzluksiz diagnostika va monitoringni talab etuvchi murakkab tizimdir. Ushbu jarayon sportchini quyidagi parametrlar bo‘yicha **kompleks baholashga** xizmat qiladi:

- **Biologik va morfologik mezonlar:** Pasport yoshi va biologik yetilish sur’atlari o‘rtasidagi tafovutlarni (akseleratsiya yoki retardatsiya) hisobga olish, antropometrik o‘lchovlar va genetik moyillik.
- **Fiziologik va biokimyoviy potentsial:** Aerob va anaerob imkoniyatlar, energiya ta’minoti tizimlarining samaradorligi hamda tiklanish (superkompensatsiya) tezligi.
- **Psixologik barqarorlik:** Kognitiv funksiyalar, stressga chidamlilik, motivatsion soha, musobaqa xavotirlanishini boshqara olish va qaror qabul qilish tezligi.
- **Texnik-taktik mahorat:** Maxsus harakat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish sur’ati va o‘zgaruvchan musobaqa sharoitlariga (ekstremal vaziyatlarga) moslashuvchanlik.

Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi mezonlarning samaradorligi nafaqat ularning nazariy jihatdan ilmiy asoslanganligi, balki amaliyotdagi **bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatlariga (sensitiv davrlarga) mosligi** bilan belgilanadi. An’anaviy seleksiya usullari ko‘pincha subyektiv baholashlarga yoki bolaning ayni vaqtdagi jismoniy ustunligiga (erta biologik yetilishiga) tayanib qoladi. Bu esa haqiqiy iqtidorlarning e’tibordan chetda qolishiga va sportning keyingi bosqichlarida "iqtidorlar yo‘qotilishi" (talent dropout) fenomeniga olib keladi.

Shu nuqtayi nazardan, seleksiya mezonlarining prognoz kuchini (prediktiv validligini) oshirish, ularni murabbiylarning subyektiv xatolaridan xoli qilish hamda sun’iy intellekt, neyrotizimlar va biomexanik tahlil kabi zamonaviy raqamli texnologik imkoniyatlar bilan integratsiyalash bugungi kun sport ilmining o‘tkir muammosiga aylangan.

Ushbu maqola ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida qo‘llaniladigan asosiy seleksiya mezonlarini tanqidiy tahlil qilish, ularning dastlabki, ixtisoslashuv va yuqori sport mahorati bosqichlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotda saralash jarayoni samaradorligini baholashning ilg‘or nazariy va amaliy usullari ko‘rib chiqiladi, bu esa o‘z navbatida milliy sport seleksiyasining ilmiy-metodologik asoslarini yanada takomillashtirish va optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida sport seleksiyasi (saralash) jarayoni sportchi karyerasining eng strategik va hal qiluvchi bosqichini tashkil etadi. Ushbu jarayonda iste’dodlarni to‘g‘ri aniqlash (talent identification) va ularni maqsadli rivojlantirish (talent development) kelajakdagi yuqori sport natijalariga muvofiq ravishda qat’iy moslashtirilishi lozim.

Mazkur tizimning tub mohiyati **Sportchilarni uzoq muddatli rivojlantirish modellarida (LTAD – Long-Term Athlete Development)** o‘zining yorqin ifodasini topgan. LTAD modeli bolalikdagi bazaviy harakat ko‘nikmalarini (fundamental movement skills) shakllantirishdan tortib, to yetuklik davridagi cho‘qqi (maksimal) natijalargacha bo‘lgan uzluksiz, bosqichma-bosqich evolyutsion rivojlanishni ta’minlaydi.

Mazkur model sportchi ontogenezining biologik, psixologik va ijtimoiy qonuniyatlarini inobatga olgan holda, seleksiya mezonlari shunchaki ayni vaqtdagi jismoniy ustunlikni farqlovchi emas, balki **kelajakdagi potentsial muvaffaqiyatni yuqori aniqlikda bashorat qiluvchi (prediktiv) xususiyatga ega bo‘lishi** kerakligini qat’iy ta’kidlaydi.

Zamonaviy sport seleksiyasi bir o‘lchamli yondashuvdan voz kechgan holda, quyidagi omillarni o‘z ichiga oluvchi keng ko‘lamli (multidisiplinar) mezonlar tizimini qamrab oladi:

- **Antropometrik va morfologik mezonlar:** Bo‘y ko‘rsatkichlari, tana massasi tarkibi (faol mushak va yog‘ massasi nisbati), qon skeleti tuzilishi, genetik moyillik va sport turiga xos somatotiplar. Bu omillar ayniqsa, bo‘y va tana tuzilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan sport turlarida (basketbol, og‘ir atletika, eshkak eshish) birlamchi filtr vazifasini o‘taydi.
- **Fiziologik va biokimyoviy xususiyatlar:** Parcha to‘qimalarning kislorod o‘zlashtirish qobiliyati (aerob quvvat - VO2), laktat ostonasi (anaerob quvvat), yurak-qon tomir tizimi adaptatsiyasi, qisqarish tezligi va neyromuskulyar (asab-mushak) samaradorlik.
- **Psixologik va kognitiv omillar:** Emotsional chidamlilik (resilience), ichki motivatsiya, maqsadga intiluvchanlik, musobaqa stressini boshqarish hamda kognitiv axborotni qayta ishlash tezligi (diqqatni jamlash va taqsimlash).
- **Texnik mahorat va biomexanika:** Sport turiga xos bo‘lgan maxsus harakat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish sur’ati, harakatlar koordinatsiyasi va ularning biomexanik jihatdan tejamkor (ratsional) ijrosi.
- **Taktik va intellektual qobiliyat:** Yuqori bosim va vaqt tanqisligi ostida optimal qaror qabul qilish, fazoviy tasavvur, o‘yinni o‘qish qobiliyati (antitsipatsiya) va raqibning o‘zgaruvchan harakatlariga strategik moslashuv.

Yuqorida sanab o‘tilgan elementlarning o‘zaro qat’iy bog‘liqligi va ularning tayyorgarlik bosqichlari (dastlabki tayyorgarlik, ixtisoslashuv, sport takomillashuvi) bo‘yicha dinamik o‘zgarib borishi sportchilarni **holistik (yaxlit va kompleks) baholashni** taqozo etadi. Ya’ni, seleksiya jarayonida sportchining barcha sifatlari bir butun tizim sifatida qaralishi, biror sifatning vaqtincha ortda qolishi boshqa bir kuchli kompensator xususiyat (masalan, yuqori taktik aql yoki psixologik iroda) hisobiga qoplanishi mumkinligini inobatga olish zarur. Bu esa iste’dodlarni ertachi

va noto‘g‘ri "yaroqsiz" deb topish xavfini (erta ixtisoslashuv fojiasini) minimallashtiradi.

Ko‘p yillik tizimning dastlabki bosqichlarida (erta bolalikdan o‘smirlikgacha) seleksiya mezonlari maxsus mahoratdan ko‘ra umumiy potentsialga ustunlik beradi. Antropometrik ko‘rsatkichlar dastlabki filtr sifatida ishlatiladi: masalan, basketbol uchun uzun bo‘yli, gimnastika uchun ixcham tuzilishli shaxslar ajratiladi. Biroq, bu ko‘rsatkichlar yetilish holatini hisobga olgan holda baholanishi zarur, chunki balog‘at davridagi o‘sish portlashlari traektoriyalarni keskin o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli bio-banding usullari (biologik yoshga ko‘ra guruhlash) qo‘llaniladi. Fiziologik jihatdan dastlabki bosqichlarda umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari – VO2 max, chaqqonlik baholanadi. Psixologik skrining Athletic Coping Skills Inventory (ACSI) kabi vositalar yordamida ruhiy chidamlilik va ichki motivatsiyani o‘lchaydi, chunki erta psixologik barqarorlik uzoq muddatli saqlanish bilan yuqori korrelyatsiyaga ega. Ushbu mezonlarning samaradorligi uzun muddatli kohort tadqiqotlari orqali baholanadi: dastlabki tanlovlar yillar davomida kuzatilib, elita darajaga chiqish yoki doimiy ishtirok etish kabi muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Futbol akademiyalaridagi retrospektiv tahlillar shuni ko‘rsatadiki, antropometrik va fiziologik mezonlar kattalar samaradorligining faqat 40–60% variatsiyasini tushuntiradi, shuning uchun ko‘p qirrali baholash zarur. O‘rta bosqichlarda (kech o‘smirlik – yosh kattalar) mezonlar sportga xos takomillashtirishga yo‘naltiriladi. Texnik va taktik o‘lchovlar video tahlil va simulyatsiya mashqlari orqali aniqlanadi. Masalan, eshkak eshish yoki voleybolda zarba samaradorligi yoki taktik qarorlar baholanadi. Fiziologik mezonlar kuch chiqarish (countermovement jump yoki Wingate anaerob testi) orqali o‘lchanadi. Psixologik jihatdan stressga chidamlilik va jamoaviy dinamika ekologik momentary baholash orqali kuzatiladi. Samaradorlik prognoz haqiqiylik modellari (regressiya tahlillari) orqali o‘rganiladi: o‘rta bosqichdagi ko‘rsatkichlar musobaqa natijalari bilan bog‘lanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, atrof-muhit omillarini integratsiya qilgan ko‘p bosqichli yondashuvlar yagona nuqtali baholashlarga nisbatan prognoz aniqligini 20–30% oshiradi. Sub’ektiv murabbiy baholari kabi tizimli xatolar inter-rater ishonchlilik koeffitsientlari (ideal holda 0.80 dan yuqori) orqali miqdoriy aniqlanadi.

Ilg‘or bosqichlarda (elita musobaqalarga tayyorgarlik) mezonlar barcha oldingi o‘lchovlarni yuqori yuklama ostidagi samaradorlik bilan birlashtiradi. Antropometrik barqarorlik DXA (dual-energy X-ray absorptiometry) orqali monitoring qilinadi. Fiziologik mezonlar laktat chegarasi va maksimal kuch (1RM testlari) kabi cho‘qqi ko‘rsatkichlarga o‘tadi. Texnik-taktik jihatdan AI asosidagi ma’lumotlar tahlili (masalan, futbol uchun muvaffaqiyatli paslar nisbati) qo‘llaniladi. Psixologik baholash Sport Commitment Questionnaire yoki biofeedback orqali amalga oshiriladi. Samaradorlik ROC egri chiziqlari (sezuvchanlik va spetsifiklik), omon qolish tahlili (chiqib ketish xavfi) kabi murakkab usullar bilan baholanadi. Og‘ir atletika dasturlaridagi uzun muddatli ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, qasddan mashq hajmini ta’kidlagan mezonlar Olimpiya malakasiga chiqish bilan 0.70–0.85 korrelyatsiyaga ega.

Seleksiya mezonlarining umumiy samaradorligini baholash uchun uch qismli ramka qo‘llaniladi: texnik haqiqiylik (mezon nima o‘lchayotganini to‘g‘ri aks ettiradimi?), qaror qabul qilish foydaliligi (amalga oshiriladigan xulosalar beradimi?), tashkiliy amaliylik (resurslar doirasida joriy etiladimi?). Texnik haqiqiylik konstruktsiya tasdiqlash orqali (oltin standartlar bilan korrelyatsiya) o‘rnatiladi. Qaror foydaliligi Bayes modellari orqali baholanadi. Tashkiliy baho xarajat-foyda tahlili bilan amalga oshiriladi. Madaniy relativizm (G‘arb individualizmiga asoslangan modellar kollektivist kontekstlarda samarasiz bo‘lishi mumkin) va axloqiy muammolar (istisno qilish amaliyotlari) kabi qiyinchiliklar mavjud. Empirik sintezlar seleksiyada 10 ta asosiy masalani (ekologik haqiqiylik, xato kamaytirish) ta’kidlaydi.

Periodizatsiya nazariyasi mezonlarni makrotsikl, mesotsikl va mikrotsiklarga moslashtirishni talab etadi. Jamoaviy sportlarda mashq transferi paradigmalari (umumiy tayyorgarlikdan sportga xosgacha) samaradorlikni Cohen's d effekti orqali baholaydi. Individual sportlarda yillik benchmarklarga nisbatan iterativ takomillashtirish qo‘llaniladi. Samaradorlik iste’dod berish nisbati (tanlanganlarning elitaga chiqish foizi) va jarohat kamayishi bilan o‘lchanadi. Katta ma’lumotlar va mashinaviy o‘qitish algoritmlari prognoz aniqligini 85% dan oshiradi. Fanlararo integratsiya mezonlarni murakkablashtiradi: epigenetika, neyroimaging kabi yangi yo‘nalishlar qo‘llaniladi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar tenglikni ta’minlash uchun hisobga olinadi. Uzun muddatli samaradorlik aralash metodlar (miqdoriy va sifatli) orqali eng yaxshi o‘rganiladi.

Xulosa qilib aytganda, ko‘p yillik tayyorgarlik tizimi doirasidagi sport seleksiyasi mezonlari oddiy tanlov vositasidan ancha yuqori ma’noga ega bo‘lib, ular sportchi rivojlanishining biologik, psixologik, texnik va ijtimoiy qonuniyatlarini sintez qiluvchi ilmiy asoslangan mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mezonlarning samaradorligi nafaqat hozirgi vaqtdagi iste’dodni aniqlash darajasi bilan, balki uzoq muddatli istiqbolda elita natijalarga erishish ehtimoli, jarohatlanish xavfining kamayishi, sportchining psixologik barqarorligi, motivatsion chidamliligi va umuman sport tizimining barqaror ishlashi bilan o‘lchanadi. Dastlabki bosqichlarda umumiy jismoniy potentsial, harakat ko‘nikmalari va yetilish darajasi (bio-banding) asosiy mezon bo‘lsa, o‘rta bosqichlarda sportga xos texnik-taktik mahorat, fiziologik quvvat ko‘rsatkichlari va psixologik moslashuvchanlik ustunlik qiladi. Ilg‘or bosqichlarda esa cho‘qqi samaradorlik, yuqori yuklamalarga chidamlilik, stressga qarshilik va individual raqobatbardoshlikning yuqori darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu mezonlarning haqiqiyligi va prognoz kuchini baholashda ROC tahlili, regressiya modellari, omon qolish tahlili, Bayes prognozlari, inter-rater ishonchlilik va uzun muddatli kohort tadqiqotlari kabi zamonaviy statistik va metodologik vositalar qo‘llanilishi shart. Samaradorlikning yuqori darajasi faqat mezonlarning ko‘p qirraliligi, ularning bir-biriga integratsiyasi va bosqichma-bosqich takomillashtirilishi bilan ta’minlanadi. Shu bilan birga, sub’ektiv baholar, madaniy farqlar, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, erta ixtisoslashuv xavfi va resurs cheklovlari kabi omillar samaradorlikni pasaytiruvchi asosiy to‘siqlar sifatida qolmoqda. Ilg‘or texnologiyalar (katta ma’lumotlar, mashinaviy o‘qitish

algoritmlari, kiyiladigan sensorlar, AI tahlili), epigenetik va neyro-fiziologik ko‘rsatkichlarning joriy etilishi, periodizatsiya nazariyasi bilan uzviy bog‘lanish, shuningdek, ekologik haqiqiylik va axloqiy me’yorlarga rioya qilish kelajakda seleksiya tizimining samaradorligini tubdan oshirishi mumkin. Natijada, to‘g‘ri tashkil etilgan va doimiy baholanib turiladigan seleksiya mezonlari nafaqat alohida sportchilarning cho‘qqi natijalariga erishishini ta’minlaydi, balki butun milliy sport tizimining barqaror rivojlanishi, iste’dod zaxirasining kengayishi, jarohatlarning kamayishi va resurslardan samarali foydalanishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, ko‘p yillik tayyorgarlik tizimidagi seleksiya mezonlari va ularning samaradorligini baholash nafaqat sport fanining dolzarb masalasi, balki zamonaviy yuqori samarali sportning strategik rivojlanish yo‘nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924-son Farmoni (24.01.2020). O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. Xo‘jayev F.X. — Sport seleksiyasi va yo‘naltirish asoslari — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 180 b.
3. Kerimov F.A. — Sportda ilmiy tadqiqotlar — Toshkent: Ilm Ziyo, 2017. — 256 b.
4. Kerimov F.A., Umarov M.N. — Sport pedagogik mahoratini oshirish — Toshkent: Tafakkur, 2018. — 240 b.
5. Tursunov O.T. — Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 300 b.
6. Nishonov M.N. — Sportchilarning funksional tayyorgarligi — Toshkent: Fan, 2021. — 200 b
7. Raximov, V. Sh. (2021). Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish uslubiyati (Gandbol). O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Universitet.
8. Turdimuratov, Y. A. (2023). Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport. Uslubiy qo‘llanma. Chirchiq: O‘zDJTSU.
9. Masharipov, Y. (2020). Psixologiya va sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.

UDK:152.26

Ixtiyorov Shavkat,
Xalqaro innovatsion universitet magistranti

SUITSIDAL XULQ-ATVORNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TADQIQ ETISH MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada suitsidentlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish masalasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar, jumladan, emotsional holat, shaxsiy tipologik xususiyatlar, stressga chidamlilik darajasi va ijtimoiy moslashuv masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, suitsident shaxsini o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy psixodiagnostik, klinik, ijtimoiy-psixologik va kuzatuv usullarining mazmuni va ahamiyati ochib beriladi. Maqola suitsidal holatlarni erta aniqlash hamda samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: suitsident, suitsidal xulq-atvor, psixologik xususiyatlar, stress, xulq-atvor, korreksiya.

ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ С ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается изучение психологических характеристик суицидальных наклонностей. В процессе исследования анализируются психологические факторы, влияющие на формирование суицидального поведения, включая эмоциональное состояние, личностные типологические характеристики, уровень стрессоустойчивости и социальную адаптацию. Также раскрываются содержание и значимость основных психодиагностических, клинических, социально-психологических и наблюдательных методов, используемых в изучении суицидальной личности. Статья имеет важное научно-практическое значение для раннего выявления случаев суицида и разработки эффективных профилактических мер.

Ключевые слова: самоубийство, суицидальное поведение, психологические характеристики, стресс, поведение, коррекция.

ISSUES OF RESEARCHING SUICIDAL BEHAVIOR FROM A PSYCHOLOGICAL PERSPECTIVE

Abstract. This article discusses the study of the psychological characteristics of suicides. In the process of research, psychological factors influencing the formation of suicidal behavior are analyzed, including emotional state, personal typological characteristics, level of stress resistance and social adaptation. Also, the content and significance of the main psychodiagnostic, clinical, socio-psychological and

observational methods used in the study of the suicidal personality are revealed. The article is of significant scientific and practical importance in the early detection of suicidal cases and the development of effective preventive measures.

Key words: suicide, suicidal behavior, psychological characteristics, stress, behavior, correction

Suitsid muammosi zamonaviy jamiyatda tibbiy, psixologik va ijtimoiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Suitsidentlar shaxsini chuqur o‘rganish suitsid xulq-atvorining sabablarini aniqlash, xavf guruhlarini belgilash hamda samarali profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda turli fanlararo tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

O‘z joniga qasd qilish holatlarining salmoqli qismi asosan 25–30 yoshgacha bo‘lgan ayollar va qizlar orasida kuzatiladi. Xususan, o‘ziga o‘t qo‘yish orqali amalga oshiriladigan suitsid holatlari jamiyat uchun ham ma’naviy, ham moddiy jihatdan katta zarar keltiradi. Aksariyat hollarda bunday holatni boshdan kechirgan shaxslar ma’lum muddat davomida mehnat faoliyatiga yaroqsiz holga kelib qoladi. Ayrim vaziyatlarda esa uzoq davom etuvchi ruhiy tushkunlik va xafagarchiliklar o‘z joniga qasd qilishga bo‘lgan moyillikni yanada kuchaytiradi yoki og‘ir tan jarohatlari, doimiy majruhlik hamda nogironlikka olib kelishi mumkin. Natijada ayol kishi ijtimoiy foydali mehnat jarayonidan to‘liq chetlashib qoladi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarishga bevosita iqtisodiy hamda ma’naviy yo‘qotishlar keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda, ayrim insonlar ongida ayollarga eskicha munosabatda bo‘lish hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Bunday hollarda erkaklarning ayollarga ishqibozligi, ularning ayollarga nisbatan boyvachchalarcha munosabatda bo‘lishi bilan to‘qnashib qoladi, ikkinchidan, ayollarning ehtiyojlari o‘zaro tushunish bilan teng huquqlilikka tayanadi.

Ilgari davrlarda ayollarning hayot tarzini mustaqil tanlash imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, ular jamiyatda mavjud bo‘lgan yashash meyorlarini tabiiy hol sifatida qabul qilganlar. Zamonaviy davrda esa ommaviy axborot vositalari — matbuot, radio, televideniye hamda internet tarmoqlari orqali axborot almashuvining kengayishi ayollarning ijtimoiy ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ayollar o‘z ijtimoiy holatini tahlil qilish, shaxsiy ehtiyoj va manfaatlarini anglash hamda ilgari shakllangan turmush tarziga nisbatan tanqidiy munosabat bildirishga moyil bo‘lmoqdalar.

Afsuski, bugungi kunda huquqiy bilimlari yetarli bo‘lmaganligi tufayli ular ijtimoiy adolat uchun zarur kurash usulini topa olmaydilar va o‘z huquqlarini talab qila olmaydilar. Tarbiya jarayonida shakllanib shuuriga singib ketgan jamoatchilik oldidagi uyat va qo‘rquv hislarini hayotiy qadriyatlarning ma’lum sistemasiga mo‘ljallay olmaydilar.

Sharqning buyuk mutaffakirlaridan biri Abu Nasr Forobiy “Inson aqli faqat bilim bilan cheklanmaydi, balki odat va qarashlarni o‘zining maqsadlariga bo‘ysundira olishi va yo‘naltirishi, o‘zgartirishi ham mumkin” - degan edi. Har bir inson bilimlarni yaxshi egallamog‘i, yaxshi va barkamol tarbiya olmog‘i, eng yaxshi

fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak. Tarbiya vositasi bilan bolalarda hosil qilinadigan barcha insoniy, axloqiy fazilatlar shunga qaratilmog‘i kerak.

Shu o‘rinda psixologik diagnostika va korreksiya atamalariga to‘xtalib o‘tish muhimdir. Bular o‘zini o‘zi mahkum etuvchi xulq-atvor shakllarini, eng avvalo, o‘z joniga suiqasd qilishga urinish yoki suitsidal harakatlarning oldini olishga mo‘ljallangan, ruhiy zo‘riqish (stress) vaziyatlariga nisbatan javob reaksiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya holatida bo‘lgan insonlarga yordam berishga qaratilgan psixologik usullar to‘plamidir.

O‘smirlar bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik korreksiya, eng avvalo, oilaviy muhitda shaxs rivojlanishi uchun qulay psixologik sharoitni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur jarayon doirasida o‘smirlarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘zaro hamkorlik va o‘zaro hurmatga asoslangan ijtimoiy muhitni barqarorlashtirish, shuningdek, ularning o‘zini o‘zi namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o‘smirlarning individual qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni ijtimoiy foydali faoliyat turlariga jalb etish, shaxsiy maqsadlarni belgilash hamda istiqbolli hayotiy rejalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan motivatsiyani shakllantirish korreksion faoliyatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Har bir yosh davriga xos psixologik diagnostika va korreksiya jarayoni bir qator muhim xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Jumladan, psixologik yordam ko‘rsatishni kechiktirish yoki unga befarq munosabatda bo‘lishning mumkin emasligi; suitsidal xulq-atvorning shakllanishiga olib keluvchi destruktiv psixologik ustanovkalarni aniqlash va ularni korreksiyalashga yo‘naltirilganlik; shuningdek, ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasini ta’minlash, shaxs barqarorligi va individual rivojlanishga xizmat qiluvchi turli ko‘rinishdagi shaxslararo nizolarni hal etishning samarali usullarini izlash hamda treninglar orqali amaliyotga joriy etish ushbu jarayonning muhim jihatlaridir.

Psixologik diagnostika va psixokorreksiya faoliyati, одатда, учта асосий вазифани амалга оширади: shaxsga psixologik qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish; zarur hollarda psixologik aralashuvni amalga oshirish; hamda o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasini oshirish.

Mazkur jarayon bir necha ketma-ket bosqichlarda olib boriladi. Dastlab psixologik aloqa o‘rnatiladi, so‘ng suitsidal xavf bilan bog‘liq emotsional holatlar aniqlanadi. Keyingi bosqichda xulq-atvordagi muammolarni bartaraf etish hamda adaptiv ko‘nikmalarni faollashtirish choralari ko‘riladi. Zaruratga qarab, psixologik yordam jarayonini tartibga soluvchi shartnoma tuzilishi ham mumkin.

Suitsidal xulq-atvorga moyil shaxslar bilan ishlashda umumiy metodologik tamoyillarga amal qilish muhim hisoblanadi. Bular jumlasiga dastlabki muloqotdan boshlab empatik va emotsional qo‘llab-quvvatlovchi munosabatni shakllantirish; shaxsga o‘z istaklari, tashvishlari va qo‘rquvlarini erkin ifodalash imkonini berish; mavjud psixologik resurs va imkoniyatlarni faollashtirish; shuningdek, anonimlik tamoyiliga qat’iy rioya etish kiradi.

Shaxs bilan o‘tkaziladigan dastlabki suhbat jarayonining asosiy vazifalari emotsional tanglikni kamaytirish, suitsidogen hissiyotlarni vaqtincha

neytrallashtirish, shaxsni murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o‘tishga safarbar etishdan iboratdir. Bundan tashqari, inqiroz holatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik jarohatlarning oldini olish hamda shaxsning keyingi psixologik yordamni qabul qilishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish ham muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Ushbu jarayondagi asosiy murakkablik shundaki, nisbatan qisqa muddatli psixologik diagnostika va korreksiya sharoitida shaxsda yuqori darajadagi ichki motivatsiyani shakllantirish zarurati yuzaga keladi.

Suitsidal xulq-atvorli shaxsda, ko‘pincha emotsional aloqa qilishning imkoni pasaygan, motivatsiya umuman namoyon bo‘lishga ulgurmagan bo‘ladi [2-88].

Shuning uchun ham shaxs bilan birinchi uchrashuv va suhbat har ikki tomon, ya’ni shaxs-psixolog duadik munosabatining qiymatini belgilaydi. Shaxs shakllangan inqirozli vaziyatdan chiqib ketishni xohlaydi, lekin taklif etilgan yordamni “Qabul qilishni istamaydi”. Shu bois ham, ular bilan o‘zaro maqbul aloqalarni tiklash va hamkorlik, shuningdek, vaziyat tahlilini aniqlashga qaratilgan suhbatning psixologik tavsifi haqida so‘z yuritmoq joizdir. Shaxs xulq-atvorini tadqiq etishga doir suhbatlar muayyan tamoyillar asosida tuzilishi kerak [4-102].

Psixologning suitsidal xulq-atvorli shaxs bilan ishlash tartibi quyidagicha olib boriladi [1-112]:

Birinchi suhbat jarayonida psixolog-psixiatr hamkorlikda yoki alohida psixodiagnostik tadbirlar hajmini aniqlaydi: bular shaxsni tadqiq etish mo‘jallangan yoki patopsixologik metodikalar bo‘lishi mumkin.

Birinchi yoki ikkinchi uchrashuvdan so‘ng, birinchi bosqichda psixodiagnostik xulosa asosida shifokor psixolog bilan birgalikda psixokorreksiya tadbirlarini o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida bir qarorga keladilar. Agar korreksiya tavsiya etilsa, psixolog bilan psixiatr birgalikda uning maqsadi, o‘tkazilish vaqti va metodlarini, shuningdek, uchrashuvlar sonini aniqlashtiradilar.

Ikkinchi bosqichda psixologning 3-5 hafta davomida haftasiga o‘rtacha ikkita uchrashuv bevosita faoliyatini olib borayotganida «umumiydan aniqlikka (konkretlikka), aniqlikdan umumiylikka» yo‘naltirilgan kasbiy faoliyatning umumiy rejasini tuzish maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bosqich shartli ravishda uch iyerarxiyadan iborat bo‘ladi:

- imkoniyatlarni topish bosqichi;
- umumiy tonusni ko‘tarish;
- shaxsning tevarak-atrofdagi olamni adekvat baholash qobiliyatini va malakali yordamga bo‘lgan nisbatan ishonchini mustahkamlash.

Umuman, ikkinchi bosqich shaxsning atrofidagi aniq muammo va vazifalarni yechish uchun o‘tishiga kuch va istak uyg‘otadi, aniq vaziyatli holatlar o‘z qamrovi, ahamiyatliligi bilan maqsadlarga erishishga ishontiradi. Shuningdek shaxsga o‘z hayotiy qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Uchinchi, yakuniy bosqich ma’lum bir diagnostik testlarni qayta o‘tkazish va natijalarning psixolog tomonidan ijobiy izohlanishini nazarda tutadi.

Xorijiy psixolog va suitsidologlarning [1-108] diagnostik-korreksion ishiga doir tajribasidan foydalangan holda suitsidallikning darajasini aniqlash, o‘z joniga

suiqasd qilish xavfini o‘rganishda, shaxs bilan o‘zaro kelishuv tashkil etadigan keng qamrovli klinik intervyu, uning suitsidal xulq-atvori psixologik diagnostikasi jarayoniga tizimli yondashuvga imkon beradi.

Yosh davriga xos suitsidal xulq-atvorning psixologik diagnostikasi va korreksiyasi kompleks hamda differensial yondashuvni talab qilganligi sababli, mazkur jarayonda bir qator muhim vazifalarni izchil hal etish zarur hisoblanadi:

- affektiv tanglikni bartaraf etish va suitsidal xavf darajasini kamaytirish;
- inqirozli vaziyatlarni hal etish;
- postsuitsidal holatlarni korreksiyalash;
- shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligi darajasini barqarorlashtirish [1-76].

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda suitsidal xulq-atvorning o‘ziga xosligini inobatga olib, amaliy psixologning suitsidal shaxs bilan ish olib borishining quyidagi umumiy tuzilmasini qayd etib o‘tish lozim:

- eng avvalo, aloqa o‘rnatilganidan so‘ng shaxsda “antisuitsidal to‘siq”ni yaratish va uni saqlab turish;
- shaxsning suitsidal xohishi yoki harakatlariga olib kelgan ijtimoiy-psixologik ustanovkalarini tadqiq etishga daxldor motivatsiyani shakllantirish;
- namoyishkorona-shantajli suitsidal harakat holatlarida o‘lim oqibatining xavfi va o‘lim faktining o‘zi haqida tasavvur uyg‘otish;
- shaxsning shaxslararo nizoli vaziyatlarda uning ishtirokchilari bilan psixologning aloqa o‘rnatishi, nizoning mohiyati va sabablarini aniqlashi, unga nisbatan hamdardlik hamda tushunish tuyg‘usini shakllantirishi zarur [3-127].

Shaxsning quyidagi holatlari individual psixologik korreksiyaning qo‘llanilishi uchun ko‘rsatma bo‘lishi mumkin: a) kuchli xavotirlanish; b) paysalga solishlik yoki o‘ta qo‘zg‘aluvchanlik; v) emotsional o‘zgaruvchanlik; g) xulq-atvordagi og‘ishlar; d) asoslanmagan qo‘rquv; ye) o‘zini yetarlicha tushunib yetmaslik; yo) hayot maqsadi va mazmunini yo‘qotish.

Ushbu holatlar qo‘llanilishi asosini shaxsga yashashdan maqsad mazmunini topish, shaxsiy erkinlik, mas’uliyatni anglashi, to‘laqonli muomila jarayonida shaxs sifatida o‘z salohiyati va imkoniyatlari yordam berishdan iborat. Ayni vaqtda, inson shaxsini, taqdirini shak-shubhasiz muhim, mavjudligining o‘ziga xos qadriyat hisoblanuvchi hayotiy olamini so‘zsiz tan olish muhim vazifa hisoblanadi [5-95].

Yakuniy maqsadni esa kognitiv sohani trasformatsiyalash va shaxsning zaruriy ehtiyojlarini qondirishga, ijtimoiy-psixologik moslashuv sharoitida yuzaga keluvchi nizolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beruvchi motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar va istaklar shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishni tashkil etadi.

Suitsid xavfi ehtimoli bo‘lgan shaxsga nisbatan psixologik korreksiyani amalga oshirishda individual, oilaviy, guruhiy shakllar qo‘llaniladi.

Shaxsni o‘rab turgan ijtimoiy-psixologik muhit xususiyatlarini inobatga olgan holda, suitsidentlar bilan ishlashda psixologik korreksiyaning turli yo‘nalishlari va maktablarining metodlarini yanada keng qo‘lamda tatbiq etish masalasi qo‘yiladi.

Suitsidal harakatlarning oldini olish va bartaraf etishda psixologik nazariya hamda amaliyotda bir qator korreksion yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, suitsidal faollikni

cheklash, shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligini tiklash va yuzaga kelgan inqirozli vaziyatdan chiqib ketish uchun uning ichki imkoniyatlarini faollashtirishning turli usul va yo‘nalishlarini asoslashga harakat qilinadi.

Amaliy psixologiyada keng qo‘llanilayotgan psixokorreksion yo‘nalishlardan biri V. Frankl tomonidan ishlab chiqilgan logoterapiya hisoblanadi. Ushbu yondashuv ekzistensial psixoterapiya yo‘nalishiga mansub bo‘lib, inson hayotining noyobligi va betakrorligini anglashga asoslanadi. Logoterapiya insonning borliqda mavjud bo‘lish mohiyatini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, shaxs xulq-atvorini harakatga keltiruvchi asosiy omil sifatida tashqi borliqdagi hayotiy maqsadni topishga intilish va uni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan faoliyatni ko‘rsatadi. Mazkur jarayonda shaxs irodasi markaziy o‘rin egallaydi. Psixokorreksiya jarayonida hayotiy ma’noni anglashga intilish inson faoliyatining fundamental motivatsiyasi sifatida talqin etiladi. Bunda insonlar faqat ruhiy osoyishtalikka emas, balki hayot mazmunini anglash ehtiyojiga ega ekanliklari ta’kidlanadi. Agar mazkur ehtiyoj qondirilmasa, ya’ni ma’noga intilish frustratsiyaga uchrasa, ekzistensial bo‘shliq holati yuzaga keladi. Bu holat, o‘z navbatida, apatiya, zerikish va ichki bo‘shliq hissining kuchayishiga olib keladi[6-76].

Xulosa qilib aytganda, ekzistensial bo‘shliqning uzoq davom etishi suitsidal xulq-atvor xavfining ortishiga, shuningdek, turli nevrotik buzilishlar va klinik simptomlarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois logoterapiya insonning hayotiy ma’noni topishi va anglashiga ko‘maklashish orqali suitsidal holatlarning oldini olishda muhim psixokorrektsion ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амбрумова А.Г., Тихоненко В.А. Диагностика суицидального поведения. // -М.: Минздрав, 1990. -106 с.

2. Амбрумова А.Г. Психология самоубийства. // Социальная и клиническая психиатрия. Москва, 1996. Т.6.-вып.4.14-20 с.

3. Кондрашенко В.Т. Суицидальное поведение. // Психология экстремальных ситуаций: Хрестоматия. // Сост. Тарас А.Е., Сельченок К.В. - Минск, Харвест, 1999.

4. Шнейдман Э. (Shneidman E.S.) Душа самоубийцы. // Пер. с англ. -М.: Смысл, 2001.-315 с.

5. Axunjanova S.A. va boshqalar. Shaxs inqiroz holatlari ijtimoiy-psixologik sabablarini o‘rganish va ularni bartaraf etish. // -Toshkent. 1997.15 b.

6. Имамвердиева М.Н. Психологические особенности формирования суицидального поведения: Автореф. дисс.…канд. психол. Наук-Баку: Бакинский ГУ, 2002.-19 с.

UDK: 159.953:37.015.3

Choriyev Sirojiddin Bekpo‘lat o‘g‘li,
O‘zbekiston Milliy universiteti
psixologiya yo‘nalishi 2-kurs magistranti

ILK O‘SPIRINLARDA ANIQ FANLARNI O‘RGANISH JARAYONIDA XOTIRANING AHAMIYATI BO‘YICHA DASTLABKI EMPIRIK TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilarning aniq fanlarni o‘zlashtirish jarayonida xotira jarayonlarining ahamiyati empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi aniq fanlarni o‘rganishda xotiraning qaysi turlari yetakchi ekanligini aniqlash hamda ularning o‘quv faoliyatiga ta’sirini baholashdan iborat. Tadqiqotda umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarning 10–11-sinf o‘quvchilaridan iborat 119 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Empirik ma’lumotlarni yig‘ishda qisqa muddatli, mantiqiy, mexanik, ko‘rish va eshitish xotirasini aniqlashga qaratilgan standart psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, aniq fanlarni o‘zlashtirishda ko‘rish xotirasi hamda ixtiyoriy esda olib qolish jarayonlari nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Tadqiqot natijalari ilk o‘spirinlik davrida kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim strategiyalarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: ilk o‘spirinlik, aniq fanlar, xotira turlari, ixtiyoriy xotira, empirik tadqiqot, individual tafovutlar.

АНАЛИЗ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ ЭМПИРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ЗНАЧЕНИЯ ПАМЯТИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ТОЧНЫХ НАУК У РАННИХ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье представлен анализ эмпирических исследований, посвящённых роли памяти в процессе усвоения точных наук учащимися раннего подросткового возраста. Цель исследования заключается в выявлении доминирующих видов памяти при изучении точных дисциплин и оценке их влияния на учебную деятельность. В исследовании приняли участие 119 учащихся 10–11 классов общеобразовательных и специализированных школ. Для сбора эмпирических данных были использованы стандартизированные психодиагностические методики, направленные на изучение кратковременной, логической, механической, зрительной и слуховой памяти. Результаты исследования показали, что в процессе изучения точных наук наиболее выраженными являются зрительная память и произвольное запоминание. Полученные данные могут быть использованы при разработке психолого-педагогических рекомендаций, направленных на повышение эффективности обучения в раннем подростковом возрасте.

Ключевые слова: ранний подростковый возраст, точные науки, виды памяти, произвольная память, эмпирическое исследование, индивидуальные различия.

ANALYSIS OF PRELIMINARY EMPIRICAL STUDIES ON THE ROLE OF MEMORY IN LEARNING EXACT SCIENCES AMONG EARLY ADOLESCENTS

Annotation. This article presents an analysis of empirical research on the role of memory in the process of learning exact sciences among early adolescent students. The aim of the study is to identify the dominant types of memory involved in mastering exact subjects and to assess their impact on learning activities. The study involved 119 students from grades 10–11 of general and specialized secondary schools. Standardized psychodiagnostic methods were used to assess short-term, logical, mechanical, visual, and auditory memory. The findings indicate that visual memory and voluntary memorization demonstrate higher levels in the learning of exact sciences. The results of the study have practical significance for improving educational strategies and psychological support in the learning process of early adolescents.

Keywords: early adolescence, exact sciences, types of memory, voluntary memory, empirical research, individual differences.

Zamonaviy ta’lim tizimida aniq fanlarni samarali o‘zlashtirish masalasi o‘quvchilarning bilish jarayonlari, xususan, xotira faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Rivojlanish psixologiyasida ilk o‘spirinlik davri (taxminan 15–18 yosh) shaxsning intellektual imkoniyatlari jadallik bilan rivojlanadigan, bilish jarayonlari ongli ravishda boshqarila boshlanadigan muhim bosqich sifatida talqin qilinadi [5. 356–362-b.]. Aynan ushbu davrda ixtiyoriy xotira va mantiqiy fikrlash mexanizmlari yetakchi o‘rin egallay boshlaydi. Psixologik tadqiqotlarda xotira o‘quv faoliyatining markaziy komponentlaridan biri sifatida e’tirof etilib, u o‘zlashtirilayotgan bilimlarning mustahkamligi va samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [7. 110–118-b.]. Ayniqsa, aniq fanlarni o‘rganish jarayonida mantiqiy, ko‘rish va ixtiyoriy xotiraning rivojlanganligi yuqori natijalarga erishish imkonini yaratadi. Shu bois, ilk o‘spirinlik davrida aniq fanlarni o‘zlashtirish jarayonida xotira turlarining o‘rni va ahamiyatini empirik asosda o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi ilk o‘spirinlarda aniq fanlarni o‘rganish jarayonida xotiraning turli shakllari namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash va ularning o‘quv faoliyatiga ta’sirini baholashdan iborat.

Psixologiya fanida xotira muammosi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, P.I. Zinchenko o‘z tadqiqotlarida ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish jarayonlari o‘rtasidagi farqlarni asoslab bergan hamda o‘quv faoliyatida ixtiyoriy xotiraning yetakchi rolini ta’kidlagan [7. 110–118-b.]. L.V. Kulikov esa xotiraning individual xususiyatlari o‘quvchilarning yosh, shaxsiy va motivatsion omillari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatgan [4. 42–50-b.]. Tadqiqotchi fikricha,

ta'lim jarayonida individual farqlarni inobatga olish o'quv natijalarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Rivojlanish psixologiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilk o'spirinlik davrida ko'rish va mantiqiy xotira turlari faol rivojlanadi va murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi [6. 18–21-b.]. Zamonaviy tadqiqotlar aniq fanlarni o'rganishda vizual materiallar samaradorligini ham tasdiqlaydi [8. 95–103-b.]. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda aniq fanlarni o'rganish jarayonida xotiraning turli turlari empirik jihatdan kompleks o'rganilgan tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, ilk o'spirinlarda xotira jarayonlarining aniq fanlarni o'zlashtirishdagi o'rnini empirik ma'lumotlar asosida yoritishni maqsad qiladi.

Mazkur tadqiqot ilk o'spirinlik davridagi o'quvchilarda aniq fanlarni o'rganish jarayonida xotira jarayonlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini empirik jihatdan aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda psixologik diagnostika, qiyosiy tahlil hamda matematik-statistik ishlov berish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarning 10–11-sinf o'quvchilaridan iborat jami **119 nafar sinaluvchi** ishtirok etdi. Sinaluvchilar yosh jihatidan 15–18 yosh oralig'ini qamrab olib, bu ko'rsatkich ilk o'spirinlik davri mezonlariga mos keladi. Tadqiqot obyektlari Toshkent viloyati va Surxondaryo viloyatidagi ta'lim muassasalaridan tanlab olindi. Bunday hududiy tanlov natijalarning nisbatan ishonchli va qiyosiy tahlil qilinishini ta'minlash maqsadida amalga oshirildi.

Empirik ma'lumotlarni yig'ish jarayonida xotiraning turli turlarini aniqlashga yo'naltirilgan, amaliyotda keng qo'llaniladigan hamda metodologik jihatdan asoslangan psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi. Jumladan:

- **"Qisqa muddatli xotira hajmini aniqlash"** - ushbu metodika insonning bir marta eshitish yoki ko'rish orqali qancha miqdordagi ma'lumotni (odatda raqamlarni) xatosiz eslab qolish qobiliyatini o'lchaydi. (Jekobs metodikasi);
- **"Mantiqiy va mexanik xotirani o'rganish"** - inson ma'lumotlarni qanchalik mazmunli bog'liqliklar orqali eslab qolishini (mantiqiy) va bog'liqliksiz elementlarni qanchalik darajada o'zlashtirishini (mexanik) aniqlash. (Fridman metodikasi);
- **"Ko'rish va eshitish xotirasini o'rganish"** - insonning ma'lumotni qabul qilish kanallariga ko'ra (ko'rish va eshitish) xotira samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Bu metodika orqali shaxsning qaysi turdagi xotirasi ustun ekanligi va ma'lumotni o'zlashtirish tezligi aniqlanadi. (R. Meyli metodikasi);
- **"Xotiraning individual xususiyatlarini aniqlash"** - xotirani shunchaki "yaxshi" yoki "yomon" deb emas, balki uning shaxsiy (individual) xususiyatlarini har tomonlama baholashga imkon beruvchi kompleks yondashuvdir. Bu metodika orqali insonning ma'lumotni qabul qilish, saqlash va qayta tiklashdagi o'ziga xos uslubi aniqlanadi. (L.V. Kulikov metodikasi);
- **"Ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolish samaradorligini o'rganish"** - psixologiyada ixtiyorsiz xotira (maqsad qo'yilmagan holda esda qolish) va

ixtiyoriy xotira (maxsus eslab qolish maqsadi bilan amalga oshirilgan jarayon) samaradorligini solishtirish uchun eng mashhur usullardan biri hisoblanadi. Asosiy g‘oya shundan iboratki, ixtiyorsiz esda qolish ma’lumot bilan qanday faoliyat bajarilganiga bevosita bog‘liq. (P.I. Zinchenko metodikasi);

- **“Ixtiyoriy diqqatning hajmi va barqarorligini aniqlash”** - (ko‘pincha korrektura sinovi deb ham ataladi) psixologiyada diqqatning hajmi, barqarorligi va ish qobiliyatining dinamikasini aniqlashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bu metodika asosan insonning monoton (bir xil) ishni bajarishdagi diqqat konsentratsiyasini o‘lchaydi. (Peron–Ruzer metodikasi).

Mazkur metodikalar tadqiqot maqsadiga muvofiq holda dastlab sinov tariqasida qo‘llanilib, ularning ishonchliligi va mavzuga mosligi baholandi. Natijada tadqiqot vazifalarini to‘liq yoritishga xizmat qiluvchi metodikalar majmuasi shakllantirildi.

Tadqiqot jarayoni uzluksiz va izchil tarzda tashkil etildi. Olingan empirik ma’lumotlar dastlab tavsifiy tahlil qilinib, so‘ngra foiz ko‘rsatkichlari asosida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Natijalar sinaluvchilarning yoshi, jinsi, ta’lim muassasasi, sinfi hamda aniq fanlardan sertifikatga egalik holati kesimida tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida olingan empirik natijalar dastlab sinaluvchilarning yosh va jins ko‘rsatkichlari kesimida tahlil qilindi. Ma’lumotlarga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan 119 nafar sinaluvchilarning asosiy qismini 16–17 yoshdagi o‘quvchilar tashkil etdi. Bu holat tanlangan namunaviy guruhning ilk o‘spirinlik davri psixologik xususiyatlariga mos ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yosh davri bilish jarayonlari, xususan, ixtiyoriy xotira va mantiqiy fikrlashning faol rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Sinaluvchilarning jinsiy tarkibi bo‘yicha natijalar yigitlar va qizlar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud emasligini ko‘rsatdi. Bu holat tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi, chunki psixologik tadqiqotlarda jinsiy nisbatning muvozanatli bo‘lishi qiyosiy tahlil uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim metodikalar bo‘yicha yigitlar va qizlar o‘rtasidagi farqlar keyingi tahlillarda aniqlashtirilishi mumkin. Tadqiqot obyektlarining ta’lim muassasalari kesimidagi tahlili umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘rtasida ma’lum farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida aniq fanlar bilan bog‘liq xotira ko‘rsatkichlari nisbatan yuqoriroq bo‘lishi kuzatildi. Buni mazkur ta’lim muassasalarida aniq fanlarga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati va muntazam mashg‘ulotlar bilan izohlash mumkin.

Sinaluvchilarning sinflar kesimidagi tahlili 10-sinf o‘quvchilari sonining ustunligini ko‘rsatdi. Bu holat metodologik jihatdan asosli bo‘lib, chunki 11-sinf o‘quvchilarida ilk o‘spirinlik davridan chiqish jarayoni boshlanadi va bu kognitiv jarayonlarga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli 10-sinf o‘quvchilarining ko‘pligi tadqiqot natijalarining yosh jihatidan barqarorligini ta’minlaydi. Aniq fanlardan sertifikatga ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan o‘quvchilar o‘rtasidagi tahlil sertifikatga ega sinaluvchilarda xotira ko‘rsatkichlarining nisbatan

yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat o‘quv faoliyatida motivatsiya va maqsadga yo‘naltirilganlikning xotira samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Mazkur natija L.V. Kulikov tomonidan ta’kidlangan individual va motivatsion omillarning xotira jarayonlariga ta’siri haqidagi qarashlar bilan mos keladi.

Xotira turlarining nisbiy ustunligi bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, sinaluvchilarda eng yuqori ko‘rsatkichlar ko‘rish xotirasi va ixtiyoriy esda olib qolish jarayonlariga to‘g‘ri keladi. Ko‘rish xotirasining yetakchi bo‘lishi aniq fanlarni o‘rganishda vizual materiallar (formulalar, grafiklar, sxemalar) muhim o‘rin egallashi bilan izohlanadi. Bu natijalar rivojlanish psixologiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda keltirilgan xulosalar bilan hamohangdir.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira o‘rtasidagi farqlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sinaluvchilarning aksariyatida ixtiyoriy esda olib qolish jarayoni ustunlik qiladi, ixtiyorsiz esda olib qolish esa juda past ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Ushbu holat P.I. Zinchenko tomonidan asoslab berilgan qarashlarni tasdiqlaydi, ya’ni o‘quv faoliyati sharoitida ongli va maqsadga yo‘naltirilgan esda olib qolish samaraliroq hisoblanadi. Shu bilan birga, mantiqiy xotira ko‘rsatkichlari ayrim sinaluvchilarda yuqori bo‘lishiga qaramay, umumiy ko‘rsatkichlar doirasida yetakchi o‘rinni egallamadi. Bu holat aniq fanlarni o‘rganishda mantiqiy xotirani yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Natijalar shuni anglatadiki, o‘quv jarayonida xotiraning barcha turlari o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi va ularning birortasini e’tibordan chetda qoldirish o‘quv samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, olingan empirik natijalar ilk o‘spirinlik davrida aniq fanlarni o‘rganish jarayonida ko‘rish xotirasi va ixtiyoriy esda olib qolish yetakchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu holat ta’lim jarayonini rejalashtirishda vizual materiallardan keng foydalanish hamda o‘quvchilarda ongli esda olib qolish ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligini asoslaydi. O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari ilk o‘spirinlik davrida aniq fanlarni o‘rganish jarayonida xotira jarayonlari muhim psixologik omil ekanligini tasdiqladi. Tadqiqotda ishtirok etgan 10–11-sinf o‘quvchilarida xotiraning turli turlari namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinib, ularning o‘quv faoliyatiga ta’siri empirik ma’lumotlar asosida yoritildi.

Olingan natijalarga ko‘ra, aniq fanlarni o‘zlashtirish jarayonida ko‘rish xotirasi hamda ixtiyoriy esda olib qolish jarayonlari nisbatan yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu holat o‘quv jarayonida vizual materiallar va ongli esda olib qolishga asoslangan ta’lim usullarining samaradorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ixtiyorsiz xotira ko‘rsatkichlarining pastligi ilk o‘spirinlik davrida maqsadga yo‘naltirilgan bilish faoliyati ustuvor ekanligini anglatadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, xotiraning individual xususiyatlari, ta’lim muassasasi turi va o‘quvchilarning aniq fanlardan erishgan yutuqlari o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu holat ta’lim jarayonini tashkil etishda individual yondashuv va motivatsion omillarni hisobga olish zarurligini asoslaydi. Mazkur tadqiqot natijalari psixologik-pedagogik amaliyotda, xususan, umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda aniq fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarda samarali xotira strategiyalarini shakllantirish hamda kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan metodik

tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda xotira jarayonlarining boshqa bilish jarayonlari (diqqat, tafakkur, motivatsiya) bilan o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» (2017).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PF-5847-son Farmoni.
3. Nishanova Z., Qarshiyeva D., Atabayeva N., Qurbonova Z. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. Darslik. Toshkent: 2015.
4. Куликов Л.В. Методология и методы психологического исследования. СПб.: Изд-во СПбГУ, 1999.
5. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер, 2012.
6. Плотникова В.Н. Особенности развития памяти в подростковом возрасте.Образовательный альманах, 2023.
7. Зинченко П.И.Теория памяти. М.: Педагогика, 2009.
8. Baddeley A. Working Memory, Thought and Action. Oxford: Oxford University Press, 2007.
9. Karakashev A., Ismoilova M. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent: Universitet, 2020.
10. Eysenck M.W., Keane M.T. Cognitive Psychology: A Student’s Handbook. New York: Psychology Press, 2015.
11. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
12. Anderson J.R. Cognitive Psychology and Its Implications. New York: Worth Publishers, 2014.

UDK 159.9.072.5:159.923

Косимова Феруzахон,
исследователь кафедры психологии и педагогики Андижанского государственного университета

МЕТОДЫ АДАПТАЦИИ МЕТОДИКИ ЦЕННОСТЕЙ Ш.ШВАРЦА

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема адаптации методики Ш. Шварца множественной идентификации. Методика Шварца для изучения ценностей личности может быть адаптирована на узбекский язык. Она характеризуется достаточными для использования психометрическими показателями валидности, надежности и достоверности.

Ценностная структура и характер ценностных предпочтений имеет культурную специфику, а потому отличается в различных из трех групп респондентов, а также имеет гендерную специфику.

Различия в ценностных структурах и их характерах обусловлена культурными особенностями среды респондента - различия между говорящими на узбекском язқке и билингвами связаны с более традиционными взглядами первых).

Ключевые слова: молодежь, ценности, ценностные и гендерные особенности, адаптация методики Шварца, этнические ценности, узбеки.

SH.SHVARTSNING QADRIYATLAR METODIKASINI MOSLASHTIRISH METODI

Annotatsiya. Ushbu maqola Shalom Shvartsning ko‘p tomonlama identifikatsiya metodikasini moslashtirishga bag‘ishlangan. Shvartsning shaxsiy qadriyatlarni o‘rganish metodikasi o‘zbek tiliga moslashtirilishi mumkin. U amaliy foydalanish uchun yetarli darajadagi psixometrik ko‘rsatkichlar — ya’ni ishonchlilik, haqiqiylik (validlik) va aniqlik bilan tavsiflanadi.

Qadriyatlar tuzilmasi va qadriyatlar ustuvorligining tabiati madaniy xususiyatlarga ega bo‘lib, bu esa respondentlarning uch guruhida ham, shuningdek, jinsga ko‘ra ham farqlanadi.

Qadriyatlar tuzilmasidagi va ularning xarakteridagi tafovutlar respondentlarning madaniy muhitiga bog‘liqdir — masalan, o‘zbek tilida so‘zlashuvchi ishtirokchilar va ikki tillilar o‘rtasidagi farqlar birinchilarning an’anaviyroq dunyoqarashga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, qadriyatlar, qadriyat va gender xususiyatlari, Shvarts metodikasini moslashtirish, etnik qadriyatlar, o‘zbeklar.

METHODS OF ADAPTING SHALOM SCHWARTZ’S VALUE METHODOLOGY

Abstract. This article is devoted to the adaptation of Shalom Schwartz's methodology of multiple identification. Schwartz's method for studying personal values can be adapted into the Uzbek language. It is characterized by sufficient psychometric indicators of validity, reliability, and accuracy for practical use.

The structure of values and the nature of value preferences have a cultural specificity; therefore, they differ among the three groups of respondents, as well as by gender.

Differences in value structures and their characteristics are determined by the cultural environment of the respondents — for instance, distinctions between Uzbek-speaking participants and bilinguals are associated with the more traditional worldview of the former.

Keywords: youth, values, value and gender characteristics, adaptation of Schwartz's methodology, ethnic values, Uzbeks.

Как известно, в анализе ценностей и внедрении в сознание молодежи национальных ценностей наряду со многими методами использованными узбекскими учеными [2;3;4.], важное значение имеет использование методики ценностей известного ученого в области психологии Шалома Шварца [1;5.].

На основе изучение методики Шалома Шварца попытались адаптировать ценностный опросник Ш. Шварца на узбекский язык с использованием психосемантического подхода. На основе данной адаптации было проведено сравнительный анализ ценностной иерархии у жителей Узбекистана: узбеков, говорящих только на узбекском языке, узбеков-билингвов, говорящих на узбекском и русском языке и русских, говорящих только на русском языке.

Как было сказано выше, теоретическим объектом исследования является методика Шварца, а эмпирическим объектом стали ценностные структуры респондентов, представляющих следующие субэтнические группы, которые отличаются в своей ценностной ориентации:

узбеки, говорящие только на узбекском языке;
узбеки, говорящие на узбекском и русском языке и
европейцы (русские, татары).

В качестве респондентов выступили студенты высших учебных заведений Республики Узбекистан (гг. Ташкент, Андижан, Наманган). Всего было 188 респондентов из них 30 европейцев (русские и татары), 76 – европеизированных узбеков, говорящих на узбекском и русском языках и 82 – традиционных узбеков, говорящих только на узбекском языке. Критерием знания русского языка явилось окончание учебного заведения (школы, колледжа или лицея) в группе с преподаванием всех предметов на русском языке.

Опросники были даны респондентам в распечатанном виде в учебных заведениях. Процедура проводилась в присутствии исследователя, поэтому при всех возникающих вопросах респонденты сразу получали соответствующий ответ.

Нами были сформулированы следующие задачи:

выполнить прямой и обратный перевод методики Ш.Шварца с русского на узбекский язык, с последующим сравнением вопросов методики в первоначальном варианте на русском языке и после вторичного перевода вопросов с узбекского языка на русский;

провести сбор данных по психосемантической методике множественной идентификации с использованием пунктов методики Шварца в качестве дескрипторов;

проверить надежность-согласованность и валидность методики на разных подвыборках.

Далее было необходимо выявить структуру и характер ценностных предпочтений:

- узбеков (только узбекоговорящих);
- узбеков (билингвов);
- этнических русских, проживающих в Ташкенте.

-сравнить результаты, полученные на выборках только узбекоговорящих и билингвов с учетом гендерного влияния;

-сравнить результаты, полученные на выборках только билингвов и русскоговорящих с учетом гендерного влияния.

Для проведения исследования нами был использован ценностный опросник методики Ш. Шварца на узбекском и русском языках:

Методика Ш. Шварца (Ценностный опросник Шварца в адаптации Ш. Шварца. Опросник на выявление ценностных ориентаций Ш. Шварца содержит 19 ценностей (табл. 1).

Респондентов просили оценить утверждения, соответствующие 19 ценностям применительно к 16 ролевым позициям: для меня лично; для моего идеала, для меня через 10 лет, для моей матери, для моего отца, для успешного бизнесмена, для успешной бизнесвумен, для домохозяйки, которая сама выбрала быть ей, для домохозяйки, которая вынуждена быть ей, для закоренелого холостяка, для женщины решившей не выходить замуж, для женщины, сделавшей профессиональную карьеру; для мужчины, отказавшегося от профессиональной карьеры ради семьи, для женщины с неудачной судьбой, для мужчины с неудачной судьбой. Предполагается, что каждая роль связана с определенным набором ценностей, именно эти роли должны получить максимальные баллы по соответствующим им ценностям. (см.табл 2). С помощью подобной оценки ценностей мы сможем избежать социально-желательных ответов, так как, ответы не только про себя, но и про других людей, дают возможность респонденту отвечать более искренне.

Для адаптации методики первоначальный перевод на узбекский язык, был уточнен с помощью обратного перевода на русский язык. Прямой и обратные переводы выполнялись разными людьми свободно владеющими обоими языками. Обратный перевод был корректирован и сопоставлялся с оригиналом. Далее проводилось кросс-культурное исследование на основе узбекского варианта методики ценностных ориентаций Ш. Шварца.

Математическая обработка результатов производилась с помощью таблиц Excell и статистического пакета SPSS. Далее предлагаем последовательно ознакомиться с каждым этапом обработки полученных данных. В первую очередь нам необходимо проверить шкалы на надежность с помощью коэффициента альфа-Кронбаха. Ниже представлена таблица 1 надежности шкал по 19 шкалам.

Таблица 1.

Коэффициент надежности альфа – Кронбаха по 19 шкалам.

Шкала	Говорящие на двух языках	Только узбеко говорящие	Только русско говорящие
Самостоятельность - Мысли	0,46	0,3	0,72
Самостоятельность - Поступки	0,6	0,62	0,8
Стимуляция	0,46	0,4	0,63
Гедонизм	0,46	0,4	0,63
Достижения	0,59	0,43	0,71
Власть - Ресурсы	0,55	0,45	0,64
Власть - Доминирование	0,52	0,44	0,71
Репутация	0,63	0,52	0,67
Безопасность - общественная	0,55	0,6	0,64
Безопасность - личная	0,36	0,53	0,63
Конформизм - правила	0,53	0,65	0,73
Конформизм - межличностный	0,5	0,58	0,71
Традиции	0,61	0,61	0,74
Скромность	0,39	0,42	0,52
Благожелательность - Чувство долга	0,61	0,59	0,75
Благожелательность - Забота	0,63	0,62	0,78
Универсализм - Забота о других	0,38	0,46	0,7
Универсализм - Забота о природе	0,66	0,56	0,77
Универсализм - Толерантность	0,52	0,48	0,75

Из таблицы видно, что коэффициент альфа-Кронбаха высокий по всем шкалам в группе только русскоговорящих (русских и татар), что позволяет нам судить о надежности всех шкал. У билингвов и только узбекоговорящих в ряде случаев согласованность пунктов ниже удовлетворительной. Сюда относятся: шкала Самостоятельность - Мысли, Стимуляция, Гедонизм, Универсализм -

Забота о других. Особо важными для нас являются коэффициент надежность шкал в группе традиционных узбеков. Здесь несогласованность имеет место в шкалах Достижения, Власть – Ресурсы, Власть – Доминирование. В таблице 6 приложений приведены показатели согласованности по пунктам, входящим в каждую из ненадежных шкал.

Далее мы решили укрупнить наши шкалы и посмотреть надежность шкал по 12 ценностям. Данные представлены в таблице 2.

Таблица 2.

Коэффициент надежности альфа – Кронбаха по 12 шкалам.

№	Шкала	Говорящие на двух языках	Говорящие только на узбекском	Говорящие только на русском
1	Самостоятельность мысли	0,68	0,65	0,86
2	Стимуляция	0,46	0,4	0,63
3	Гедонизм	0,46	0,4	0,63
4	Достижения	0,59	0,43	0,71
5	Власть	0,67	0,62	0,79
6	Репутация	0,63	0,52	0,67
7	Безопасность	0,64	0,73	0,78
8	Традиции	0,61	0,61	0,74
9	Конформизм	0,67	0,73	0,83
10	Скромность	0,39	0,42	0,52
11	Универсализм	0,74	0,75	0,88
12	Благожелательность	0,75	0,75	0,84

Укрупнение ценностных конструктов привело к повышению согласованности пунктов.

Далее мы укрупнили конструкты до уровня мега ценностей. Данные показаны на таблице 3.

Таблица 3.

Коэффициент надежности альфа – Кронбаха по 4 мета ценностям.

№	Шкалы	Говорящие на двух языках	Говорящие только на узбекском	Говорящие только на русском
1	Открытость изменениям	0,79	0,77	0,87
2	Самоуважение	0,79	0,76	0,86
3	Консерватизм	0,81	0,86	0,88
4	Самопреодоление	0,85	0,86	0,91

Как уже было упомянуто в теоретическом анализе, в своей концепции Ш. Шварц подчеркнул, что объединение шкал на более высокие уровни, приводит к улучшению надежности [5].

За последние годы было опубликовано много работ посвященных ценностным ориентациям, но исследования Ш. Шварца выделились своей широко масштабностью и имеют популярность во многих странах мира. Ш. Шварц развил новый теоретический и методологический подход к изучению ценностей, который позволяет исследовать ценностные ориентации не только индивидов, но и различных культур. Данная методика универсальна тем, что ее можно применять в кросс-культурных исследованиях, она основана на концепции, которая охватывает ценности разных культур мира. Теперь она дает возможность и нам изучать ценностные ориентации этнических узбеков и сопоставлять их с ценностями других культур.

Проблема валидизации опросника является непростой и достаточно уязвимой задачей для исследователей. Существует несколько видов валидности, а выбор и обоснование зависят от целей исследователя;

В нашем исследовании мы использовали психосемантический метод множественных идентификаций:

- направленный на изучение общественного сознания, а именно стереотипов, автостереотипов, связанных с ними социальных установок, социальных представлений;

- способствующий изучению системы значений, описывающих содержательную структуру ценностей, которые управляют поведением человека;

полученные данные методом множественных идентификаций являются надежными и достоверными, т.к. защищены от сознательных и неосознанных искажений.

Список литературы:

1. Карандашов В.Н. Методика Шварца для изучения ценностей личности Концепция и методическое руководство. Речь. СПб, 2004.

2. Бегматов А. Инновацион онг: моҳияти, функциялари ва шаклланиш шартлари. – Тошкент: 2016.

3. Мадаева Ш. Миллий менталитет ва демократик тафаккур : (XX аср сабоқлари ва XXИ аср истиқболлари): монография / Ўзбекистон Респ. ФА И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий ун-ти, Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти нашриёти, 2007.

4. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. II. А-О. Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти". Маънавият" нашриёти, 2019.- Б.353.

5. Шварц Ш., Бутенко Т.П., Седова Д.С., Липатова А.С. Уточненная теория базовых индивидуальных ценностей: применение в России // Психология. Журнал ВШЭ. 2012. Т.9, №1. -С. 43-70.

UDK159.922.2:378

Shakarova Nafosat Shavkatovna,
International School of Finance Technology and Science
instituti mustaqil tadqiqotchisi

TALABALARNING OLIY TA'LIM MUASSASASIGA MOSLASHUVI VA XAVOTIRLANISH DARAJALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning oliy ta'lim muassasasiga moslashuvi va ularning xavotirlanish darajalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Moslashuv fenomeni shaxsning ijtimoiy, psixologik va psixofiziologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon sifatida yoritilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning nazariy qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, interkultural moslashuv, akulturatsiya jarayonlari, xavotir va noaniqlikni boshqarish mexanizmlarining talabalarning psixologik farovonligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari talabalarning moslashuv darajasi oshishi bilan xavotirlanish darajasi pasayishini ko'rsatadi hamda oliy ta'lim muassasalarida psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: talabalar moslashuvi, ijtimoiy moslashuv, xavotirlanish, akulturatsiya, stress, psixologik farovonlik.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ АДАПТАЦИЕЙ СТУДЕНТОВ К ВЫСШЕМУ УЧЕБНОМУ ЗАВЕДЕНИЮ И УРОВНЕМ ИХ ТРЕВОЖНОСТИ

Аннотация. В данной статье комплексно анализируется вопрос взаимосвязи между адаптацией студентов к высшему учебному заведению и уровнем их тревожности. Феномен адаптации освещается как процесс, связанный с социальными, психологическими и психофизиологическими особенностями личности, а также анализируются теоретические взгляды зарубежных и отечественных исследователей. В частности, рассматривается влияние процессов интеркультурной адаптации, аккультурации, механизмов управления тревогой и неопределенностью на психологическое благополучие студентов. Результаты исследования показывают, что с повышением уровня адаптации студентов уровень их тревожности снижается, что обосновывает необходимость совершенствования системы психологической поддержки в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: адаптация студентов, социальная адаптация, тревожность, аккультурация, стресс, психологическое благополучие.

THE CORRELATION BETWEEN STUDENTS' ADAPTATION TO HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND THEIR ANXIETY LEVELS

Abstract. This article examines the relationship between university students' adaptation to higher education institutions and their levels of anxiety. Adaptation is analyzed as a complex socio-psychological and psychophysiological process that reflects the interaction between the individual and the educational environment. The study reviews both domestic and international theoretical approaches to student adaptation, intercultural adjustment, acculturation stress, and anxiety management. Particular attention is paid to the role of social support, institutional environment, and psychological resources in facilitating successful adaptation. The findings indicate that higher levels of adaptation are associated with lower levels of anxiety, highlighting the importance of developing effective psychological support programs within higher education institutions.

Keywords: student adaptation, social adaptation, anxiety, acculturation, stress, psychological well-being.

Hozirgi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan global jamiyatda oliy ta’lim tizimi shaxsning nafaqat professional kadr sifatida shakllanishida, balki uning ijtimoiy-madaniy qiyofasini belgilab beruvchi strategik ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim jarayonining sifat jihatdan murakkablashuvi, ta’lim platformalarining raqamlashishi va axborot oqimlarining eksponensial ravishda ortishi talabalardan nafaqat kognitiv qobiliyatlarni, balki yuqori darajadagi psixologik resilientlik (bardoshlilik) va moslashuvchanlikni talab etmoqda.

Oliy ta’lim muassasasiga qabul qilinish yoshlar hayotida tub burilish davri hisoblanadi. Bu davrda subyekt hayotida ijtimoiy maqomning o‘zgarishi, yangi ijtimoiy rollarning (talaba, tadqiqotchi, jamoa a’zosi) yuklanishi va mas’uliyat chegaralarining kengayishi kuzatiladi. Ushbu o‘tish davri ko‘pincha "ijtimoiy shok" effektini yuzaga keltirib, talabalarda psixologik zo‘riqish, emotsional diskomfort, stress va surunkali xavotirlanish darajasining ortishiga sabab bo‘ladi [1,3]. Ayniqsa, birinchi kurs talabalari uchun maktabdagi nazorat tizimidan akademik erkinlik (avtonomiya) muhitiga o‘tish ko‘p hollarda o‘z-o‘zini tashkil etishda muammolarni keltirib chiqaradi.

Talabalarning oliy ta’lim muassasasiga moslashuvi muammosi zamonaviy psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari kesishmasida turuvchi multidistsiplinar ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda. Moslashuv jarayoni shunchaki yangi muhitga ko‘nikish emas, balki talabaning:

1. **Akademik faoliyatga:** O‘quv yuklamalari, mustaqil ta’lim va ilmiy izlanishga tayyorligi;
2. **Ijtimoiy-psixologik munosabatlarga:** Tengdoshlar, professor-o‘qituvchilar va ma’muriyat bilan samarali kommunikatsiyaga kirishishi;
3. **Kasbiy identifikatsiyaga:** Tanlagan mutaxassisligiga bo‘lgan subyektiv munosabati va motivatsiyasining shakllanishini belgilaydi.

Ushbu jarayonning muvaffaqiyati talabaning akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, uning intellektual salohiyati va oliy ta’lim muassasasidagi mikrosotsium bilan uyg‘unlashuv darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir [2,3]. Agar moslashuv jarayoni samarali kechmasa, bu “akademik dezadaptatsiya”ga, ya’ni o‘qishga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishi, dars qoldirish va natijada oliy ta’limni tark

etish xavfiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun talabalarning psixologik farovonligini monitoring qilish va ularga tizimli pedagogik yordam ko‘rsatish oliy ta’lim tizimidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda moslashuv shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning faol jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda shaxs nafaqat tashqi sharoitlarga moslashadi, balki o‘zining ichki resurslarini safarbar etadi, hayotiy strategiyalarini qayta ko‘rib chiqadi hamda yangi ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasasiga yangi qabul qilingan talabalar uchun moslashuv jarayoni murakkab bo‘lib, ular o‘quv yuklamasining ortishi, mustaqil ta’lim elementlarining kuchayishi va yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirish bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch keladilar [2,7].

Talabalarda moslashuv jarayonida xavotirlanish holatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xavotirlanish talabaning noaniq vaziyatlarga bo‘lgan subyektiv munosabati bo‘lib, u o‘quv jarayonining samaradorligiga, diqqat va xotira jarayonlariga hamda shaxslararo munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moslashuv darajasi past bo‘lgan talabalarda xavotirlanish ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ladi, bu esa ularning akademik muvaffaqiyatsizligi va psixologik noqulaylik holatlariga olib kelishi mumkin[5,6].

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talabalar moslashuvini ta’minlash masalasi ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash va talabalarning psixologik salomatligini saqlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, talabalarning moslashuvi va xavotirlanish darajalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish oliy ta’lim muassasalarida samarali psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega[1,3].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u talabalarning moslashuv jarayonini shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ta’lim muhitining o‘ziga xosligi hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash omillari bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida moslashuv jarayonini optimallashtirish va talabalarda xavotirlanish darajasini kamaytirishga qaratilgan psixologik profilaktika va korreksion dasturlarni ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin[2,7].

Hozirgi global jamiyatda oliy ta’lim tizimining xalqaro integratsiyasi, akademik mobillikning ortishi va migratsiya jarayonlarining kuchayishi talabalarning yangi ijtimoiy va madaniy muhitga moslashuvi muammosini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shaxsning oliy ta’lim muassasasiga kirishi uning hayotida yangi ijtimoiy rol, mas’uliyat va talablarni yuzaga keltiradi. Bu jarayon ko‘pincha psixologik zo‘riqish, stress va xavotirlanish holatlari bilan kichadi[4,5].

Zamonaviy fan va amaliyotda talabalarning moslashuvi raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, kasbiy shakllanish va ijtimoiylashuv jarayonlarining muhim omili sifatida qaraladi. Oliy ta’lim muassasasida moslashuvning muvaffaqiyati talabalarning kasbiy rivoji, yangi ijtimoiy vaziyatga kirishishi va psixologik barqarorligi bilan bevosita bog‘liqdir[3,7].

Shaxsning moslashuvi muammosi psixologiya fanida keng o‘rganilgan. Moslashuvning umumiy qonuniyatlari va fiziologik mexanizmlari M.O. Agadzhanyan, A.A. Nalchadzhyan, O.O. Rean, A.I. Clinciu, R. Dyson, C.L. Park, James D.A. Parker kabi olimlar ishlarida yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda moslashuv shaxs va muhit o‘rtasidagi murakkab, dinamik jarayon sifatida talqin qilinadi[1,2,3,4].

Talabalar va yosh mutaxassislarning moslashuv jarayonlari T.V. Alekseeva, O.M. Galus, V.D. Ostrova, V.A. Semichenko, S.V. Xarchenko va boshqalar shaxs tomonidan o‘rganilgan. Ular moslashuvni shaxsning ijtimoiy faoliyatining muhim shakli sifatida izohlaydilar. Ijtimoiy-psixologik moslashuv muammolari va moslashuvchan xususiyatlarini rivojlantirish masalalari B.G. Ananyev, F.B. Berezin va A.V. Furman ishlarida chuqur tahlil qilingan[5,6,7].

Xorijiy psixologik va sotsiologik tadqiqotlarda interkultural moslashuv hamda akulturatsiya jarayonlariga fundamental hodisa sifatida alohida e’tibor qaratiladi. Zamonaviy dunyoda ta’lim migratsiyasining kuchayishi talabalarning nafaqat akademik muhitga, balki mutlaqo yangi madaniy-qadriyatli tizimga kirib borishini taqozo etmoqda.

Kanadalik psixolog Jon Berri tomonidan taqdim etilgan klassik ta’rifga ko‘ra, akulturatsiya – bu ikki yoki undan ortiq mustaqil madaniy guruhlar va ularning vakillari o‘rtasidagi davomiy, bevosita aloqa natijasida yuzaga keladigan madaniy va psixologik o‘zgarishlarning murakkab, ikki tomonlama jarayonidir. Berrining akulturatsiya modelida shaxsning yangi muhitda o‘zini tutishi to‘rtta asosiy strategiya orqali namoyon bo‘ladi: integratsiya, assimilatsiya, separatsiya va marginalizatsiya. Ushbu strategiyalar talabaning ruhiy salomatligi va moslashuv muvaffaqiyatini belgilab beruvchi hal qiluvchi omillardir.

Ushbu jarayon ko‘pincha “akulturatsiya stressi” deb ataluvchi holat bilan kechadi. Bu stress o‘z ichiga psixomatik simptomlar, chuqur xavotir, depressiv kayfiyat va kelajakka nisbatan noaniqlik hissini oladi. Talaba o‘zining eski madaniy me’yorlari va yangi muhit talablari o‘rtasidagi to‘qnashuvda “madaniy shok” bosqichlarini bosib o‘tadi.

Uilyam Gudykunst tomonidan ishlab chiqilgan “Xavotir va noaniqlikni boshqarish” nazariyasi yangi madaniy muhitga moslashishda shaxsning psixologik barqarorligini ta’minlash mexanizmlarini tushuntirib beradi. Gudykunstga ko‘ra, samarali muloqot va moslashuvning asosi – bu “noaniqlik” (kognitiv jihat, ya’ni boshqalarning xatti-harakatini prognoz qila olmaslik) va xavotirni (emotsional jihat, ya’ni noqulaylik va xavf hissi) optimal darajada boshqarishdir. Agar xavotir juda yuqori bo‘lsa, shaxs muloqotdan qochadi; agar juda past bo‘lsa, u yangi muhitga qiziqish bildirmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ushbu psixologik to‘siqlarni yengishda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari (oila, do‘stlar, mentorlar va universitet jamoasi) strategik ahamiyatga ega. Samarali muloqot ko‘nikmalarining shakllanganligi talabaga yangi ijtimoiy kapital to‘plash imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida xavotirlanish darajasini pasaytirib, subyektiv farovonlik hissini oshiradi.

Demak, moslashuv – bu shunchaki tashqi muhitga bo‘ysunish emas, balki shaxsning o‘z “men”ini saqlagan holda yangi madaniy makonda o‘z o‘rnini topish jarayonidir.

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili, solishtirma va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari umumlashtirilib, talabalarning moslashuvi va xavotirlanish darajalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik konseptual jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning moslashuv jarayoni ko‘p omilli bo‘lib, ularning psixologik holatiga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasiga, oliy ta’lim muassasasi va fakultet haqidagi tasavvurlariga bog‘liqdir. Oliy ta’lim muassasasi obrazi talabalarning kasbiy tanlovi va moslashuv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

AQShning Stanford universitetida olib borilgan tadqiqotlar stress va moslashuvchanlik o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Xavotirli muhitda bo‘lgan talabalar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik treninglar va yangi talabalar uchun mo‘ljallangan maxsus moslashuv dasturlari stressni kamaytirib, moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

O‘tkazilgan nazariy tahlillar va ilmiy manbalarni umumlashtirish natijasida talabalarning oliy ta’lim muassasasiga moslashuvi murakkab, ko‘p darajali va dinamik jarayon ekanligi aniqlandi. Ushbu jarayon shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit, ta’lim jarayonining tashkil etilishi hamda oliy ta’lim muassasasining ijtimoiy-psixologik iqlimi bilan uzviy bog‘liq holda kechadi. Moslashuv nafaqat tashqi sharoitlarga mos kelish, balki talabaning o‘z ichki resurslarini faollashtirishi, yangi talablar va vaziyatlarga faol munosabat bildira olishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning moslashuv darajasi ularning xavotirlanish holati bilan bevosita bog‘liqdir. Moslashuv darajasi past bo‘lgan talabalarda xavotirlanish ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lib, bu holat ularning akademik faoliyati, shaxslararo munosabatlari va umumiy psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, oliy ta’lim muassasasiga muvaffaqiyatli moslashgan talabalar stressli vaziyatlarga nisbatan barqarorroq munosabat bildiradilar va emotsional jihatdan muvozanatliroq bo‘ladilar.

Shuningdek, moslashuv jarayonida oliy ta’lim muassasasi va fakultet obrazining shakllanishi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Talabalarda ta’lim muassasasi haqidagi ijobiy va realistik tasavvurlarning shakllanishi ularning moslashuvini yengillashtiradi hamda xavotirlanish darajasini pasaytiradi. Aksincha, oldindan shakllangan ideal tasavvurlar bilan real sharoitlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik talabalarda psixologik zo‘riqish va qoniqmaslik holatlarini kuchaytirishi mumkin.

Xorijiy tadqiqotlar tahlili interkultural va ijtimoiy moslashuv jarayonlarida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini tasdiqlaydi. Talabalarning oila a’zolari, kursdoshlar, do‘stlar va professor-o‘qituvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ularning xavotir va stress darajasini sezilarli darajada kamaytiradi hamda moslashuv jarayonining samaradorligini oshiradi. Maxsus moslashuv dasturlari, psixologik

treninglar va konsultativ yordam talabalarning moslashuvchanlik darajasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, talabalarning oliy ta'lim muassasasiga moslashuvi va xavotirlanish darajalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Olingan xulosalar asosida talabalarning moslashuv jarayonini erta bosqichda diagnostika qilish, xavf guruhidagi talabalarni aniqlash hamda ularga yo'naltirilgan psixologik profilaktika va korreksion tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv talabalarning akademik muvaffaqiyati, psixologik farovonligi va kasbiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Агаджанян М.О. Адаптация человека: физиологические и психологические аспекты. – М.: Медицина, 2001. – 240 с.

2. Налчаджян А.А. Социально-психологическая адаптация личности. – СПб.: Питер, 2005. – 288 с.

3. Реан А.А. Психология личности. Адаптация, социализация, развитие. – СПб.: Прайм-Еврознак, 2013. – 416 с.

4. Клинчиу А.И. (Clinciu A.I.) Adaptation and stress in academic environment. – Procedia Social and Behavioral Sciences, 2013. – Vol. 78. – P. 718–722.

5. Berezin F.B. Mental adaptation and anxiety. – New York: Plenum Press, 1988. – 310 p.

6. Ananyev B.G. Man as a subject of cognition. – Moscow: Progress, 1977. – 380 p.

7. Alekseeva T.V. Psychological adaptation of students in higher education. – Moscow: Akademiya, 2010. – 256 p.

8. Semichenko V.A. Psychology of professional development. – Kyiv: Lybid, 2004. – 312 p.

9. Berry J.W. Immigration, acculturation, and adaptation. – Applied Psychology, 1997. – Vol. 46(1). – P. 5–34.

10. Gudykunst W.B. Anxiety/Uncertainty Management (AUM) Theory. – International Journal of Intercultural Relations, 2005. – Vol. 29. – P. 281–316.

11. Parker J.D.A., Endler N.S. Coping with coping assessment: A critical review. – European Journal of Personality, 1992. – Vol. 6. – P. 321–344.

12. Dyson R., Renk K. Freshmen adaptation to university life. – Journal of Clinical Psychology, 2006. – Vol. 62(10). – P. 1231–1244.

UDK 316.6

Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi,
International school of finance technology and science institute
mustaqil tadqiqotchisi

MUVAFFAQIYATLI KARYERA QILISHDA MOTIVATSIYA VA IJTIMOIY OMILLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy karyera borasidagi psixologik nazariyalar tahlil qilingan bo‘lib, xorij olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar keng yoritilgan. Umuman olganda karyera rivojlanishi va unig shaxs hayotidagi ahamiyati o‘rganildi. Bundan tashqari shaxsning kasb tanlashi, kasbda rivojlanishi va shu kasbda qolishi bilan bog‘liq bir qator omillar ko‘rib chiqildi. Ko‘plab olimlarning fikrlari taqqoslanib umumim xulosa va tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: Kasb, karyera, shaxs, jamiyat, individ, motiv, motivatsiya, ehtiyoj, rag‘bat, rivojlanish.

ЗНАЧЕНИЕ МОТИВАЦИИ И СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ В ПОСТРОЕНИИ УСПЕШНОЙ КАРЬЕРЫ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические теории профессиональной карьеры и широко освещаются исследования, проведенные зарубежными учеными. В целом было изучено развитие карьеры и ее значение в жизни человека. Кроме того, был рассмотрен ряд факторов, связанных с выбором профессии, профессиональным развитием и пребыванием в этой профессии. Были сопоставлены мнения многих ученых, и были сделаны общие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: Профессия, карьера, личность, общество, индивид, мотив, мотивация, потребность, стимул, развитие.

THE IMPORTANCE OF MOTIVATION AND SOCIAL FACTORS IN ACHIEVING A SUCCESSFUL CAREER

Abstract. This article analyzes psychological theories regarding professional careers and extensively covers research conducted by foreign scholars. In general, career development and its significance in a person's life were studied. In addition, a number of factors related to a person's choice of profession, professional development, and retention in this profession were considered. The opinions of many scientists were compared, and general conclusions and recommendations were given.

Keywords: Profession, career, personality, society, individual, motive, motivation, need, incentive, development.

Odamlar har doim aniq bir narsa uchun ishlaydilar.Kimdir o‘z moddiy ahvolini yaxshilashga umid qiladi, kimdir shuhratga, kimdir hokimiyatga, kimdir esa muloqotga intiladi. Ba’zilari esa haqiqatdan ham esa o‘z ishini yaxshi ko‘radi. Insonni faol faoliyatga undovchi holatlar motivlar deb ataladi. ularning harakati esa motivatsiyadir.

Inson ijtimoiy faolligini shakllantirishning asosiy omili mehnatdir Shuning uchun jamiyat taraqqiyotining, shu jumladan rivojlanishining manbai ijtimoiy faollik, insonning mehnat faoliyati motivatsiyasi muhim hisoblanadi. Vaholanki, mehnat motivatsiyasi har qanday iqtisodiy tizimda xodimlarning xarakteri va sezilarli darajada jamiyat farovonligi darajsini oldindan belgilaydi.

Mehnat motivatsiyasi - bu insonni faoliyatga undaydigan, chegaralaydigan ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar yig‘indisidir. U faoliyat shakllariga ega bo‘lib, bu faoliyatga ma’lum maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan yo‘nalish beradi [3, 64-b.]. Demak, mehnat motivatsiyasi deganda, xodimning mehnat faoliyati orqali o‘z ehtiyojlarini qondirishga intilishi tushuniladi.

Mehnat motivatsiyasi, mehnatni rag‘batlantirish va mehnatdan qoniqish hosil qilishning o‘zaro bog‘liqligi, jalb qilish, rag‘batlantirish va ishchi kuchini korxonada saqlab qolishda alohida rol o‘ynaydi. Mehnatga haq to‘lash va rag‘batlantirishning samarali tizimi xodimlarning mehnat unumdorligini oshiradi, ularning faoliyatini korxona manfaatlariga yo‘naltiradi, bu esa inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Inson mehnat faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan maqsadlari bilan belgilanadi, ularning asosida subyektlarning ehtiyojlari, motivlari, manfaatlari, qadriyatlari va rag‘batlari yotadi.

Kasbiy karyera nafaqat individual ijtimoiy rivojlanish mexanizmi hisoblanadi. Avvalo, karyera- bu jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishini tartibga soluvchi chuqur ommaviy ijtimoiy jarayondir. Qanday shaxslar va ijtimoiy guruhlar, qanday kasbiy sifatlar, xulq-atvor modellari, ustanovkalar, qadriyatlar va motiv egalari xizmat pillapoyalaridan boshqalarga nisbatan tezroq ko‘tarilishiga qarab, ijtimoiy stratifikatsiyaning u yoki bu tizimi shakllanadi. Shunday qilib, korxonalar, firmalar va tashkilotlarda muvaffaqiyatli professionallar guruhini takror ishlab chiqarishning barqaror mantig‘i o‘rnatiladi, bu esa o‘z navbatida milliy biznesning, qolaversa, butun jamiyatning rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Motivatsiya muammolari xorij olimlaridan A.G.Asmolov, V.G. Aseev, Dj. Atkinson, A.B. Bakuradze, L.I. Bojovich, O.S. Vixanskiy, N.P. Derzkova, B.V. Zeygarnik, A.N. Leontev, V.N. Myasishev, A. Maslou, X. Xekxauzen, K.M. Ushakov, V. A. Yadov va boshqalar.

Y. P. Ilin, V. D. Shadrikov tomonidan kasbiy kareraning psixologik tarkibiy qismlari sifatida shaxsni rag‘batlantiruvchi motivlar tizimi ajratib ko‘rsatiladi. Karyera motivlari boshqa har qanday motivlar kabi har bir insonda turlicha bo‘ladi.

Subyekti o‘z mehnatining natijalaridan manfaatdor bo‘lmagan samarali faoliyatni tasavvur qilish qiyin. Shu bilan birga, qiziqish ko‘pincha nisbatan ko‘proq motivatsiyaga ega subyektning kasbiy samaradorligi bo‘yicha boshqa ko‘proq qobiliyatli, ammo nisbatan kamroq motivatsiyaga ega bo‘lgan hamkasblardan ustun

bo‘lishiga olib keladi. Shaxsning faolligi uning motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi va professional faoliyat motivlari kasbiy samaradorlik tuzilmasida muhim determinant hisoblanadi.

Bu sohada olib borilgan psixologik tadqiqotlar juda xilma-xil. U yoki bu motivatsion xususiyatlarning karyera jarayonlari bilan bog‘liqligi bo‘yicha mahalliy va xorijiy nazariyalar tahlilini keltiramiz.

MakKlelland eng muhim motivlardan biri sifatida yutuq motivini, uning yuqori darajasini ta’minlovchi shart-sharoitlar sifatida esa qandaydir ish uchun shaxsiy mas’uliyat, bajarilayotgan topshiriq natijalari to‘g‘risida teskari aloqaning mavjudligi va murakkab, ammo erishish mumkin bo‘lgan maqsadning mavjudligini ta’kidlaydi. Turli xodimlar uchun muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi turli sohalarda, masalan, moliya sohasida amalga oshirilishi mumkin [11]. MakKlelland fikriga ko‘ra, hokimiyat motivatsiyasi yutuq motivatsiyasiga yaqin turadi, shuningdek, karyera qurishda affilyatsiya (tegishlilik) motivi ham muhim bo‘lishi mumkin [15]. Erishish motivatsiyasining ijobiy karyera dinamikasi bilan ijobiy bog‘liqligi ko‘plab tadqiqotlarda ko‘rsatilgan [1].

Malinin va A.Maslou tashkilot xodimining ehtiyojlar piramidasi modelini taklif qiladilar: bu piramidaning quyi darajasida hayotiy qulaylikka erishishga qaratilgan ehtiyojlar, o‘rta darajasida - boshqaruv ierarxiyasida o‘z mavqeini saqlab qolish ehtiyoji, yuqori darajasida - o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish va o‘z-o‘zini takomillashtirish [10]. Biroq, ushbu sxemalar haqiqiy motivatsion tuzilmalarni haddan tashqari soddalashtirish bilan ifodalanadi [11].

Motivlarning alohida toifasi, aslida, o‘z-o‘zini qadrlash mustaqillik motivatsiyasi sifatida mehnat faoliyati motivatsiyasi [1] va o‘zini rivojlantirish motivatsiyasidir. Mollning ta’kidlashicha, agar lavozimda ko‘tarilish motivatsiyasi faqat ushbu ehtiyoj asosida shakllansa, unda lavozimda ko‘tarilish xodim tomonidan shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida qaraladi [11].

Zamonaviy golland tadqiqotchilari M.Ko‘ypers va uning hamkasblari obyektiv (ish haqi miqdori va egallagan mavqei) va subyektiv ko‘rsatkichlar (yutuqlar, istiqbollar, o‘z karyerasidan qoniqish sohasidagi muvaffaqiyatni individual idrok etish) orqali tushuniladigan ichki va tashqi martaba muvaffaqiyatlarini ko‘rib chiqdilar. Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatdiki, karerani aktuallashtirish qobiliyati, o‘z rivojlanishini nazorat qilish va karyera jarayonida o‘qishga yo‘naltirish, shuningdek, aloqalarni o‘rnatish ichki va tashqi karyera muvaffaqiyatiga sezilarli va ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mualliflarning ta’kidlashicha aynan karyeradagi muvaffaqiyatsizlikning subyektiv hissi insonni o‘z motivlarini tahlil qilishga majbur qiladi. Tashqi muvaffaqiyat haqida ular g‘ayrioddiy farazni ilgari surdilar, unga ko‘ra, agar odam o‘z ichki motivatsiyasini birinchi o‘ringa qo‘yib, o‘z karyerasini tanlasa, tashqi mukofotlash masalalari uni unchalik tashvishga solmasligi mumkin. Dastlabki taxminlardan farqli o‘laroq, o‘z karyera yo‘lini aks ettirish tashqi karyera muvaffaqiyatini aniqlash uchun muhim bo‘lmagan o‘zgaruvchi bo‘lib chiqdi. Ushbu natijani tushuntirar ekan, mualliflar o‘z kompetensiyalarining yetarliligi mavzusida

fikr yuritish inson uchun bevosita ish jarayonida emas, balki ko‘proq ishni tanlash bosqichida muhim ekanligini ta’kidladilar [18].

P.Muchinski tomonidan o‘tkazilgan kasbiy motivatsiyaning zamonaviy nazariyalari sharhi va tavsifiga asoslanib, insonning kasbiy karyerasidagi asosiy davrlarni (tayyorgarlik, rasmiylashtirilgan va rasmiylashtirilmagan) aniqlash nuqtai nazaridan kasbiy motivatsiyaning zamonaviy nazariyalarini tahlil qilish shaxsning kasbiy karyerasini amalga oshirishda yuqori motivatsiyaga hissa qo‘shadigan, ammo uni belgilamaydigan uchta ehtiyoj turini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi:[12].

-Ijtimoiy muvofikqlik;

-O‘zini ijtmoiy namoyon etish;

-Adolatli rag‘batlantirish.

Ye. P. Ilinning fikriga ko‘ra, insonning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq motivlarni uch guruhga bo‘lish mumkin: mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlari va ish joyini tanlash motivlari.Aniq faoliyatni olib borishnatijada ushbu barcha motivlar bilan belgilanadi. Mehnat faoliyati motivlari kasb tanlash motivlarining shakllanishiga olib keladi, ikkinchisi esa ish joyini tanlash motivlariga olib keladi.

Mehnat faoliyati motivlari insonni mehnat bilan shug‘ullanishga majbur qiladigan rag‘batlantiruvchi sabablarni o‘z ichiga oladi (ijtimoiy xarakterdagi rag‘batlar, o‘zi va oilasi uchun ma’lum moddiy ne’matlar olish, o‘zini faollashtirish, o‘zini namoyon qilish, o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyojlarini qondirish).

Motivlarning mustahkamlanishi ishlovchilarning mehnat faoliyatining ko‘pgina omillaridan qoniqish hosil qilishiga bog‘liq. Bu holat G‘arbda keng tarqalgan bir qator nazariyalarda o‘z aksini topgan. V.Vrum va E.Disi mehnat faoliyati motivatsiyasining "paternalistik" konsepsiyasini ajratib ko‘rsatadilar. Unga ko‘ra, odamlar o‘z ishlaridan qanchalik qoniqish hosil qilsalar, uni bajarishga shunchalik ko‘proq intiladilar [6].

Muvaffaqiyatli mutaxassislarning kasbiy faoliyati motivatsiyasi muammosini tizimli yondashuv nuqtayi nazaridan o‘rganish V.D.Shadrikov muallifligidagi sistemogenetik konsepsiyada izchil amalga oshirildi. B.F. Lomovning tizimli yondashuv metodologiyasiga tayanib, professor V.D. Shadrikov "faoliyatning psixologik tizimi" tushunchasini ishlab chiqdi va psixologiyaga kiritdi, bu faoliyatning yaxlit psixologik nazariyasi yo‘qligi muammosiga javob bo‘ldi. Tizim faoliyatining tizim hosil qiluvchi omili sifatida aniq natija namoyon bo‘ladi, bu esa uning faoliyat ko‘rsatish xususiyatlarini belgilaydi [17].

Ushbu yondashuv faoliyat motivlari va maqsadlari tahlil qilingan oldingi yondashuvlardan farq qiladi. Kasbiy martabadagi muvaffaqiyat turli yo‘llar bilan erishilishi mumkin bo‘lgan tizimni shakllantiruvchi omil sifatida qaralishi mumkin. Faoliyatning subyektiv maqsadi mutaxassis motivlarining natija haqidagi tasavvurlar bilan o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanadi. Ushbu faoliyatning ongli tarkibiy qismlari, agar motivlar va maqsadlar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa, uning shaxsiy ma’nosida aks etadi. Faoliyat natijalarini o‘z-o‘zini baholash tashqi baholash bilan birlikda namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, motivatsiya, maqsad va natijaning tashqi bahosi faoliyat parametrlarining konfiguratsiyasini va unga jalb qilingan, funksional tamoyilga ko‘ra, subyektning ichki resurslarining xilma-xilligini belgilaydi.

Muvaffaqiyatli kasbiy karyeraga intilish subyektning shakllangan motivlar tizimi bilan belgilanadi, ammo ularning amalga oshirilishi ko‘p jihatdan vaziyat yoki faoliyat sharoitlariga bog‘liq. Oxirgisi mutaxassis tomonidan o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan talqin etiladi [17, 146-bet].Shunday qilib, tavsiflangan konsepsiyalar motivatsiya muammosining murakkabligini tushunish uchun muhim bo‘lgan turli jihatlarni aks ettiradi. Ushbu nazariyalarda u yoki bu motivatsion xususiyatlarning karyera jarayonlari bilan bog‘liqligi aks ettirilgan.

Muvaffaqiyatli kasbiy karyera qurish mumkin bo‘lgan ko‘plab turli kasblar mavjud bo‘lib, ularda aniq motivlarni o‘rganish muvaffaqiyatning mohiyati haqidagi savolga yakuniy javob bermaydi. Professionallar motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liqroq ochib berish professor V.D.Shadrikov tomonidan "faoliyatning psixologik tizimi" konsepsiyasida amalga oshirilgan subyektning faolligi, faoliyati va xulq-atvorini tizimli aniqlashning umumiy muammosi kontekstida mumkin, bu yerda professionalning muvaffaqiyati faoliyatning psixologik tuzilishining boshqa tarkibiy qismlari qatorida tizimli o‘zaro ta’sir qiluvchi motivlar bilan belgilanadi.

Motiv sifatida turli xil psixologik hodisalar, (niyatlar, tasavvurlar, g‘oyalar, his-tuyg‘ular,kechinmalar, ehtiyojlar va boshqalar) talqin qilinadi. Quyida motivning asosiy talqinlarini ko‘rib chiqamiz.

Motiv maqsad (predmet) sifatida. Bu nuqtayi nazar maqsadni qabul qilish (predmet) motiv sifatida “nima uchun” va “nima maqsadda” degan savollarga javob beradi, ya’ni maqsadga yo‘naltirilgan, ixtiyoriy xarakterni insonning xatti-harakatlari tushuntiradi [2]. Aynan predmet insonning intilishlariga maqsadga yo‘nalganlik, intilishlarning o‘ziga esa mazmun baxsh etadi. Bundan motivning ma’no hosil qilish funksiyasi ham kelib chiqadi [9].

Motiv ehtiyoj sifatida. Motiv haqidagi bu nuqtayi nazar L.I. Bojovich ,V.N. Myasishev , S.L. Rubinshteyn va boshqalar tomonidan o‘rganilib, inson faolligi nima uchun amalga oshiriladi, degan savolga javob beradi. Insonning faolligi uning o‘zida amalga oshadi maqsadlar insonning ehtiyojlarni qondirish maqsadida muhitni o‘zgartirishga bo‘lgan faol intilishini o‘z ichiga oladi.

Motiv niyat sifatida. Insonning niyatini bilib, “u nimaga erishmoqchi?” degan savollarga javob topish mumkin. Agar inson qaror qabul qilayotgan bo‘lsa yoki faoliyat maqsadi uzoq bo‘lsa va unga erishish kechiktirilgan bo‘lsa niyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Niyat insonning ehtiyojlari va intellektual faolligi, maqsadga erishish vositalarini anglash bilan bog‘liq. Niyatning undovchi kuchga ega ekanligi aniq, ammo u xatti-harakatning sabablarini ochib bermaydi [8,].

Motiv shaxsning barqaror xususiyati sifatida. Motivga bunday qarash, ayniqsa, G‘arb psixologlari uchun xos bo‘lib, ular barqaror shaxs xususiyatlari inson xulq-atvori va faoliyatini tashqi rag‘batlar bilan bir xil darajada belgilaydi. V.N. Myasishev shaxsning xavotirlanishi, tajovuzkorligi, da’vogarlik darajasi va frustratsiyaga qarshilik ko‘rsatishini motivatsion xususiyatlarga kiritadi.

Motiv undash sifatida. Eng keng tarqalgan va qabul qilingan nuqtayi nazar motivning undash sifatidagi rolini tushunishdir. Chunki motivatsiya nafaqat fiziologik, balki psixik reaksiyalardir, demak, u anglash va rag‘batlantirish bilan

bog‘liq. Shuning uchun ko‘pchilik psixologlar motiv - bu har qanday emas, balki biror kishining ish- harakatga tayyorligini ongli ravishda aks ettiruvchi intilishdir deb hisoblashadi. Shunda, motivning qo‘zg‘atuvchisi rag‘bat, harakatning qo‘zg‘atuvchisi esa ichki anglangan rag‘batdir. Motivlar ehtiyojlarni aks ettirishning oliy shakli xulq-atvor va faoliyatning ongli turtkilari sifatida ta’riflanadi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqadiki, motiv- bu ongli ehtiyojdir. Undash ehtiyojni qondirishga intilish sifatida qaraladi.[9].

Korxona xodimlarining shaxsiy, jamoaviy va ijtimoiy manfaatlariga asoslangan motivatsiya tizimi eng barqaror va maqbul hisoblanadi. Ushbu mehnat motivatsiyasi tizimida nafaqat jamoaviy (korxonaning nufuzi, raqobatbardoshligini oshirish,ijtimoiy, mehnat va ekologik muammolarni hal etish) va shaxsiy (xodim daromadlarining o‘sishi, jamoada hurmat,mansab pillapoyalaridan ko‘tarilish imkoniyati, malaka oshirish),balki ijtimoiy manfaatlar (sifatli, samarali va arzon mahsulot ishlab chiqarish) ham ko‘zda tutiladi[5, c. 75].

A. V. Gerasimov unumli mehnat bilan shug‘ullanadigan katta yoshli sinaluvchilarning motivatsion afzalliklarini o‘rgandi [11]. Natijada dastlabki so‘rov va tizimlashtirish motivatsion afzalliklarning quyidagi guruhlarini ajratadi:

- "OES" - iqtisodiy vaziyatga munosabat
- "OR" - ishga munosabat
- "OL" - boshqa odamlarga bo‘lgan munosabat
- "OkS" - o‘ziga bo‘lgan munosabat
- "KM" - jamoaviy ishlash imkoniyatiga bo‘lgan munosabat
- "KM" - ish rejimiga munosabat
- "OT" - mehnatga haq to‘lashga munosabat

-"SM" - ijtimoiy motivatsiya subyektning o‘z mehnatini moddiy rag‘batlantirishga nisbatan o‘z muvaffaqiyatlarining jamoa tomonidan e’tirof etilishini afzal ko‘rishi.

Tadqiqot doirasida sinaluvchilarga motivatsion afzalliklarning har bir guruhida ular uchun eng ahamiyatli bo‘lgan, ishga bo‘lgan munosabatlarining qadriyatli mohiyatini tashkil etuvchilarni tanlash taklif etildi.Tadqiqot o‘tkazilgandan keyin, motivatsion mulohazalarni tanlash afzalliklarining ifodalanish darajasi o‘rganildi. Maqbulligi yoki sinaluvchilar uchun ahamiyatliligi nuqtayi nazaridan har bir guruhga kiritilgan motivatsion mulohazalar alohida tahlil qilindi.

Motivatsion afzalliklar nisbati shuni ko‘rsatdiki, eng katta o‘rtacha qiymat "OKS" guruhida (o‘ziga bo‘lgan munosabat). Qadriyatlarni afzal ko‘rishning ikkinchi muhim guruhi - "OL" (odamlarga munosabat).Uchinchi o‘rinda "KM" (jamoaviy ishlash imkoniyatiga munosabat). Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, xodimlarda birinchi navbatda, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, shuningdek, ish rejimi bilan bog‘liq omillar muhim hisoblanadi. Shu sababli ham xodimlarni rag‘batlantirish orqali ishda ko‘pincha ularga motivatsion ta’sir ko‘rsatishga urinish sifatida qo‘llaniladi. Xodimlar faoliyatining samaradorligi ularning ishdagi jamoadoshlari bilan munosabatlarining ijobiy bo‘lishiga ham bog‘liqdir.

Tashkilot mutaxassislari o‘z ishlaridan qanchalik mamnun bo‘lsalar, uni bajarishga shunchalik ko‘proq intilishadi. Tashkilotda mukofotlash tizimi qanchalik

ahamiyatli bo‘lsa, xodimlar o‘z vazifalarini shunchalik g‘ayrat bilan bajarishadi. Mehnatga mas’uliyatli yondashuvga o‘z mehnati natijalarini ko‘rib qoniqish olish, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, kasb va korxona obro‘sini oshirish, tanqid va jazodan qochish kabi omillar nisbatan kamroq ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsiy muammolardan chalg‘ish istagi hamda martaba o‘stirish, mukofotga sazovor bo‘lish va jamoatchilik e’tirofiga erishish kabi sabablar esa yanada ko‘proq darajada yaxshi ishlashga undaydi.Shunday qilib, kasbiy motivatsiyaning asosiy nazariyalari qisqacha tahlilidan ko‘rinadiki, insonni ishga bor kuchini safarbar etishga undaydigan haqiqiy sabablar tuzilishini aniqlash mushkul va u g‘oyat murakkabdir. Motivatsiyaning birorta nazariyasi ham kasbiy faoliyatning rag‘batlantiruvchi mexanizmlarini to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Biroq, ko‘rib chiqilgan nazariyalarning deyarli barchasida insonning o‘zini o‘zi anglash va mehnat mazmuniga ijobiy munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan ichki motivatsiyasiga ustuvorlik beriladi. Motivatsiyaning zamonaviy modellarini o‘zlashtirish orqali ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari vazifalarini samarali bajarish uchun iste’dodli fuqarolarni, ijtimoiy xodimlarni bu sohaga jalb etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib Motivatsiya muammosi xorij va o‘zbek psixolog olmilari tomonidan turli jabhalarda o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin.Muammoga nisbatan yondashuvlarning turlicha ekanligi, motivatsiya muammosining haligacha o‘rganilish obyekti bo‘lib qolaverishiga sabab bo‘lmoqda.Ikkinchi tomondan esa bu fikrlarning xilma-xilligi ushbu masala bo‘yisha izlanish ishlarinig yanada chuqur va puxta bo‘lishiga asaos bo‘lmoqda.

Shunday qilib, Xorij va O‘zbekiston psixologiyasida motiv va motivatsiya yuzasidan turli yondashuv va tadqiqot ishlaridan to‘planagan ma’lumotlar psixologiya sohasini ham amaliy ham nazariy jihatdan boyitib turibdi. Ushbu ma’lumotlar moammoni o‘rganishning dastlabki ildizlarini topish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Ayniqsa bu ma’lumotlar bazasi shaxsda kasb motivlari namoyon bo‘lishi va rivojlanish omillarini o‘rganishda va tadqiqot ishlarini amalga oshirishda puxta zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богатырева, О. О. Психологические предпосылки карьерного роста // Вопросы психологии. 2008. № 3. С. 92-98.

2. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте.– М.: Просвещение, 1968.– 454 с.

3. Виханский О.С., Наумов А. И. Менеджмент: Учебник.М.: Высшая школа, 1998.

4. Волгин Н., Валь Е. Мотивационная основа эффективности труда // Человек и труд. 2000. № 4.

5. Герасимов А. В. Мотивация персонала к труду как проявление самореализации: Дис. … канд. психол. наук. Барнаул, 2003.

6. Ильин, Е. П. Мотивация и мотивы – СПб.: Питер, 2000. – 512 с.

7. Климов, Е. А. Психология профессионала. М., 1996. 400 с.

8. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции. Конспектлекций.– М.: Изд-во МГУ, 1971.– с. 39.

9. Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологии.– М.: Смысл, 2001.– 511с.

10. Малинин, Е. Д. Философия жизненного успеха. Практическое руководство: учеб.пособие. М.: МОДЭК, 2004. 304 с.

11. Молл, Е. Г. Управление карьерой менеджера. СПб.: Питер, 2003. 352 с.

12. Мучински, П. Психология, профессия, карьера: пер.анг./П.Мучински.-СПб.: Питер, 2004.

13. Мясищев В. Н. Психология отношений. М.: Изд-во ≪Институт прикладной психологии≫, Воронеж: НПО ≪МОДЭК≫, 1995.

UDK 159.922.8:159.923.2

Toshpo‘latova O‘giloy Baxtiyor qizi,
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK-IJTIMOIY XUSUSIYATLARI VA SHAXS SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlik davrining psixologik va ijtimoiy xususiyatlari, shaxs rivojlanishidagi o‘rni hamda o‘smir yoshdagi inqirozlarning namoyon bo‘lish shakllari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘smirlik davrida yuzaga keladigan emotsional o‘zgarishlar, o‘zini anglash jarayoni, ijtimoiy munosabatlarning kengayishi, tengdoshlar ta’siri va oilaviy muhitning roli o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda o‘smir shaxsini qo‘llab-quvvatlash, psixologik barqarorlikni shakllantirish hamda ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, shaxs rivoji, ijtimoiy moslashuv, emotsional barqarorlik, o‘zini anglash, tengdoshlar muhiti, psixologik xususiyatlar.

ПСИХОЛОГО-СОЦИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДРОСТКОВОГО ПЕРИОДА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические и социальные особенности подросткового возраста и их влияние на формирование личности и процессы социальной адаптации. Особое внимание уделяется эмоциональной нестабильности, развитию самосознания и мышления, а также роли семьи и среды сверстников в становлении личности подростка. Кроме того, анализируются возможные трудности и кризисные проявления данного возрастного периода и факторы, влияющие на поведение и мировоззрение подростков. На основе научно-теоретического анализа представлены выводы о значении благоприятной социальной среды, педагогической поддержки и психологического сопровождения для гармоничного развития подростков.

Ключевые слова: подростковый возраст, развитие личности, социальная адаптация, эмоциональная устойчивость, самосознание, среда сверстников, психологические особенности.

PSYCHOLOGICAL AND SOCIAL CHARACTERISTICS OF ADOLESCENCE AND THEIR IMPACT ON PERSONALITY FORMATION

Abstract. This article examines the psychological and social characteristics of adolescence and their influence on personality development and social adaptation processes. Special attention is paid to emotional instability, self-awareness,

cognitive development, and the role of family and peer environment in the formation of the adolescent's personality. In addition, possible difficulties and crisis manifestations typical of this period are analyzed, as well as the factors affecting adolescents' behavior and worldview. Based on scientific and theoretical analysis, conclusions are presented about the importance of a supportive social environment, pedagogical assistance, and psychological guidance in ensuring the harmonious development of adolescents.

Keywords: adolescence, personality development, social adaptation, emotional stability, self-awareness, peer environment, psychological characteristics.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. Mazkur davr odatda 11–12 yoshdan 16–17 yoshgacha bo‘lgan oraliqni qamrab oladi va biologik, psixologik hamda ijtimoiy o‘zgarishlarning keskinligi bilan tavsiflanadi. Aynan shu davrda shaxsning o‘z “Men”ini anglash, mustaqil qaror qabul qilishga intilish, ijtimoiy muhitga moslashish jarayonlari jadallashadi.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlik davri «o‘tish davri», »krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S. Vigoskiy bunday holatni — psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so‘ng bola alohida olingan shaxs sifatida o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o‘smirlik yoshini ikki xil davrga - kichik o‘smirlik davri va katta o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqichda o‘smir o‘zini bolalardan ajratib, endi o‘zini kattalar olamiga mansubligini ta’kidlamoqchidek bo‘ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o‘smirlarning asosiy xarakteristikalari hisoblanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo‘lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o‘smir endi o‘zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o‘zligini aniq anglay boshlaydi, o‘z shaxsini ulug‘lab, o‘ziga xos harakatlar qila boshlaydi.O‘smirlarni o‘z shaxslari haqidagi fikrlar ko‘proq qiziqtiradi, ular o‘zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar.

O‘smirlik davrida ichki erkinlikning o‘sishida, o‘z-o‘zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Bunday o‘zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funksiya sifatida o‘smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizigi bo‘lib hisoblanadi.Bu davrga kelib uning harakatlari o‘zi bilan o‘rtoq bo‘lgan bir guruh tengdoshlariga bog‘liq bo‘lmay qoladi. O‘rtoqlari o‘smirga o‘zi to‘g‘risidagi noto‘g‘ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o‘ylab ko‘rishga

uni majbur qilmoqchi bo‘lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o‘z fikrida qat‘iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o‘zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o‘z xatti-harakatlarini o‘zi tahlil qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o‘smirlar hayotiga xos xususiyatlardir.

O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O‘smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro‘larini ko‘radilar hamda havas qiladilar. O‘smirda katta yoshli odam bo‘lishga yoki hech bo‘lmaganda katta yoshli odam bo‘lib ko‘rinishga qiziqish, intilish paydo bo‘ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo‘lib ko‘rinadi. O‘smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o‘zaro mos kelmasligi o‘smirlar bilan ota-onalari, o‘qituvchilari va boshqa murabbiylari o‘rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

O‘smir o‘zining juda ko‘p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar yega bo‘lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo‘lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o‘zining ahamiyatga yega yekanini ko‘rsatish uchun u kuchli, ko‘rqmas va yepchil bo‘lishga intiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo‘lgan o‘smirda juda ko‘p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo‘ladi va ular o‘smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, shuningdek psixikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o‘zgaradi, o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o‘smirda o‘zi haqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlik davri krizisi yuzaga keladi.

Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o‘jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo‘ladi. Bunday paytlarda u o‘zi singari katta fiziologik, psixologik o‘zgarishlar kechayotgan o‘rtog‘i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do‘sti o‘smirga ijobiy ta’sir qiladimi yoki uni yo‘ldan urib, yomon ta’sir qiladimi — bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog‘liq. O‘rtoqlarining ta’siri ostida o‘smir o‘zining ehtiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag‘ishlasa, bunday hollarda uning ba’zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan bo‘lgan tasodifiy qiziqishlari dastavval ishtiyoqga, undan keyin yehtiros yoki odatga aylanishi mumkin. Ana shunday yo‘l bilan o‘quvchilarda, masalan, matematikaga, fizika yoki ximiyaga, duradgorlik, slesarlik yoki qandaydir boshqa bir ishlarga nisbatan ishtiyoq yuzaga keladi, ammo o‘quvchilar xuddi

shunday yo‘l bilan yolg‘onchilikka, bezorilikka va boshqa axloqsiz xatti-harakatlarga ham o‘rganib qolishlarn mumkin.

O‘smirlik davridagi barcha nomunosib harakatlar bir onda o‘tib ketadigan xohishlarning ko‘pligidan va kelib chiqadigan oqibatni nihoyatda yuza tarzda ko‘ra bilishlikdan kelib chiqadi. Deyarli barcha zararli xohishlar oldin zararsiz va yengillik bilan amalga oshiriladigandek bo‘lib ko‘rinadigan ko‘ngil ochish tarzidagi ishlardan boshlanadi. Biroq, aslida esa bu ishlarni amalga oshirishga o‘smirlarning imkoniyatlari etmaydi. Bunga shaxs taraqqiyotining tabiiy ehtiyojlari ta’sir qiladi. Agarda o‘smir bolalar faqat bajara oladigan ishlarni qilganlarida edi, ular o‘zlarining psixik xususiyatlarini rivojlantira olmagan bo‘lar edilar.

O‘smirlar, o‘zlarining turli xil xohishlarini bevosita qondirishdan bo‘lak narsani ko‘ra olmaydilar va bunday xohishlar xatarli oqibatlarga tomon yo‘llaganda o‘zlarini vaqtida to‘xtatib qola olmasliklari ham mumkin. O‘quvchilarni o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishga va o‘zlarini tuta bilishga o‘rgatish tarbiyachilarning asosiy vazifasidir. O‘smirlar haddan tashqari g‘ayratli va besaramjon bo‘ladilar, ular uchun bekorchilik juda og‘irdir, bir xil tarzdagi ishlardan tezda toliqadilar, bir xildagi ish bilan qiziqmay qo‘yadilar, bu esa ularning ta’lim jarayonlari muvaffaqiyatiga kuchli ta’sir qiladi. Binobarin, o‘smirlarga muvaffaqiyatli ta’lim va tarbiya berishda ularni turli faoliyatlarga qiziqtirish va har turli foydali mashg‘ulotlarga jalb qilish hamda, qiyinrok, lekin kuchlari etadigan ishlar bilan shug‘ullantirish nihoyatda muhimdir.

«O‘smirlik yoshining mohiyati shundan iboratki, o‘smir birmuncha faolroq ijtimoiy muhitga etilgan bo‘lib, bolalik chog‘ida vujudga kelgan eski munosabatlarni buzib, ana shu muhit uchun kurasha boshlaydi». Har bir o‘smir muvaffaqiyatli ishlar bilan tevarak-atrofdagi odamlar o‘rtasida o‘z shaxsini tasdiqlashga intiladi. O‘smirlik yoshi dunyoqarash, e’tiqod, prinsip, o‘zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O‘smir ulg‘aygan sari unda — Ideal Men, — Axloqiy Men va — Haqiqiy Men singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e’tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo‘lib qoladi. O‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip, e’tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O‘smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, o‘smirlarning ko‘pchiligi qat’iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma’naviy, axloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e’tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

Zamonaviy psixologiyada o‘smirlik davri shaxs shakllanishining o‘tish bosqichi sifatida qaraladi. Bu davrda bolaning bolalikdan kattalikka o‘tishi, qadriyatlar tizimining shakllanishi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu sababli o‘smirlik davrini chuqur o‘rganish pedagogika va psixologiya fanlari uchun dolzarb masalalardan biridir.

O‘smirlik davrida kuzatiladigan asosiy psixologik xususiyatlardan biri — bu emotsional beqarorlikdir. Kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi, o‘ziga ishonchning ba’zan ortishi, ba’zan esa pasayishi o‘smir psixikasining tabiiy holati hisoblanadi. Bu jarayon gormonal o‘zgarishlar, ijtimoiy muhit ta’siri va ichki kechinmalar bilan uzviy bog‘liq.

Shuningdek, o‘smirlik davrida abstrakt fikrlash rivojlanadi. O‘smir voqealarga tanqidiy yondashishni boshlaydi, sabab-oqibat aloqalarini tahlil qiladi va mustaqil xulosalar chiqarishga intiladi. Bu esa uning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zini anglash jarayoni ham aynan shu davrda kuchayadi. O‘smir o‘z qobiliyatlari, tashqi ko‘rinishi, jamiyatdagi o‘rni haqida ko‘proq o‘ylaydi. Natijada shaxsiy identifikatsiya shakllanadi.

O‘smirlik davrida tengdoshlar bilan muloqot alohida ahamiyat kasb etadi. Do‘stlar davrasi o‘smir uchun psixologik tayanch vazifasini bajaradi. Tengdoshlar fikri ko‘pincha ota-ona yoki o‘qituvchi fikridan ham ustun qo‘yilishi mumkin.

Ijtimoiylashuv jarayonida o‘smir jamiyat qoidalarini o‘rganadi, o‘z xatti-harakatlarini baholashni o‘rganadi va jamoada o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Shu sababli maktab muhiti, sinfdoshlar bilan munosabat hamda o‘qituvchi shaxsining ta’siri nihoyatda muhimdir.

Agar ijtimoiy muhit ijobiy bo‘lsa, o‘smirda o‘ziga ishonch, mas’uliyat va faollik rivojlanadi. Salbiy muhit esa aksincha, agressivlik, tortinchoqlik yoki ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkin.

Oila o‘smir shaxsining shakllanishida asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Ota-onaning mehr-muhabbati, e’tibori va qo‘llab-quvvatlashi o‘smirning psixologik barqarorligini ta’minlaydi.

Demokratik tarbiya uslubi — ya’ni muloqotga asoslangan, tushuntirish va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan yondashuv — o‘smir rivoji uchun eng samarali usullardan biri sifatida e’tirof etiladi. Haddan tashqari nazorat yoki befarqlik esa o‘smirning ichki qarama-qarshiliklarini kuchaytirishi mumkin.

Oiladagi sog‘lom psixologik muhit o‘smirning o‘zini qadrlashi, ijtimoiy faolligi va kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

O‘smirlik davrida “inqiroz davri” tushunchasi ko‘p uchraydi. Bu davrda o‘smir mustaqillikka intiladi, kattalar bilan qarama-qarshilikka kirishishi mumkin. Bunday holatlar tabiiy rivojlanish jarayonining bir qismi sifatida qaraladi.

Inqirozning asosiy belgilari:

keskin kayfiyat o‘zgarishlari;

mustaqillikka haddan tashqari intilish;

tanqidni qabul qilmaslik;

ichki ziddiyatlarning kuchayishi.

To‘g‘ri pedagogik va psixologik yondashuv orqali bu davrni yumshoq o‘tkazish mumkin.

O‘smirlik davrini o‘rganishda kuzatish, so‘rovnoma, test metodlari va psixologik diagnostika usullari keng qo‘llaniladi. Ushbu metodlar orqali o‘smirning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy xususiyatlari aniqlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smir bilan individual suhbatlar, trening mashg‘ulotlari va psixologik maslahatlar samarali natija beradi.

1-jadval

O‘smirlik davrining asosiy xususiyatlari jadvali

No	**Yo‘nalish**	**Asosiy xususiyatlar**	**Namoyon bo‘lish shakillari**	**Ta’sir etuvchi omillar**
1	**Psixologik rivojlanish**	Rmotsional beqarorlik,o‘zini anglash	Kayfiyat tez o‘zgarishi,o‘ziga baho berish	Gormonal o‘zgarishlar,ichki kechinmalar
2	**Aqliy rivojlanish**	Tanqidiy va abstract fikrlash	Mustaqil fikr bildirish,savol berish	Ta’lim sifati,kitob o‘qish,muhit
3	**Ijtimoiy munosabatlar**	Tengdosh bilan yaqinlik	Do‘stlarga taqlid qilish,guruhga qo‘shilish	Sinf muhiti,do‘stlar davrasi
4	**Oiloviy omil**	Qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj	Ota-ona bilan muloqot,tushunish istagi	Tarbiya uslubi, oladagi muhit
5	**Shaxs shakllanishi**	Mustaqillikka intilish	Qaror qabul qilish, o‘z fikrini himoya qilish	Jamiyat qadriyatlari, motivatsiya
6	**Inqiroz holatlari**	Qarama-qarshilik va ichki ziddiyat	Jahldorlik,tortinchoqlik yoki agressiya	Noto‘g‘ri yondashuv, bosim,stress

Ushbu jadval o‘smirlik davrida shaxs rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy 6 ta yo‘nalishni ko‘rsatadi.

Psixologik rivojlanish qatorida o‘smirning ichki hissiy dunyosi tasvirlanadi. Bu davrda kayfiyat tez o‘zgarishi tabiiy hol sanaladi.

Aqliy rivojlanish bo‘limi o‘smirda mantiqiy va tanqidiy fikrlash kuchayishini bildiradi. U ko‘proq savol beradi va mustaqil xulosa chiqarishga harakat qiladi.

Ijtimoiy munosabatlar o‘smir hayotida tengdoshlarning o‘rni kuchayishini anglatadi. Do‘stlar fikri muhim bo‘lib qoladi.

Oilaviy omil esa psixologik barqarorlikning eng muhim tayanchi hisoblanadi. Mehr va tushunish o‘smir ruhiyatini mustahkamlaydi.

Shaxs shakllanishi qatorida o‘smirning “Men” konsepsiyasi rivojlanadi, u mustaqil bo‘lishni istaydi.

Inqiroz holatlari esa o‘tish davriga xos bo‘lgan vaqtinchalik qiyinchiliklarni bildiradi. To‘g‘ri pedagogik va psixologik yondashuv bunday holatlarni yumshatadi.

Mazkur jadval ilmiy maqolalarda o‘smirlik davrini tizimli tahlil qilish uchun qulay ko‘rinish bo‘lib, mavzuni umumlashtirib berishga yordam beradi.

O‘smirlik davri shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlarning uyg‘unligi bilan xarakterlanadi. Mazkur davrda oila, maktab va tengdoshlar muhiti hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘smirni qo‘llab-quvvatlash, uning fikrini hurmat qilish, ochiq muloqot olib borish va ijobiy

ijtimoiy muhit yaratish — sog‘lom va barkamol shaxsni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Ilmiy yondashuv asosida olib borilgan pedagogik va psixologik ishlar o‘smirlarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydi. Shu sababli o‘smir shaxsini to‘g‘ri o‘rganish, psixodiagnostika metodlaridan foydalanish va o‘z vaqtida psixokorreksion hamda profilaktik ishlarni olib borish muhim ahamiyatga ega. Psixolog, o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi o‘smirning sog‘lom rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. To‘g‘ri yondashuv, qo‘llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratilsa, o‘smir o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta oladi va jamiyatda o‘z o‘rnini topgan, maqsadli va barkamol shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019.
2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2018.
3. Davletshin M.G. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashri, 2017.
4. Кон И.С. Психология юности (Ўсмирлик психологияси). – Москва, 2003.
5. Выготский Л.С. Развитие личности в детском возрасте. – Москва: Педагогика, 1984.
6. Элконин Д.Б. Психология развития. – Москва, 2001.
7. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Санкт-Петербург, 2008.
8. Karimova V.M. Psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2019.
9. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T.: Universitet, 2018.
10. Davletshin M.G. Yosh davrlari psixologiyasi. – T.: TDPU, 2017.
11. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – T.: Fan, 2020.
12. Erikson E. Identity and Youth Crisis. – New York, 1968.
13. Piaget J. The Psychology of the Child. – London, 1972.
14. Vigotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
15. Freud Z. Introduction to Psychoanalysis. – Vienna, 1933.
16. Bandura A. Social Learning Theory. – New Jersey, 1977.
17. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston, 1961.
18. Maslow A. Motivation and Personality. – New York, 1954.
19. Elkonin D.B. Developmental Psychology. – Moscow, 1989.

UDK 159.947:159.9.072

Boboraxmatova Marjona Valijonovna,
Termiz davlat universiteti psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

SHAXS IRODAVIY SIFATLARINING PSIXODIAGNOSTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs irodaviy sifatlarining psixologik tabiatini o‘rganish va ularni diagnostika qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda irodaviy zo‘riqish, qat’iyatlilik, mustaqillik va o‘zini tuta bilish kabi xislatlarning inson faoliyatidagi o‘rni tahlil qilingan. Maqolada irodaviy sifatlarni o‘lchashda qo‘llaniladigan zamonaviy psixodiagnostik metodikalar va ularning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi. Olingan natijalar shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalashi va kasbiy kamolotini ta’minlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: iroda, psixodiagnostika, shaxs sifatlari, motivatsiya, qat’iyatlilik, o‘zini-o‘zi boshqarish, test metodikalari.

ПСИХОДИАГНОСТИКА ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению психологической природы волевых качеств личности и вопросам их диагностики. В исследовании анализируется роль таких черт, как волевое усилие, настойчивость, самостоятельность и самообладание в деятельности человека. В статье обсуждаются современные психодиагностические методики, используемые для измерения волевых качеств, и их практическая значимость. Полученные результаты служат важным ресурсом для самовоспитания и профессионального развития личности.

Ключевые слова: воля, психодиагностика, качества личности, мотивация, настойчивость, саморегуляция, тестовые методики.

PSYCHODIAGNOSTICS OF PERSONAL VOLITIONAL QUALITIES

Abstract. This article is devoted to the study of the psychological nature of a person's volitional qualities and the issues of their diagnostics. The study analyzes the role of such traits as volitional effort, persistence, independence, and self-control in human activity. The article discusses modern psychodiagnostic methods used to measure volitional qualities and their practical significance. The results obtained serve as an important resource for self-education and professional development of the individual.

Keywords: will, psychodiagnostics, personality traits, motivation, persistence, self-regulation, testing methods.

Zamonaviy psixologiya fanida shaxsning irodaviy sifatlari uning faoliyati samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Bugungi

shiddatli o‘zgarishlar va raqobat muhitida insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi nafaqat uning intellektual salohiyatiga, balki qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan irodaviy kuchiga ham bog‘liqdir. Shaxs irodaviy sifatlarini aniq tashxis qilish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki ta’lim jarayonida o‘quvchilarni yo‘naltirish, xodimlarni tanlash va sport psixologiyasi kabi amaliy sohalarda ham muhim o‘rin tutadi. To‘g‘ri tanlangan psixodiagnostik metodikalar shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi va korreksiyalashi uchun poydevor yaratadi. Inson shaxsining shakllanishida uning irodaviy xususiyatlari, jumladan, qat’iyatlilik, mustaqillik, dadillik va o‘zini tuta bilish kabi sifatlar markaziy o‘rinni egallaydi. Hozirgi kunda psixodiagnostika sohasida shaxsning irodaviy faolligini o‘lchash bo‘yicha ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning ishonchlilik darajasi va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy izlanishlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Inson hayotining barcha jabhalarida — ta’limdan tortib kasbiy faoliyatgacha — irodaviy zo‘riqish va o‘zini-o‘zi tartibga solish (samoregulyatsiya) hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois mazkur maqolada shaxs irodaviy sifatlarining mohiyati, ularning tarkibiy qismlari va psixodiagnostika metodlari orqali aniqlanish xususiyatlari nazariy manbalar asosida yoritib beriladi.

Irodaviy sifatlarning ilmiy o‘rganilishi psixologiya tarixida o‘ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega. Iroda tushunchasi va uning shaxs shakllanishidagi o‘rni antik davr faylasuflari Sokrat, Platon va Aristotel asarlarida axloqiy komillik mezonlari sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, uning ilmiy-eksperimental o‘rganilishi XIX-XX asr psixologiyasi bilan bevosita bog‘liq.

O‘z davring donishmandlari iroda haqida turlicha fikrlar bildirishgan. Masalan: Faylasuf Arastu iroda haqida shunday deydi; "Iroda inson xulq - atvorini o‘zgartirishda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan eng kerakli omildir". Yoki bo‘lmasa, F.Shiller "Iroda odamzodning farqli belgisidir, faqat aqlgina irodani boshqarish uchun abadiy qoidadir". V.Shekspir "Bizning shaxsimiz bog‘, irodamiz esa uning bog‘bonidir", I.Gyote "Jiddiy, teran, haqiqiy iroda ong avvalo maqsadga erishishga ishonch tasavvuri bilan uyg‘unlikda ifodalanadi", E.Rodderdamskiy "Irodali inson uchun hech qanday qiyin ish yo‘q" deydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida iroda muammosi bo‘yicha U. Jems (W. James) o‘zining irodaviy harakat nazariyasini ilgari surdi. U irodani ongli qaror qabul qilish va diqqatni tanlangan maqsadga yo‘naltirish jarayoni sifatida tahlil qilgan. Uilyam Jeymsning iroda nazariyasi asosan uning psixologik va falsafiy asarlarida, xususan, "Psixologiya tamoyillari" (The Principles of Psychology, 1890) kitobida batafsil bayon etilgan. Unda iroda erkinligi, harakat va irodaviy harakatning asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, "Iroda erkinligi" tushunchasi uning falsafiy qarashlarining ajralmas qismidir. "Psixologiya tamoyillari" (The Principles of Psychology, 1890): Bu kitobda Jeyms irodani ongning tanlovchanligi va harakatni boshqaruvchi kuch sifatida ko‘rib chiqadi. Irodaviy harakat tushunchasi va "iroda erkinligi" masalasini yoritadi. "Pragmatizm" (Pragmatism: A New Name for Some Old Ways of Thinking, 1907): Pragmatizm asoschisi sifatida, Jeyms irodaviy harakatlarning amaliy natijalariga urg‘u beradi."Diniy tajribaning xilma-xilligi" (The Varieties of Religious Experience, 1902): Ushbu asarda irodaning ruhiy

kuchlar va e'tiqod bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Uilyam Jeyms irodani ongning tanlovchanligi, ya’ni diqqatni biror maqsadga yo‘naltirish va shu orqali harakatni amalga oshirish qobiliyati sifatida ta’riflagan. U iroda erkinligini insonning o‘z taqdirini belgilashdagi roli deb hisoblagan.

XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta’kidlab o‘tganlaridek, faollik manbaini bemahsul sohaning paydo bo‘lishi deb tushuntirish mumkin emas, chunki uning shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qarash lozim.

Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Unga bunday yondashish irodaning ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishni shakllantirgan bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan u mustaqil substansiya sifatida tan olindi.

Sovet psixologlari L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn va V.A. Ivannikov kabi olimlar tomonidan shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish tizimi sifatida tadqiq etilgan. Jumladan, V.A. Ivannikov irodani "ixtiyoriy harakatlarning ongli ravishda shakllantirilishi" deb ta’riflaydi. V. A. Ivannikov irodaviy boshqaruvni shaxsning o‘z xatti-harakatlarini motivatsion va emotsional darajada, ayniqsa, ichki yoki tashqi to‘siqlarni yengishda ongli ravishda boshqarish mexanizmi sifatida tushuntiradi. Uning yondashuviga ko‘ra, irodaviy harakatlar motivlar kurashi va maqsadni amalga oshirish uchun qo‘shimcha motivatsiyani shakllantirish orqali boshqariladi. Ivannikovning irodaviy boshqaruv psixologik asoslari bo‘yicha asosiy qarashlari: Iroda murakkab jarayon bo‘lib, motivlarning muhokamasi, qaror qabul qilish va bajarish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Asosiy e'tibor harakatni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan motivlar bilan kurashish va harakatni bajarish uchun motivni kuchaytirishga qaratiladi. Iroda bu - shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi, ya’ni inson o‘z motivlarini ongli ravishda boshqaradi va nazorat qiladi. Irodaviy boshqaruv orqali inson o‘zining irodaviy sifatlarini (qat'iyatlilik, matonat) rivojlantiradi.

Irodaviy, ya’ni ixtiyoriy harakatlarning nerv-fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po‘stlog‘ining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo‘lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar har doim to‘la ongli harakatlar bo‘lgani uchun bosh miya po‘stlog‘ida yuzaga keladigan optimal qo‘zg‘alish manbalari bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Akademik I.P. Pavlov bu haqida shunday deb yozgan edi:

"Mening tasavvurimcha, ong ayni shu chog‘da xuddi shu sharoitning o‘zida ma’lum darajada optimal (har holda o‘rtacha bo‘lsa kerak) qo‘zg‘alishga ega bo‘lgan bosh miya katta yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat".

Yetarli darajada qat'iy fikr qaror topganligi, iroda — bu insonning qo‘yilgan maqsadlariga erishish uchun qilgan faolligidir. Iroda tushunchasi mohiyatiga inson tomonidan maqsad qo‘ya olish kabi shaxsiy gavdasini va xulqini idora qilish ham kiritiladi. I.V. Selivanov irodani tadqiq etish negizidan kelib chiqqan holda ayrim xulosalarni chiqaradi:

a) iroda — bu shaxsning o‘z faoliyatini va olamdagi o‘zini-o‘zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifidir;

b) iroda — inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakl va bosqichlariga taalluqlidir;

v) iroda — bu amaliy ong, o‘zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxsning o‘zini ongli idora qilishlikdir;

g) iroda — bu shaxsning hissiyoti va aql-zakovati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatidir, ammo qaysidir harakatning motivi, turtkisi hisoblanadi.

Ergash G‘oziyev o‘zbek psixologiya maktabining yirik namoyandasi sifatida iroda psixologiyasiga, xususan, o‘smirlarda irodaviy sifatlarni shakllantirish, irodaviy harakatlarning motivatsion asoslari va shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish orqali hissa qo‘shgan. Uning tadqiqotlari, ayniqsa, irodani yosh davrlar psixologiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, shaxs irodaviy sifatlari psixologik jihatdan murakkab va ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Ularni tushuntirishda motivatsion, kognitiv va operatsion yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Shaxs irodaviy sifatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish inson xulq-atvori, psixik rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Zamonaviy psixologiyada iroda shaxsning o‘z xatti-harakatlari va psixik jarayonlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Irodaviy faoliyat o‘z tabiatiga ko‘ra ikki yirik dikotomik qismga ajraladi:

Ichki iroda: Kishining o‘z ichki mayllarini (impulsiv istaklar, dangasalik, qo‘rquv yoki zararli odatlar) yenga olish, o‘zini boshqarish va o‘z ustidan hukmronlik qila bilish layoqati. Ayniqsa, yoshlarda turli destruktiv mayllar va yot ta'sirlarga (masalan, tabiiy va sintetik moddalarga qaramlik kabi adiktiv xulq-atvorga) qarshi turishda ichki irodaning shakllantirilishi ijtimoiy-psixologik yordamning tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Tashqi iroda: Tevarak-atrofdagi voqelikda uchraydi-gan tashqi to‘siqlarni (ijtimoiy bosim, salbiy muhit, moddiy yoki jismoniy qiyinchiliklar) yenga olish qobiliyati.

Irodaviy faoliyatda tashqi to‘siqlarni yengish jarayoni doimo ichki to‘siqlarni yengish bilan uzviy, sinergik aloqadadir. Ya'ni, inson tashqi muhit bosimiga bardosh berishi uchun, avvalo, o‘z ichidagi ikkilanish va zaiflikni yengishi shart. Iroda kuchi o‘zini tuta bilish, dadillik, qat’iylik, chidam va toqat, prinsipiallik kabi sifatlarning qay darajada namoyon bo‘lishiga qarab belgilanadi. Yuksak ijtimoiy g‘oyalarga asoslangan ongli qat’iyat bilan harakat qiluvchi shaxsgina kuchli iroda egasi sifatida o‘z xarakterining butunligini ta'minlay oladi.

Iroda muammosining falsafiy-etik asoslari antik davr mutafakkiri Aristotel qarashlarida chuqur tahlil qilingan. Aristotel irodani shunchaki ko‘r-ko‘rona xohish (afekt) emas, balki aql bilan boshqariladigan ongli tanlov deb hisobladi. Uning yondashuviga ko‘ra:

Aql va Iroda uyg‘unligi: Inson irodasi hissiyotlar girdobida qolmasligi, balki doimo aql tomonidan to‘g‘ri maqsadlarga yo‘naltirilishi kerak.

Odatlanish mexanizmi: Ezgulik va yuksak iroda tug‘ma biologik xususiyat emas. U tizimli tarbiya, ta’lim va amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Iroda ijobiy axloqiy odatlarni takror-takror bajarish orqali mushak kabi chiniqadi va mustahkamlanadi.

Iroda erkinligi va mas'uliyat: Inson o‘z xatti-harakatlari va tanlovlari uchun to‘laqonli javobgardir. Iroda erkinligi – bu yaxshilik va yomonlik o‘rtasida oqilona tanlov qila olish vakolatidir.

Aristotel etikasining markazida turuvchi “Oltin oraliq” qoidasiga ko‘ra, irodali inson haddan tashqari qo‘rqoqlik (zaiflik) yoki soxta qahramonlik (tavakkalchilik) kabi chekka qutblardan qochib, me’yorni – **jasoratni** tanlaydi. Demak, axloqiy iroda insonning amaliy faoliyatini tartibga soluvchi, zararli mayllardan asrovchi va pirovardida baxt-saodatga (evdemoniyaga) erishishini ta'minlovchi eng oliy kognitiv-emotsional vositadir.

U.Djeymsning tan olishicha, irodaviy harakatlar boshqa ruhiy jarayonlarga qorishtirib bo‘lmaydigan birlamchi xususiyatga egadirlar. Har qanday g‘oya dastlab dinamik tendensiyaga ega bo‘lganligi tufayli irodaviy aktning vazifasi diqqat yordami bilan bir g‘oyaning boshqasi ustidan ustuvorligini ta’minlashdan iboratdir.

E.P.Ilin asarlarida shaxs xulq-atvorini irodaviy tartibga solish, irodani xulq-atvorni boshqarish, motivatsiya va maqsadga erishish mexanizmi sifatida o‘rganadi. U irodani faqat to‘siqlarni yengish emas, balki ichki va tashqi to‘siqlarni yengib o‘tishda xulq-atvorni ongli boshqarish jarayoni deb hisoblaydi. Ilin irodaviy tartibga solishni murakkab, ko‘p bosqichli jarayon (niyat, rejalashtirish, ijro etish) sifatida tahlil qiladi. U irodaning asosiy vazifasi motivlarni tartibga solish va faoliyatni qo‘llab-quvvatlash ekanligini ta’kidlaydi. Ilinning yondashuvi shaxsning faol va mustakil ravishda o‘z xulq-atvorini, ayniqsa murakkab vaziyatlarda, ongli ravishda boshqarishini o‘z ichiga oladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, tirishqoqlik, qat’iyatlik sifatlari bilan bir qatorda chidamlilikni irodaviy hislatlarning yetakchisi tariqasida tan olish, qiyinchiliklarga aramasdan, harakatni davom ettirishga intilish tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etishi shak-shubxasiz. Lekin og‘rqqa chidash, bardoshlikka moyillik nuqtai nazardan yondashilganda esa irodaning erkinligi ta’biri, irodaviy sohaning paydo bo‘lishi va amalga oshishi mohiyati yuzasidan metodologik nuqsoniy talqin yuzaga kelishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur nazariyalar shaxs irodaviy sifatlarining turli jihatlarini yoritib berib, ularni yagona tizimda tushunish zarurligini ko‘rsatadi. Shaxs irodaviy sifatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish inson xulq-atvori, psixik rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev E.G‘. (2010). Umumiy psixologiya. Toshkent.
2. Ivannikov V.A. (2006). Психологические механизмы волевой регуляции. Москва.
3. James W. (1890). The Principles of Psychology.
4. Zverkov A.G., Eydman E.V. (1998). Диагностика волевого самообладания.
5. Qodirov B.R., Qodirov R.V. (2003). "Kasbiy tashxis metodikalari to‘plami”.

6. Selivanov V.I, (1992). "Избранные психологические произведения: Воля, ее развитие и воспитание".
7. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy pixologiya. Toshkent, 2008.
8. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. "Umumiy Psixologiya" T.2017.

UDK 373.3.091.3:811.512.133

Sheraliyeva Sayida Faxriddin qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ONA TILI FANIDA QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida ona tili fanini o‘qitishda interfaol metodlarning nazariy asoslari, turlari, qo‘llanish tamoyillari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda interfaol yondashuvning bolalarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni shakllantirish va ijtimoiy muloqot malakalarini oshirishdagi roli ilmiy manbalar va o‘zbek ta’lim tajribasi asosida yoritilgan. Boshlang‘ich sinflarda (1–4-sinflarda) interfaol metodlardan foydalanishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari, afzalliklari va metodik tavsiyalari batafsil izohlangan. Maqolada guruhli ish, rolli o‘yinlar, munozaralar, aqliy hujum va raqamli platformalar (Kahoot, Quizizz) ona tili darslariga moslashtirilgan holda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar ona tili ta’limining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ta’lim jarayonini bolalar uchun qiziqarli hamda faol holga keltiradi.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, boshlang‘ich ta’lim, ona tili fani, nutq rivoji, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar, o‘quvchi faolligi.

АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье анализируется значение интерактивных методов в преподавании родного языка в начальном образовании. Рассматриваются теоретические основы, виды, принципы применения и педагогические возможности этих методов. Особое внимание уделяется их роли в развитии речевых навыков, творческого мышления и социальных коммуникативных компетенций младших школьников на основе научных источников и опыта узбекской системы образования. Подробно описаны психолого-педагогические условия, преимущества и методические рекомендации по использованию интерактивных методов в 1–4 классах. Методы групповой работы, ролевых игр, дискуссий, мозгового штурма и цифровых платформ адаптированы к урокам родного языка. Результаты показывают, что интерактивные методы значительно повышают эффективность обучения родному языку и делают процесс интересным и активным для детей.

Ключевые слова: интерактивные методы, начальное образование, родной язык, развитие речи, творческое мышление, педагогические технологии, активность учащихся.

ANALYSIS OF THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. This article analyzes the importance of interactive methods in teaching the native language in primary education. It examines the theoretical foundations, types, principles of application and pedagogical possibilities of these methods. Special attention is paid to their role in developing speech skills, creative thinking and social communication competencies of primary school students based on scientific sources and Uzbek educational experience. The psycho-pedagogical conditions, advantages and methodological recommendations for using interactive methods in grades 1–4 are described in detail. Group work, role-playing games, discussions, brainstorming and digital platforms are adapted to native language lessons. The results show that interactive methods significantly increase the effectiveness of native language teaching and make the process interesting and active for children.

Keywords: interactive methods, primary education, native language, speech development, creative thinking, pedagogical technologies, student activity.

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy poydevorini yaratadi. Aynan shu bosqichda ona tili fani orqali bolalarda nutqiy madaniyat, o‘qish-yozish ko‘nikmalari va mantiqiy fikrlash shakllanadi. An’anaviy usullar o‘rniga interfaol metodlar – o‘quvchilarning faol ishtiroki va hamkorlikka asoslangan usullar keng qo‘llanilmoqda [1. 12–18-b.]. “Interfaol” tushunchasi “o‘zaro harakat” ma’nosini bildiradi va o‘qituvchining rolini jarayonni boshqaruvchiga aylantiradi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’limni innovatsion texnologiyalar bilan boyitishni talab qiladi [2. 45–52-b.]. Ilmiy tadqiqotlar interfaol metodlar bilim o‘zlashtirish darajasini 20–35 % ga oshirishini ko‘rsatadi [3. 89–95-b.]. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanida bu usullar ayniqsa samarali, chunki 6–10 yoshdagi bolalar o‘yin va faol harakat orqali yaxshiroq o‘rganadilar. Ushbu maqola interfaol metodlarning nazariy asoslarini, turlarini, ona tili darslaridagi qo‘llanish misollarini va amaliy tavsiyalarni yoritadi.

Interfaol metodlar zamonaviy pedagogika va psixologiyaning eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ular o‘quv jarayonini o‘quvchi markazli qilish, bolalarning faol ishtirokini ta’minlash va bilimlarni o‘zaro hamkorlik orqali egallashga asoslanadi. “Interfaol” termini ingliz tilidagi interactive so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zaro ta’sir, hamkorlikdagi faollik degan ma’noni bildiradi. Bu metodlarda o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi, rag‘batlantiruvchi va yordamchi vazifasini bajaradi. O‘quvchilar esa passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi. Bunday yondashuv bolalarning nafaqat bilim olishini, balki shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlaydi.

XX asrning birinchi yarmida shakllana boshlagan interfaol yondashuv ta’limda an’anaviy o‘qituvchi–o‘quvchi bir tomonlama modelini o‘zgartirish zaruratidan kelib chiqqan. Amerikalik pedagog John Dewey faol o‘rganish tamoyilini ilgari

surgan. [4. 32–33-b.]. Uning fikricha, bola faqat tinglab emas, balki o‘z tajribasi orqali, amaliy faoliyat jarayonida bilim oladi. Boshlang‘ich ta’limda ona tili faniga qo‘llaniladigan interfaol metodlar aynan Dyuyning g‘oyalariga asoslanadi. Masalan, rolli o‘yinlar orqali bolalar ertak qahramonlarini ijro etib, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar va bu jarayon ular uchun haqiqiy hayotiy tajriba bo‘ladi. Interfaol metodlarning yana bir muhim nazariy asosi shveytsariyalik psixolog Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasidir. Piaget bolaning aqliy rivojlanishini to‘rt bosqichga ajratgan. [8. 17–19-b.]. Boshlang‘ich ta’lim yoshi konkret operatsional bosqichga to‘g‘ri keladi. Bu davrda bolalar konkret ob’ektlar va vaziyatlar orqali fikrlaydilar. Piagetning konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, bola bilimni o‘zi quradi, ya’ni o‘zining oldingi tajribasi bilan yangi ma’lumotlar o‘rtasida bog‘lanish o‘rnatadi. Interfaol metodlar aynan shu jarayonni faollashtiradi. Guruhli ishlar, “aqliy hujum” va Venn diagrammasi kabi usullar bolalarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish hamda boshqalarning fikrlarini tinglash imkonini beradi. Ona tili darslarida bu nazariya quyidagicha namoyon bo‘ladi: bolalar “So‘z va gap” mavzusida guruh bo‘lib hikoya tuzganda, ular o‘z so‘z boyliklarini faol ishlatib, yangi grammatik qoidalarni o‘z tajribalari orqali o‘zlashtiradilar. Interfaol metodlarning eng kuchli nazariy tayanchlaridan biri sovet psixologi Lev Vigotskyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasidir. [5. 45-48-b.]. Vigotskiy ta’kidlaganidek, bola mustaqil ravishda bajara oladigan vazifalar bilan faqat kattalar yoki tengdoshlari yordamida bajara oladigan vazifalar o‘rtasidagi farq yaqin rivojlanish zonasini tashkil etadi. Interfaol metodlar aynan shu zonani faollashtiradi. Bolalar guruhda ishlaganda bir-birlaridan o‘rganadilar, o‘qituvchi esa faqat yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Ona tili fanida bu nazariya juda muhim. Masalan, 3-sinfda “Ertaklar” mavzusida rolli o‘yin o‘tkazilganda, bolalar dialog tuzishda bir-birlariga yordam berib, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Vigotskiyning fikricha, til nafaqat fikrlash vositasi, balki ijtimoiy muloqot vositasidir. Shuning uchun interfaol metodlar ona tili darslarida bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojini ham ta’minlaydi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida interfaol metodlarning nazariy asoslari milliy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. A. Azizovning “Interfaol pedagogika” asarida bu metodlar o‘quvchi markazli ta’lim sifatida ta’riflanadi va ularni boshlang‘ich sinflarga qo‘llashning pedagogik shart-sharoitlari batafsil yoritilgan. [7. 11-b.]. G.T. Turdiyeva va boshqa olimlar ona tili darslarida interfaol usullarning nutq rivojiga ta’sirini empirik jihatdan tadqiq etganlar. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Harakatlar strategiyasida interfaol metodlarni joriy etish milliy ta’limning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Bu metodlarning afzalligi shundaki, ular bolalarning individual xususiyatlarini hisobga oladi, maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilishi mumkin va fanlararo integratsiyani ta’minlaydi.

Interfaol metodlarning amaliy qo‘llanilishi ularning nazariy asoslariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq boshlang‘ich ta’limda ona tili fanida eng samarali usullar guruhli ish rolli o‘yinlar munozara-bahslar aqliy hujum klasterlash va raqamli interaktiv texnologiyalardir guruhli ish interfaol metodlarning eng keng tarqalgan turidir bu usulda o‘quvchilar 2–6 kishilik kichik guruhlarga bo‘linib umumiy

topshiriqni hamkorlikda bajaradilar guruhli ishning asosiy maqsadi bolalarning o‘zaro muloqotini mas’uliyatni va birgalikda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir 1-sinfda Mening sevimli so‘zlarim topshirig‘i beriladi har guruh 5 ta yangi so‘z topadi va ular bilan oddiy gap tuzadi 2-sinfda Bahor hikoyasi yaratish topshirig‘i beriladi guruhlar 8–10 ta gapdan iborat qisqa hikoya tuzadilar 3-sinfda Ertak davomini yozamiz topshirig‘i beriladi guruhlar Qizil shapkali qiz ertagining davomini yozadilar 4-sinfda Yaxshi va yomon odatlar haqida bahs topshirig‘i beriladi guruhlar fikrlarini yozma va og‘zaki himoya qiladilar guruhli ish bolalarning so‘z boyligini 25–30 foizga oshiradi muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va har bir bola o‘z hissasini qo‘shadi rolli o‘yinlar bolalarning emotsional va nutqiy rivojlanishining eng kuchli vositalaridan biri hisoblanadi bu usulda o‘quvchilar ertak hikoya yoki real hayotiy vaziyatdagi qahramonlar rolini o‘ynaydi 1-sinfda Hayvonlar ertagi o‘yini o‘tkaziladi bolalar hayvonlarni o‘ynab oddiy dialoglar tuzadilar 2-sinfda Mening oilam o‘yini o‘tkaziladi bolalar oila a’zolarini o‘ynab kun tartibi haqida gaplashadilar 3-sinfda Qizil shapkali qiz dramatizatsiyasi o‘tkaziladi to‘liq sahna dialoglar harakatlar bilan ijro etiladi 4-sinfda Yozuvchi bo‘laman o‘yini o‘tkaziladi bolalar o‘zlari yozgan qisqa hikoyani sahnalashtiradilar rolli o‘yinlar nutqiy qo‘rquvni kamaytiradi emotsional rivojni ta’minlaydi va nutq aniqligini oshiradi munozara va bahslar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali usulidir 2-sinfda O‘yinchoqlar kerakmi bahsi o‘tkaziladi bir guruh ha ikkinchisi yo‘q deb dalillar keltiradi 3-sinfda Yozda qishloqqa borish yaxshiroqmi bahsi o‘tkaziladi 4-sinfda Kitob o‘qish yoki telefon o‘ynash bahsi o‘tkaziladi munozara dalillar soni va hurmat bilan tinglash asosida baholanadi aqliy hujum va klasterlash fikrlarni erkin ifoda etish va ularni tartibga solishga yordam beradi 1-sinfda Bahor mavzusida aqliy hujum o‘tkaziladi barcha bolalar bahor so‘zlarini aytadilar keyin klaster chiziladi 4-sinfda Sifat so‘z turkumi klasteri tuziladi raqamli interfaol usullar zamonaviy bolalarga juda mos keladi Kahoot va Quizizz orqali Ot va sifat viktorinasi o‘tkaziladi interaktiv doska yordamida Venn diagrammasi chiziladi Padlet’da umumiy hikoya yaratiladi bu usullar qiziqishni 50 foizga oshiradi va ona tili darslarining 40–50 foiz vaqtini samarali egallaydi.

Interfaol metodlarning pedagogik ahamiyati juda katta chunki ular an’anaviy passiv o‘qitish usullariga nisbatan bolalarning bilim o‘zlashtirishini sezilarli darajada oshiradi masalan passiv ma’ruza va yodlash usullarida bolalar o‘rgangan materialning faqat 20–30 foizini eslab qoladilar holbuki interfaol metodlarda bu ko‘rsatkich 75–80 foizga yetadi bu natija xalqaro tadqiqotlarda isbotlangan masalan UNESCO va ERIC bazasi ma’lumotlariga ko‘ra interfaol yondashuv bolalarning nutqiy faolligini 35–45 foizga ijodiy fikrlash qobiliyatini 25–40 foizga va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini 30 foizga oshiradi O‘zbekiston ta’lim tizimida ham shunga o‘xshash natijalar kuzatilmoqda masalan Farg‘ona va Toshkent viloyatlaridagi maktablar tajribasida interfaol metodlar orqali ona tili darslarida bolalarning so‘z boyligi 28 foizga kengaygan nutqiy madaniyat darajasi 32 foizga yuksalgan va darsga qiziqish 50 foizga oshgan empirik tadqiqotlarda 100 dan ortiq o‘quvchi ishtirokida interfaol usullar passiv usullarga nisbatan o‘quv natijalarini 25–40 foizga yaxshilaganligi aniqlangan interfaol metodlarning asosiy ahamiyati bolalarning

motivatsiyasini kuchaytirishida ular darsni zerikarli ma'ruza emas balki qiziqarli o'yin va hamkorlik jarayoniga aylantiradi masalan rolli o'yinlar orqali bolalar ertak qahramonlari bo'lib nutqiy ko'rquvni yo'qotadilar emotsional rivojlanadilar va ona tilini tabiiy ravishda o'zlashtiradilar guruhli ishlar esa bolalarni mas'uliyatli muloqotga o'rgatadi bir-birlarining fikrlarini hurmat qilish va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi bu ijtimoiy-emotsional intellektni rivojlantiradi va kelajak hayotiga tayyorlaydi interfaol metodlar inkluziv ta'lim uchun juda muhim maxsus ehtiyojli bolalar uchun usullar moslashtirilishi mumkin masalan autizmli bola uchun oddiy rolli o'yin emas balki guruhli ishda qo'shimcha yordam beriladi bu ularni sinfga qo'shilishiga yordam beradi fanlararo integratsiya ham interfaol metodlarning afzalliklaridan biri ona tili darslarida matematika tasviriy san'at yoki atrof-muhit mavzulari bilan birlashtirish mumkin masalan Venn diagrammasi orqali ot va sifatni solishtirish ona tili va matematikani bog'laydi empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki interfaol metodlar bolalarning o'ziga ishonchini oshiradi chunki ular o'z fikrlarini erkin ifoda etadilar va muvaffaqiyatni his qiladilar O'zbekiston maktablarida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida interfaol darslar bolalarning darsga kelish istagini 40 foizga oshirganligi aniqlangan xalqaro tajribada masalan AQSh va Yevropa maktablarida interfaol usullar ona tili ta'limida bolalarning o'qish savodxonligini 30 foizga nutqiy madaniyatini 35 foizga yaxshilagan interfaol metodlarning samaradorligi empirik ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi masalan 2023-yilgi O'zbekiston ta'lim vazirligi tadqiqotida interfaol metodlar qo'llanilgan sinflarda bolalarning ona tili fanidan o'rtacha bahosi 4,2 ballga yetgan passiv usullarda esa 3,1 ball bo'lgan bu farq 30 foizdan ortiqni tashkil etadi shuningdek xalqaro PISA testlarida interfaol ta'lim qo'llanilgan mamlakatlar o'qish va nutq ko'rsatkichlarida yuqori o'rinlarni egallagan interfaol metodlar nafaqat bilim beradi balki bolalarni hayotga tayyorlaydi ular tanqidiy fikrlash hamkorlik va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi bu XXI asr talablariga mos keladi natijada interfaol metodlarning ahamiyati ona tili ta'limini yangi bosqichga ko'tarishida va bolalarning umumiy rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Interfaol metodlarni ona tili darslarida qo'llashda bir qator muammolar mavjud bo'lib ularni batafsil ko'rib chiqib yechimlar taklif etamiz asosiy muammolardan biri vaqt yetishmasligi hisoblanadi chunki interfaol usullar guruhli ish va munozaralar darsning ko'p vaqtini oladi masalan 45 daqiqalik darsda interfaol qism 20–30 daqiqani egallashi mumkin bu esa dars rejasini buzadi yechim sifatida o'qituvchilar darsni oldindan rejalashtirishlari va interfaol usullarni qisqa variantlarda qo'llashlari kerak masalan 10 daqiqalik qisqa guruhli ish yoki 5 daqiqalik aqliy hujum ikkinchi muammo o'qituvchilarning tayyorgarligi ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy usullarga o'rganib qolgan va interfaol metodlarni to'g'ri tashkil etishni bilmaydi bu esa dars samaradorligini pasaytiradi yechim malaka oshirish kurslari va treninglar o'tkazish masalan O'zbekiston ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etiladigan onlayn webinarlar va seminarda o'qituvchilar interfaol usullarni o'rganadilar uchinchi muammo texnika va resurslar yetishmasligi qishloq maktablarida interaktiv doska yoki internet bo'lmasligi mumkin bu raqamli usullarni qo'llashni qiyinlashtiradi yechim bepul platformalardan Kahoot Quizizz yoki

Google Classroom dan foydalanish va davlat dasturlari orqali maktablarni texnika bilan ta'minlash masalan 2023-yilgi Ta'limni rivojlantirish dasturi doirasida maktablarga planshetlar va interaktiv doskalar berilmoqda to‘rtinchi muammo sinf kattaligi O‘zbekiston maktablarida sinf o‘quvchilari 30–40 kishiga yetadi bu guruhli ish yoki munozaralarni tashkil etishni qiyinlashtiradi yechim sinfni kichik guruhlarga bo‘lish va o‘qituvchi yordamchilarini jalb etish masalan ota-onalar yoki yuqori sinf o‘quvchilarini jalb qilish beshinchi muammo bolalarning individual farqlari ba'zi bolalar introvert bo‘lib munozara yoki rolli o‘yinlarda qatnashishni xohlamaydi yechim usullarni moslashtirish masalan majburiy emas balki ixtiyoriy ishtirok va maxsus ehtiyojli bolalar uchun alohida topshiriqlar berish shuningdek o‘qituvchilar bolalarni rag‘batlantirish uchun mukofot tizimini joriy etadilar bu muammolarni hal qilish orqali interfaol metodlar samaradorligini oshirish mumkin O‘zbekiston ta'lim tizimida bu yo‘nalishda ishlar olib borilmoqda masalan 2024-yilgi Milliy ta'lim dasturi interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar ishlab chiqilmoqda va xalqaro loyihalar UNESCO va UNICEF orqali treninglar tashkil etilmoqda natijada muammolarni bartaraf etib interfaol metodlarni keng joriy etish ta'lim sifatini oshiradi.

Interfaol metodlar boshlang‘ich ta'limda ona tili fanini samarali va qiziqarli qiladi ular nafaqat nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi balki bolalarni ijodiy fikrlash hamkorlik va tanqidiy tahlilga o‘rgatadi o‘qituvchilar ushbu usullarni keng qo‘llashlari doimiy malaka oshirishlari va tajriba almashishlari zarur masalan viloyat maktablari o‘rtasida onlayn forumlar tashkil etish orqali eng yaxshi tajribalar tarqatilishi mumkin kelajakda raqamli texnologiyalar bilan yanada chuqur integratsiya yanada yuqori natijalarga olib keladi masalan sun'iy intellekt asosidagi app'lar ona tili darslarini shaxsiylashtirib bolalarning individual ehtiyojlariga moslashtiradi O‘zbekiston ta'lim tizimida interfaol metodlarni to‘liq joriy etish milliy ta'lim standartlarini xalqaro darajaga ko‘taradi va bolalarni zamonaviy jamiyatga tayyorlaydi ushbu tadqiqot natijalari o‘qituvchilar va ta'lim mutaxassislariga amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va interfaol yondashuvni kengaytirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni (2020).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni (2017).
3. Turdiyeva G.T. Ona tili darslarida interfaol metodlar // Ilm-fan xabarnomasi. 2023. № 3.
4. Dewey J. Democracy and Education. New York, 1916.
5. Vigotskiy L.S. Psixologiya. M., 2000.
6. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2022.
7. Azizov A. Interfaol pedagogika. Toshkent, 2018.
8. Piaget J. The Psychology of Intelligence. London, 1950.

UDK 37.091.3:811.411.21

Xabibullayeva Muhayyo,
Xalqaro islom akademiyasi magistranti,
arab tili o‘qituvchisi (maktab, masofaviy ta’lim)

ARAB TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA INTEGRATIV KO‘NIKMALAR MODELINI ISHLAB CHIQISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilini chet tili sifatida o‘qitishda integrativ ko‘nikmalar modelini ishlab chiqishning metodik asoslarini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuvlar til ko‘nikmalarini alohida rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda tilni erkin qo‘llash qobiliyatini shakllantira olmaydi. Integrativ yondashuv esa tinglash, o‘qish, gapirish va yozish ko‘nikmalarini bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Maqolada dars namunasi orqali integrativ modelning amaliy samaradorligi ham ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: arab tili, chet tilini o‘qitish, integrativ ko‘nikmalar, pedagogik metodika.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ МОДЕЛИ ИНТЕГРАТИВНЫХ НАВЫКОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ АРАБСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ

Аннотация. Статья анализирует методические основы разработки интегративной модели навыков при обучении арабскому языку как иностранному. Результаты исследования показывают, что традиционные подходы, ориентированные на раздельное развитие языковых навыков, не позволяют учащимся эффективно применять язык в реальных коммуникативных ситуациях. Интегративный подход предусматривает одновременное развитие навыков аудирования, чтения, говорения и письма. В статье также представлен пример урока, демонстрирующий практическую эффективность интегративной модели.

Ключевые слова: арабский язык, обучение иностранным языкам, интегративные навыки, педагогическая методика.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING A MODEL OF INTEGRATIVE SKILLS IN TEACHING ARABIC AS A FOREIGN

Abstract. This article analyzes the methodological foundations for developing an integrative skills model in teaching Arabic as a foreign language. The research results indicate that traditional approaches, focused on separate development of language skills, do not enable students to effectively use the language in real

communicative situations. The integrative approach aims to develop listening, reading, speaking, and writing skills in an interconnected manner. The article also presents a lesson example demonstrating the practical effectiveness of the integrative model.

Keywords: Arabic language, foreign language teaching, integrative skills, pedagogical methodology.

Til o‘rganish bugungi global jamiyatda nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki madaniy, ilmiy va professional ko‘nikmalarni shakllantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa arab tili, muqaddas matnlar, diplomatiya, iqtisodiyot va xalqaro aloqalar sohalarida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli arab tilini chet tili sifatida o‘rganish talabi jahonda tobora oshib bormoqda [1] . Ammo til o‘rgatishda duch kelinayotgan asosiy muammo shundaki, ko‘pincha til ko‘nikmalari – tinglash, o‘qish, yozish va so‘zlashuv – alohida-alohida mustaqil tarzda o‘rgatiladi. Bu yondashuv talabalar nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirishda yetarli samara bermaydi [2]. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq, tinglash, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini integratsiya qilish orqali til o‘rganish jarayonining samaradorligi oshadi va talabalar kommunikativ kompetentsiyani yaxshiroq egallaydi [3][4]. Integratsiya yondashuvi tilshunoslik nazariyasi nutq ko‘nikmalarining o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi, ya’ni bitta ko‘nikma boshqasini mustahkamlashga xizmat qiladi [5].

Arab tilini chet til sifatida o‘qitishda integrativ yondashuv til o‘rganish jarayoni oldida turgan ko‘plab muammolarni yengillashtiradi va talabalar nutqiy va yozma qobiliyatlarini umumiy ravishda rivojlantiradi[6]. Shu bois, bu maqola arab tilini chet til sifatida o‘rgatishda integrativ ko‘nikmalar modelini yaratish, uning nazariy-metodik asoslarini tahlil qilish va ularni amaliy darslarda qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlanadi.

Maqolaning asosiy maqsadi — arab tilini chet til sifatida o‘rgatishda integrativ ko‘nikmalar yondashuvining samaradorligini aniqlash va uning metodik asoslarini ilmiy jihatdan ko‘rsatishdir.

Maqolaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Til o‘rgatishdagi an’anaviy va integrativ yondashuvlarni nazariy tahlil qilish;
- Integrativ ko‘nikmalar modelining mohiyati va tamoyillarini aniqlash;
- Modelning metodik ko‘rsatmalarini ishlab chiqish;
- Ularni real o‘quv jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar taqdim etish.

Maqolada belgilangan vazifalar orqali nafaqat arab tilini chet til sifatida o‘rgatishning nazariy asoslari aniqlanadi, balki talabalarning nutq, tinglash, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini integratsiyalash orqali samarali rivojlantirish imkoniyatlari ham tadqiq qilinadi. Shu tarzda maqola nazariy tahlil va amaliy tavsiyalarni birlashtirib, pedagogik amaliyotda til o‘rgatish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Til o‘rgatishda samaradorlikni oshirish maqsadida integrativ ko‘nikmalar yondashuvi bugungi pedagogik tadqiqotlarda markaziy o‘rin tutmoqda[3][4]. Bu yondashuv bir vaqtning o‘zida tinglash, o‘qish, yozish va so‘zlashuv ko‘nikmalarini birlashtiradi, natijada talabalar nutqiy va yozma kompetentsiyalarini kompleks rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi[4][5].

Nazariy jihatdan, integrativ yondashuv kommunikativ va kompetensiyaga yo‘naltirilgan metodika asosida shakllanadi[3]. Bunda har bir til ko‘nikmasi bir-birini mustahkamlashga xizmat qiladi: masalan, tinglab tushunish ko‘nikmasi o‘qish va yozish mashqlarini osonlashtiradi, so‘zlashuv esa grammatika va lug‘atni mustahkamlaydi[5]. Shu tarzda, talaba faqat grammatik qoidalarni o‘rganib qolmay, balki tilni ma’noli va muloqotga yo‘naltirilgan tarzda o‘zlashtiradi.

Tilshunoslik va til o‘qitish metodikasi bo‘yicha jahonda tan olingan mutaxassislar, Britaniyada joylashgan Cambridge University professori Jack C. Richards va uning hamkasblari, shu jumladan Theodore S. Rodgers, o‘zlarining *Approaches and Methods in Language Teaching* nomli asarlarida kommunikativ yondashuv va integrativ metodlarning bir-biriga chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydilar. Ular til ko‘nikmalarini kompleks tarzda egallash nazariyasining til o‘rgatish jarayonida samarali natijalarga olib kelishini ko‘rsatganlar[3]. Pedagogik tadqiqotlarda til o‘rgatishning an’anaviy yondashuvlari ham keng tahlil qilingan. Masalan, O‘zbekistonning Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti tadqiqotchisi Dilnoza Mahmudova o‘zining “Zamonaviy pedagogik yondashuvlar” nomli ishida, an’anaviy metodlar ko‘pincha til ko‘nikmalarini alohida bo‘lib o‘qitadi va bu nutqiy kompetentsiyani kompleks shakllantirishga yetarli bo‘lmasligini qayd etadi[2]. Xuddi shu nuqtai nazar, arab tilini chet til sifatida o‘rgatish jarayonidagi murakkabliklar bo‘yicha yirik tadqiqotchilardan biri bo‘lgan Ibrahim Al-Qinai, Ammandagi universitetda til pedagogikasi bo‘yicha yetakchi mutaxassis, o‘z ishida tilning struktur jihatlari bilan birga kommunikativ kompetentsiyani ham murakkab kompleks sifatida tahlil qiladi va an’anaviy metodlarning cheklovlarini ko‘rsatadi[1].

Zamonaviy tadqiqotlar integrativ yondashuvning amaliy samaradorligini ham tasdiqlaydi. Shvetsiya va Indoneziyada olib borilgan ilmiy izlanishlarda til ko‘nikmalarini alohida-alohida emas, balki birgalikda rivojlantirish talabalarni tilning barcha aspektlarida yanada faol va samarali o‘zlashtirishga undaydi[6]. Shu bilan birga, Indoneziya Universitas Negeri Yogyakarta tilshunos olimi Ravi C. Pradhani o‘zining ilmiy maqolasida integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan dars mashqlari real hayotiy kontekstga yo‘naltirilgani sababli talabalar tilni amaliy qo‘llash darajasida sezilarli darajada yaxshilanganini qayd etadi[5].

Nazariy jihatdan integrativ ko‘nikmalar yondashuvi har bir alohida ko‘nikmani boshqa ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘lab, talabalarni tilni strukturaviy, lekin shu bilan birga muloqotga yo‘naltirilgan tarzda o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu yondashuv an’anaviy metodlardan farqli o‘laroq, tilni “faqat grammatikadan iborat narsa” sifatida emas, balki ma’noli muloqot vositasi sifatida egallashga imkon beradi. Shu sababli integrativ metodika bugungi til pedagogikasi uchun asosiy ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, uning qo‘llanilishi talabalar til kompetentsiyasini

kompleks rivojlantirishda samara beradi va bu yondashuv maqolaning keyingi bo‘limlarida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

Til o‘rgatish metodikasida uzoq vaqt davomida an’anaviy yondashuvlar asosiy o‘rin tutib kelgan. Ushbu metodlar asosan grammatik qoidalarni o‘rganish, matnlarni tarjima qilish va lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, til ko‘nikmalarini alohida rivojlantirish tamoyiliga asoslanadi. Til o‘qitish metodikasi bo‘yicha taniqli olimlar Jack C. Richards va Theodore S. Rodgers o‘z tadqiqotlarida bunday yondashuv tilni ko‘proq strukturaviy tizim sifatida o‘rganishga qaratilganini ta’kidlaydilar [3].

Biroq zamonaviy pedagogik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, tilni faqat grammatik qoidalar orqali o‘rganish o‘quvchilarning real muloqot jarayonida tilni erkin qo‘llash qobiliyatini to‘liq shakllantira olmaydi. Chunki muloqot jarayonida til ko‘nikmalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda ishlaydi. Masalan, talaba suhbatni tushunishi uchun tinglash ko‘nikmasi zarur bo‘lsa, o‘z fikrini ifodalash uchun so‘zlashuv va lug‘at boyligi ham bir vaqtning o‘zida faol ishlatiladi. Shu sababli ko‘nikmalarni alohida rivojlantirish o‘quvchilarning umumiy kommunikativ kompetensiyasini yetarli darajada shakllantirmasligi mumkin.

Arab tilini chet til sifatida o‘rgatish sohasida olib borilgan tadqiqotlar ham bu muammoni tasdiqlaydi. Arab tili pedagogikasi bo‘yicha tadqiqotchi Ibrahim Al-Qinai o‘z ilmiy ishlarida arab tilini o‘rganayotgan talabalar ko‘pincha grammatik bilimga ega bo‘lsalar-da, muloqot jarayonida o‘z fikrlarini erkin ifoda etishda qiyinchiliklarga duch kelishini ta’kidlaydi [1, p.35]. Bu holat an’anaviy metodlarning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda ma’lum darajada cheklanganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, til ko‘nikmalarini alohida o‘qitish o‘quv jarayonida bilimlarning parchalanib ketishiga ham olib keladi. Talaba grammatik qoidalarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa ham, ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Natijada o‘rganilgan bilimlar nazariy darajada qolib ketadi va ularning amaliy qo‘llanilishi yetarli darajada rivojlanmaydi. Bu esa o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy til pedagogikasida til ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Integrativ yondashuv aynan shu muammoni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, u til o‘rgatishda tinglash, o‘qish, yozish va so‘zlashuv ko‘nikmalarini yagona tizim sifatida rivojlantirishni nazarda tutadi. Natijada o‘quvchilar tilni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida o‘zlashtira boshlaydilar.

Zamonaviy til pedagogikasida integrativ ko‘nikmalar yondashuvi til o‘rgatish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv tilning asosiy ko‘nikmalari — tinglash, so‘zlashuv, o‘qish va yozishni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Til o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, integrative yondoshuv asosida o’qiydigan o’quvchilar bir vaqtning o’zida bir nechta ko’nikmalarni faol ishlatishga o’rganadilar. [4, p.47]. Integrativ yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u tilni real kommunikativ jarayon bilan bog‘lab

o‘rgatishga imkon yaratadi. Masalan, o‘quvchilar biror matnni o‘qib tushunganidan so‘ng uning mazmuni haqida suhbatlashishi yoki shu mavzu asosida yozma fikr bildirish orqali bir vaqtning o‘zida bir nechta til ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Bunday mashg‘ulotlar til o‘rganish jarayonini yanada faol va samarali qiladi.

Tadqiqotchi K. M. A. Zubair integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar talabalarning nutqiy faoliyatini faollashtirishini va ularning tilni amaliy qo‘llash darajasini sezilarli darajada oshirishini ta’kidlaydi [4, p.45]. Bu esa til o‘rganish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlaydi, bu esa an’anaviy metodlardan farqli o’laroq, tilni realniy hayotiy vaziyatlarda qo’llash qobiliyatini mustahkamlaydi. Qolaversa, o‘quvchi mustaqil fikrlashga o’rganadi. Chunki bunday yondashuvda o‘quvchilar faqat tayyor qoidalarni o‘rganib qolmay, balki turli kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan foydalanishga o‘rganadilar. Natijada til bilimlari yanada barqaror shakllanadi va ularning amaliy qo‘llanilishi osonlashadi.

Tahliliy nuqtai nazardan qaraganda, integrativ yondashuv bir necha jihatdan ustun. **Birinchidan,** u til ko‘nikmalarining o‘zaro bog‘liqligini hisobga oladi. Masalan, o‘quvchi matnni o‘qib tushunganidan so‘ng, uning mazmuni haqida suhbatlashishi yoki shu mavzu asosida yozma fikr bildirish orqali bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘nikmalarni rivojlantiradi [5]. Shaxsiy fikrim, bu jarayon o‘quvchilarda mashqlarni mantiqiy va samarali qo‘llashni o‘rgatadi, shuningdek, ularni o‘z fikrini mustaqil ifoda etishga undaydi. An’anaviy metodlar bu jihatdan cheklangan, chunki ular ko‘pincha faqat grammatik qoidalarni alohida o‘rgatadi [3].

Ikkinchidan, integrativ yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatilganda, ular bilimlarni faqat yodlash bilan cheklanmay, turli vaziyatlarda moslashtira olish qobiliyatini ham egallaydilar [2, p.50]. Men bu fikrni shaxsiy kuzatishim bilan bog‘lab aytmoqchimanki, aynan shunday o‘rgangan talabalar dars davomida ko‘proq faol, qatnashuvchan bo‘ladilar va tilni mustaqil ravishda qo‘llashga tayyor bo‘ladilar.

Uchinchidan, integrativ yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Darslar interaktiv va faol bo‘lganda, talabalar darsga yanada qiziqadi, ularning til o‘rganishga bo‘lgan ichki rag‘bati kuchayadi [6]. Shaxsiy mulohazam shuki, motivatsiya ko‘nikmalarni tezroq va samaraliroq shakllantirishga bevosita ta’sir qiladi.

Tahliliy solishtirish natijasida aniq ko‘rinadiki, an’anaviy va integrativ metodlarning samaradorligi turlicha:

An’anaviy metodlar tilni strukturaviy bilim berish va nazariy bilimlarni mustahkamlash bo‘yicha kuchli, lekin ***muloqotga tayyorlamaydi.***

Integrativ yondashuv esa nazariy va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtiradi, shuning natijasida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi barqaror shakllanadi [4, p.47].

Integrativ metodning eng katta afzalligi shundaki, u tilni real kontekstda ishlatishga yo‘naltirilgan. O‘quvchilar grammatikani biladi, lekin shu bilimlarni real

vaziyatlarda qo‘llay oladi, bir vaqtning o‘zida tinglash, so‘zlashuv, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihat integrativ yondashuvni zamonaviy til pedagogikasi uchun ajralmas metodga aylantiradi. Shunday qilib, integrativ yondashuv til o‘rgatishda samaradorlik, interaktivlik va motivatsiyani oshirish jihatidan an’anaviy metodlardan ustun ekanligi ilmiy va shaxsiy kuzatishlar bilan tasdiqlanadi [5, p.52].

Arab tilini o‘qitishda integrativ dars namunasi

(“Oila” mavzusi A1 daraja)

Birinchi bosqich. Motivatsiya (maqsad: lug‘at va e’tibor faolligi)

Dars boshida o‘quvchilarga oila tasvirlangan rasmlar yoki oddiy savollar beriladi. Masalan: “في أسرتك كم شخصاً؟” (Sizning oilangizda nechta kishi bor?).

Bu bosqich o‘quvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi va mavjud lug‘at boyligini faollashtiradi, shuningdek, ularni darsga faol jalb qiladi.

Ikkinchi bosqich. Tinglash (maqsad: listening – tinglab tushunish)

O‘quvchilarga mavzuga oid qisqa dialog yoki matn tinglatiladi va asosiy mazmunni tushunishga harakat qilinadi.

Tinglash bosqichi o‘quvchilarning tilni eshitish va kontekst orqali tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shu bilan ular yangi so‘z va iboralarni real vaziyatda qanday ishlatilishini o‘rganadilar.

Uchinchi bosqich. O‘qish (maqsad: reading – o‘qish va lug‘at boyitish)

Dialogning yozma shakli o‘quvchilarga taqdim qilinadi, ular yangi so‘z va grammatik birliklarni aniqlaydi. Masalan: هُوَ أَبِي (Mening dadam), أَبُوكَ (Sening otang).

Bu bosqich lug‘at boyligi va grammatikani mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchilar grammatik shakllarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

To‘rtinchi bosqich. Muloqot (maqsad: speaking – gapirish va tinglashni uyg‘unlashtirish)

Juftlik yoki kichik guruhlarda “Mening oilam” mavzusida qisqa dialog tuziladi va savol-javoblar qilinadi.

Bu bosqich og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantiradi, o‘quvchilarni real muloqotga jalb qiladi va tilni samarali qo‘llashga o‘rgatadi.

Beshinchi bosqich. Yozma faoliyat (maqsad: writing – yozma nutq va fikrni ifodalash)

O‘quvchilar o‘z oilasi haqida 4–5 gapdan iborat matn yozadi, egallik zamoni va shaxsiy otlardan foydalanadi.

Bu bosqich fikrni tizimli ifodalash, grammatik shakllarni qo‘llash va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan til bilimlari mustahkamlanadi.

Oltinchi bosqich. Refleksiya (maqsad: mustahkamlash va o‘zini baholash)

Dars yakunida o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladi, savol-javob orqali bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Refleksiya bosqichi o‘quvchilarga o‘z o‘rganish jarayonini anglash va baholash imkonini beradi, dars samaradorligini oshiradi.

Shu bosqichlar orqali o‘quvchilar nafaqat tilning alohida ko‘nikmalarini egallaydilar, balki ularni birlashtirib, real muloqot jarayonida qo‘llashga o‘rgatiladi. Har bir bosqichning o‘z maqsadi va vazifasi mavjud bo‘lib, ular til o‘rganish jarayonini izchil va samarali qiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarga mavzuni chuqur tushunish, grammatika va lug‘atni mustahkamlash hamda o‘z fikrini erkin ifodalash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda dars bosqichlari va ular orqali rivojlantiriladigan ko‘nikmalar hamda grammatik maqsadlar vizual tarzda keltirilgan.

Bosqich	**Faoliyat mazmuni**	**Rivojlantiriladigan ko‘nikma**	**Grammatik maqsad**
Motivatsiya	Oila haqidagi rasmlar va oddiy savollar orqali mavzuga kirish	Mavzuga qiziqish, lug‘at faollashuvi	Mening oilam bilan bog‘liq so‘zlar: أب، أم، أخ، أخت
Tinglash	Qisqa dialog tinglash: “مَنْ هُوَ أَبُكَ؟” va javob berish	Tinglab tushunish	O‘zlik egalik zamoni: هُوَ أَبِي (Mening dadam)
O‘qish	Dialogning yozma shakli bilan ishlash, yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganish	O‘qish, lug‘at boyligi	“Sening otang” – أَبُوكَ, “Uning otasi” – أَبُوهُ kabi egallik shakllari
Muloqot	Juftliklarda qisqa dialoglar: “ مَنْ فِي أُسْرَتِكَ؟” va javoblashish	Gapirish, tinglash	Egallik zamoni, oddiy gap tuzish: أَبِي دَامِرٌ (Mening dadam domir)
Yozma faoliyat	O‘z oilasi haqida 4–5 gapdan iborat matn yozish	Yozish, fikrni tizimli ifodalash	Egallik zamoni, shaxsiy otlar, oddiy gaplar
Refleksiya	Dars yakunida faoliyatni tahlil qilish, savol-javob	Mustahkamlash, fikr almashish	Grammatik shakllarni to‘g‘ri qo‘llash, talaffuzni mustahkamlash

Ushbu maqola arab tilini chet tili sifatida o‘qitishda integrativ ko‘nikmalar modelini ishlab chiqishning metodik asoslarini tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy yondashuvlar asosan grammatik qoidalar va lug‘atni alohida o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda tilni erkin qo‘llash qobiliyatini yetarli darajada shakllantira olmaydi. Shu sababli til ko‘nikmalarini bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuv zamonaviy til pedagogikasining muhim talabi sifatida namoyon bo‘ladi.

Integrativ model orqali o‘quvchilar nafaqat tilni amaliyotda qo‘llash, balki fikrni mantiqiy ifodalash, grammatik shakllarni to‘g‘ri qo‘llash va lug‘at boyligini

kengaytirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, model o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish, va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqotda keltirilgan dars namunasi integrativ yondashuvning amaliy samaradorligini ko‘rsatib, har bir bosqichning pedagogik maqsadi va rivojlantiriladigan ko‘nikmalarini aniq belgiladi.

Shunday qilib, arab tilini chet tili sifatida o‘rgatishda integrativ ko‘nikmalar modeli faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki tilni real muloqot vositasi sifatida o‘rganishni ta’minlaydi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini yanada interaktiv, amaliy va maqsadli qiladi, o‘quvchilarning tilni mukammal egallashiga va ularni kelajakda turli kommunikativ vaziyatlarda erkin foydalanishga tayyorlaydi. Shu sababli integrativ ko‘nikmalar modeli zamonaviy arab tili pedagogikasida eng samarali va lozim usullardan biri sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Qinai, I. (2018). Teaching Arabic as a Foreign Language: Challenges and Approaches. Amman: Jordan University Press. pp. 12-18

2. Mahmudova, D. (2021). Modern Pedagogical Approaches in Arabic Language Teaching. Tashkent: University Press.Toshkent: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, pp 22-28

3. Richards, J., & Rodgers, T. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. Pp. 50-52

4. Zubair, K. M. A. (2024). An Analysis of Integrating Language Skills in Teaching Arabic to Non-Native Speakers. https://www.researchgate.net/publication/386367537_An_Analysis_of_Integrating_Language_Skills_in_Teaching_Arabic_to_Non-Native_Speakers%EF%BF%BD

5. Pradhani, R. C. (2025). An Integrated Approach to Second Language Acquisition. https://thevoiceofcreativeresearch.com/index.php/vcr/article/view/140%EF%BF%BD

6. Ejournal Raden Intan. (2023). Integration of Four Language Skills in Arabic Language Learning. https://ejournal.radenintan.ac.id/index.php/albayan/article/view/18381%EF%BF%BD